

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI**

A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**TARIX FAKULTETI
TARIX O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

O‘ZBEKISTON TARIXI

**fanidan o‘quv-uslubiy majmua
(1-kurs nomutaxassislik yo‘nalishlari uchun)**

Bilim sohasi: 100000 –Gumanitar

Talim sohasi: 10000 –Pedagogika

Talim yo‘nalishi: Bakalavriat yo‘nalishlari uchun

Jizzax – 2019

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201__yil ____ dagi ____ -sonli buyrug'ining ____ -ilovasi bilan fan dasturi ro'yhati tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 201_ yil ____ dagi ____ . -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar: U.S.To'pchiyev, B.N. Mirzayev

Taqrizchilar: **R.Nurqulova** - JDPI Tarix o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti,
F.Toshboyev - JDPI Tarix o'qitish metodikasi kafedrası mudiri, dotsent

O'quv-uslubiy majmua A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Tarix o'qitish metodikasi kafedrası yig'ilishining __.08.2019 ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. (№1 bayonnomaga ega). Institut Kengashida 2019 yil ____ - avgust 1- sonli qaror) ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Tarix o'qitish metodikasi kafedrasining 2019 yil ____ avgustdagi yig'ilishida ko'rib chiqildi (№ 1 bayonnomaga ega) va Tarix fakulteti kengashida muhokama etishga tavsiya etildi.

Tarix o'qitish metodikasi kafedrası mudiri _____ dots. F.Toshboyev

Ushbu O'quv-uslubiy majmua turi Tarix fakultetining 2019 yil ____ avgustdagi kengashida muhokama etilib foydalanishga tavsiya etildi.

Tarix fakulteti dekani _____ A.Pardayev

O'quv-uslubiy majmua A.Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Kengashining 2019 yil ____ - avgust 1- sonli qaroriga ko'ra muhokamadan o'tdi va tasdiqlandi.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i _____ X. Hamzayev

MUNDARIJA

1.Ma'ruzalar matni.....	
2.Seminar mashg'ulotlarining ishlanmalari, tarqatma materiallar, ularni o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyanomalari.....	ash
3.Fan dasturi	
4. Mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha uslubiy tavsiyanomalari	
5.Fanga oid izohli lug'at.....	
6.Ishchi o'quv dasturi	
7.Testlar	
8. Baholash mezonlari.....	

Ma'ruza mavzulari

T/r	Mashg'ulot turi	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1.	Ma'ruza	Kirish. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati	2
2.	Ma'ruza	Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi	2
3.	Ma'ruza	O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari	2
4.	Ma'ruza	Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot.	2
5.	Ma'ruza	IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi.	2
6.	Ma'ruza	Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi - mard va jasur ajdodimiz.	2
7.	Ma'ruza	Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot.	2
8.	Ma'ruza	O'rta Osiyo hudullarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.	2
9.	Ma'ruza	O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari. Jadidchilik.	2
10.	Ma'ruza	Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati (1917-1989 yy.)	2
11.	Ma'ruza	O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida (1989-1991 yy.)	2
12.	Ma'ruza	O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish	2
13.	Ma'ruza	Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.	2
Jami:			26

1-MAVZU: O'ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, UNI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI, MANBALARI VA AHAMIYATI

Reja:

1. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, tadqiqot ob'ekti, nazariy metodologik tamoyillari.
2. O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni.
3. O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari.
4. Har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda O'zbekiston tarixi fanining o'rni.

Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar: Fanning predmeti va ob'ekti, o'quv jarayoni, ijtimoiy fanlar, inson omili, millat o'tmishi, tarixiy makon, voqea-hodisalar, bog'liq fanlar, soha tarixi, inson va tabiat, davrlashtirish, tarixiy manbalar, yozma manbalar, moddiy manbalar, etnografik ma'lumotlar, lingvistik ma'lumotlar, madaniy meros, fanning ahamiyati va vazifalari.

1. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, tadqiqot ob'ekti, nazariy metodologik tamoyillari.

Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o'tmishga oid har xil voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qaerda, qanday holatda yuz berganligi, insoniyatning paydo bo'lishi va uning tadrijiy-evolyusion rivojlanish jarayoni va boshqalarni o'rganadi. SHuningdek, O'zbekiston tarixi umumjahon-insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanib, u olamshumul voqeliklarga juda boy. O'zbekiston tarixi fani mana shu voqeliklarni boshidan kechirgan qadim va yaqin ajdodlarimizning hayoti qanday bo'lganligini, jahon tarixi taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini xolisona va haqqoniy o'rganadi.

Ta'kidlash lozimki, tarixiy, milliy-madaniy, axloqiy va diniy qadriyatlarni o'rganish, tiklash va yangi asoslarda rivojlantirish – yoshlar, ta'lim va tarbiya tizimidagi talabalarning dunyoqarashida milliy g'urur hamda o'zlikni anglash, ular ongida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini yanada mustahkamlash bugungi davr talabidir. Aynan shuning uchun ham Oliy ta'lim tizimida «O'zbekiston tarixi» fanini har tomonlama hamda chuqur o'qitish maqsadida yangi avlod o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratilib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar natijalari o'quv jarayoniga joriy etilmoqda.

Tarixiy haqiqat to'la ro'yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va ob'ektini to'g'ri belgilanishi o'ta muhim ahamiyatga ega. CHunki, O'zbekiston tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va ob'ekt masalasi asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Zero, fan uning o'rganish predmeti va ob'ekti aniq bo'lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo'lib, maqsadga erishish mushkul bo'ladi. Bunday holat o'quv jarayoni samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiyot va tabiat fanlaridan farqli o'laroq mustaqil fan. SHuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o'z o'rni va mavqega ega. U barcha fanlar tarixini ham o'z ichiga olgan holda ularning rivojiga katta ta'sir etadi. Bu uning o'rganish predmeti va ob'ekti hamda vazifasida to'la namoyon bo'lmog'i kerak. Tarix fani o'z xususiyatiga ko'ra, **birinchidan**, o'zining butun diqqat e'tiborini faqat o'tmishga qaratadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, ajdodlarimizning moziyda qolgan hayot tarzini, ular yaratgan moddiy-madaniy, ma'naviy-mafkuraviy qadriyatlarni o'rganadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan ancha aniq fandir. U matematika usulidan keng foydalanadi. Tarixiy voqea va hodisalar qat'iy aniqlikda, davriy ketma-ketlik-xronologik asosda o'rganiladi. SHuningdek, tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, qaerda, qanday tarixiy muhit va sharoitlarda tarixan voqe' bo'lganligi aniqlanadi. Va nihoyat, bo'lib o'tgan voqeliklarning aniq sabab va oqibatlari, shu bilan birga, ularning aniq shakl-shamoyillari va holati aniqlanadi.

Uchinchidan, O'zbekiston tarixi fani mamlakatimiz o'tmishidagi iqtisodiy-ijtimoiy hayotning ahvoli, rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o'rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Bu esa kelajak avlodlar uchun dasturilamal bo'ladi.

To'rtinchidan, O'zbekiston tarixi fani ko'p qirralik va xilma-xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyoti va inqirozlarining faqat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini uzviy o'zaro bog'liqlikda, bir butunlikda o'rganadi. O'zbekiston tarixi fani, O'zbekistonning o'tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechgan voqeliklar, insoniyat hayoti, tabiat va jamiyat taraqqiyoti hamda tanazzulini tahlil qiladi. Uning o'rganish predmetiga esa, mana shu makondagi

jamiki xilma-xil voqea va hodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar hodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi.

Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, butun bir xalqlar, elatlar, millatlar va davlatlarga taaluqli bo'lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixda o'z aksini topadi. Tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, inson har qanday tarixning predmeti hisoblanadi. Har bir voqea, hodisa inson (yoki uning bir guruhi-xalq) hatti-harakati, uning ko'zlagan ma'lum maqsadga intilishi jarayonida sodir bo'ladi. O'zbekiston tarixi fanining o'rganish makoni-ob'ekti O'zbekistonning tarixidir. Tarixiy ob'ekt (makon)ga nisbatan O'zbekiston tarixi fanining maqsadi, vazifasi, yo'nalishi va harakat (faoliyat) doirasi yoki chegarasi belgilanadi. Ma'lum bir ma'noda ob'ekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'rni va vazifasi bilan farqlanadi.

Ob'ekt aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik mintaqaviy chegaralar, ma'lum bir xalq, millat, mamlakat tarixi bilan bog'liq bo'lib, ma'lum hudud doirasidagi voqea va hodisalarning bir butun va yaxlitlikda o'z ichiga oladi. Predmet esa mana shu bir butun ob'ekt ichidagi aniq siyosiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'ladi.

O'zbekiston tarixi fani sifatida ijtimoiy-siyosiy, umuminsoniy fan bo'lib, inson va millat o'z o'tmishini bilishi, o'zligini anglashi hamda kelajagini belgilashida asosiy dasturilamal hisoblanadi. SHu bilan birga, u ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas. Jamiyat, insoniyat va tabiatning o'tmishini o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, arxeologiya, etnologiya, geologiya, antropologiya, demografiya, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo boshqa fanlarning hammasi ham, tabiat, jamiyat ham avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarixi fanlari ham tarix fanining o'rganish ob'ekti va predmeti hisoblanadi.

Tarix fani boshqa, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqa birligida rivojlanadi. SHuning uchun ham, tarixchilar falsafani, adabiyot va tilni, dinshunoslikni va boshqa fanlarni bilmay turib, haqqoniy tarixni to'la yoritib berolmaydilar.

Shuni ham aytish lozimki, tarix bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish ob'ekti bitta ya'ni jamiyatdir. Predmeti esa inson va tabiatdir. SHuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga, tarixiy haqiqatlarning ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. SHuningdek, tarix fani ham boshqa soha fanlari rivojiga katta ta'sir etadi. Ammo, shuni ham ta'kidlash joizki, tarix boshqa fanlarni, shuningdek ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham tarixidir. CHunki boshqa fanlarning hammasi ham, tarix mahsulidir. Qisqa qilib aytganda, tarix fani ya'ni, Vatan tarixi-millat va Vatan kelajagining ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega. Masalaning mohiyati shundaki, **birinchidan**, ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishi har jihatdan tarix fanining naqadar haqqoniy bo'lishiga bog'liqdir. CHunki ular tarix bilan bevosita bog'liq. **Ikkinchidan**, Tarix falsafasi qanchalik to'la va ravon yuzaga chiqsa, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning mazmun va mohiyati hamda ta'sirchanligi ham shuncha yuksak darajada bo'ladi.

Har qanday fan kabi O'zbekiston tarixi fani ham o'zining metodologik ilmiy-nazariy asoslari va tamoyillariga ega. Bular O'zbekiston tarixi fanining asosini tashkil etib, uning rivojlanishi, jamiyat va millat manfaati yo'lidagi nufuzini ortib borishi uchun o'ta muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, ilmiy-nazariy tamoyillar Vatan tarixining haqqoniy yozilishi, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishiga xizmat qiladilar.

Agar tarix insoniyat yashab rivojlanishi uchun ijtimoiy zaruriyat va ma'naviy-ma'rifiy ehtiyoj bo'lsa, tarix fani esa, bu ehtiyojlarni ro'yobga chiqishi uchun ma'sul bo'lgan yuksak intellektual ilmiy-amaliy faoliyatdir. Buning samarali bo'lishi ya'ni, tarix fani rivojlanishida metodologik ilmiy g'oya va nazariyalar hamda usul va uslubiy tamoyillarning ahamiyati benihoya kattadir. CHunki, bular tarixning mazmun va mohiyati hamda falsafasini chuqurroq ochib berishga, shuningdek, tarix fanining maqsad va vazifasini to'laroq ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. SHuning uchun ham O'zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy-nazariy asoslari, g'oya va ta'limotlari nimalardan iborat bo'lishi o'ta muhim masala hisoblanadi. YUrtboshimiz Islom Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta'kidlab, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", "Tarix xalq-ma'naviyatining asosidir" kabi ko'plab tarixiy haqiqatni to'g'ri anglatuvchi o'ta teran fikrlarni olg'a surdi.

Mutaxassislarning fikricha, «tarix» moziyni o'rganish haqidagi fan bo'lib, ilmiy atama sifatida ikki o'zaro aloqadorlikdagi tushunchani ifodalaydi. Birinchidan, tarix jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi fan bo'lib, uning mavzui kishilik jamiyati o'tmishining, uning turli-tuman sohalardagi taraqqiyoti va o'zgarib borish jarayonini o'rganadigan fandır. Ikkinchidan, tarix bu insoniyat to'g'risidagi fan bo'lib, jamiyatning o'tmishini tadqiqot yo'li bilan aniqlab, o'tmishda inson tomonidan yaratilgan, inson zakovatining natijalari bo'lgan jarayonini tadqiq etish va bizgacha bo'lgan davrni o'rganib, kelajak avlodga etkazadigan fandır.

Tarixshunoslikdan ma'lumki, tarixiy jarayon tarix qonunlari bilan asoslanadi. Tarix fanining asosiy tayanch tushunchasini tarixiy asos va tarixiy manba, tarixiy makon va tarixiy zamon tashkil etadi. Soha mutaxassislarning e'tirof etishlaricha, tarix fanini o'rganishdagi eng dolzarb muammo - bu tarixiy voqelik va tarixiy manbalar bo'lib, mana shu ikki muammoga tom ma'noda ilmiy yondashish tarix fanining nazariyasi va metodologiyasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. CHunonchi, har bir fanda bo'lganidek, tarix, jumladan O'zbekiston tarixi fanida ham o'zining nazariyasi va metodologiyasi mavjud. Nazariya – bu ilmiy bilimlar yig'indisi va boshqa fanlar bilan mavjud bo'lgan aloqadorlikni bilish jarayonidir.

Tarixchi olimlar butun insoniyat, millat, xalq va o'rganish ob'ekti (ma'lum mavzu) evolyusiyasini, uning ma'no va mazmunini to'g'ri bilishi, tahlil qila olishi kerak. Agar tarix falsafasi tarixiy voqealıklar tahlilidan kelib chiqadigan haqiqat (xulosa) larning so'zdagi aniq ifodasi bo'lsa, tarix fani metodologiyasi mana shu tarixiy haqiqatlarni ro'yobga chiqishi – tarix haqiqiy yozilishi uchun birdan-bir to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi dasturdir. Eng qisqa va tushunarlik qilib aytsak, umuman metodologiya fanlarning fanidir.

Keyingi paytda O'zbekiston tarixi fani metodologiyasini yaratish imkoniyati paydo bo'ldi. Avvalo, metodologiya haqida to'xtalsak, metodologiyaning lug'aviy ma'nosi grekcha «**Metodos**» va «**Logos**» degan ikki so'z birikmasidan iborat bo'lib, metod, ya'ni, usul – tadqiqot olib borish usuli (yo'li), nazariya, ta'limot, logiya esa fan deganidir. Demakki, metodologiya ya'ni, uslubiyat ilmiy tadqiqot olib borish yoki biror bir masalani ilmiy o'rganishning eng qulay usullari, eng to'g'ri va mukammal g'oyasi, nazariyasi va ta'limotlari majmuidan iborat bir butun fandır. Boshqa ma'noda esa, metodologiya ilmiy bilish yoki ma'lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar haqidagi fandır. Demak, tarix fani metodologiyasi tarixni o'rganuvchi va o'qituvchilarni aniq maqsad sari to'g'ri etaklaydi, ya'ni tarix haqqoniy yozilishi va o'rganilishiga yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Har qanday fanning metodologiyasi xususida gap borar ekan, odatda shu fanga xos metod (usul)lar majumi tushuniladi. Tarix fanini o'qitish metodologiyasi deganda bu yo'nalishdagi ilmiy bilimlarning tuzilishi va rivojlanishi, ularning natijalarini asoslash yo'llarini amaliyotda mazkur fanga xos bo'lgan ilmiy bilimlar mexanizmini samarali tadbīq etilishi tushuniladi. Tarix fani metodologiyasi deganda tarix fanlari doirasidagi ilmiy bilimlarning tuzilishi tamoyillariga, shakli va ilmiy jihatdan tarix fani doirasida qo'llaniladigan ta'limotiga aytiladi. O'zbekiston tarixi fanining fan sifatidagi nazariy-metodologik asoslari o'zida mazkur fanning qonuniyatlari va tamoyillarini, faqatgina shu fanga xos bo'lgan qat'iy tushunchalar majmui va bilish metodlarini o'z ichiga oladi.

Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog'liq bo'lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani qay darajada ekanligiga ham bog'liq. Bu holdagi uzviy va ikki tomonlama bog'liqlik har ikkala yo'nalishning umumiy qonuniyatidir. Mana shu o'zaro aloqadorlik qonuniyatini, mumtoz tarixshunosligimiz va hozirgi zamon sivilizatsion yondashuvlarga asoslangan holda O'zbekiston tarixi fani metodologiyasini quyidagi ikki qismga bo'lish tavsiya etiladi:

1. O'zbekiston tarixi fanining metodologik (uslubiy) ilmiy-nazariy, g'oyaviy-mafkuraviy va falsafiy asoslari. Bunga quyidagilar kiradi:

-Din bilan dunyoviylik o'rtasida mu'tadil munosabat bo'lishi va dunyoviylik aslo dahriylik emasligi;

-Tarixni milliy, umuminsoniy, muqaddas xodisa hamda qadriyat deb tushunmoq;

-Tarixga hozirgi zamon sivilizatsiyasi nuqtai nazari va bag'rikenglik asosida yondashish;

-Tarixiy taraqqiyot asosini evolyusion – tadrijiy yo'l va islohotchilik tashkil etadi deb anglamoq;

-Tarixga milliy mentalitet nuqtai nazaridan o'zgarlar tarixiga hurmat ruhida murojaat etish;

- Tarix, jamiyat va tabiat hamda insoniyat (barcha tarixiy voqelik va jarayonlar) dialektika (Gegel) hamda sinergetika (Prigojin) qonuniyatlari asoslarida rivojlanishi haqiqat ekanligi;

- Tarix milliy va umuminsoniy xotira, millat va xalqlarning joni, tani hamda g'oyaviy-mafkuraviy muhofaza quroli ekanligi.

2. O'zbekiston tarixi fanining metodologik (uslubiy), ilmiy usul va tamoyillari. Ular quyidagilardan iborat:

- Ilmiy xolislik (ob'ektivlik);

- Tarixiy – tahliliylik;

- Mantiqiy – uzviylik;

- Vorislik va xronologik izchillik;

- G'oyaviylik va vatanparvarlik;

- Qiyoslash, kuzatish va umumiyashtirish;

- Baxslashish, munozara yuritish va asoslab berish;

- Matematik hisoblash;

- Shakllash va modellashtirish;

- Ayrimlikdan umumiylikka (induksiya) va umumiylikdan ayrim (juz'iy)likka (deduksiya);

- Etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya, matematika kabi ko'plab yordamchi fanlarning yutuqlari hamda usullaridan ham keng foydalanish;

Bizning tariximiz ham, jahon tarixi ham din (aniqrog'i dinlar) tarixi bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy hayotni dindan, dinni ijtimoiy hayotdan ajratib bo'lmaydi. Agar ajratilsa, tarixga ham, dinga ham mantiqqa ham zid bo'ladi. Ma'lumki, sovet tarix fani tarixni soxtalashtirdi, din ilmga zid, tarixiy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi degan dahriylikka amal qildi. Tarix qanday bo'lsa, uni shundayligicha o'rganish ustivor bo'lmog'i kerak. SHuning uchun ham u din bilan mu'tadil, mutanosiblik asosida o'rganilmog'i hozir eng asosiy zaruriyat bo'lib turibdi. Bu esa, yoshlarni har xil din niqobidagi dinga aloqasi bo'lmagan terroristik guruhlarga adashib kirib qolishlarining oldini oladi, shuningdek, tariximizni haqqoniy va to'la yozilishiga imkon beradi.

Tarixiy-tanqidiylik tamoyili tariximizda qadimdan muarrixlar tomonidan qo'lanib kelingan eng qulay usul hisoblanadi. Bu usul tarixiy voqea va hodisalarning nechog'liq to'g'ri hamda noto'g'riligini aniqlashga, tarixni haqqoniy va to'g'ri yozilishiga yaqindan yordam beradi.

Istiqloq tufayli o'z tariximizni o'zimiz yozish va tarix fani metodologiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ldik. O'tgan davr ichida O'zbekistonning yangi tarixi yozildi va tarix fani jadal rivojlanmoqda. Butunlay yangi ruh va mazmundagi ilmiy qarash (konsepsiya)lar paydo bo'ldi, o'quv qo'llanma va darsliklar, tarixiy asarlar chop etildi. Bu o'rinda yuqoridagi metodologik ilmiy-nazariy asos va ularning ahamiyati katta bo'ldi.

2. O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni.

O'zbekiston tarixi fani va tarixni o'rganishda manbalarning o'rni va ahamiyati behad katta. SHuning uchun ham ular millat va xalqning ma'naviy-madaniy merosi, bebaho madaniy-tarixiy boyligi hisoblanib, maxsus hujjatxona (arxiv)larda, kutubxona va muzeylarda hamda oilaviy arxivlarda juda avaylab, ehtiyotkorlik bilan saqlanmoqda. Xalq og'zaki ijodi orqali tillardan tillarga meros bo'lib o'tib kelayotgan tarixiy voqea va hodisalar bayoni, **normativ** materiallar asosida bizgacha etib kelmoqda. Binobarin, aynan tarixiy manba va yodgorliklar orqaligina tarixni yoritish – tarixiy ma'lumotlarni, dalillarni olish orqali ularni qiyosiy solishtirish va tarixiy umumlashtirish, bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar hamda voqea-hodisalarning sabablari va oqibatlarini, mazmun-mohiyatini tahlil qilish, tahlillar asosida esa ilmiy asoslangan xulosalar berish imkoniyatlari kengayadi.

Tarixiy manbalar davr nuqtai nazaridan qadimiy va joriy (kundalik) ahamiyatga ega bo'ladi. SHuningdek, ular o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi ahamiyat maqomiga ham

egadirlar. Birlamchi manbaga tarixiy hujjatlarning asl nusxasi kiradi. Ikkilamchi manba deb esa, birlamchi manbalarning e'lon qilingan nusxalari, maqola va kitob holatiga keltirilganlariga aytiladi.

Tarixiy manbalarga qadimdan qolgan barcha narsalar, ya'ni, insoniyat qo'li va aql-zakovati bilan yaratilgan barcha moddiy madaniyat buyumlari va ashyolar, inshootlar, yozma yodgorliklar, urf-odatlar, an'analar, tillar kabilari kiradi. Zamonaviy adabiyotlarda O'zbekiston tarixini o'rganishning manbalari shartli ravishda quyidagi oltita guruhga bo'linadi:

1. **Yozma manbalar** – epigrafik yodgorliklar, ya'ni, tosh, metall, suyak va sopolga bitilgan bitiklar, «Avesto», mixxab yozuvlar, qadimgi va o'rta asrlar mualliflarining xabarlarini, graffitlar, ya'ni, qo'l bilan binolar, metall buyumlar, idishlarda qoldirilgan izlar, papirus, pergament va qog'ozlardagi qo'lyozmalar, chop etilgan materiallar.

2. **Moddiy yoki arxeologik manbalar** – arxeologik tadqiqotlar natijasida o'rganiladigan mehnat va jangovar qurollar, hunarmandchilik buyumlari, idishlar, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyimlar, chorvachilik anjomlari, tangalar, san'at buyumlari, me'morchilik inshootlari, uy-joy qoldiqlari, mudofaa inshootlari kabilardir. Moddiy manbalar yozuvsiz zamonlardagi tariximizni tiklash uchun ulkan ahamiyat kasb etadi.

3. **Etnografik ma'lumotlar** – eng qadimgi davrdan boshlab so'nggi o'rta asrlarga qadar odamlarning yashash tarzi va turmushi, urf-odatlar va an'analari, bayramlar va diniy e'tiqodlar, xo'jalik yuritish udumlari, ma'lum kabilalar, elatlar va etnik guruhlariga xos bo'lgan an'analar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

4. **Lingvistik ma'lumotlar** – qadimgi tillarning yozma, badiiy va og'zaki nutqda aks etishi, turli xalqlar tili va lahjasidagi o'xshashliklarning tarixiy ildizlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar xalqlar va elatlarning etnik kelib chiqishi hamda mashg'ulotlari, migratsion jarayonlar, diniy e'tiqodlar, madaniyat, turmush tarzini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

5. **Kinofotohujjatlar** – nisbatan yangi, voqea-hodisalar va ma'lum shaxslar bo'yicha ilgari surilgan fikrlarning tasdig'i hisoblanadi.

6. **Arxiv materiallari** - XIX asrning o'rtalaridan boshlab bugunga qadar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni o'rganishda markaziy va joriy arxivlarda saqlanayotgan ma'lumotlar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy manbalarni o'rganishning o'zi, ya'ni, manbashunoslik - tarix fanining maxsus sohasi bo'lib, tarix fani rivojlanishi va tarix yozilishida o'ta muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda manbashunoslik fani keng rivojlanmoqda. U yuqorida ko'rsatilgan metodologik ilmiy-nazariy, g'oyaviy-mafkuraviy asos va ilmiy usullarga tayanadi.

Manbashunoslik fani asosan tarixiy manbalarni o'rganish bilan mashg'ul bo'lib, manbalarning qimmatini, haqiqiy va haqiqiy emasligini aniqlash bilan birga ularni turkumlarga ajratadi. Masalan, moddiy va ma'naviy yodgorliklar hamda ashyoviy – etnografik, lingvistik va og'zaki (folklor) manbalar shular jumlasidandir. Manbashunoslik manbalarni aniqlash va saralash, ularning ilmiy qimmatini belgilash, tahlil qilish, yaratilish tarixi, shart-sharoitini o'rganish kabi sohalarga bo'linadi.

Xulosa shuki, manbalar tarixiy jarayon va voqealarning o'zida real aks ettirgan bo'lib, tarixiylikning in'ikosi bo'lmog'i kerak. Mana shunda ularning tarixiy ahamiyati, tarixiy ekanligi yuqori bo'lib, tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga yaqindan yordam beradi.

Ma'lumki, tarixni xalq yaratadi. Minglab yillar davomida yaratilgan ushbu tarixni o'qitish va o'rganishda yordamchi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. CHunonchi, arxeologiya, etnografiya, antropologiya, numizmatika, lingvistika, tarixshunoslik, atamashunoslik, sotsiologiya, tarixiy demografiya, tarixiy geografiya, geopolitika, falsafa, o'lkashunoslik, kartografiya, iqtisod, madaniyatshunoslik, dinshunoslik kabi yo'nalishlar yordamchi fanlar jumlasidandir. Lekin, O'zbekiston tarixini yaratishda bir kator yordamchi fanlar ma'lumotlari olimlar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Misol uchun, mavjud o'quv qo'llanmalari va darsliklarning aksariyatida yoritilayotgan mavzuning tarixshunosligi berilmaydi. Mutaxassis talabalar uchun yaratilayotgan darsliklarda qisqacha, ekskurs tarzida ma'lum davr, mavzu va muammo bo'yicha tarixshunoslik yoritib berilsa, kelajakda tadqiqot ishlarini olib borishi mumkin bo'lgan iqtidorli yoshlarimiz uchun foydadan holi bo'lmaydi. SHuningdek, tarixshunoslikdan boxabar bo'lish - yosh olimlarning istiqbolli va dolzarb mavzularni tanlashlari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

4. Har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda O'zbekiston tarixi fanining o'rni.

Taraqqiy etgan millatlarning o'z tarixini yaxshi bilishi va qadrlashi, tarixiy yodgorlik va obidalarini e'zozlashi, ko'z qorachig'idek asrashining ko'pgina sabablari bor. Bu eng avvalo, tarix insoniyat paydo bo'lganidan to hozirgacha davom etib kelayotgan ijtimoiy jarayon oynasi ekanligi bilan bog'liqdir. Ikkinchidan esa, butun insoniyat shu tarixga qarab, o'z o'tmishi va borligini angelaydi, kelajak rejalarini belgilaydi. Boshqacha bir ma'noda tarix buyuk faylasuf va donishmanddir. Uning mana shu dono falsafasini to'g'ri anglagandagina, xalqlar o'z kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Nasroniy (xristian)lik falsafasi asoschisi A.Avgustian (354-430 yy.) hozirgi eramiz boshidayoq, ya'ni bundan bir ming olti yuz yil oldin tarixning xalq va millatning taqdirida tutajak o'rnini ko'rsatib, shunday degan edi; "G'aflatda yotgan xalqni uyg'otish uchun avvalo, uning tarixini uyg'ot". XII asrning buyuk allomasi SHahobiddin Muhammad an-Nasaviy ham bu fikrni o'zining quyidagi sodda ko'ringan to'rtligida yanada teran ma'noda mana bunday bayon etadi:

Kimki tutmas qalbida tarixini,
U inson ham emas, olim ham emas.
Biroq kimki uqsa o'tmishini,
Ko'p boyitar o'z turmushini.

XXI asrga rivojlanishning zamonaviy taraqqiyot yo'li bilan kirib kelgan, boy madaniyati va bebaho ma'naviyatiga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'zining ming yilliklar qa'riga kirib borgan tarixiy o'tmishi bilan alohida o'rin egallaydi. Hozirgi O'zbekiston Respublikasi hududlarida bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlar, turli davrlarda xalq farovonligi va taraqqiyotini ko'zlab o'tkazilgan ko'plab islohotlar, shuningdek, yuksalish va inqiroz holatlari, chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik kurashlari yurtimizning serqirra va rang - barang tarixidan dalolat beradi. SHu bois ham bu tarix eng qadimgi davrdan boshlab ko'p ming yillar davomida ajdodlarimiz va xalqimiz tarixi sifatida nafaqat o'zbekistonlik, balki xorij olimlari tomonidan ham tan olinib o'rganildi, tadqiq etildi va ayni paytda ham shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar izchillik bilan davom etmoqda.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, mustabid sovet davridagi tarixga munosabatdan farq qilgan holda, o'tmish tarixiga munosabat tubdan o'zgardi. Haqqoniy tarixni tadqiq etish boshlanib, avvalo, tarixni davrlashtirishdagi besh formatsiyali noilmiy "izm"lardan voz kechildi. Zero, tarix ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashinuvi bo'lmasdan, balki bir-birini almashtirib va to'ldirib turuvchi, ma'lum xalqlar va elatlar, etnik guruhlar tomonidan yaratilgan sivilizatsiyalar hosilasi hamda zanjiri ekanligi respublika olimlari tomonidan yakdillik bilan e'tirof etildi.

O'zbekiston tarixi fani oldida turgan asosiy vazifa quyidagilardan iboratdir: birinchidan, yoshlarga va bo'lajak mutaxassis kadrlarga chuqur milliy va umuminsoniy tarixiy, g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-nazariy dunyoqarashni singdirish; ikkinchidan, yoshlarda milliy tafakkur, g'urur va o'zlikni, milliy vijdon va umuminsoniy barkomollikni tarbiyalash; uchinchidan, yoshlarda otashin vatanparvarlik va milliy jasoratni, millat va Vatanga sadoqatlikni rivojlantirish; to'rtinchidan, yoshlarga milliy va tarixiy qadriyatlarni e'zozlash, asrab-avaylash ruhini singdirish, ularda yuksak ahloqiy fazilatlar (halollik, poklik, odillik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, kamtarinlik, imon va e'tiqodlik)ni tarbiyalash; beshinchidan, yoshlarni Vatan va xalq, millat, ota-ona, farzand, tabiat va jamiyat oldidagi muqaddas burchlarni chuqur his etish va ularga sadoqatlik ruhida kamol toptirish.

O'zbekiston tarixi fani mana shu yuqoridagilar va bulardan boshqa o'zining xilma-xil imkoniyatlaridan kelib chiqib, komil insonni tarbiyalashga behad katta hissa qo'shadi. Vatan tarixining davlat boshqaruvi va qurilishida, jamiyat va insoniyat taraqqiyotida, millat va xalq hayotida tutgan o'rnini hamda ahamiyati benihoya katta ekanligi qadim-qadimdan e'tirof etib kelinmoqda. Bunga tariximizning o'zi guvoh. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, tarixning bu ajoyib xislati va tarbiyaviy ahamiyati, kuch-qudratini barchamiz teran his etishimiz va anglab etmog'imiz lozimdir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: SHarq, 1998.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004. – B.18-21.
6. Eshov B. O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalalari. // O'zbekiston tarixi fanidagi innovatsiyalar. – Toshkent: Noshir, 2012. B.278-385.
7. SHamsutdinov R., Karimov SH. Vatan tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent, SHarq, 2010. (Lotin alifbosida).

2-mavzu. Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi

Reja:

1. O'rta Osiyo dunyoning ilk sivilizatsiya markazlaridan biri sifatida.
2. O'zbekiston hududida tosh davri moddiy madaniyati.
3. O'zbekiston hududida eneolit, bronza va ilk temir davri.
4. Antropogenez jarayonlari.

Tayanich so'z va iboralar:

Sivilizatsiya tushunchasi; paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza asri, temir asri antropogenez jarayoni, davlatchilik tushunchasi, diniy e'tiqod, zardo'shtilik.

Qadimgi taraqqiyot (sivilizatsiya) tushunchasi. Qadimgi taraqqiyotning shakllanishi. Qadimgi odamlarning dastlabki makonlari. Selengur, Ko'lbuloq, Teshiktosh va boshqa manzillar. Olov va o'q-yoyning kashf etilishi).

«**Sivilizatsiya**» so'zi nisbatan yaqinda, 2 asr muqaddam, fransuz ma'rifatchilari tomonidan ilmiy iste'foga kiritilgan, ular bu ibora orqali hur, ozod, odil, huquqiy tizimga ega grajdanlik jamiyatini ifoda qilganlar. Lotincha «civilis» Qadimdan grajdanlik, ya'ni harbiylashmagan jamiyat ma'nosida tushunilgan.

Keyinchalik bu so'z turlicha, keng mazmunda ishlatiladigan bo'lib ketdi. Masalan, Amerikalik antropolog L. Morgan, uning ketidan nemis olimi F. Engels odamzod tarixidagi sivilizatsiyani yovvoyilik, vaxshiylik va yarim vaxshiylik davridan keyin kelgan ijtimoiy tizimi shakllangan, ijtimoiy tabaqa va sinflar, Davlatlar, xususiy mulkchilik tashkil topgan inson jamiyati rivojining muhim bosqichi sifatida anglaganlar. Ingliz tarixchisi A. Toynbi sivilizatsiyalarni hududiy madaniy-tarixiy taraqqiyot ko'rinishi deb hisoblagan.

Sivilizatsiyaning boshlanish nuqtasi va asosiy obyekti-bu insondir. Odam tabiat ne'matlaridan o'z extiyoji uchun foydalanishga va uning ustidan o'z hukmronligini o'tkazishga intiladi. Sivilizatsiya-bu odamning komillik, yetuklikka intilish belgisidir. Al-(Forobiy «Fozil shahar aholisining maslagi» asarida shunday deydi: «har-bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishishga harakat qiladi». Alloma o'zining boshqa risolasida «Davlatning vazifasi-insonlarning baxt-saodatga olib borishdir. Bu esa ilm va yaxshi ahloq yordamida qo'lga kiritiladi», deb ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib o'zining mashhur «**Qutadg'u bilig**» kitobida jamiyatning muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish, unga takomil baxsh etishning insonning asosiy burchi deb biladi. Buning uchun avvalo ilm va uni xayotga tabiiq etish muhimligini uqtiradi. Uning suyukli qahramoni aql va bilim egasi bo'lgan. Alisher Navoiy komillikni insonni ma'rifatli bo'lishida, yuksak ma'naviyatida, adolatning tantanasida va nihoyat, xalq va yurtboshining o'zaro sadoqatidadir, deydi. Fransiya donishmandlari aql va adolatga asoslangan jamiyatni sivilizatsiyaga erishgan mamlakat deb hisoblaganlar. Mashhur nemis olimi Gegel esa sivilizatsiyani ma'naviy-ruhiy madaniyatning moddiy-texnik asosi, deb tushungan.

Ko'rinib turibdiki, sivilizatsiya zamirida aql-zakovat, farosat, xayotga ijodiy yondashish, betinim mehnat kabi fazilatlar mujassam. Shuning uchun ham ko'pchilik lug'atlarda sivilizatsiya so'zi ijtimoiy taraqqiyot, moddiy va ma'naviy madaniyat darajasi deb talkin etiladi.

Qadimgi odamlarda ongning paydo bo'lishi, fikrlash qobiliyatining vujudga kelishi juda uzoq va g'oyat murakkab jarayon bo'lgan. Bu haqda olimlarda turli muloxazalar mavjud, ammo aniq bir narsa ayonki, yashashga intilish, jon saqlab qolish, tirikchilik qilish qadimgicha fikr qilishga, qiyoslash va takkoslashga majbur etgan.

Hozirgi zamon odamiga o'xshash kishilar shakllanganiga ham uzoq ming yillar utibdi. Es-hushli odam (Homo Sapiens) ning shakllanish jarayoni murakkab sharoitlarda muhim boskichlardan o'tgan. Bu

davrda eng muhimi anglash vositasi bo'lgan inson miyasining shakllanishi edi. Ko'pchilikka ma'lumki, inson miyasi maymunlar miyasiga qaraganda 4-5 marta kattadir. Bilamizki, har-bir mahluq sezgi organiga ega. Lekin, faqat odamzod atrof muhitni anglash, idrok etish, xulosalar chiqarish, tabiatning ayrim elementlarini o'z manfaatlariga moslash, qulayliklar yaratishdek nodir ne'matga sazovor bo'ldi.

Markaziy Osiyoning qulay geografik sharoiti ibtidoiy davrning dastlabki bosqichlaridanoq kishilar diqqat e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Hozirgi O'zbekistonning Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo bo'ylaridan, Farg'ona vodiysi va uning tog' yon bag'irlari hududlaridan, Ohangaron va Chirchiq daryolari atrofidan shuningdek Janubiy Qozog'istonning, Qirg'iziston va Janubiy Turkmanistonning tog' va tog' oldi tumanlaridan ibtidoiy jamoa tuzumining barcha davrlariga oid yodgorliklari topilgan. O'rta tosh davriga mansub ibtidoiy kishilar manzilgohlari Markaziy Osiyoning ko'p joylarida uchraydi. Demak, aholi bu paytlarda yurtimizda keng tarqalgan bo'lib, kishilar turmushida va mehnat qurollarida yangi unsurlar paydo bo'la boshlagan. Endi ular ibtidoiy tudadan urug'chilik jamoasiga o'ta boshlaydilar. Ana shu davrda o'lkamizda hozirgi zamon odamlariga o'xshash kromanonlar paydo bo'ldi. Ular tinimsiz mehnat natijasida aqliy va jismoniy jihatdan rivojlandilar va biologik xususiyatlari o'zgarib bordi. Mehnat qurollari takomillashadi, nutq madaniyati o'sib, fikrlash ancha oshadi. Olov sun'iy tarzda yaratiladi, ovchilik ancha rivojlanib keng hududlarga tarqaladi.

Qadimshunos olimlar U.Islomov, A.Askarov, A.Sagdullayev o'z tadqiqotlarida mintaqamiz tarixining eng asosiy sanalari to'g'risida to'xtalib, quyidagi muhim voqealarga diqqatni tortadilar.

O'zbekiston hududida odamzodning paydo bo'lganidan 1 million yilga yaqin vaqt o'tgan. Eng qadimgi ajdolarimizning izlari Farg'ona viloyati So'x tumani Selungur g'oridan topilgan. Olimlar uni «**Fergantrop**» ya'ni Farg'ona odami deb atadilar. Surxandaryo viloyati Boysun tumani Teshiktosh goridan neandertal odam bolasining qabri topilgan. U bundan yuz ming yil burun yashagan deb taxmin qilinadi».

Odamzod tarixida bundan 40-35 ming, yil oldin ona urug'i (matriarxat) davri boshlandi. Ona urug'i yuqori paleolit, mezolit, neolit va eneolit davrlarida hukmronlik qilgan. Shu davrlarning ilk bosqichida yevropali, negrsimon va mo'g'ulsimon irqalar shakllandi. Bu jarayonda har bir urug' va irq tarkalgan mintaqalarning tabiiy-geografik sharoitlari o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bundan 35-12 ming yil muqaddam yurtimizda tarixiy san'at vujudga kela boshladi. O'q-yoy mezolit davrining dastlabki bosqichida ixtiro etilgan. Demak bu kashfiyot 12-10 ming yil burun paydo bo'lgan va insoniyat tarixida katta o'rin tutgan.

Hozirgi kunga kelib Vatan tarixiga bo'lgan diqqat-e'tibor nihoyatda kuchaygan bir davrda, O'zbekiston hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligiga hech qanday shubha qolmadi. Nafaqat O'zbekiston, balki, butun O'rta Osiyo xududlarida olib borilayotgan keng maqsaddagi tadqiqot ishlarining natijalari ham Vatanimizning jahon sivilizatsiyasida tutgan yuqori o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning tarixning turli davrlarida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishilgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishini sivilizatsiya tushunchasi o'zida aks ettiradi. Bu tarakkiyot bosqichi insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, jamiyat rivojlanish darajasi, moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan izohlanadi.

O'rta Osiyo sivilizatsiyasi turli xududlarda turli davrlarda paydo bo'ldi va rivojlandi. Misol uchun, janubiy xududlarda yashagan qadimgi qabilalar miloddan avvalgi VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o'tib, unumdor xo'jalikni rivojlantirgan bo'lsa, bu davrda shimoliy xududlardagi qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug'ullanganlar. Bu notekslilik jarayonini tabiiy-geografik sharoitlar va o'zaro munosabatlar bilan izoxlash mumkin.

Undan tashqari O'rta Osiyoda turli-tuman madaniyat yaratgan qadimgi aholining neolit davridiyoq, ya'ni, miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklardagi o'zaro munosabatlari va bu aholining Sharqdagi, dastavval, Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o'choqlari bilan uzviy aloqada bo'lishi ham mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyatni taraqqiyotdagi eng uzoq davom etgan va eng qadimgi davridir. Bu davrni chuqur o'rganishda arxeologiya, etnografiya, antropologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi odamlar o'z faoliyati davrida atrof muhitga ta'sir ko'rsatib, kundalik hayotda o'ziga

bo'ladigan mehnat qurollari yasagan, yashash uchun makonlar tanlagan, keyinchalik esa boshpanalar qurganlar. O'z navbatida bu jarayonlar inson faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan.

Hozirgi paytda O'rta Osiyo xududi ibtidoiy jamiyat rivojlanishining aloxida bosqichlari quydagi davrlarga bo'linadi:

1. Paleolit davri: bundan taxminan 800 ming yil ilgari boshlanib, 15-12 ming yil ilgari tugaydi;
2. Mezolit («mezos»-o'rta, «litos» -tosh) mil.avv. 12-7 ming yilliklar
3. Neolit («neos»-yangi, «litos»-tosh) -mil.avv. 6-4 ming yilliklar.
4. Eneolit (mis-tosh davri)-mil.avv. 4 ming yillikning oxiri-3 ming yillikning boshi.
5. Bronza asri-mil.avv. 3-2 ming yilliklar
6. Temir davri-mil.avv. 1-ming yillikning boshlaridan

O'zbekiston xududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgohlari Farg'ona vodiysidagi Selungur, Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qo'pol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamoa bo'lib ov qilish bilan shug'ullanishgan. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi odamlardan farq qilishgan. Ular tabiat oldida o'z bo'lib, unda tayyor bo'lgan mahsulotlarni o'zlashtirganlar.

Ilk paleolit, ya'ni ashel' davrining oxirlarida yashagan odamlarning manzilgohlari Qoraqalpog'istonning Ustyurt tekisligidagi Borsakelmas degan yerdan ham topib o'rganilgan.

O'rta paleolit davri makonlari Toshkent vohasidagi Obirahmat, Ho'jakent, Samarqanddagi Omonqo'ton, Boysun tog'laridagi Teshiktosh makonlaridan topilgan. Mashhur yodgorliklarning biri Teshiktosh g'or makoni bo'lib bu yerdan turli-tuman qurollar va hayvon suyaklaridan tashqari, 9-10 yashar bolaning qabri qozib ochildi.

O'rta paleolit davriga kelib ibtidoiy jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashdi. Eng muhimi, ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tish boshlanadi. Shimoldan ulkan muzlik siljib kelishi natijasida olov kashf etiladi. Jamoa bo'lib ov qilish paydo bo'ldi.

So'nggi paleolit davriga oid makonlar Ohongarondagi Kulbuloq, Toshkentning g'arbidagi Buzsuv 1 hamda Samarqand shahridan topilgan.

Bu davrga kelib odamlar faqat tog'li hududlarga emas, tekisliklarga ham tarqala boshlaydilar. Bu davrning eng katta yutugi urug'chilik tuzumiga (matriarxat) o'tilishidir.

Mezolit davri yodgorliklari Surxondaryodagi Machoy g'or-makonidan, Markaziy Farg'onaning ko'pgina yodgorliklaridan topib o'rganilgan. Bu davrga kelib muzlik yana shimolga qaytadi. Hayvonat va o'simlik dunyosida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Insoniyat o'z tarixidagi dastlabki murakkab moslama-o'q-yoyni kashf etadi.

Mezolit davri qabilalari asosan ovchilik va termachilik xo'jaligi yuritganlar. Bu davrning oxirlariga kelib dastlabki uy chorvachiligi yoki hayvonlarni xonakilashtirish boshlanadi.

Qoraqalpog'istonda mezolit davri makonlari Orol dengizi atrofidagi Ustyurt balandligida va Qizilqum cho'lida bor. Ustyurtdagi mezolit makonlari mil.avv. 8-6 ming yilliklarga oid. Qizilqum cho'lidan topilgan mezolit davri yodgorliklari mezolitning so'nggi bosqichlariga va o'rta tosh davridan yangi tosh davriga (neolitga) o'tish davriga tegishli.

Neolit davriga kelib qadimgi qabilalar hayotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davr odamlari baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik hamda qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Eng katta yutuqlardan biri kulolchilikning paydo bo'lishidir. Shuningdek, bu davrga kelib to'qimachilik va qayiqsozlik ham paydo bo'ladi. Neolit davri qabilalari xo'jalik shakllariga qarab quydagi madaniyatlarga bo'linadi: Jaytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Hisor madaniyati

Joytun madaniyati. Janubiy Turmaniston xududi mil.avv. VI-V ming yilliklarga oid madaniyat. Bu yerdan O'rta Osiyodagi birinchi paxsa uylar qoldiqlari, sopol idishlar na'munalari aniqlangan. Aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va qisman ovchilik bilan shug'ullangan.

Kaltaminor madaniyati. Qoraqalpog'istonning janubidan topilgan bo'lib mil.avv.V-IV ming yilliklarga oiddir. Kaltaminor qabilalari baliqchilik, ovchilik va qisman hunarmandchilik bilan shug'ullangan.

Hisor madaniyati. Asosan, Xisor-Pomir tog'laridan topilgan. Mil.avv.V-IV ming yilliklarga oid.

Qoraqalpog'istonda yangi tosh (neolit) davri odamlari faqat dare sohillarinigina emas, balki Kizilkumning va Ustyurtning ichki xududlarini ham o'zlashtira boshlaganlar.

Qoraqalpog'istondagi yangi tosh (neolit) davri yodgorliklari Amudaryoning qadimgi Oqchadarem del'tasida (hozirgi To'rtkul tumani xudidan boshlab Taxtakupir tumani hududigacha bo'lgan oraliqda) va Ustyurt balandligida saqlangan.

Eneolit-mis-tosh davrida odamlar dastlabki metal bilan tanishdilar.

Bu davrga kelib dehqonchilik Urta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlariga ham yoyiladi.

Hozirgi kunda ibtidoiy jamoa tuzumining turli bahslarga sabab bulayotgan muammolaridan biri- antropogenez-odamning paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Fan insoniyat hayvonat olishdan ajralib chiqqan degan fikrni ilgari suradi. Insonning paydo bo'lishi millionlab yillar davom etgan rivojlanish jarayonining natijasidir.

O'rta tosh davrida, birinchi navbatda mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofadagi odamlarga aylana boshladilar. Ular jismoniy jixatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni tugadi (kroman'on ko'rinishidagi odamlar). Odamning paydo bo'lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo'lib, u dastlab toshdan oddiy to'qmoq yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan, g'orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so'nggi paleolit davriga oiddir. O'rta Osiyoda g'orlar, ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Birinsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ulardan ibtidoiy buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayron kabilardir.

Eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxondaryo) bo'lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni, mil.avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo'lgan. Mil. avv. III ming yillikka kelib O'rta Osiyo xududlarida ham bronza qurollar keng tarqaladi. O'zbekiston xududlarida bronza davri yodgorliklari ko'plab uchraydi.

Ulardan eng yiriklari Tazabog'eb, Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo'tan, Churs, Amirabod yodgorliklaridir. Bronza davrida kishilik jamiyati madaniy tarakkiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholi xo'jalik yuritishning muayyan ko'inishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar, daryolar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dasht va tog'oldi xududlarida chorvachilikka (mehnatning dastlabki yirik taqsimoti) o'tib oldi.

Bu davrga kelib O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. Urug'chilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan bilsada, ona urug'ining mavqeyi yo'qolib bordi. Metall eritish va xujalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnat va mavqeyi birinchi darajali ahamiyatga eg'a bo'lib bordi.

Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish erkaklar qo'liga o'tadi va ona urug'i tuzumi o'rnini ota urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi dastlab mulkiy tabaqalanish, keyin esa ijtimoiy talabaqalanish natijasida urug'chilik tuzumi harobalarida sinfiy jamiyat paydo bo'ladi.

Qoraqalpog'iston xududida bronza davrining eng yirik yodgorligi bu Tazabog'eb madaniyati deb nomlangan yodgorlikdir. Tazabog'eb madaniyati mil. avv. 2 ming yillikning o'rtalariga oid bo'lib u Qoraqalpog'istonning sug'orma dehqonchilik rivojlangan.

Bronza davrining oxirida yerni sug'orib ekish yanada rivojlandi. Qoraqalpog'istonning janubida hozirgi Turtkul tumani xududida Amirobod deb nomlangan yodgorlik qoldiqlari topilgan. Bu yerdan tarixchi-arxeologlar uzunligi bir kilometrga yetadigan sug'orish kanallari izlarini topganlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Yer yuzida odam qachon va qayerda paydo bo'lgan?
2. Hozirgi O'zbekiston hududidan topilgan odam qaysi davrga taalluqli va odamning qaysi turiga mansub?
3. So'nggi paleolitning buyuk o'zgarishlarini sanang...

4. Sivilizatsiya tushunchasiga ta'rif bering...
5. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik nima va qaysi davrga xos?
 6. Joytun va Kaltaminor madaniyatlariga qaysi makonlar kiradi?
 7. Birinchi mehnat taqsimoti nima va u qaysi davrda paydo bo'ldi?
 8. Zamonaviy qiyofadagi odamlar qanday nom bilan ataladi?

Adabiyotlar:

1. Karimov. I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: SHarq, 1998.
2. «Avesta». «Yasht» kitobi. O'zbek tiliga M.Isxokov ilmiy-izoxli tarjimalari. G.: Sharq, 2001.
3. Arxivovskiy A. Arxeologiya asoslari. T.: 1970.
4. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T.:1990.
5. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. - T.: Yangi asr avlodi, 2005 (lotin alifbosida).
6. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. - T.; Akademiya, 2010.
7. Eshov B., Odilov A. O'zbekiston tarixi. I jild. Eng kadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha. Darslik. - T.: YAngi asr avlodi, 2014.
8. O'zbekiston tarixi. Darslik II jild. Mualliflar jamoasi. - T.: Yangi asr avlodi, 2015.
9. www. Ziyonet.uz.

3-mavzu. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari

1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Sug'diyona.
2. O'rta Osiyo Axmoniylar va Yunon-makedon hukmronligi davrida.
3. Salavkiylar, Yunon Baqtriya, Qang', Xorazm va Dovon davlatlari.
4. Kushon davlati davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Tayanch so'zlar, iboralar va tushunchalar:

Ilk davlatlar paydo bo'lishi, Qadimgi Baktriya, Xorazm, formatsion yondashuv, sivilizatsion yondashuv.

1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharontlari va omillari. Ilk Shaharlar va davlatlar. Qadimgi Xorazm, Baktriya Sug'diyona.

Davlat boshqaruvining paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim muvaffaqiyat va sifatiy yangi bosqich bo'ldi. Dunyo tarixidagi qadimgi davlatlarning paydo bo'lishi va takomillashuvida O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarda yashagan xalqlarning ham hissasi katta bo'ldi.

Dunyo tarixida Shaharlar, siyosiy birlashmalar, uyushmalar, keyinroq esa davlatlarning paydo bo'lishi uzoq davom etgan jarayondir. E.V.Rtveladzening fikricha, bu jarayon turli xalqlarda turli yo'llar bilan bo'lib o'tgan.

Birinchi, davlatlar paydo bo'lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan «Sharq yo'li» bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini sug'orma dexqonchilik tashkil etgan; dexqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zarauriyati prinsipial boshqaruvchilarni taqazo etgan.

Ishlab chiqarishning osiyocha usuli mil.avv. IV ming yillikdan milodiy I asrgacha yirik daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo kabi hududlarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining ikkinchi, «Evropacha yo'li» Evropa hududida mil.avv. V asrdan boshlab milodiy III asrgacha qadimgi Yunon polislari mavjud bo'lgan. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqalanish jarayoni (tabaqalar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo'ldi.

Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi – dastlabki Shaharlar va davlatchilikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib O'rta Osiyoning juda ko'plab bronza va ilk temir davri yodgorliklaridan (Anov, Sopolli, Jarqo'ton, Qiziltepa, Ko'zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, CHust, Dalvarzin

va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo‘jalik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan metall qurollar topib o‘rganilgan. Mehnat qurollarining metallardan ishlanishi mehnat unumdorligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

So‘nggi bronza davriga kelib hunarmandchilikning ixtisoslashuvi va alohida xo‘jalik tarmog‘i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, asosini ilk Shaharlar tashkil etgan davlatchilikning paydo bo‘lishi uchun muhim bo‘lgan qo‘shimcha mahsulot ko‘payishiga turtki bo‘ldi. Ilk davlatlarning paydo bo‘lishida ilk Shaharlardagi o‘zaro ayirboshlar, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. So‘nggi bronza davriga kelib Shimoldagi ko‘chmanchi chorvador kabilalar va janubdagi o‘troq dexqonchilik aholisi o‘rtasida o‘zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqalar yanada jadallashadi. Janubiy va Shimoliy hududlaridan topilgan topilmalardagi juda ko‘pgina o‘xshashliklar bu hududlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan, qadimgi yo‘llarning taraqqiy etganligidan dalolat beradiki, bu jarayonlar ham dastlabki Shaharlar bilan birga ilk davlatchilikning asosiy omillaridan hisobalanadi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyoda eng qadimgi davlatlarning shakllanish jarayoni dexqon-chorvachilik iqtisodiyoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik va Shahar markazlarining paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liqdir. Hozirgi kunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bu hududlarda ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning ayrim muhim masalalarini yangi asosda izohlashga imkoniyat yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan bu masala to‘liq echimini topmagan bo‘lib, xususan, O‘rta Osiyo qadimgi davlatlari tipologiyasi va xronologiyasi, davlatchilik taraqqiyotida ilk Shaharlarning ahamiyati muammosi shular jumlaschidandir.

XIX asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar olib borilgan “Avesto” ma’lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo‘yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari (“Katta Xorazm”), Shuningdek Ktesiyning Qadimgi Baqtriya davlati haqidagi ma’lumotlari va nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi muammolarini o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi bronza va ilk temir davriga kelib aholi soni va zichligining o‘sib borishi, hosildor er maydonlarining o‘zlashtirilishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning jadallik bilan rivojlanishi aholi joylashuvining hayotiy zarur hududlarga bo‘linib ketishiga olib keladi. Bunday sharoitda chorvador aholining ma’lum bir qismi xo‘jalikning yarim o‘troq va chorvachilik shakliga o‘tishga majbur bo‘ladilar. Shuning uchun ham O‘rta Osiyodagi mill.avv.VI-IV asrlarga oid ko‘chmanchilar yodgorliklari o‘troq aholi hududlari chegaralarida (Orolbo‘yi, Shimoliy Turkmaniston, Zarafshonning quyi oqimi, Pomir va boshq.) joylashganligi tasodifiy hol emas.

A.Sagdullaevning fikricha, Aryoshayona kabi viloyatlar uyushmasi vaqtinchalik va qoloq bo‘lib, Qadimgi Baqtriya kabi nisbatan yirik siyosiy uyushmalarining paydo bo‘lishiga O‘rta Osiyo o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi doimiy siyosiy qarama-qarshiliklar sabab bo‘ladi.

Aholi aralash joylashuvi hududlarida o‘troq viloyatlar siyosiy uyushmalarining shakllanishiga turtki bo‘lgan omillardan biri - O‘rta Osiyoning janubidagi dasht hududlarda joylashgan ko‘chmanchi kabilalar hujumi xavfli edi. Mil.avv.VII-VI asrlarga kelib bunday hujumlar tez-tez bo‘lishi muqarrar edi. Chunki, O‘rta Osiyoning ko‘pgina tog‘ va dasht hududlarida yilqichilik keng tarqalib, ko‘chmanchilarning o‘zlari esa katta jangovar muvaffaqiyatlarga erishib, jiddiy xavf tug‘dira boshlaydilar.

Mil.avv.VIII asrning oxiri – VII asrga kelib O‘rta Osiyoning janubidagi qishloqlar rivojlanishiga jadallik bilan o‘zgarishlar boshlanib Baqtriya va So‘g‘diyona hududlarida o‘zida Shaharsozlik belgilarini (mustahkam devorlar, saroylar, burjlar, xandaqlar, devorlardagi o‘q otish yo‘laklari va boshq.) aks ettiruvchi makonlar paydo bo‘ladi. Ilk temir davriga oid bunday manzilgohlarning soni Baqtriya, Marg‘iyona va So‘g‘diyona 20 tadan ziyodroq. Asosiy manzilgohlar esa (maydoni 5 gadan kam) qishloq qo‘rg‘onlari, uchun katta bo‘lmagan alohida qal’alar va dexqonchilik qishloqlaridan iborat. Shaharlar turiga kiritish mumkin bo‘lgan, kattagina qo‘rg‘onli mustahkamlangan manzilgohlar ayrim qadimgi dexqonchilik viloyatlarida (Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari va boshq.) bitta yoki ikkitadan ko‘p bo‘lmagan.

Hozirgi Afg‘onistonning Shimoli-Sharqi, O‘zbekistonning janubi va Tojikistonning janubi-g‘arbida joylashgan hududlar turli Yozma manbalarda Bahdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxli, Baxlika,

Tuxolo kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Zamonaviy adabiyotlarda uni Baqtriya deb atash e'tirof etilgan ("SHohnoma" da Baxtar zamin, qadimgi turkiylarda Bahodirlar yurti).

Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, milloddan avvalgi II ming yillik o'rtalariga kelib Surxon vohasida qadimgi dehqonchilik madaniyatining jadallik bilan rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishning o'ziga xos xususiyat va qonunlariga ega edi. Agar davlatchilik asosini Shahar madaniyati tashkil etilishini hisobga oldigan bo'lsak, bu jarayon O'zbekistonning janubida, Baqtriya hududida milloddan avvalgi II ming yillik birinchi yarmidayoq Shaharmonand qishloq Sopollitepa misolida boshlangan edi. A.Asqarovning fikricha, agar Sopollitepa o'zining qadimgi Shaharsozlik madaniyatiga xos barcha alomatlari bilan protoShahar, Ya'ni, Avestoda tilga olingan "vara" inshootini eslatsa, Jarqo'ton yodgorligi O'zbekiston hududida birinchi bor shakllangan tom ma'nodagi Shahar edi. Jarqo'ton qadimgi Sharq Shaharlaridan tarkibiy jihatidan farq qilmaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Jarqo'ton ko'rinishidagi ko'hna Shaharlarni qadimgi Sharqdagi nom-davlatlar shakllari bilan qiyoslash uchun dalillar etarli. Ammo, Mesopatamiya nom-davlatlarining asosiy belgilaridan bo'lgan yozuv Jarqo'tonda mavjudligi hozircha bahslarga sabab bo'lmoqda. Umuman olganda, milloddan avvalgi II ming yillikning so'nggi choragiga kelib qadimgi Baqtriya hududlarida davlatchilikning nom yoki voha tipidagi siyosiy uyushmalari shakllana boshlaganligiga ilmiy asoslar bor.

Milloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmi Baqtriya hududlarida ko'pgina tarixiy-madaniy o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bu o'zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog'liq edi:

1. Temir buyumlarning paydo bo'lishi va keng tarqalishi.
2. Qal'alari bo'lgan qishloqlarning paydo bo'lishi va keyin ularning Shaharlarga aylanish.
3. Moddiy madaniyatning sezilarli darajada o'zgarishi.
4. Sharqiy Eron kabilalarining migratsiyasi.

Arxeologik nuqtai nazardan, Yuqoridagi davr Marg'iyona tipidagi YOz I madaniyati mavjud bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Tadqiqotchilar YOz I madaniyati davrini milloddan avvalgi II-I ming yillik bo'sag'asi – VIII-VII asrlar bilan belgilaydilar. Surxon vohasidan aynan mana shu madaniyatga o'xshash yodgorliklar ko'plab ochib o'rganilgan. Bu davrda Baqtriyaning to'rtta-Ulonbuloqsoy, Bo'stonsoy, Urgul va Halqajar vohalari o'zlashtirilgan bo'lib, arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Kuchuktepa, Jarqo'ton, Bandixon va Qiziltepa ularning marakazlari edi. Yuqoridagi vohalar o'troq ziroatkorlar va chorvador-sastarlar harbiy boshliqlarining mulklari, markazlar esa ularning qarorgohlari bo'lgan bo'lishi mumkin.

Qishloq jamoalarining hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy birlashuvi, ibtidoiy davrlarga oid urug'-kabilaviy birlashuvdan tubdan farq qilib, ilk davlatchilik shakllari paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Mil. avv. VII-VI asrlar Baqtriya jamiyatida hududiy bo'linish shakllanib, aholining o'troqlashuv jarayonlari yanada kuchayadi. Ko'hna Shaharlar qishloq xo'jalik atroflariga ega bo'lib, qal'alar paydo bo'ladi, muhim savdo yo'llari bo'ylarida tayanch istehkomlar barpo etiladi. Turli binolar bunyod etishda mudofaa inshootlarining ahamiyati etakchi o'rin egallaydi.

Qadimgi Baqtriya dehqonchilik rayonlarining tuzilishi tabiiy-geografik joylashuv va shart-sharoitlarga qarab turlicha bo'lgan. Manzilgohlarning soni va o'zlashtirilgan erlarning umumiy maydoniga qarab madaniy-xo'jalik vohalar bir nechta guruhlariga bo'lingan. Vohalarning chegaralari sug'orma dehqonchilik hududlari va sug'orish tarmoqlarining chegaralari bilan uzviy bog'liq edi.

Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda davlatchilik jamiyatning ichida, o'z ichki qonuniyatlari asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. SHakllana boshlagani 3,5 ming yildan kam emasligi ilmiy jihatdan asoslangan Baqtriya davlatchiligi buning yorqin misolidir.

Qadimgi Xorazm davlati

O'rta Osiyodagi yana bir yirik davlat uyushmasi-Qadimgi Xorazm davlati hisoblanadi. "Katta Xorazm" va "Qadimgi Xorazm" masalasi bo'yicha o'zbekistonlik va xorijlik ko'plab olimlar turli-tuman tadqiqotlar olib borgan bo'lsalarda bu masalalar hamon tadqiqotchilarning bahs-munozaralariga sabab bo'lib kelmoqda. Avesto va Yunon-rim tarixchilari ma'lumotlari bu munozaralarning asosini tashkil etadi. Undan tashqari, o'tgan asrning 50-60 yillaridan boshlab bugunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ham Xorazm davlatchiligi tarixi bo'yicha boy materiallar berdi.

Avvalo, so'ngi yillardagi ibtidoiy davr yodgorliklarining qiyosiy tadqiqotlaridan (X.Matyakubov) xulosa chiqaradigan bo'lsak, Xorazm mil.avv IV-III m.y. dayoq O'rta Sharqning qadimgi sivilizatsiyalar olami bilan uzoq Shimolni bevosita bog'lovchi xalqa rolini o'tay boshlagan. Bronza davri Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatlari qadimgi Xorazm erlarini o'zlashtirib bir-biri bilan qizg'in aloqada bo'lgan, Shimol va Janubdan ta'sir qabul qilib, yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan kabilalar madaniyati edi.

Ularning urug' jamoalari yarim erto'la uy -joylarda istiqomat qilib motiga dehqonchiligi va chorvachilik bilan shug'ullanib, ibtidoiy ishlab chiqarish xo'jaligi sari ilk qadam tashlaganlar. Ammo, ularning moddiy xo'jalik taraqqiyoti darajasi O'rta Osiyoning janubiy mintaqalari (Baqtriya, Marg'iyona) dagi kabilalarga nisbatan ancha orqada edi.

Amirobod madaniyati (mil.avv IX-VIII asrlar) davrida Amudaryo quyi havzasida yashovchi aholi hali davlatchilikdan bexabar bo'lib, irrigatsiya xususiyati ibtidoiy urug'-kabilachilik an'alarini saqlab qolgan aholi jamiyatiga xos edi. O'rta Osiyoning Janubiy mintaqalariga qaraganda Xorazm vohasi aholisi uzoq vaqt beqaror suv oqimi sharoitida, noqulay tabiat injiqliklari girdobida qolib kelgan. Qadimgi Yozma manbalar ma'lumotlari va mavjud arxeologik yodgorliklarning qiyosiy tahliliga ko'ra, Xorazmda davlatchilik ildizlarining paydo bo'lishigan asos bo'lgan ilk Shaharsozlik madaniyati sohiblari - Xorazmiylar ko'chib kelgach tarkib topdi va rivojlandi.

Olimlarning ta'kidlashicha, Avestoda tilga olingan Aryoshayona yoki Aryanam Vaychax shu manbada eslatilgan Kavi Vishtaspning podsholigi bo'lib, milloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Drang'iyona, Satagadiya, Ariya, Marg'iyona va Amudaryoning o'rta oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. G'arb tadqiqotchilari V.Xenning va I.Gershevichlar Kavi Vishtaspning davlati Marv va Xirot atrofida joylashgan "Katta Xorazm" deb hisoblaydilar.

O'rta Osiyo janubidagi dehqonchilik madaniyati va ilk Shaharlar bo'yicha mutaxassis hisoblangan A.A.Asqarov so'nggi yillarda Qadimgi Xorazm masalalariga o'z e'tiborini qaratdi. Olimning e'tirofi etishicha, Xorazm vohasining qadimgi davri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu hududiy kenglik Amudaryoning quyi havzasi hisoblanib, O'rta Osiyoning bu yirik daryosi bir necha yuz yillar davomida Yuqori oqimlardan quyiga unumdor loyqa oqizib kelib, janubiy Orol bo'ylarida sug'orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi uchun zamin yaratgan. Ammo, bu zamin eng qadimgi davrlarda ajdodlarimiz tomonidan o'zlashtirilib, sug'orma dehqonchilik madaniyatining Marg'iyona va Baqtriya singari makoni bo'la olmadi.

Xorazm qadimgi Shahar madaniyati va davlatchiligining shakllanishida butun O'rta Osiyo hududlarida bo'lgani kabi tashqi ta'sir va madaniy aloqalarni inkor etmagan holda, bu hududlarda o'troq dehqonchilikka o'tish, sug'orish tartibining shakllanishi, o'troq aholi xo'jaliklarining taraqqiy etishi keyingi davrlardagi davlatchilik an'analari shakllanishi uchun asos bo'lganligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, butun O'rta Osiyo mintaqasida bo'lgani kabi qadimgi Xorazm Shahar madaniyati va davlatchiligi asoslari hisoblangan ilg'or xo'jalik tizimi yuritish, sug'orish tarmoqlarini saqlash va rivojlantirish, hunarmandchilik va savdo-sotiq kabilar – o'zaro tarixiy-madaniy aloqalar bilan bog'liq edi. Bu jarayonlar ayniqsa, mil.avv.VI-V asrlarda ancha taraqqiy etgan bo'lib, bu holat Xorazm davlatchiligining o'ziga hos xususiyatlarida ham namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mil.avv. VI-IV asrlarda Xorazm va unga qo'shni bo'lgan hududlarni urbanizatsiya jarayonlari qamrab olgan edi. Natijada bu hududlarda tarixiy-madaniy dehqonchilik vohalari paydo bo'ladi va ular ilk davlatchilikning asosi edi. Mil.avv. VI asrdan boshlab esa hozirgi Xorazm vohasida davlatchilik shakllanib u qadimgi Sharq sivilizatsiyasi markazlaridan birga aylanib bordi.

Qadimgi Sug'diyona

Ilk temir davri O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan Sug'diyona o'lkasi turli qadimgi manbalarda So'g'da, So'g'uda, So'g'diyona nomlari ostida eslatib o'tiladi. Bu nomlarning kelib chiqishi va ularning ma'nosi haqida hozirchi aniq fikr yo'q. Ayrim tadqiqotchilar (V.Tomashek) bu nomni eroncha "SUS" – "yonmoq, yaltiramoq, nur taratmoq" so'zidan olingan desa, ayrimlari (O.Smirnova) bu so'z "hosildor vohalar o'lkasi" degan ma'noni beradi deb hisoblaydilar. Avestoning YAshkt kitobida tilga olingan "So'g'd makoni Gava" – So'g'diyonaning eng qadimgi viloyati bo'lgan bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra (A.Sagdullaev), Gava (Gau) – "buqa", "poda",

Qashqadaryo vohasi bilan bog'lanadi. Bu so'z viloyatning juda ko'p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gauxona, Gaumurda, tog'lar Gau, cho'qqi Gau va boshqalar).

Hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini (Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari, Tojikistonning Panjikent atroflari) o'z ichiga oluvchi Qadimgi So'g'diyona va so'g'diylar haqida ilk Yozma manbalarda ma'lumotlar deyarli kam. Avestoda viloyatlarning nomi ikki xilda ko'rsatilgan – Gava So'g'da va alohida So'g'da. Gerodot esa so'g'diylarni ikki marotaba – Ahamoniylar davlatining XVI satrap o'lkasidagi xalqlarni sanab o'tganda va forslarning qo'shinlari safida jangchi – so'g'diylarning o'rnini ko'rsatib berganda tilgan olgan. Bu ma'lumotlar asosida turli fikrlarga ega bo'lish mumkin. Dastavval, mill. avv. IV asrga kelib, sug'diylarning hududiy joylashuvi, ularning yashash uchun foydalangan asosiy erlarining chegaralari, daryo vohalari va viloyatlari aniqroq ko'rinadi. Ammo, bu jarayonning tarixiy an'analari – sug'diylarning yoyilishi, o'troq vohalarining paydo bo'lishi va shu joylarda yirik Shahar markazlariga asos solinishi yanada qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Ilk temir davri Sug'diyonada, alohida hududiy tartib guruhida bo'lib markaz vazifasini bajargan bir necha manzilgohlar turlari mavjud edi. Bular maydoni 5 gektardan 15 gektargacha bo'lib, tuman – voha markazi vazifasini bajaruvchi markazlar – Daratepa, Konimex, CHordara; maydoni 20 gektardan 80 gektargacha bo'lgan viloyat markazlari vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan Shaharlar – Uzunqir, Erqurg'on, Xo'ja Bo'ston; bir necha viloyatlar markazi vazifasini bajaruvchi Shaharlar – Afrosiyob (Maroqanda) va Buxoro kabilardir.

Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik natijasida bronza davridayoq O'rta Osiyo hududlarida ijtimoiy tabaqalanish va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. Bu jarayon faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay, Yaqin Sharqdagi Yuqori darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog'liq edi. Har bir jamoaning rivojlanishi uning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqsa ham, dastlabki markazlardan bo'ladigan tashqi ta'sir chetdagi viloyatlarning taqdirida katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin edi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalarini solishtirib va umumlashtirib shunday xulosaga kelish mumkinki, Sug'diyona hududlariga odamlar eng qadimgi davrlardayoq kirib kelib, tog'oldi hududlari, daryo vohalari, keyinchalik esa, dasht hududlariga tarqaladilar. Bu hududlarda mavjud bo'lgan qulay tabiiy sharoit – ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratgan.

2. O'rta Osiyo Axmoniylar va Yunon-makedon hukmronligi davrida. Mahalliy axolining bosqinchilarga qarshi ozodlik uchun kurashi

Mil.avv. VI asrning o'rtalariga kelib shafqatsiz kurashlar natijasida Midiya podsholigi o'rnida Ahamoniylar davlati tashkil topadi. Ko'pchilik ilmiy – tarixiy adabiyotlarda Kir II Ahamoniylar davlatining asoschisi sifatida e'tirof etiladi. Ahamoniylarning Kir II, Kambiz, Doro I, Kserks kabi hukmdorlari qadimgi Sharqdagi juda ko'plab mamlakatlar ustidan o'z hokimiyatini o'rnatishni rejalashtirilganlar va shunday siyosat olib borganlar. Qadimgi dunyo mualliflari Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Yustin kabilarning ma'lumotlaridan xulosa chiqaradigan bo'lsak, Kir II mil.avv. 545-539 yillarda Sharqiy Eron va O'rta Osiyo viloyatlarini bosib oladi. Doro I davrida (mil.avv. 522-486 yy.) Ahamoniylar sulolasi Hind vodiysidan O'rta Yer dengiziga qadar bo'lgan keng hududga o'z hukmronligini o'rnatgan. Juda ko'p sonli davlatlar, viloyatlar, Shaharlar va xalqlarni birlashtirgan Ahamoniylar saltanati tarixda birinchi yirik dunyo davlati hisoblanadi.

Mil. avv. VI asrning o'rtalarida Kir II o'zining sodiq lashkarboshlaridan biri bo'lgan Garpagga Kichik Osiyodagi Shahar-davlatlarni bosib olishni buyuradi. O'zi esa O'rta Osiyo hududidagi viloyatlarni (Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona va boshq.) bosib olishiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Gerodot Kir II ning massagetlarga qarshi yurishi haqida so'zlar ekan, bu yurishlarning ko'pchiligi haqida to'xtalmasdan, faqat forslarni tashvishga solgan yurishlar haqida eslatib o'tadi. Tarixchining ma'lumot berishicha, Garpag Kichik Osiyo Shaharlarini birin-ketin bosib olguncha Kir II butun Osiyo xalqlarini bo'ysundiradi va shundan keyingina Bobilga yurish boshlaydi.

Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, O'rta Osiyo xalqlari ahmoniylar bosqiniga qarshi qattiq kurash olib borganlar. Xususan, massaget kabilalari malika To'maris (Tomiris) boshchiligida forslarning turli hiyla-nayranglar ishlatishiga qaramasdan ularning katta qo'shinini tor-mor etadilar. Malika To'maris va massagetlarning harbiy mahorati tufayli bu jangda ahmoniylar hukmdori Kir II ham halok bo'ladi.

Gerodot xabar berishicha, “Bu jang varvarlar (massagetlar) ishtirok etgan janglar orasida eng dahshatlisi edi... Kamon o‘qlari tugagach, qo‘l jangi boshlanib nayza va qilich bilan kurashdilar. Qo‘shinlar jangi uzoq vaqt davom etdi. Nihoyat massagetlar g‘alaba qozondilar.” Kir II qo‘shinlarining massagetlar tomonidan tor-mor etilishi mil. avv. 530 yilga to‘g‘ri keladi.

Tarixchi Polien forslarga qarshi kurashgan SHiroq qahramonligi haqidagi afsona to‘g‘risida xabar beradi. Uning xabariga ko‘ra, sak kabilalarining vakili bo‘lgan SHiroq ismli cho‘pon hiyla yo‘li bilan forslarning katta qo‘shinlarini suvsiz sahro ichkarisiga adashtirib qo‘yadi. SHiroq ham, fors qo‘shinlari ham ochlik va tashnalikdan halok bo‘ladilar.

Mil. avv. 522 yilda ahamoniylar taxtiga Doru I o‘tiradi. U taxtga o‘tirishi bilanoq Parfiya, Marg‘iyona va “saklar o‘lkasi”da forslarga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tariladi. Behistun yozuvlariga qaraganda, 522 yilning oxirida Marg‘iyonada ko‘tarilgan qo‘zg‘olonga Frada ismli kishi boshchilik qiladi. Doru I Baqtriya satrapi Dadarshish boshchiligidagi qo‘shinlarni qo‘zg‘olonchilarga qarshi jo‘natadi. Qo‘zg‘olon shavqatsizlarcha bostirilib 55 ming marg‘iyonalik halok bo‘ladi. Frada ham qo‘lga olinib qatl ettiriladi.

“Saklar o‘lkasi”dagi forslarga qarshi kurashga Skunha boshchilik qiladi. 519-518 yillarda bo‘lib o‘tgan bu kurashda saklar forslar tomonidan mag‘lubiyatga uchraydi. Saklarning ko‘pchiligi o‘ldirilib, ko‘pchiligi asir olinadi. Ularning yo‘lboshchisi Skunha asir olinib, o‘rniga boshqa yo‘lboshchi tayinlanadi. Xullas, forslar O‘rta Osiyodagi mahalliy aholining qahramonona qarshiligini qiyinchilik bilan sindirganidan keyingina bu hududlarni batamom o‘zlariga bo‘ysundirdilar.

Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlari

O‘tgan asrning 40-50 yillaridan boshlab mil.avv. IV – milodiy IV asrlar davri O‘rta Osiyo tarixini o‘rganish jarayonida «antik», «antik davr» jumalari muomalaga kirgan edi. Ayrim tadqiqotchilar bu jumalarni faqat Gretsiya va Rim tarixiga nisbatan ishlatish lozim degan g‘oyani ilgari surgan bo‘lishlariga qaramay, O‘rta Osiyo qadimgi davri bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi olimlar-arxeologlar, tarixchilar, antropologlar, san‘atshunoslar kabilarning ko‘pchiligi bu atamani O‘rta Osiyo tarixiga nisbatan ham ishlatish mumkin degan nuqtai nazar tarafdori bo‘ldilar.

Mil. avv. IV asrdan boshlab O‘rta Osiyoning asosiy dehqonchilik vohalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning batamom yangi, faol yo‘liga o‘tdiki, bu rivojlanish milodiy III-IV asrlarda inqirozga uchray boshlaydi. Shaharsozlik madaniyati va sug‘orish tartibi, yozuv va pul muomalasi, moddiy va badiiy madaniyatga oid ko‘p sonli va turli-tuman yodgorliklar aynan mana shu rivojlanish jarayonidan dalolat beradi. Mil.avv. 334 yil mayida (Granik daryosi yonida), 333 yil oktyabrida (Gavgamela, Shimoli-Sharqiy Mesopotamiyada) bo‘lgan janglarda fors qo‘shinlari to‘la mag‘lubiyatga uchradi. Shundan so‘ng Aleksandr uchun Ahamoniylar davlatining markazlariga yo‘l ochilgan edi. Aleksandr dastavval Bobilni, so‘ngra Suza, Persepol, Pasargada Shaharlarini egallab fors podsholarining xazinalarini qo‘lga kiritdi. So‘nggi Ahamoniy hukmdori Doru III avval Midiyaga, keyin esa Baqtriyada qochib ketdi. Kursiy Rufning ma‘lumotlariga ko‘ra Baqtriyaga Doru III ga qarshi fitna uyushtirilib u o‘ldiriladi va fitnaga boshchilik qilgan Bess o‘zini Ahamoniylar podshosi deb e‘lon qiladi. Ammo, Bess Aleksandrga harbiy qo‘shinlarni qarshi qo‘ya olmadi.

Mil.avv. 329 yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drang‘iyona, Araxosiya kabi viloyatlarni egallab Oks-Amudaryo bo‘ylariga chiqib keladi. Arrian va Kursiy ma‘lumotlariga ko‘ra bu paytda daryo juda sersuv bo‘lib, to‘lib oqardi. Amudaryodan kechuv joyini tadqiqotchilar Kelif atroflari, Chushqago‘zar, Termez atroflari va Sho‘rob deb hisoblaydilar. Nima bo‘lganda ham, Aleksandr qo‘shinlari qoplarga somon-xashak to‘ldirib, ular orqali besh kun davomida Amudaryodan kechib o‘tganligi haqida Yozma manbalarda ma‘lumotlar saqlangan.

Aleksandr qo‘shinlari daryodan o‘tgach Bessni ta‘qib etib «Sug‘d viloyati Navtakaga» yo‘l oladilar (Avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg‘or qism, keyin asosiy kuchlar). Sug‘d erlarida Spitaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandrni to‘xtatib qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshiradilar. Ammo, Aleksandrda harbiy yurishlarni to‘xtatish niyati yo‘q edi. Navtakadan so‘ng Yunon-makedon qo‘shinlari Sug‘diyoning poytaxti Smarakandaga yurish qilib uni egallaydilar. Kursiy Ruf ma‘lumotlariga ko‘ra Yunon-makedonlar «Shaharda o‘zlarining kichik gornizonlarini qoldirib, Yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», Shimoli-Sharqqa tomon harakat qila boshlaydilar. Jizzax va O‘ratepa oralig‘idagi tog‘li hududlarda Yunon-makedon qo‘shinlari qattiq talofat ko‘radilar. Aleksandrning o‘zi ham og‘ir yarador bo‘ladi. Shunga qaramasdan tog‘li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag‘lub etgan

Yunon-makedonlar dasht ko'chmanchilari saklar va sug'diyar o'rtasida chegara bo'lgan Yaksart-Sirdaryoga tomon harakat qiladilar.

Yunon-makedonlar Yaksart bo'yida to'xtab bu erdagi Shaharlarga o'z harbiy qismlarini joylashtira boshladilar. Ko'p o'tmay bu Shaharlar aholisi Aleksandrga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Daryoning o'ng qirg'og'idagi saklar ham o'z qo'shinlarini bir erga to'play boshlaydilar. Xuddi shu paytda Baqtriya va Sug'diyona hududlarida ham Aleksandrga qarshi qo'zg'olonlar boshlanib ketadi.

Aleksandr dastlab Yaksart bo'yida o'z mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, bu erdagi qo'zg'olonlarni bostirdi. Sug'diyonada mil.avv. 329 yil ko'zida Spitaman boshchiligidagi qo'zg'olonni (Maroqandda) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo'shinlarni jo'natdi. O'zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo, bu yurish muvafaqiyatsiz tugadi.

Natijada mahalliy zodagonlarning deyarli barchasi Aleksandr hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o'tib ketdilar. Mil.avv. 327 yilning oxirida Sug'diyonadagi qo'zg'olonning so'nggi o'choqlari ham bostirildi.

Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uch yil davomida kurash olib borar ekan, O'rta Osiyo xalqlari mislsiz jasorat namunalarini ko'rsatdilar. Ular Yunonlar o'ylaganidek, «varvarlar» va madaniyatdan orqaga qolgan emas, balki o'z davrining yuksak harbiy san'ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Aleksandr qo'shinlari butun Sharq davlatlarini o'zlariga bo'ysundirganlarida Sug'diyona va Baqtriyadagi kabi qattiq qarshilikka uchramagan edilar. Bu holni Aleksandr tarixini yozgan ko'pgina qadimgi davr tarixchilari ham e'tirof etadilar.

O'zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi o'z ozodligi va mustaqilligi yo'lida bir tan-bir jon bo'lib harakat qilganlar. Ammo, kuchlar nisbati va harbiy texnikaning teng emasligi ko'p hollarda bosqinchilar ustunligini ta'minlagan. Shunga qaramasdan bunday holatlar davlatchilik tarixida muhim iz qoldirgan.

Shunday qilib Xorazm, Choch (Toshkent vohasi), Farg'ona va saklar yurti Aleksandrning mustaqil bo'lib qoladi. Sug'diyona, Baqtriya, Marg'iyona va Parfiya Aleksandrning davlatiga qo'shilib, keyinchalik ularning hududida ayrim Yunon-makedon davlatlari vujudga keladi.

O'rta Osiyoda istilo etilgan viloyatlar va Shaharlarni boshqarish uchun Yunon-makedon sarkardalari bilan birga mahalliy hokimlar ham jalb etilgan. Yozma manbalarning ma'lumot berishicha, Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn-Girkaniyada, Artaboz-Baqtriyada, Oksiart va Xorien-Sug'diyona viloyatlariga hokimlik qilganlar. Mil.avv. 325 yilda Oksiart qo'l ostiga Paropamis-Hindiqush viloyati topshiriladi.

Mil.avv. 325-324 yillarda makedonlar yaroq-aslahalari bilan qurollangan mahalliy aholi qo'shinlari Yunon-makedon armiyasi safiga jalb etiladi. Aleksandr mahalliy hokimiyat vakillariga nisbatan maqsadli siyosat olib borgan. Mil. avv 324 yilda Suza shahrida o'n mingta Yunon-makedon askarlari mahalliy ayollarga uylanadilar. Aleksandrning o'zi va sarkarda Gefestion Doro III ning qizlarini hamda sarkarda Salavka Spitamanning qizi Apamani xotinlikka oladilar.

A. Sagdullaevning fikricha, bunday yondoshuv aniq siyosiy maqsad – yangi davlatchilik barpo etish g'oyasi bilan bog'langan edi. Bu davlat nafaqat turli halqlarning siyosiy birlashmasi bo'libgina qolmay, balki uning kelajakda makedonlar va Sharq zodagonlari qon-qarindoshligi vorisligiga tayangan davlatga aylanishi rejalashtirilgan edi.

Ko'plab xalqlar va mamlakatlarni birlashtirib yagona davlat barpo etish g'oyasi, insonlarni umumiy ong va yagona tafakkurga bo'ysundirish g'oyasi yangilik emas edi. Bunday g'oyani qadimgi fors podsholari ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar va oqibatda mil.avv. 490 yilda Yunon-fors urushlari boshlangan.

Aleksandrning harbiy yurishlaridan so'ng Sharq va G'arb o'rtasidagi keng savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlana boshladi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi natijasida mahalliy va Yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ta'sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me'morchilik, kulolchilik va tasviriy san'at, yangi yozuvlarning tarqalishi, tangashunoslik hamda diniy e'tiqodlarda ko'rish mumkin. Yunonlar o'z navbatida qadimgi Sharqning juda ko'plab madaniy yutuqlarini qabul qiladilar hamda mahalliy aholi madaniyatiga ham ta'sir o'tkazadilar. Aleksandr davridan boshlab, bir necha asrlar davomida, Sharqning siyosiy tarixi (davlat

tizimi, boshqaruv usullari, qonunlar va huquq) da turli an'analarning qo'shib rivojlanganligini ko'z atashimiz mumkin.

Xullas, Aleksandr Makedonskiyning mil.avv.334-324 yillardagi harbiy yurishlari natijasida Bolqon yarim oroli, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyo, Misr, Old va O'rta Osiyo, Hind daryosining Yuqori oqimigacha bo'lgan hududni qamrab oluvchi ulkan davlat tashkil topdi. Yunon-makedonlarning 330-327 yillardagi O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlariga qaramasdan o'sha davrda bu hududlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o'zgarishlar bo'lib o'tdi. O'rta Osiyoga Ellin (Ellada, Bolqon yarim oroli) madaniyati kirib keldi. O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari yirik ellinistik davlatlar tarkibiga kirib, bu viloyatlarda yangi siyosiy-ma'muriy tartib joriy etildi. Bu tartib O'rta Osiyoda madaniy, iqtisodiy, tovar-pul munosabatlarining rivojiga turtki bo'ldi. Mahalliy va ellin madaniyatining uyg'unlashuvi bo'lib o'tdi.

Salavkiylar davlatining tashkil topishi

Mil.avv. 323 yilda Aleksandr Bobilda to'satdan vafot etdi. Uning vafot etishi bilan oq davlatdagi markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollashuvi natijasida Aleksandr tuzgan davlat parchalanib uning o'rniga nisbatan barqarorroq bo'lgan davlat uyushmalari paydo bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Aleksandr davlatining parchalanishi va uning xarobalarida yangi davlatlar tizimining paydo bo'lishi tinchlik yo'li bilan emas balki, Aleksandrning Makedonskiyning Yaqin sarkardalari – diadoxlar o'rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli bo'lib o'tdi. Diadoxlar o'rtasida 40 yildan ziyodroq davom etgan jangu-jadallar natijasida Aleksandr mulklari bo'lib olinadi.

Bu paytda Yunonlar va makedonlar O'rta Osiyoda hokimiyatni boshqaruvchi qatlamlarini tashkil etar edilar. Aleksandr vafotiga qadar Barqtriya va So'g'diyona satrapi asli makedonlardan bo'lgan Filipp edi. Undan keyin esa bu hududlar asli Kipr orolidan bo'lgan Yunon Stasanor qo'l ostiga o'tadi. Bu paytda ikki diadox – Evmen va Antigon Aleksandr davlatining asosiy erlarini qo'lga kiritish uchun o'zaro kurashayotgan edilar. Filippning katta qo'shinlari bilan yordam bergani tufayli Antigon Aleksandr davlatining katta qismiga hukmronlik o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Ammo, uning bu hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi.

Aleksandr Makedonskiy mulklariga egalik qilish shu bilan yakunlandiki, mil.avv. 306 yilda nisbatan kuchli bo'lgan diadoxlar – Antigon Birko'zli (Odnoglazyy), Demetriy Poliorket, Ptolomey Lag, Lazimax, Salavka, Kassandrlar o'zlarini podsho deb e'lon qildilar hamda bu bilan Aleksandr davlati xarobalarida o'z davlatlarini barpo etishni ma'lum qildilar. SHu tariqa tarix sahnasida G'arb va Sharq an'analari uyg'unlashtirgan ellinistik davlatlar paydo bo'ldi. Ana shunday yirik davlatlardan biri-Salavkiylar davlati edi.

O'zining eng gullab – yashnagan davrida bu davlat ilgari Aleksandr saltanatiga kirgan katta hududlarni egallab, g'arbda Egey dengizidan Sharqda Hind subkontinentigacha cho'zilgan hamda Kichik Osiyoning janubiy qismini, Suriya, Shimoliy Mesopotamiya, Bobil, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari va Afg'onistonning katta qismini o'z ichiga olgan edi. Bu ulkan davlatning asoschisi – dastavval Aleksandrning tanoqchisi, keyinroq yirik sarkardasi bo'lgan Salavka edi.

Yunon tarixchisi Pompey Trogning yozishicha, «Salavka ba'zi bir o'lkalarni muzokaralar yo'li bilan egalladi, ammo Baqtriya, Parfiya, Sug'd erlarida u qattiq qarshilikka uchradi va og'ir janglar olib borishiga to'g'ri keldi». Bu ma'lumotni qadimgi tarixchi Arrian ham tasdiqlaydi. Ya'ni u shunday xabar beradi: «Salavka I baqtriyaliklar, Sug'diylar, parfiyaliklar va girkaniyaliklar bilan ko'p urushlar olib borgach, ular erlariga hukmronlik qila boshladi». Tadqiqotchilarning fikricha, O'rta Osiyo erlarining Salavka tomonidan bosib olinishi mil.avv. 306-301 yillarga to'g'ri keladi.

Ammo, Hindistondagi harbiy-siyosiy vaziyat tufayli bu hududlardagi yurishlar Salavkiylar foydasiga hal bo'lmadi. Mil.avv.IV asrning oxirlarida bu yerdagi Chandragupta asos solgan kuchli Maurya davlati Salavkaga qattiq qarshilik ko'rsatganligi sababli Salavka sulh tuzishga mavjudd bo'ldi.

Uning Hindistondagi mag'lubiyati salavkiylarning O'rta Osiyodagi noiblari ahvoliga sezilarni darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu holat bu erda salavkiylarga qarshi kurash kuchayishiga sabab bo'ldi. Mahalliy o'troq va ko'chmanchi aholining ko'p sonli qo'zg'olonlari bu kurashlardan dalolat berdi. Ular salavkiylarning tayanch nuqtalari bo'lgan Marg'iyonadagi Aleksandriya (Mari atroflari) va Aleksandr Esxata (Chekkadagi Aleksandriya, Xo'jand atroflari)ni vayron etadilar. Tadqiqotchilarning fikricha, bu kurashlar natijasida yirik etnik ko'chishlar bo'lib o'tgan bo'lishi mumkin. Xullas, salavkiylar hokimiyatni

egallagan paytdayoq ularning O'rta Osiyodagi ahvoli tahlikali edi. Aynan shu sababli O'rta Osiyo viloyatlari erlaridan mahrum bo'lishidan qo'rqib ketgan Salavka I o'z vorisi Antiox I boshchiligidagi Sharqiy noiblik (satraplik)larni ta'sis etgan edi.

Mil.avv.293 yilda Salavka I o'g'li Antiox I ni Sharqiy satrapliklarga, Ya'ni, O'rta Osiyo viloyatlariga o'zining noibi etib tayinlaydi. Antiox I vayron etilgan qal'alarni tikladi, yirik va qalin devor (Marg'iyona devori) bunyod etdi, qo'zg'olonlarni bostirdi. U salavkiylar qudratini namoyish etish maqsadida atrof o'troq va ko'chmanchi aholi ustiga harbiy yurishlar uyushtirdi. Antiox I tomonidan o'tkazilgan bir qancha harbiy-siyosiy va diplomatik tadbirlar tufayli O'rta Osiyodagi salakiylarga qarshi harakatlar bostirildi.

O'rta Osiyo viloyatlari salavkiylar davlati siyosiy tarixida etakchi o'rinlardan birinchi egallaydi. O'zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil.avv.293-261 yy.) Antiox I G'arbgga qilgan ko'pgina yurishlari bilan shuhrat qozondi. U o'z davlatining Sharqiga, jumladan O'rta Osiyo erlariga kam e'tibor qaratdi. Bu paytda O'rta Osiyo viloyatlarida iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi. Ancha tinch hayot boshlanib qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq, anchagina rivojlanadi. Salavkiylar davlati markazidan chetda bo'lishiga qaramay, O'rta Osiyo viloyatlari ular davlatining eng muhim qismi edi. O'rta Osiyo harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, salavkiylar bu hudud bo'ylab o'tgan savdo yo'llari bo'yida Shaharlar va qishloqlar qurdirib ularda hunarmandchilik, o'zaro almashinuv va savdo-sotiqni rivojlantirganlari bejiz emas edi.

Salavka I va Antiox I (mil.avv. 281-261 yillar mustaqil) hukmronligi davrida Salavkiylar davlati siyosatining asosiy yo'nalishlari shakllanadi. Salavkiylar uchta mintaqada – Janubiy Suriya, Kichik Osiyo va Sharqda faol tashqi siyosat olib borishga majbur bo'lgan edilar. Janubiy Suriya va Kichik Osiyo uchun Ptolemeylar (Ptolomey Lag asos solgan O'rta er dengizining Sharqidagi davlat sulolasi) bilan tinimsiz urushlar bo'lib turgan. Chunki bu hududlarda muhim savdo yo'llari tugab, gullab-yashnagan port-Shaharlar mavjud edi. Kichik Osiyoning Yunon Shaharlari ham muhim ahamiyatga ega edi.

Sharqiy viloyatlarda xususan, O'rta Osiyodagi ahvol birmuncha murakkabroq vaziyatda edi. Birinchidan, bu hudud boshqaruv markazlaridan ancha uzoqda joylashgan bo'lib, bu viloyatlar bilan aloqa qilishda qiyinchiliklar mavjud edi. Ikkinchidan, Salavkiylar davlatining chegaralarida joylashgan ko'chmanchilarning doimiy xavfi mavjud edi. Mil.avv. III asrdan boshlab ko'chmanchilarning ko'chishlari boshlanishi natijasida chegaralardagi bu xavf yanada kuchayadi.

Davlatning nihoyatda katta hududlarni qamrab olganligi ayrim hollarda ma'muriy nazoratning susayib ketishiga olib kelgan. Manbalarining guvohlik berishicha, bir nechta mahalliy siyosiy uyushmalar (alohida kabilalar, Yunon polislari, ibodatxona jamoalari, mahalliy sulolalar) ichki ishlarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilganlar.

Har qaysi satrapiyani podsho tomonidan tayinlanib qo'yilgan satrap yoki strateg mansabidagi shaxs boshqargan. Fors satraplaridan farq qilgan holda ular ham ma'muriy, ham harbiy boshqaruvni qo'lga olganlar. Satrap-strateg ma'muriy boshqaruvda eng Yaqin odamlaridan o'ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi soliq yig'uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo, xo'jalik hayotini nazorat qilib borgan.

Tarixiy manbalarda salavkiylar satrap-strateglari Yunoncha nomda (Stratonik, Aleksandr, Gieraks, Antiox va boshqalar) tilga olinadi. Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan Yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy zodagonlardan tayinlangan. Tadqiqotchilarning fikricha, O'rta Osiyoda Yunon hokimlari va ular atrofida to'plangan Yunon zodagonlari bilan birga mahalliy zodagonlar ham hokimlik qilardilar. Salavkiylar hokimiyati O'rta Osiyodagi harbiy punktlarda (katoykiyalar) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi.

Salavkiylar davri Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona va Parfiya hududlarida ko'p aholili Shaharlar ko'p edi. Maroqand, Baqtra, Niso kabi ko'plab qadimgi Shahar xarobalarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan topilmalar bu hududlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va xo'jalik ishlari rivojlanganligidan dalolat beradi.

Salavkiylar davlati ma'lum bir xalq yoki elatlardan iborat bo'lmay, ko'pdan ko'p etnik guruhlarni harbiy yo'l bilan birlashtirishdan tashkil topgan uyushma edi. Davlat boshqaruvining barcha siyosiy, huquqiy va ijtimoiy yo'nalishlari podsho saroyi bilan bog'liq bo'lib, bu holat davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ahamoniylar davlatida bo'lgani kabi salavkiylar davlatida ham ko'pgina davlat ishlarini olib boruvchi devonxona mavjud bo'lgan. Ayrim manbalar salavkiylar saroyidagi xat-hujjat ishlarining boshlig'i lavozimi haqida ma'lumotlar beradi.

Yunon-Baqtriya davlati

Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, Yunon-Baqtriya davlatining salavkiylardan ajralib chiqishi Yunon zodagonlarining qo'zg'oloni xususiyatiga ega bo'lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo'llab-quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon-Baqtriya davlati paydo bo'lgan turli sanalarni belgilaydilar (mil.avv. 256, 250, 248 va 246-145 yy). Bu davlatning asosi Baqtriya bo'lib, ba'zi hukmdorlar davrida (Evtidem, Demetriy, Evkratid) Hindistonning Shimoli-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi katta erlar qo'shib olinadi.

Baqtriyaning salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi xususida rimlik tarixchilar Pompey Trog va Yustinda uzuq-yuluq ma'lumotlar saqlangan bo'lsa-da bu haqda batafsil ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan mavjud tangashunoslik, ayrim xo'jalik hujjatlari, san'at yodgorliklari, sug'orish inshootlari va imoratlar qoldiqlari bergan ma'lumotlar asosida bu davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. Ammo, Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy tarixi ko'p hollarda qiyosiy solishtirish va taxminlarga asoslanadi.

Yunon-Baqtriyada davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo'lib, tangashunoslik ma'lumotlari Diodot I,II,III, Evtidem I,II, Demetriy, Geliokl, Platon kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavkiylar kabi Yunon-Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo'lib idora etganlar.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, Yunon-Baqtriya mulklarining chegaralar doimiy mustahkam bo'lmasdan, harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turgan. Mil.avv. III asrning oxirlari O'rta Osiyo janubidagi harbiy-siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma'lumotlar beradi. Uning yozishicha, salavkiylar tomonidan Baqtrada qamal qilingan Evtidem ularning hukmdori Antiox III ga «chegarada ko'chmanchi kabilalar turganligi va ular chegaradan o'tadigan bo'lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og'ir bo'lishi mumkinligini» bildiradi. Polibiy ma'lumot bergan ushbu ko'chmanchilar mil.avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun Sug'dni egallagan bo'lib, bu hududlar Yunon-Baqtriya davlatining vaqtinchalik Shimoliy chegarasi bo'lib qoladi. Shuningdek, g'arbiy Hisor tog'lari ham Shimoliy chegaralar bo'lgan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya davlatining gullab yashnagan davri mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Janubiy hududlardagi bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar), Oyxonim, Qorabog'tepa kabi yodgorliklardan hokimlar saroylari, ibodatxonalar, turar-joylar, mehnat va jangovar qurollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko'plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon-Baqtriya markazlashgan davlat bo'lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir nechta viloyat (satrapiya) larga bo'lingan bo'lib, bu viloyatlar boshqaruvchilari yoki hokimlari podshoga bo'ysunar edilar. Ammo, bu davrda davlatda nechta satrapiyalar bo'lganligi va ular qanday nomlanganligi ma'lum emas. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, satrapiyalarga noib satraplarni tayinlashda qarindoshchilik an'analarga amal qilingan bo'lishi mumkin.

Yunon-Baqtriya podsholigi davlat tuzilishining muhim tomoni – qo'shin va uni tashkil etish edi. Avvalo, ta'kidlash lozimki, Yunon-baqtriya qo'shinlarining katta qismini baqtriyaliklar va boshqa mahalliy aholi tashkil etgan. Qo'shinning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari otliq-suvoriylardan iborat bo'lgan. Qo'shinlar tarkibida harbiy fillar ham bo'lgan.

Qadimgi (antik) davrda ellin dunyosi Yunonistondan Hind daryosi vodiysigacha bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan edi. Tadqiqotchilar, ellinlashuv darajasiga qarab bu hududni uchta mintaqaga bo'ladilar. 1. Ellada; 2. Kichik Osiyo, Suriya va Misr; 3. Efrat daryosining Sharqidagi viloyatlar. Bu hududlar tarixiy adabiyotlarda «Ellinlashgan Sharq» tushunchasida aks etgan bo'lib, uning tarkibiga Mesopotamiya, Eron, O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonning Aleksandr bosib olgan hududlari kirgan.

Aleksandr Makedonskiy yurishlari natijasida keng miqyosda boshlangan ellinizm madaniyatining kirib kelishi Baqtriya, Parfiya va Sug'diyona Shaharlari, hunarmandchiligi va badiiy-amaliy san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yozma manbalar Aleksandr nomi bilan bog'liq uchta Shahar: Aleksandriya Oksiana (Oks bo'yidagi Aleksandriya), Aleksandriya Marg'iyona (Marg'iyona Aleksandriyasi), Aleksandriya Esxata (Chekkadagi Aleksandriya) haqida ma'lumotlar beradi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoning janubiy hududlaridan ellinizm madaniyati bilan bog'liq bo'lgan turar-joylar, moddiy-ma'naviy madaniyat buyumlari, tanga pullarning topilishi bu hududlardagi mahalliy madaniyatga ellin

an'analari (Shaharsozlik, haykaltaroshlik, badiiy-amaliy san'at, alifbo va boshq.) kuchli ta'sir etganidan dalolat beradi. SHu bilan birgalikda bu topilmalar mahalliy madaniyatdagi rivojlanish qadimgi (antik) davr Sharq va G'arb madaniyatining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida o'ziga xos madaniyat darajasiga ko'tarilishining ham guvohidir.

Antik davr O'zbekiston hududlarida taraqqiy etgan davlatlardan biri – Qang' davlati

Qadimgi Xitoy manbalarida Qang' davlati mavjud bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar mil.avv. III asr oxiri – II asr boshlariga to'g'ri keladi. Ammo, Qang' davlati va qang'arlar tarixining mashhur bilimdoni K. Sh. Shoniyoovning fikricha, bu davlat mil. avv III asrning boshlarida paydo bo'ladi. Keyinroq esa, Yunon-Baqtriya davlati va qo'shni ko'chmanchi kabilalar bilan bo'lgan kurashlar natijasida Qang' davlati yanada mustahkamlanadi hamda manbalarda O'rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida tilga olinadi. Davlatning nomi "qang'", "qang'ar", "qang'uy" deb nomlanuvchi kabilaning nomidan olingan bo'lib, etimologiyasi munozarali hisoblanadi.

Qang' davlati asosini tashkil etgan kabilalar Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida istiqomat qilganlar. Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang' davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o'z chegaralarini ham kengaytirib boradi. Ya'ni, mil.avv. II va milodiy I asrda Qang' davlatining hududi ancha kengayib Toshkent vohasi, O'rta Sirdaryo erlari, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimidagi erlarni o'z ichiga olar edi.

Kanka haqida dastlabki ma'lumotlar Avestoning eng eski qismlari bo'lgan YAshtlarda Turon kabilalarining turar-joylari sifatida eslatiladi. Sosoniylar davri (224-651 yy.) manbalarida bu Shahar «Qandesh» yoki «Qandiz» shaklida tilga olinadi. Shuningdek, Firdavsiyning «Shohnoma» asarida ham Kanka shahri bir nechta marta tilga olinadi. Undan tashqari o'rta asrlar geograflari asarlarida bu ko'hna Shahar «Kenkrak», «Xarashkent», «Tarband» nomlari bilan eslatib o'tiladi.

Mil.avv. II-I asrlarga kelib Qang' davlati kuchayishi natijasida bir qancha viloyatlar unga tobe etiladi. N. YA. Bichurin, Xitoy solnomalarida qang'lilarga tegishli qo'yidagi beshta viloyatlar haqida ma'lumotlar borligini ta'kidlaydi: Suse (Susye), Fumu, Yuni, Gi, YUEgyan. Ushbu viloyatlarning qaysi hududlarda joylashganligi haqida tadqiqotchilar orasida yagona fikr yo'q. Ayrim tadqiqotchilar (V. V. Bartold, M. E. Mason, S. P. Tolstov) Suseni-Kesh (SHaxrisabz), Fumuni-Zarafshondagi Kushoniya, YUnini-Toshkent, Gini-Buxoro, Yuegyanni-Urganch va uning atroflari bilan aynan bir deb hisoblaydilar. Ammo, Qang'ga tobe viloyatlarning bunday joylashtirish to'la holda ilmiy asoslanmagan bo'lib, munozarali hisoblanadi.

Qang' davlatining etnik tarkibi xilma-xil bo'lib, uning anchagina katta hududlarida Sug'diyona, Xorazm va Toshkent vohasida yashovchi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanib kelgan o'troq aholi bilan birgalikda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvadar kabilalar (saklar, massagetlar, toharlar, alanlar va boshqalar) istiqomat qilganlar. Sirdaryoning o'rta oqimida yashagan qang'lilar Qang' davlati tashkil topishida asosiy o'rinni egallagan bo'lib, Qang' podsholari asosan qang'lilar bo'lgan.

Mil.avv. II - mil. II asrlarda Qang' davlati o'z rivojlanishining Yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Qang' podsholariga bo'ysunuvchi yarim mustaqil viloyatlarni birlashtirgan bu davlat o'z vaqtida anchagina kuchli bo'lib, o'zbek davlatchiligi tarixida o'z o'rniga egadir. Agarda antik davrda O'rta Osiyoning janubida shakllangan Kushon va Parfiya davlatlari Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar asos solgan davlatlar an'alarini o'zlashtirib taraqqiy etgan bo'lsa, Qang' davlati taraqqiyotida ko'chmanchilar davlatchiligi belgilari borligi bilan ajralib turadi.

Qang' tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, bu davlat madaniyatining Yuqori darajasi tasodifiy hol emas. YAKsart-Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'lilarning Sug'diyona, Farg'ona hamda daryoning quyi oqimida yashovchi ko'plab xalqlar bilan o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari Qang' davlati madaniyati taraqqiyotiga asos bo'lgan edi. Shuning uchun ham ko'p hollarda ular madaniyatidagi umumiylik ko'zga tashlanadi. Undan tashqari Qang' davlati hududlaridan Buyuk ipak yo'li tarmoqlarining o'tganligi ham davlatning iqtisodiy va madaniy rivojiga, qo'shni davlatlar bilan siyosiy va diplomatik aloqalarning taraqqiy etishi uchun omil bo'lib xizmat qilgan edi.

Dovon davlati

O'rta Osiyoning Sharqida, Sirdaryoning Yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg'ona antik davr o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Farg'ona haqida Yunon-rim mualliflari ma'lumotlar bermaydilar. Bu davlat haqidagi Yozma ma'lumotlar asosan Xitoy manbalarida – CHjan Syan ma'lumotlarida, Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban Gunning «Birinchi xan sulolasi tarixi» asarlarida beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Da-van» nomi ostida eslatiladi. Farg'ona so'zi Sug'd manbalarida «Fragonik» shaklida yozilib «tog'lar orasidagi vodi, atrofi berk soylik» ma'nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham «tog'lar orasidagi vodi» ma'nosini beradi.

Davan davlati tarixi bo'yicha uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, so'nggi yillarda o'zbek olimlaridan A.Asqarov, A.Xo'jaev, B.Matboboev, A.Anorboev, S.Qudratov, B.Abulg'ozieva, B.Abdullaev, Abduholiq Abdurasul o'g'li kabilar arxeologik ma'lumotlarni Yozma manbalar bilan qiyosiy o'rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo'lishlariga qaramay, bu yo'nalishda hali ko'pgina masalalar o'z echimini topmagan. Davan davlati Shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qo'shni davlatlar bilan munosabatlar, mahalliy madaniyatning qo'shni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir.

Qadimgi Farg'ona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo bo'lgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida o'ziga xos sug'orma dehqonchilik madaniyatini yaratadilar. Ilk temir va antik davrga kelib Farg'onada mahalliy madaniyatlar an'analari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatlari butun vodiyni qamrab oladi va aholining o'troq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. III asrdan boshlab butun Farg'ona vodiysida Shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi. Aynan mana shu davrda Farg'ona vodiysi orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab Axsikent, Marhamat, Kubo, Marg'ilon, Bob (Pop) kabi ko'hna Shaharlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham mil.avv. II asrga oid Xitoy manbalari Farg'onada 70 ta katta-kichik Shaharlar borligi haqida ma'lumot beradi.

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asarida Davanning ikkita poytaxti – Ershi va YUchen bo'lganligi haqida xabar beriladi. Bu Shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo'q. Ular O'zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo'qon, Koson, Axsikent, O'ratepa yoki Jizzax o'rnida joylashtiriladi.

Eng qadimgi Yozma manbalar O'rta Osiyodagi ayrim ilk davlat uyushmalari haqida ma'lumotlar bersada, Farg'ona haqida bunday ma'lumotlar uchramaydi. SHunga qaramasdan YU.A.Zadneprovskiy Qadimgi Farg'ona (Davan) podsholigining mavjud bo'lganligini taxmin qiladi. A. Asqarovning fikricha, mil.avv. I ming yillikning o'rtalaridan oldingi davrdagi Farg'ona haqida so'z yuritilganda odatda faqat «chifdom» (voha) shaklidagi qadimgi davlat asoslarining paydo bo'lishi anglashiladi. Olimning fikricha, mana shu holatni hisobga olib Farg'onada davlatchilik, aftidan, mil. avv V-IV asrlarda paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

B.Matboboevning fikricha, A. Asqarovning bu xulosasi ikkita tarixiy dalilga asoslangan. Birinchisi, aynan mana shu davrga oid arxeologik topilmalar (SHo'rabashot madaniyati) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi (mahsulot ishlab chiqarish va savdo sotiqning o'sishi) haqidagi taxminlarni ilgari surish imkonini beradi. Ikkinchisi, mil.avv. II asrdayoq Farg'onada ko'p sonli Shaharlar mavjudligi haqida ma'lumotlar bor.

Mil. avv II asrdan boshlab Qashg'ardan Davanga Shimoliy yo'ldan karvon yo'li harakati boshlanadi. Bu yo'ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Davan aholisi ko'paya boshlaydi va ko'plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo'ladi. Savdo yo'lida Davan muhim ahamiyatga ega bo'lib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha, YAssa va Qoradaryo vohalarida ko'pgina qal'alar savdo yo'lini qo'riqlash maqsadida barpo etiladi.

Davan davlati ma'lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo'lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda «Van» (podsho) unvoni bilan ish yuritgani eslatiladi. Manbalarda «Van» unvoniga ega bo'lgan Motsay, CHan Fin, Mug'ua, YAn'lyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. YAgona hukmdor bo'lgan podsho, Ya'ni, «Van» davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga suyangan holda olib borgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, podshoga Yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar – bita katta yordamchi (Fu van) va bitta kichik yordamchi (Fu-govan), tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayonda oqsoqollar kengashining ham ahamiyati kam bo'lmagan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, ba'zan ular hukmdorning

taqdirini ham hal qilganlar. Misol uchun, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag'lubiyatga uchraganligi uchun hukmdor Van Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiy ovoz berishda aybdor deb topilgan va qatl qilingan.

Tadqiqotchilarning fikricha, Davan davlati mil.avv. III – milodiy III asrlarda mavjud bo'lgan bo'lib, boshqaruv tizimiga ko'ra podsholik hisoblangan. Aholining ko'pchiligi Shaharlarda istiqomat qilgan. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi ham ushbu davlatning gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Xitoydan O'rta er dengizigacha cho'zilgan bu yo'ldagi qit'alararo savdoda Sharqiy Sug'diyona chegaralaridan to Tan davridagi Xitoy imperiyasigacha bo'lgan yo'ning xavsizligini ta'minlashda, oziq-ovqat, yo'l ko'rsatuvchilar va tarjimonlar etkazib berishda Davan davlati asosiy rol o'ynagan.

Demak, podsholik boshqaruv tizimi va oqsoqollar kengashiga asoslangan Davan davlati – o'z davrida qadimgi o'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyoti an'analarini davom ettirgan davlat bo'lib, davlatchiligimiz tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Keyingi olib borilajak tadqiqotlar Davan davlati tarixi muammolari bilan bog'liq ko'pgina masalalarga aniqlik kiritishi shubhasizdir.

Kushon davlati.

Tarixiy manbalar Yunon-Baqtriya davlati ko'chmanchi kabilalar tomonidan tor-mor etilganligi haqida ma'lumot beradi. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriyani assiyalar, passianlar, toxarlar, saklar kabilalari bosib oladilar. Pompey Trog xabar berishicha, – “Baqtriya va Sug'diyonaning skif kabilalari saraukalar va assianlar bosib oladilar”. Tadqiqotchilarning fikricha, har ikkala tarixchi bitta kabila haqida ma'lumot bergan.

Qadimgi Xitoy manbalari Baqtriyani yuechji kabilalari bosib olganligi haqida ma'lumot beradi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil.avv. 172-161 yillar oralig'ida deb belgilaydilar) yuechjilar xunlardan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng O'rta Osiyoning Shimoliy hududlarida ko'chib yuradilar. Bu kabilalar Xitoy manbalarida “Da-yuechji” – “Buyuk” yoki “Katta yuechji” deb eslatiladi. CHjan Szyan ma'lumotlariga ko'ra, yuechjilar xunn kabilalaridan mag'lubiyatga uchragach O'rta Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Dahya (Baqtriya)ni bosib oladilar va Guyshuy (Amudaryo)ning Shimoliy tomonida joylashadilar. Katta Xan uyi tarixida ham yuechjilar Guyshuy daryosining Shimoliy tomonida o'z poytaxtlariga asos solganliklari ta'kidlanadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, yuechjilar mil.avv. 140-130 yillar oralig'ida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Oradan ko'p o'tmay Baqtriyada Katta yuechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma'lumotlariga ko'ra, Katta yuechji hukmdorlari qo'l ostida beshta xokimlik (Xi-xeu) bor bo'lib, ular Xyumi, SHaunmi, Guyshuan, Xise va Dumilardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko'pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrini uch bosqichga bo'ladilar:

1. Mil.avv. 139-125 yillar – Katta yuechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan Shimol tomonda edi.

2. Mil.avv. 25 yilga qadar – Katta yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan Shimol tomonda bo'lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandahor) edi. YUechjilar bo'ysundirgan hududlar Xise, SHaunmi, Guyshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo'lib, ular xi-xou (yabg'u) tomonidan birlashtirilgan.

3. Mil.avv. 25 yildan keyin Katta yuechji davlatining inqirozi va Yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo'lishi. Kushon (Gyshuan) yabg'usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to'rtta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi.

Ta'kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o'rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davrlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma'lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma'lumotlar va ilk o'rta asrlar manbalariga asoslanadi. Tadqiqotchilar Kushon davlati tarixini quyidagi uchta bosqichga ajratadilar:

1. Yunon-Baqtriya podsholari hukmronligining tugatilishi hamda O'rta Osiyo va Shimoliy Afg'oniston hududlarida bir nechta alohida davlat uyushmalarining tashkil topishi (mil.avv. II asrning oxiri – I asr).

2. Buyuk Kushon davlatining paydo bo'lishi va gullab yashnashi (milodiy I-III asrlar).

3. Ko'chmanchilarning tinimsiz urushlari natijasida Kushon davlatining inqirozi va qo'lashi (III asr oxiri – IV asr).

Kushon davlatining paydo bo'lishi haqida ko'proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma'lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar saltanatining paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo'lgan bo'lsada, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga juda ko'plab aniqliklar kiritish imkonini bergan tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, 1961 yil Londonda o'tkazilgan xalqaro simpozium, 1968 yil Dushanbeda YUNESKOning konferensiyasi, 1970 yil Qobuldagi xalqaro anjuman Kushon davlati masalalariga bag'ishlangan bo'lib, undan keyin ham bu masala bo'yicha ko'plab xalqaro anjumanlar bo'lib o'tdi.

Mil.avv. I asrning oxiri – mil. I asrning boshlariga kelib, Guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib Qobuliston va Qandahorni zabt etadi. Natijada bu davrga kelib dastlabki poytaxti Surxon vohasidagi Dalvarzin ko'hna shahri harobalari bo'lgan Kushon davlati o'z ahamiyatiga ko'ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim saltanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi "Guyshuan hokimi Kiotszyukyu", ilk Kushon davriga oid topilma tangalar aks ettirilgan "Kushon podshosi Kujula Kadfiz"ga aynan mos tushadi.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida Kushonlar saltanati gullab-yashnashining Yuqori cho'qqisiga ko'tariladi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlatning poytaxti Dalvarzindan Peshovar (Afg'oniston) atroflariga ko'chiriladi. Bu davrda (mil. II asr) mamlakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkmanistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, "Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon shuxrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati ko'pchilik tomonidan tan olindi. Xitoyning g'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, unga o'z garovga qo'ygan odamlarini yuborar edilar".

So'nggi yillarda olib borilgan ko'plab arxeologik tadqiqotlar Kushon davri O'rta Osiyo xalqlarining moddiy madaniyatini o'rganish bo'yicha boy materiallar berib, keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. I ming yillikning oxiri-milodning dastlabki asrlari O'rta Osiyoda xo'jalik va madaniy hayot darajasining ko'tarilgan davri bo'ldi. Janubiy Turkmaniston va Xorazm, Buxoro va Samarqand, Surxon vohasi, Vaxsh, Qashqadaryo va Farg'ona vodiysidan topilgan shu davrga oid arxeologik topilmalar sug'orma dehqonchilikning anchagina rivojlanganligidan dalolat beradi.

O'z gullab-yashnagan davrida Kushon davlati ko'plab xalqlar va elatlar yashab turgan hududlarni egallagan edi. Ushbu xalqlar va elatlar turli tillarda gaplashganlar, yozuvning turli tartibidan foydalanganlar hamda turli diniy e'tiqodlarda bo'lganlar. Moddiy madaniyat buyumlarida ham ayrim farqlar kuzatiladi. SHunga qaramasdan Kushonlar davri madaniyatiga ko'pgina umumiylik seziladi. Ammo, butun Kushon davlatida yagona madaniyat hukm surganligi haqida fikr aytib bo'lmaydi. Bu ulkan davlatning har bir viloyati qaysidir tomonlari bilan o'ziga xos bo'lgan madaniyatga ega bo'lgan.

Avvalambor, Shimoliy Baqtriya (Surxon vohasi) haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu viloyat Kushon davlatining eng yirik viloyatlaridan biri bo'lib, madaniyati yuksak darajada rivojlangan edi. Ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyoda buddizmning yoyilishi milodning birinchi asridan boshlab aynan Baqtriya-Toxariston hududlaridan boshlangan. Hozirgi kunda bu hududlardan o'ndan ziyod budda ibodatxonalari, yuzdan ortiq budda haykallari aniqlanib o'rganilgan. Ulardan eng mashhurlari Termiz Yaqinidagi Qoratepa ibodatxonalari, Zartepa va Ayritom topilmalari, Dalvarzintepa ibodatxonalari hisoblanadi. Shimoliy Baqtriyaning o'ziga xos madaniyati me'morchilik sana'tida (binolar ustunlari va peshtoqlarining bezatilishi), Shaharsozlik madaniyatida, kulolchilik va zargarlik buyumlarida ham o'z aksini topadi.

Umuman, Kushonlar davrida madaniy hayotning yanada yuksalganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va Yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi mavjud bo'lgan. Shuningdek, bu davrda Sug'dcha va xorazmiycha yozuvlar ham bor edi. Ushbu yozuvlar yodgorliklarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi ayrim ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shuningdek, Kushonlar davrida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining quruvchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi sohalarida ham katta yutuqlarga erishilgan. Xorazm, Sug'diyona, Baqtriya, Farg'ona, CHoch, Sharqiy Turkiston va

Shimoliy Hindistondan ochilgan ko'plab madaniy yodgorliklar Yuqoridagi hududlardagi madaniy hayot o'zining Yuqori cho'qqisiga chiqqanligidan dalolat beradi.

Kushonlar davrida binokorlik va me'morchilik ham shaklan ham mazmunan rivoj topganligi kuzatiladi. Chunki, bu davrdagi ma'muriy, diniy, ishlab chiqarish, turar-joy, mudofaa inshootlari, Sharq me'morchiligi bilan ayrim o'xshashliklar topsada, o'ziga hos tomonlari ustunlik qiladi. Me'morchilikning o'ziga hos namunalari Dalvarzin, Xolchayon, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa kabilardan o'rganilgan bo'lib, ular jahon miqyosida mashhur bo'lgan obidalaridir.

Kushon davlatining inqirozga uchrashi Gerk-Baqtriya va Rim saltanati tarixiy taqdiriga ancha o'xshab ketadi. Bu davlatlarning barchasi qulash arafasida tinimsiz yurishlar olib borishga majbur bo'lganlar. Tashqi harbiy bosqinlardan himoyalaniish uchun ichki va tashqi sabablarga ko'ra, zaiflashgan yirik davlatlarda etarli harbiy imkoniyat topilmadi. Milodiy IV asrga kelib Kushon podsholigi o'zining asosiy hududlaridan mahrum bo'ldi. Bu podsholikning ayrim mulklari Shimoliy Hindistonda saqlanib qoldi.

4-mavzu. Ilk o'rta asrlarda O'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot Reja:

1. Xioniylar, Kidariylar, Eftaliylar va Turk xoqonligi hukmronligi davrida ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy hayot.
2. Arab xalifaligining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari.
3. Xalifalikka qarshi xalq qo'zgonlari.
4. Islom dinining yoyilishi (Qur'oni-karim, hadislar va ularning mohiyati).

Yangi yer egaligi munosabatlarining tarkib topa boshlashi bilan sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari – “dehqonlar” qo'lida to'plana boshlagan. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo'shchilari ma'lum darajada zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram *kadivarlarga* aylana borganlar. Obikor yerlarning ibodatxonalarga tegishli qismi “vag'nze” deb yuritilgan. Yaylovlarning asosiy qismi oqsoqol zodagonlar qo'lida bo'lgan.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftaliylarning o'troq-lashuvi kuchayadi. Buning oqibatida sug'oriladigan yerlarga bo'lgan talab ortadi. Mazkur ehtiyojni qondirish maqsadida kichik-kichik zovur va anhorlar qazilib, ko'plab yangi yerlar o'zlashtiriladi. Hozir-ga qadar saqlanib qolgan Zaxariq, Bo'zsvuv, Darg'om kanallari V asrda barpo etilgan yirik sug'orish tarmoqlarining namunalaridir.

Milodiy IV-VI asrlar O'rta Osiyo tarixida ko'chmanchi qabila-larning kirib kelishi hamda yangi siyosiy uyushmalarning yuzaga keli-shi bilan izohlanadi. Ammo shuni e'tiborda tutish lozimki, o'rganilayotgan davrda O'rta Osiyoga kelib joylashgan qavmlar Amudaryo va Sirdaryo hududlarida hayot kechirib kelayotgan chorvador xalqlarga madaniy va til jihatidan ancha yaqin elatlar edilar.

Shunday elatlardan biri *kidariylar* bo'lib, ular haqidagi asosiy ma'lumotlar Xitoyning Beyshi solnomasida hamda g'arb mualliflaridan Prisk Poniyskiy asarlarida uchraydi. Ushbu ma'lumotlarning tahlili kidariylar sulolasining asoschisi, dastlabki hukmdor Sidolo yoki Kidara IV asrda hukmronlik qilganligini ko'rsatadi. Ammo bu ma'lumotlar to'liq emas. Ba'zi manbalarda Kidara Kushonlar davlatining so'nggi hukmdori sifatida tilga olinadi. Ushbu ma'lumotlardan kidariylar kushonlarning bevosita davomchilari bo'lganligini taxmin qilish mumkin. O'sha davr tangalarini o'rgangan olimlar fikricha, kidariylar Tohariston va Gandxarani 412-437 yillar oralig'ida o'z qo'llari ostida birlashtirganlar.

Kidariylar haqidagi ma'lumotlar nihoyatda cheklangan. Ularda kidariylarning 456 yili Hindistonga borib Gupta davlatini bosib olganliklari, u yerda 75 yil hukmronlik qilganliklari, 477 yili Gandxaradan Xitoyga elchilar yuborganliklari ma'lum, xolos, kengroq ma'lumotlar hozircha mavjud emas.

IV asr o'rtalarida o'lkamizga shimoldan ko'chmanchi *xioniylar*-ning hujumi boshlanadi. Ularga tadbirkor hukmdor Grumbat boshchilik qilgan. Xioniylar 353 yili So'g'dga yurish qiladilar, 359 yili esa Eron hukmdori Shopur II bilan ittifoqchilik burchini ado etib Suriyaning Amida shahri uchun bo'lgan jangda qatnashadilar. Ushbu jangda Grumbatning o'g'li halok bo'ladi.

IV asrning 60-70-yillariga kelib xioniylarning forslar bilan munosabatlari buziladi. Eron shohi Shopur II xioniylarga qarshi kurashib, ikki marotaba yengiladi. Ma'lumotlar yetarli bo'lmasada, mutaxassislar xioniylar kidariylar bilan ittifoqda bo'lganligini taxmin qiladilar. Bunda ular shu davrda

Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi yerlar xioniylar ta'siri ostida bo'lganligi hamda ba'zi manbalarda xioniylar kidariylar bilan yonma-yon tilga olinishiga asoslanadilar.

V asrning o'rtalarida diyorumizga shiddat bilan kirib kelgan bu yangi ko'chmanchi aholi yozma manbalarda eftal, xaftal, xaytal degan nomlar bilan tilga olinadi. Eftaliylar, ularning etnik tarkibi, davlat tashkil etishlari xususida tarixiy manbalarda turli xil qarashlar mavjud.

Eftaliylar haqidagi ma'lumotlar Rim, Vizantiya, Suriya, Arman, Xitoy va Fors manbalarida hamda Firdavsiyning "SHohnoma" asarida uchraydi. Eftaliylarning kelib chiqishi haqida yagona fikr mavjud emas. Ba'zi tadqiqotchilar eftaliylarni O'rta Osiyo-ning janubiy viloyatlarida yashovchi qadimgi mahalliy elatlardan, boshqalari esa ularni Orol oldi va Xorazmdan kelib chiqqanligini qayd qiladilar. Manbalardan birida (Lazer Parbskiy, V asr) eftaliylar etti xonadondan iborat massagetlarning etakchi urug'laridan biri sifatida bayon qilinadi.

Xitoy manbalarida eftaliylar yuechjilarning boshqa bir sho-xobchasi, ya'ni gaogyuy qabilasining tarmog'i, yoxud Qang'yuy avlodlari sifatida talqin qilinadi. O'zlarini alxonlar deb atagan eftaliylar Baqtriya-Toxariston erlarida yashagan azaliy boxtar qavmidan chiqqan etnik guruh ekanligini qayd qiluvchi fikrlar ham mavjud. Zamonaviy tadqiqotlar eftaliylarning haqiqiy vatani Baqtriya-Toxaristonga muvofiq kelishini ko'rsatmoqda.

Eftaliylar davlati ulkan hududni qamrab olgan bo'lib, O'rta Osiyoning asosiy qismi, SHarqiy Turkiston hamda SHimoliy Hin-distonning yarmi Gandxara bilan birgalikda mazkur davlat tarkibi-ga kirgan. Asli eftaliylarda ikkita davlat mavjud bo'lib, ulardan biri Afg'onistonning janubi-sharqiy qismi, Pokiston va SHimoliy Hindiston hududlarini qamrab olgan. Milodiy V va VI asrning birinchi yarmida, Toroman va Mihrqul ismli podsholar davrida ushbu davlat gullab yashnagan. Ikkinchi davlat O'rta Osiyoning janubi va SHimoliy Afg'oniston hududlarida tashkil topgan. Bu erdan eftaliylar SHarqiy Turkiston erlarini zabt etganlar.

Eftaliylar davrida shaharlar ravnaq topib, ularning ahamiyati ortadi. Kushoniya (Kattaqo'rg'on yaqinida), Rivdad, Poykend, Tallikon, Termiz, Gurgon, Varaxsha shaharlari shular jumlasidandir. Eftaliylar davlati hukmdorining qarorgohi Varaxsha saroyida bo'lganligi taxmin qilinadi.

Eftaliylar qudratli va ulkan davlat barpo etdilar. Uning hududlari Kushon davlati hududlaridan ham katta edi. Eftaliylar Eron sosoniylarining harbiy qudratini sindira oldilar. Sosoniy-larning sharqqa yurishlari eftaliylarning qarshiligi tufayli to'xtadi. Ular Eron shohlarining ichki siyosatiga ham aralashib, hatto kimni taxtga o'tqazish masalasini hal qilish ularning qo'lida bo'lgan. Eron davlati har yili eftaliylarga katta miqdorda o'lpon to'lab turgan.

Eftaliylar manbalarda dastlab 453-454 va 457 yillar voqealari bilan bog'liq tarzda tilga olinadi. Ularda keltirilishicha, eftaliylar ularga hujum qilgan YAZdigerd II qo'shinini tor-mor keltirib, Eronning ichkarisiga ham talon-taroj yurishlarini amalga oshirganlar. Mazkur voqealar 453-454 yillarda sodir bo'lganligi qayd qilinadi. SHuningdek, 457 yilda eftaliylar hukmdori Vaxshunvar CHag'oniyon, Toxariston va Badaxshonni o'ziga bo'ysundirgan. 456 yilda eftaliylardan Xitoyga dastlabki elchilar kelgan.

459 yili Eron taxtiga o'tirgan Pero'zning hokimiyatga kelishi manbalarda eftaliylar bilan bog'liq ravishda bayon qilinadi. Dastlab eftaliylar yordamida hokimiyatga kelgan Pero'z keyinchalik ularning g'animiga aylanadi hamda 459-484 yillarda eftaliylarga qarshi uch marta yurish qiladi.

Birinchi yurishdayoq Pero'z mag'lubiyatga uchrab asirga tushadi. Vizantiya imperatori Zenon o'rtaga tushib katta mablag' evaziga uni eftaliylar tutqunligidan xolos qiladi. SHartnomaga muvofiq Pero'z chegara yaqinidagi Talikon shahrini eftaliylarga topshirish hamda ikki o'rtadagi chegarani qayta buzmaslik majburiyatini oladi.

Ammo o'z mag'lubiyatini tasodifga yo'ygan Pero'z tez orada yana eftaliylarga qarshi yurish qiladi. Bu gal ham mag'lubiyatga uchragan Pero'z katta miqdorda o'lpon to'lashga, yosh o'g'li Qubodni eftaliylar qo'lida garovda qoldirishga majbur bo'ladi hamda eftaliylarga 2 yil mobaynida soliq to'lab turish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Mazkur mag'lubiyat natijasida Xuroson hududi to'laligicha eftaliylar tasarrufiga o'tadi.

Manbalarda yozilishicha, eftaliylar va forslar o'rtasidagi uchinchi urushga Pero'zning eftaliylarni aldashi sabab bo'lgan. Pero'z eftaliylar hukmdori Kunxa bilan go'yo do'stona munosabat o'rnatish maqsadida o'z singillaridan birini uning nikohiga berishni va'da qiladi. Ammo singilning o'rniga o'z

cho‘rilaridan birini yuboradi. Bunday haqoratdan g‘azablangan Kunxa o‘z qo‘li ostidagi Eron harbiy mutaxassislarini qatl etishga farmon beradi.

Vizantiya yordamidagi uchinchi, so‘nggi yurishida Pero‘z o‘z qo‘shin-lari bilan maxsus tayyorlangan bo‘ri o‘ralariga tushib halok bo‘ladi. Mazkur voqea 484 yili Marv yaqinida sodir bo‘lib, ushbu mag‘lubiyat natijasida Sosoniylar davlatining qudrati Eftaliylar tomonidan sindirildi. Pero‘zning qizi asirga tushib, Vaxshunvarning nikohiga olindi.

Eftaliylar jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining tahlili bu davrda aholining asosiy qismi dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lib, qolgan qismi esa ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanganligini ko‘rsatadi. Eftaliylarning ko‘pchiligi mahalliy aholi bilan arala-shib, o‘troq turmush tarziga o‘tgan hamda shahar hayotini o‘zlashtirgan-lar. Ko‘chmanchi turmush tarzini afzal ko‘rganlari esa kigiz o‘tovlarda yashab, keng va sersuv yaylovlarga ega bo‘lishgan. SHu boisdan ular man-balarda goh chorvadorlar, goh shaharliklar sifatida tilga olinadi.

YAngi er egaligi munosabatlarining tarkib topa boshlashi bilan sug‘oriladigan er maydonlarining ma‘lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari – “dehqonlar” qo‘lida to‘plana boshlagan. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo‘shchilari ma‘lum darajada zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram *kadivar-larga* aylana borganlar. Obikor erlarning ibodatxonalarga tegishli qismi “vag‘nze” deb yuritilgan. YAylovlarning asosiy qismi oqsoqol zodagonlar qo‘lida bo‘lgan.

V-VI asrlarda dehqonchilik vohalarida eftaliylarning o‘troq-lashuvi kuchayadi. Buning oqibatida sug‘oriladigan erlarga bo‘lgan talab ortadi. Mazkur ehtiyojni qondirish maqsadida kichik-kichik zovur va anhorlar qazilib, ko‘plab yangi erlar o‘zlashtiriladi. Hozir-ga qadar saqlanib qolgan Zaxariq, Bo‘zsuv, Darg‘om kanallari V asrda barpo etilgan yirik sug‘orish tarmoqlarining namunalari.

VI asr boshlarida Oltoy o‘lkasida siyosiy jarayonlar faollashadi. O‘sha paytda hozirgi Mo‘g‘uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug‘ining mavqeyi ko‘tariladi. Ashin urug‘iga mansub **Asan va Tuu 460-545 yillarda** boshqa urug‘larni o‘zlariga bo‘ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o‘g‘li **Bumin** Telye qabilasini ham bo‘ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551 yilda Jujan xonining qo‘shinlarini yengib, ularni o‘ziga bo‘ysundiradi. Bumin 552 yilda Xoqon deb ye‘lon qilinadi va yangi davlat - **Turk hoqonligiga asos soladi**. Uning poytaxti Oltoydagi **O‘tukan** shahri yedi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug‘i ortib borgan. U ko‘p bor Xitoyga yurishlar qilib, uning bir qancha hududlarini bosib olgan. Xitoy podsholigi Turk xoqonligiga har yili o‘lpon tariqasida yuz bo‘lakdan iborat ipak mato berib turishga majbur bo‘lgan.

553 yilda Buminxon vafot yetgach, hokimiyatga uning katta o‘g‘li Mug‘anxon (553-572) o‘tiradi. **Mug‘anxon** 558 yilda jo‘janlarga so‘nggi bor qaqshatqich zarba berib, o‘z davlati hukmronligini Tinch okeangacha bo‘lgan hududlarda mustahkamlaydi. Uning amakisi **Istami** (unga «Yabg‘u» - bahodir unvoni ham berilgan) bo‘lsa, bu davrda xoqonlik hududini g‘arbga tomon kengaytirib, Yettisuv, Qashqar va boshqa hududlarni yegallaydi.

563-567 yillar davomida Istami yabg‘u qo‘shinlari yeftaliylar davlatiga ketma-ket zarbalar berib, O‘rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo‘lgan yerlarni yegallashga muvaffaq bo‘ladi. Buning oqibatida Yeftaliylar davlati qulaydi. Turk xoqonligi O‘rta Osiyo yerlarini ishg‘ol yetgach, uning hududlari bevosita Yeron chegarasiga tutashadi.

Xoqonlik Eron bilan yaxshi qo‘shnichilik, savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishga intiladi. Shu maqsadda Eron shohi **Xusrav I Anushirvonga** turk malikasi uzatiladi, Yeronga yelchilar yuboriladi. Biroq Turk xoqonining Yeronga ikki bor yuborgan yelchilari faoliyati muvaffiyasiz chiqqach, Yeronning xoqonlik bilan murosaga bormasligi, uning qat‘iy dushmanligi ma‘lum bo‘ladi. Buning boisi Yeron shohining O‘rta Osiyo hududlariga da‘vogarligida yedi. Bu yesa, shubhasiz, bir necha bor xoqonlikning Yeron bilan urushlar olib borishiga sabab bo‘ladi. Istami qo‘shinlari Yeron shohi Xisrav I ni yengadi. Yeron shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillosi hajmida tovon to‘lashga majbur bo‘ladi. Mug‘anxon va uning avlodlari g‘arbda Qora dengizga qadar hududlarni zabt yetib o‘zlariga bo‘ysundirganlar.

Turk xoqonligi 568-569 yillarda o‘sha davrning qudratli davlati-Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishga intilib, sug‘d savdogari **Maniax** boshchiligidagi yelchilarni u yerga yuboradi. Yelchilar imperator **Yustinian II** qabulida bo‘ladi. Shundan so‘ng Vizantiyannig **Zemarx** boshliq

yelchilari xoqonlik davlatiga keladi. Bu yesa shu davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va savdo-tijorat munosabatlarini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb yetgan.

Ushbu voqealar va yana boshqa sabablar Turk hoqonligining zaiflashuviga olib keladi hamda oqibatda, 603 yili hoqonlik ikkita mustaqil davlatga bo'linib ketadi. Ulardan biri Mo'g'ulistonda tashkil topgan SHarqiy Turk hoqonligi, ikkinchisi esa O'rta Osiyo, Jung'oriya va SHarqiy Turkistonning bir qismini o'z ichiga olgan G'arbiy Turk hoqonligi edi.

Ettisuv G'arbiy Turk hoqonligining markazi edi. Ikkala hoqonlik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan bir-biridan ajralib turardi. SHarqiy hoqonlik aholisining asosiy qismi ko'ch-manchi chorvadorlardan iborat bo'lib, G'arbiy hoqonlik aholisining kattagina qismi esa o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanardi. Turk hoqonligida ko'chmanchi chorvador aholi "budun" yoki "qora budun" nomlari bilan yuritilardi. Budun qabilalar ittifoqini tashkil etardi. Elning hokimi "yabg'u" yoki "jabg'u" unvoni bilan atalardi.

VII asr boshlariga kelib, Xitoyda Suy sulolasi hukmronligi-ning tugashi bilan G'arbiy Turk hoqonligi yana taraqqiyotga yuz tuta-di. Tan sulolasining hokimiyatga kelishi bilan O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasida aloqalar jonlanadi. Elchilik munosabatlari yangidan yo'lga qo'yiladi.

VII asrning birinchi choragida G'arbiy hoqonlik nihoyatda kuchaya-di. Uning sharqiy chegarasi Oltoyga, Janubiy chegarasi esa Hind daryosi bo'ylariga borib taqaladi. Hoqon To'nyabg'u davrida (618-630) boshqaruv tartiblari isloh qilinadi. O'troq viloyat hokimlarini hoqonlik ma'muriyati bilan bevosita bog'lash va ularning ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, mahalliy hukmdorlarga hoqonlik-ning "yabg'u" unvoni beriladi. SHu bilan birga O'rta Osiyo, SHarqiy Turkiston va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari usti-dan siyosiy nazorat kuchaytirilib, ular huzuriga hoqonlikning va-killari yuboriladi. Bunday vakillar "tudun" deb yuritilgan.

Bo'ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqarish tartibi hoqonlikni zaiflashtira bordi. Natijada VI asrning 80-yillari oxirlarida Turk xoqonligi ikki qismga bo'linib ketadi.

VII asr ikkinchi yarmida ancha kuchaygan Xitoy O'rta Osiyo hududlarini ham o'z qo'l ostiga kiritish payiga tushadi. Biroq 670 yilda tibetliklar bosh ko'tarib, sharqiy Turk xoqonligini yangidan tiklaganlaridan so'ng va bu davlat Xitoy uchun kutilmagan xavf-xatarni keltirib chiqargach, endilikda Xitoy O'rta Osiyoga bo'lgan o'z da'vosidan vaqtincha voz kechadi. Uning yendigi butun diqqati Tibetga qaratiladi. Bu davrda O'rta Osiyo hududlarida G'arbiy Turk xoqonligi ta'siri tobora zaiflashib boradi. Bunga mahalliy hokimliklar o'rtasidagi ichki ziddiyatlar, yer-mulk uchun o'zaro kurashlar ham sabab bo'ladi. Bu yesa pirovardida bu hududlarning arab istilochilari tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ldi.

Turk xoqonligining sharqiy yerlaridan farqli o'laroq G'arbiy hududda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo'lgan. Negaki, sharqiy hududlarda yashagan ko'pchilik ko'chmanchi turkiy yelatlarda urug'-qabilachilik munosabatlari hamon kuchli saqlangan. Aholining quyi tabaqasi budun yoki qora budunlar deb atalgan. Urug'-qabilaning nomdor vakillari «beklar» deb yuritilgan. Jamoani xoqon va zodaganlar kengashi «Qurultoy» boshqargan. O'rta Osiyo yerlarida yesa bu davrda dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. O'lkaning Farg'ona, Xorazm va Zarafshon vohalarida ko'plab suv ayirg'ichlar, kanallar, suv havzalari bunyod yetilgan.

Farg'ona va Sug'dda aholining bir qismi tog'-kon ishlari bilan ham mashg'ul bo'lgan. Bu yerlarda oltin, mis, temir yeritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Iloqda qo'rg'oshin, kumush, Shahrisabzda yesa qizil tuz qazib olingan.

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi-yangi betimsol namunalari yaratildi. Turli olimlar mutaxassislar bahsiga sabab bo'lgan **Turk-ruin, Urxon-Yenasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi** va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatning qadimiyligi va rang-barangligiga guvohlik beradi. 1970 yilda Almati yaqinidagi «Issiq» degan joydan topilgan va fanga «Issiq yozuvi» nomi bilan kirgan turkiy yozuv ham bizning yozuv tariximizga oid qarashlarimizni yanada boyitadi. Yendilikda topilgan noyob ashyoi dalillar asosida turkiy yozuvning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib tutashishi ma'lum bo'ldi.

VI-VII asrlarda savdo stiqlik ishlarida janubdan shimolga tamon ko'chgan. Bunga vositachilik qilish so'g'diylarning qo'liga o'tadi. Ular nafaqat quriqlikda, balki shu bilan bir qatorda Kaspiy dengizi orqali ham savdo ishlarida faol qatnashgan. Bu borada Poykant shahrini aloxida tilga olish lozim, chunki

mazkur joyda savdogarlar ko'p istiqomat qilganlar va o'sha vaqtdagi oldi sotdilarni ular amalga oshirganlar. SHu boisdan ham bu shahar savdogarlar shahri yani "Madinat at-tujor" deb bejiz aytilmagan.

So'g'ddan chet mamalakatlarga mevalar: oq va sirir olcha chorva mollariadan quyriqdor qo'ylar shuningdek yilqidar chiqarilagn.

So'g'dning atroflari tog'lar bilan o'ralganligi bois bu erlarla oltin mis temir qal'aiy kumush singari rangli metallarning konlari juda ko'p bo'lgan. Kesh tog'laridan qizil tuz va oltin qazib olinsa iloqdan kumush va qalayt, maymurug'dan latun, oltin qazib chiqariladi. Mazkur maxsulotlarning zarur qismi ichki ehtiyojlar uchun bo'lsa, qolgani eksport sifatida chiqarib turilgan. YUqoridagi misollar so'g'dda temirchilik soxasining yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Metallurgtyada turli mehnat qurollari: belkurak, bolta, o'roq, mix, taqa va hakoza mehnat qurollari ishlab chiqarilgan. Turli tuman hunarmandchilik buyumlari: pichoq qaychi bezak ashyolari kalit qulf chiroqlardan, harbiy qurollar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. SHuning uchun ham so'hd harbiylari qurolanish jihatidan boshqa hudud harbiylariga nisbatan ancha ustun bo'lgan.

Arab xalifaligi-(632 - 1258) - Arabiston ya.o., Yaqin va O'rta Sharq, Shim. Afrika, Ispaniya, Markaziy Osiyo va Kavkazortini o'z ichiga olgan saltanat. 7-8-a.larda tashkil tongan. A.xionitlar asoschisi payg'ambar Muhamm(al)as)ning eng yaqin safdoshi xalifa Abu Bakrdir. Arablar yuqorida zikr etilgan mamlakatlarni 633-715 y.lar orasida bosib olganlar. Bu mamlakatlar asosan "Xulaf o-roshidin" ("To'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar") va ummaviylar zamonida fath etildi. Lekin abbosiylar bu ulkan hududni butun saqlab qololmadilar. Ichki ixtiloflar ta'siri ostida A.xionitlar 8-a.ning oxirlaridan boshlab mayda-mayda qismlarga parchalanib keta boshladi: 788 y. Mag'ribning g'arbiy qismida (hoz. Marokash) idrisiylar (788 - 985), uning sharqiy qismida (hoz. Tunis) ag'labiylar (800-909) xukmronligi o'rnatildi. Xuroson va Movarounnaxraa esa 9-a.ning 20-y.laridan boshlab mahalliy sulolalar: toxiriylar (821 - 873), safforiylar (867 - 903) va somoniylar (875 -999) bosh ko'tarib chiqdilar. Ular A.xionitlarga nomigagina tobe bo'lib, aslida mustaqil hukmdor edilar. A.xionitlar 1258 y. mug'ullar tarafidan tugatildi (yana q. Xalifalik).

Xalifalik - 7-8-asrlarda arab istilolari natijasida Arabiston yarim oroli, Yaqin va O'rta Sharq, Shim. Afrika, Ispaniya, Markaziy Osiyo va Kavkazortini o'z ichiga olgan davlat (q. Arab xalifaligi) Ibn Xaldunning yozishicha, "johiliya arablari" faqat diniy sifatdagi (payg'ambarlik, valiylik, kohinlik va h.k.) hokimiyatni tan olganlar. Shuning uchun ham hijratdan so'ng (622 y.) Madinada barpo bo'lgan va 630-632 y.larda butun Arabistoi ya.o.ni o'z ichiga olgan tuzum islom diniga asoslangan, teokratik davlat shaklini olgan. Bu davlatning boshlig'i- rasululloh - Allohning elchisi, ammo u abadiy emasligi payg'ambarning o'zi tomonidan qayta-qayta ta'kidlab kelingan. Bu davlatni keljakda boshqaradiganlar siyosiy usullardan foydalanishlari muqarrar edi, zero Muhammad (sav) - payg'ambarlarniig oxirgisi (xotam ul-anbiyo). Birinchi bo'lib bu haqiqat Payg'ambar (sav) tomonidan anglandi. "Xalifalik mendan keyin ummatlarim ichida o'ttiz yil, so'ngra amirlik (podsholik) dir" degan mazmundagi hadis aynan shu fikrni isbotlaydi. Darhaqiqat Allohning nomidan (vahiy orqali) ummatini boshqargan Muhammad payg'ambar vafotidan so'ngra rahbarlikka ilohiy rahnamolik sifatida eta bo'lmagan va bunga da'vo ham qilmagan xalifalar xelgan. Sahobalar bundan keyin dunyoviy ishlarni oddiy inson hukmdor - amir boshqarishini tushunganlar. Makkalik va madinalik sahobalar - muhojirlar va ansorlar o'rtasidagi bahs faqatgina ularning qaysi biri ana shu lavozimga saylanishi haqida borar ela. Abu Bakr Siddiqning Xalifatu Rasululloh - Alloh elchisining o'rinbosari bo'lib saylanishi shundan dalolatdir. Aynan shu davrda hokimiyat vazifalarining (sud, moliya va h.i.) bo'linishi va ularning, asosan, muhojirlar o'rtasida taqsimlanish yuz bergan. Bu jarayon, ya'ni davlat boshqaruv tizimi diniylik qiyofasini yo'qotib, dunyoviy tus olishi 4 xalifa - Abu Bakr Siddiq (632- 634), Umar ibn Xattob (634-644), Usmon ibn Affon (644-656) va Ali ibn Abu Tolib (656-661) davrida uzil-kesil amalga oshgan, ular "al-Xulaf o-roshidin" (to'g'ri y.dan boruvchi xalifalar) degan nom oldilar.

750 yilda Abbasaylar xalifaligi boshlangan. Umaviylardan farqli o'laroq abbosiylar o'z ismlariga Alloh so'zini qo'shib martabali laqablar olilar, shu yo'l bilan o'z hokimiyatlariga teokratik tus berishga uringanlar. Lekin amalda ularniig ko'pchiligi qo'g'irchoqqa aylanib qolib, boshqa qavimlar boshlilqari (mas. Mahmud G'aznavay), saljuqlar sultoni To'g'rubek, buvayhiylar amiri Ahmad kabilarga muboya'a (guvohnoma) berdilar va ularning hokimliklarini qonuniylashtirdilar. 9-a.dan e'tiboran Abbosiylar

xalifaligi parchalana boshlagan. Ispaniyada Kordova, Shim. Afrikada fotimiylar xalifaligining vujudga kelishi xalifalik yakkayu yagona bo'lishi kerak degan tushunchaga yana bir bor zarba bergan.

12-asrda Turk sulolalari zaiflashib, Bag'dod xalifaligi qischa mudlatga o'z qudratini qayta tiklagan edi hamki, Mug'ullarning qaqshatqich zarbasiga uchradi va 1258 y. Xuloku oxirgi Bag'dod xalifasi al-Musta'simni qatl qilgan.

Shunday qilib, Abbosiylar xalifaligi Mug'ullar tomonidan yo'q kilindi. Ammo 1261 yil Misr mamluklarining sultoni Zohir Baybars dastlab oxirgi Bag'dod xalifasining amakisi al-Mustansir, sung yana bir vakil al-Hakim I ni Qohiraga keltirib, abbosiylar sulolasini davom ettirdi. Yuqorida zikr etilgan ikkala shaxsning ham haqiqatan abbosiylarga mansub ekanini o'z vaqtida akad. V.V.Bartold qattiq shubha ostiga olgan edi. Qanday bo'lganda ham Qohiradagi Abbosiylar xalifaligi 1517 y. usmonli turklar tomonidan Misr bosib olingunga qadar davom etdi.

Arablar zulmiga qarshi xalq ozodlik kurashlari. Markaziy Osiyo xalqlari arablar istilochilik yurishining birinchi kunlaridan boshlab o'z erki va ozodligi uchun muqaddas kurashga otlanganlar, ona Vatan tuprog'ining biror qarich yeri bo'lsa uni jangsiz va kurashsiz bosqinchilarga bermaganlar. Arablarga qarshi olib borilgan erk va ozodlik kurashining eng ztiborli tomoni shundaki, bu kurashda Movarounnahrning o'trok qadimiy yerlik aholisi bilan turk qabilalari doimo birgalashib yagona ittifoqda jang qilganlar

720-722 yillarda birinchilar qatorida arablarga qarshi So'g'diyonada qo'zg'olon ko'tarilgan. Bu qo'zg'olonga Samarqand hokimi G'o'rak va Panjikent hukmdori Divashtich boshchilik qilganlar. Har safar bo'lganidek so'g'dliklarning ozodlik va erk uchun kurashlarini turklar qo'llab quvvatlaganlar. Yettisuvdan, Turkash hoqon shaxzoda Kursul boshchiligida katta qo'shinni yordam berish uchun Samarqandga yuborgan. So'g'dliklarning birlashgan kuchlari arablarga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib bir necha sezilarli zarbalar berganlar. Bu paytda Xurosonda Said ibi Abdulaziz noib edi. U yumshoq tabiatli va ayni zamonda kiyim-kechakka o'ch bo'lganligidan "Xuzayna" (uy bekasi) laqabini olgan edi. Xurosonga yangi tayiilangan Said ibn Amr Al-Xaroshiy (721) so'g'dliklarga qarshi keskin choralar ko'rgan. U Iroqda ko'tarilgan halq ko'zg'olonini bostirishda o'zining shafqatsizligi bilan nom qozongan edi. Xaroshiy ko'rgan keskin choralardan jabr ko'rib norozi bo'lgan So'g'd aholisi mamlakatni tark etib, Farg'onaga ko'chishga qaror qilgan. So'g'd aholisidan taxminan 10 miig kishi yo'lga o'tlanib, Xo'jand shahriga yetib kelganlarida Farg'ona podshasi ularni shaharda joylashtira olmay Isfara hududlarida joylashishini taklif ettan. Bu birinchi guruh edi. Ikkinchi guruh Panjikent hokimi Divashtich boshchiligida Zarafshon bo'ylab tog'lar oshib Obgar (Obargar) qal'asi oldidan o'tib ilgarilab borgan.

Birinchi guruh hali Isfaraga yetib bormasdan Al- Xaroshiy yuborgan arab qo'shinlari Xo'jandga yetib borganlar va so'g'dliklarni qamal qilgailar. Farg'ona hokimi so'g'dliklarga yordam bermagan. Qamalda qolgan so'g'dliklarni arablar batamom qirib tashlaganlar. Ba'zi ma'lumotlarda uch ming, yana boshqalarida esa yetti ming odam ana shu qirg'inda halok bo'lganligi takidlanadi. Arablar juda katta o'ljalarni qo'lga olganlar.

Said Al-Xaroshiy Divashtich boshchiligida Obargar yaqinida turgan panjikentliklarni tugatishga kirishadi. Shu maqsadda u Sulaymon ibn Abussari boshchiligida katta qo'shin jo'natadi. Bu qo'shin tarkibida Markaziy Osiyo hududlaridagi bir necha hokimlar, jumladan Xorazm vohkasi kuchlari ham bor edi. Umumiy qo'shinga rahbarlik qilish Musayyob ibn Bashir Ar-Riyohiyga yuklatiladi.

Qo'zg'olon ko'targan Divashtich boshchiligidagi kuchlar obargar qalasidan chiqib dushmani qarshi oladi. Bu jangda arablarning qo'li baland kelib, qo'zg'olonchilar Obargar qal'asiga chekinadilar. Qala arablar tomoindan qurshovga olinadi. Kuchlar nisbatining teng emasligini hisobga olgan Divashtich Sulaymonga qalani topshirishga rozi bo'ladi va o'zini Musayyob bilan birga Xaroshiy oldiga yuborishni so'raydi. Xaroshiy Divashtichni izzat-ikrom bilan kutib oladi, samimiy qabul kiladi, so'ngra Arbinjonga (ba'zi manbalarda Rabinjon - Kattaqo'rg'onga yaqin joyda) olib borib qatl etadi. Divashtich tanasi zardushtiylarning xilhonasi - novus devoriga qoqib qo'yiladi. Xaroshiy so'g'dliklar qo'zg'olonini bostirgach, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida "tartib" o'rnatadi. Unda ayniqsa Kesh va Nasaf katta taassurot uyg'otadi. U Sulaymon ibn Abussariyani bu shaharlarga hokim qilib tayinlaydi. Bundan tashqari Sulaymon ayni zamonda harbiy ishlarga, hamda hiroj to'plash bo'yicha ham boshliq edi Bunday masuliyatli ikkita lavozimga bir vaqtning o'zida u davrda hech kim qo'yilmasdi. Bu Sulaymonga bo'lgan o'ziga hos katta ishonch edi, albatta.

Arab istilochilariga qarshi kurash bir daqiqa bo'lsada to'xtamadi va u muttasil davom etdi. 723 yilda Farg'ona podshosi bosh ko'tardi. Uni Shosh, Nasaf aholisi va turklar qo'llab quvvatladi. Ittifoqchilarning birlashgan kuchlari arablarni Xo'janddan to Samarqandgacha bir necha zarbalar berib ta'qib etib bordilar. Bu voqealar shundan dalolat beradiki, so'g'dliklar arablardan bir necha bor mag'lubiyatga uchragan bo'lsalarda ular o'zlarini hali batamom zabt etilgan deb hisoblamas edilar va arablarga qarshi kurashni davom ettira berdilar.

725-729 yillar davomida arab xalifaligining soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro va Xuttaliyonda qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu davrda Ashros ibn Abdulla As Sulomiy noib bo'lib u ikki tomonlama siyosat olib borib mahalliy aholining g'azabiga duchor bo'lgandi. U dastlab musulmon dinini qabul qilgan fuqarolardan hech qanday soliq olinmaydi, deb Xuroson va Movarounnahr aholisining ishonchiga sazovor bo'lgan edi. Ashros arablar kuchi islomda, islomni qabul qilgan mahalliy xalq arablarga hech qanday qarshilik qilmaydi, deb o'ylagandi. So'g'dliklar uning va'dasiga ishonib tezda islom diniga kirgan va musulmon bo'lgandilar.

Masalani qiziq tomoni shundaki ilgari xalq tomonida turib arablarga qarshi kurashgan Samarqand Hokimi G'o'rak endi Ashros siyosatiga qarshi chiqadi. Taboriy ma'lumotlariga qaraganda u Ashrosga hat yozadi. Bu hatda musulmonlikka o'tganlarga nisbatan tutilgan siyosat hirojning yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi xiroj oladigan odam qolmadi, deb uni ogohlantirgan emish. Shundan so'ng Ashros G'o'rakning haq ekanligiga hayotda ishonch hosil qilibdi va ilgari "kuch islomda" degan fikr o'rniga "arablar hukmronligining kuchi hirojda" degan shiorni ilgari suribdi. Ana shu asnoda Ashros islomni qabul qilgan va qilmaganlardan ham bir hilda, avvalgidek soliq yig'averishni buyuribdi. Bu tezda so'g'd aholisining keskin noroziligiga sabab bo'lib katta qo'zg'olonlarning boshlanishiga olib kelgan. Samarqandda boshlaigan bu qo'zg'olonga yetti ming kishi qatnashgan. Qo'zg'olon kengayib Buxoroga tarqalgan. Samarqand va Buxorodagi qo'zg'olon qatnashchilari o'zlarini musulmonlikdan chiqib kofirlikka qaytganliklarini ochiq-oydin e'lon qilganlar. Turklar qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatlab ularga yordam berganlar. Qo'zg'olon hamma yerni qamrab olgan.

Ayniqsa, 728 yil arablar uchun juda og'ir bo'lganligi qayd etiladi. Qo'zg'olonchilar ularni juda ko'plab hududlardan haydab chiqargapnar. Faqat G'o'rakning ikkiyuzlamali va sotqinlik siyosati tufaydi Dobussiya va Samarqand arablar qo'lida qolgan. G'o'rak bu ozodlik kurashida katta rol o'ynashi mumkin edi. Ammo u bu yo'lni tanlamadi. Faqat 729 yilda juda katta urinishlardan so'ng arablar yana Buhoroni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldilar. Turklarning qo'zg'olonchilarga ko'rsatgan yordamidan ta'sirlangan G'o'rak kechikib bo'lsada arablar bilan aloqani uzdi va sug'dliklaa qo'zg'oloniga qo'shildi. Bu uning ilgari obro'sining tiklanishiga sabab bo'ldi. Taboriy ayniqsa Kesh atrofida arablarga qarshi Shosh, Farg'ona qo'shinlari va turk lashkarlarining qaxramonlarcha jang qilganligini alohida ko'rsatadi. Bu olib borilgan janglar Samarqand, Buxoro va boshqa joylarni istisno qilganda Movarounnahr xalqining yana besh yil mobaynida arablar hukmronligiga bo'yosunmagan jasoratidan bir namunadir.

736-737 yillarda Tohariston va So'g'dda arablarga qarshi yana qo'zg'olon ko'tarilgan. Natijada arablarga qarshi juda og'ir ahvolga tushib qoladilar. Og'ir vaziyatdan qutulish mahsadida Xuroson va Movarounnahrning noiblari va amirlari bir necha marta o'zgartiriladi. Xususan Nasr ibi Sayyor (738-748) davrida ko'rilgan tadbirlar tufayli arab istizyuchilari o'lkada o'z mavqelarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. U qo'zg'olonchilarni bostirish uchun Samarqand, Shosh, Farob va Farg'onaga bir necha bor qo'shinlar tortib bordi. Nasr ibn Sayyorning noiblik davri Markaziy Osiyo yerlarini arablar tomonidan istilo qilinishi tarixida yangi va sungi davrdir. U ma'lum bir- muddat davomida mamlakatda nisbiy osoyishtalik o'rnata oldi. Nasr bunga qanday erishdi? Avvalo u oqsuyak dehqonlar o'rtasidagi nizolardan foydalandi, ularning ko'pchiligini o'z tomoniga og'dirib oldi. Oqsuyak dehqonlar, lashkarboshilar imtiyozlarini saqlashga alohida e'tibor berdi, ular o'tasida kon-qardoshlik va qarindosh-urug'chalik aloqalarini o'rnatishni har taraflama qo'llab-quvvatladi. Uzi bu sohada namuna ko'rsatib Tog'shoda Buxorxudotning qiziga uylandi. Va nihoyat Nasr ibn Sayyor moliyaviy islohot o'tkazdi. Unga ko'ra islom dinini qabul qilgan barcha kishilar juz'ya solihlaridan ozod qilindilar va barcha musulmonlar xuquq jihatdan tenglashtirildi. Yer egasi esa qaysi e'tikodda bo'lishidan qat'i nazar, xiroj solig'gi to'lashi shart qilib qo'yildi.

Xuddi mana shu davrda yani 746 yilda Xurosondaga abbosiylar harakatiga boshchilik qilish maqsadida Abu Muslum (asli ismi Abdurahmon ibn Asad, taxminan 727-755 yillar" bu yorga yuboriladi.

Abu Muslimning tarjimai holi to'g'risida bir-biriga qarama-qarshi ma'lumotlar bor. Jumladan, Taboriyning yozishicha Kufaning Savad yaqinidaga Xutorniyn degan joyda tavallud topgan. U yoshligida bir boyning uyyda gumashta bo'lib ishlagan, sarrojlilik qilgan.

Dinovariy esa, Abu Muslim yigitlik chog'ida Isfaxon atrofidagi bir qishloqda qul bo'lgan, degan ma'lumotni berada. Biroq Abu Muslim to'g'risida batafsilroq va to'laroq ma'lumotni Taboriy yozganligidan

Dinovariy bergan ma'lumotlarga qaraganda Abu Mulum kuchlari safi va geografik doirasi tobora kengayib bordi. Uning qal'asi atrofida Xirof, Bushang, Marvirud, Talikon, Marv, Niso, Obivard, Tus, Nishopur, Seraxs, Balx, Chog'aniyon, Tohariston, Xuttaliyon, Kesh, Nasaf va boshqa viloyatlardan 100 mingdan ortiq lashkar to'plangan edi. Yetarli miqdorda kuch to'planganligiga ishonch hosil qilgan Abu Muslim 747 yilda o'zining qora rangli libos kiygan qo'shinlarini ummavyaylarga qarshi ochik kurashga da'vat etdi.

Abu Muslim erishgan muvaffaqiyat uning obru etiborining arab xalifaligidagi keng yoyilishiga sabab bo'li. Unin qo'shini tobora yangi kuchlar hisobidan ko'payib bordi. Tez orada qo'zg'olonchilar Xurosonni egallab oldi va 749 yilda Iroq va Jazoirda ummaviylar qo'shinlariga bir necha bor qaqshatkich zarbalar berdalar. Shundan so'ng Abu Muslim lashkarlari poytaxt Damashqqa tomon yurish qildi va xalifa Marvon II ni taxtdan ag'dardi. Bu janglarda lashkarboshi sifatida arab Kaxtaba va xurosonlik Xolid ibn Barmo o'zlarini ko'rsatdilar. Xalifalik taxti abbosiylar qo'liga o'tdi. Ular 750- 1258 y. davomida xalifalikni o'z qo'llarida saqladilar. Taxtga birinchi bo'lib Muhammadniig amakisi avlodlaridan bulgan Abul-Abbos as-Saffoh (749-754) o'tirdi. Xalifalikning hamma hududlarida ummaviylar xonadonining vakillari va yaqiilari batamom qirib tashlandilar.

Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishida Abu Muslim so'zsiz suratda juda katta xizmatlar qildi. U o'z davrini yirik davlat arbobi va mashhur sarkarda edi. Abu Muslim Xuroson va Movarounnahr xalqiniig ummaviylar zulmidan noroziligidan foydalanib o'z orqasidan ergashtira oldi va ularni bir maqsad yo'lida birlashtirdi.

Muqanna qo'zg'oloni. Arab istilochilari istibdodiga qarshi Movarounnahrda eng katta qo'zg'olon 769 yilda boshlandi. Bu tarixda "Oq kiyimlilar" (chunki qo'zg'olonchilarning asosiy jangovar guruhi oq rangdagi kiyim kiygan edilar) yoki qo'zg'olon rahbarining iomi bilan Muqanna qo'zg'oloni deb yuritiladi. Bu qo'zg'olon deyarli butun Markaziy Osiyo hududlariga tarqaldi. Muqanna ism emas, balki laqabdir. Bu so'z "niqobdor", "pardali" ma'nolarini anglatadi. Muqannaning asli ismi Hoshim ibn Xakim bo'lib, uniig ismi va shaxsi to'g'risida yozma manbalarda turlicha ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Ya'qubiy uni Hakim al-A'var (bir ko'zli) Xoshim deb atagan. Ibi Xallikan esa Muqannaning ismi Ota bo'lgan deydi. Muqannani yomon ko'rgan feodal zamoni tarixchisi Narshaxiy yozadi: "Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyiylariga sabab shu ediki, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'r bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurardi» Muqannani faoliyati to'g'risida ham har xil rivoyatlar bor. Ba'zi birovlar uni qul bo'lganlar desalar, boshva birovlar u kir yuvish bilan shug'ullangan, yani ba'zi qismlar esa kigizchilik bilan mashg'ul bo'lgan deb rivoyat qiladilar. Manbalarda Muqannaning yoshlik chog'larida kundugarlik (ya'ni matolarga ohor beruvchi) bilan shug'ullanganligi ham qayd qilinadi. Narshahiy Muqannani yomon ko'rganligini sir saqlamagani holda uni aqli va o'qimishli bo'lganini tan oladi. Darhaqiqat, u savodli va nihoyatda bilimdon bo'lgan. Muqanna Abu Muslim (750-755) qo'shinida kichik lashkarboshi edi va Abduljabbor Azdiy davrida (757-759) esa vazirlik darajasigacha ko'tarilgan.

"Oq kiyimlilar" ga qarshi arablarning kurashi yangi davrga kiradi. 780-783 yillarni o'z ichiga olgan bu kurash davrining bosh maqsadi "oq kiyimlilar" qo'zg'olonining bosh rahbari Muqannani tor-mor keltirishdan iborat edi. Bu davrga kelib mahalliy oqsuiyaklar va zodagon dehqonlar ozodlik va erk uchun olib borilgan kurash manfaatlariga xiyonat qilib, sotqinlarcha arablar tomoniga o'tadilar. Ular Said Xaroshiy lashkarlar bilan birgalashib Muqanna boshchiligidagi vatanparvar kuchlarga qarshi jang qiladilar. Kesh shahri va Muqanna qarorgohi bo'lgan nihoyatda mustahkam Som qal'asi atrofida keskin va shiddatli janglar bo'ladi. Mana shunday qaltis va nozik bir paytda Qulartegin boshchiligidagi turk suvoriylari Muqannaga yordamga keladilar. Xalifa Mahdiy esa arab qo'mondonligiga yangi madad kuchlar yuboradi. Madad kuchlar yetib kelgach, arablar va mahalliy sotqin kuchlar birlashib, Muqannaning so'ngi tayanchi bo'lgan Som qal'asini chor atrofdan qurshovga oladilar. Qo'zg'olonchilar bu siquvga bardosh bera olmaydilar va yengiladilar. Muqannaning og'asi Qabzam 3000 va Som qal'asi

atrofida mudofaa janglariga qo'mondonlik qilgan Sarham 3300 kishilik ko'shin bilan sotqinlarcha Said Xaroshiyga taslim bo'ladi. O'zoq davom etgan kurash oqibatida Muqanna ko'shinining tinkasi qurigan edi. Shu bois qo'zg'olon yengiladi va Muqanna halokatga uchraydi. Yozma tarixiy manbalarda Muqannaning taqdiri to'g'risida turlicha talqinlarga duch kelamiz. Tarixchi Taboriyning yozishicha, Muqanna o'z halokatining muqarrarligiga ko'ziga yetgach zahr ichgan. Som qal'asiga kirgan arablar uning jasadini tonganlar va boshini kesib o'sha davrda Halabda turgan xalifa Maxdiyga olib borganlar. Narshahiy bo'lsa afsonaga o'xshashroqk rivoyatni hikoya qiladi. Uning yozishicha Muqanna o'zini yonib turgan o'tga tashlagan. Bu fikrni Bar Yahudiy (Abul Faroj) ham takrorlaydi. Beruniy o'zining "Xronologiya" asarida Muqannaning o'limi xususida ikki xil rivoyat keltirgan. Bu rivoyatlarga qaraganda Muqanna o'ldirilgan, ikkinchi rivoyatda esa Muqanna o'zini o'zi o'tga tashlab o'ldirgan, deyiladi. Muqannaning qachon vafot etganligi haqidagi fikr ham bir xil emas. Narshahiyning zzi Muqannaning vafoti to'g'risida bir-birini inkor etuvchi ikkita yilni tilga oladi bu 782 va 783 yillardir. Beruniy ma'lumotiga ishonsak, Muqanna 785 yilda olamdan o'tgan.

Muqanna rahbarligida "oq kiyimlilar" qo'zg'oloni yengilgan bo'lsada juda katta tarixiy iz qoldirdi va Movarounnahrda Arab xalifaligining mustamlakachilik, bosqinchilik ildizlariga bolta urdi. Bu qo'zg'olon xalq ommasining kuch-qudrati birlikda, hamkorlikda ekanligini ko'rsatdi. IX asrdan boshlab o'lkada tashkil topa boshlagan mahalliy markazlashgan feodal davlatlarning shakllanini ibtidosi ham "oq kiyimlilar" ko'zg'oloni davrlaridan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Muqanna qo'zg'oloni ayniqsa hozirgi sharoitda O'zbekiston fuqarolari Vatan mustaqilligini yanada mustahkamlash uchun kurash olib borayotgan bir paytda g'oyat katta ijtimoiy siyosiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Muqanna va u bilan birga Vatan ozodligi va erki uchun kelgindi arab bosqinchilariga qarshi kurashgan fidoiy kaxramonlar timsoli ayniqsa yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida asrlar osha xizmat qilaveradi.

Muqanna qo'zg'oloni yengilgan va halokatga uchragan bo'lsa-da, "oq kiyimlilar" harakati darhol to'xtab qolgani yo'k, balki u yana bir necha o'n yillar mobaynida davom etdi va istilochi arablarning tinkasini quritib bordi. Bu albatta o'lkamiz xalqlarining erksevar, hurriyatparvar, haq va adolat uchun kurashda juda katta tarixoy an'ana ga ega bo'lgan jasur va mard xalq bo'lganliklaridan dalolatdir.

5-mavzu. IX-XII asrlarda O'zbek davlatchiligi. Ijtimomy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi

Reja:

1. IX-XII asrlarda Movarounnahrda Toxiriylar, Somoniylar hukmronligi
2. Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
2. O'rta Osiyoda «Uyg'onish davri» va bu davrda yashab ijod qilgan qomusiy olimlar.
4. IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik.

Tayanch tushunchalar:

Qorluqlar, O'g'uzlar, Tohiriylar, Safforiylar, Samoniylar, Qoraxoniylar, Qoraxitoylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlati. Abul Hasan Bayhaqiy, Abu Nasr al-Utbiy, Abul Qosim Firdavsiy, Mahmud Qashqariy (XII-XIII asrlar), Mahmud Zamaxshariy (XI-XII asrlar), Burhoniddin al Marg'iloniy (XII asr), Islom madaniyati, Me'morchilik, sa'nat va musiqa.

VIII asr oxiri - IX asr boshlarida Arab xalifaligi og'ir siyosiy tanglikka uchradi. Bo'ysundirilgan xalqlarni itoatda tutib turish arablar uchun tobora qiyin bo'lib qoldi. Movarounnahr va Xuroson aholisining tez-tez qo'zg'olon ko'tarib turishi, uzluksiz davom etgan o'zaro urush va ichki ziddiyatlar Arab xalifaligi hokimiyatini zaiflashtirdi. Bu esa mustaqil davlatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Movarounnahrning shimoliy va shimoli sharqiy hududlaridagi hali xalifalikka bo'ysundirilmagan chegaradosh elyurtlarda bir nechta davlatlar tashkil topdi. Ulari Qarluqlar va **O'g'uzlar davlatidir.**

Tohiriylar davlati. VIII asr oxiri IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarni Movarounnahr va Xurosonda olib borilayotgan siyosatni o'zgartirishga majbur etdi. Mahalliy zodagonlar Movarounnahr va Xurosonni nafaqat o'z tasarruflariga o'tkazib oldilar, balki xalifalik markazida ham hokimiyatni boshqarishda tobora ko'proq rol o'ynaydigan bo'lib qoladilar. Bunga, ayniqsa,

xalifa Horun arRashid (786-809) vafotidan so'ng uning o'g'illari Ma'mun bilan Amin o'rtasida 809-813 yillarda taxt uchun bo'lgan kurash katta yo'l ochib berdi.

Xalifalikning markaziy qismidagi arablar Aminni xalifalik taxtiga ko'taradilar. Bundan norozi bo'lgan Ma'mun ukasi Aminga qarshi kurash boshlaydi. Hirot viloyatining zodagonlaridan Tohir ibn Husayn boshliq Xuroson va Movarounnahr mulkdorlari unga yordam beradilar. 813 yilda ular Bag'dodga yurish qiladilar. Poytaxt qo'lga kiritilib, Ma'mun xalifalik taxtiga o'tiradi. Buning evaziga Tohir 821 yilda Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Shuningdek, Ma'mun Movarounnahr zodagonlarining ham yordamini unutmadi. Somonxudotning nabiralarini ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlaydi. Nuhga Samarkand, Ahmadga Farg'ona, Yahyoga Shosh va Ustrushona, Ilyosga esa Hirot tegadi. Buning evaziga akauka somoniylar Movarounnahrning har yilgi xirojidan juda katta mablag'ini tohiriylar orqali xalifa xazinasiga yuborib turadilar. Tohir davlat ishlarini mustaqil idora etish maqsadida 822 yilda xalifa nomini xutbadan chiqartirib tashlatadi.

Bu amalda Bag'dod bilan aloqani uzish va o'zini mustaqil deb e'lon qilish edi. Biroq ko'p vaqt o'tmay u to'satdan vafot etadi. Tohirning o'g'illari Talxa va Abul Abbos Abdulloh otasining o'rniga birin ketin noiblik qiladilar. Shunday qilib, Xuroson va Movarounnahr boshqaruvi tohiriylar xonadoniga meros bo'lib qoladi. Abul Abbos Abdulloh noibliigi (830-844) davrida poytaxt Marvdan Nishopur shahriga ko'chiriladi.

Tohiriylar zamonida ham mehnat ahlining ahvoli nihoyatda og'irligicha qolaverdi. Masalan Tohiriy hukmdorlar, ayniqsa, so'nggi hukmdorlar: Tohir ibn Abdulloh (844 -862), Muhammad ibn Tohir (862 - 873) davrida oddiy xalq ahvoli ancha og'irlashadi. Ular haddan ziyod o'p o n va soliqlar to'lash g a majbur etiladi. Jumladan, birgina 844-yilda ulardan olinadigan soliq miqdori 48 mln dirhamni tashkil etgan.¹ Bu holatlar tohiriylarga qarshi xalq g'alayonlarini kuchayishiga sabab bolgan. Bunday qo'zg'olonlarga «g'oziyalar» ham qo'shiladilar. Qo'zg'olonga safforiylar - akauka Ya'qub va Amr ibn Layslar boshchilik qiladilar. 873 yilda Xuroson poytaxti Nishopurni egallaydilar. Natijada tohiriylar hukmronligi tugatilib, hokimiyat safforiylar qo'lga o'tadi.

Somoniylar davlati. IX asrda Movarounnahrning siyosiy hayotida ham o'zgarishlar yuz beradi. Yurtga avval Nuh, so'ngra Ahmad boshchilik qiladi. Har biri hukmronligi davrida o'z nomiaridan misdan chaqalar zarb etadilar. Ahmad vafotidan (865) keyin uning o'g'li Nasr Samarqandni markazga aylantiradi. U Movarounnahrning barcha viloyatlarini birlashtirish va uni Xurosondan ajratib olish choralari ko'radi. IX asrning oxirgi choragida Movarounnahrning deyarli barcha viloyatlari somoniylar tasarrufiga o'tadi. Nasr butun Movarounnahrning hukmdoriga aylanadi. U kumush dirham zarb etadi. Ko'p o'tmay akauka Nasr va Ismoil o'rtasida tojtaxt uchun kurash boshlanadi. Unda Ismoil g'olib chiqadi. Ismoil Somoniy 888 yilda butun Movarounnahrni o'z qo'l ostiga birlashtirdi.

Ismoil Somoniy o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirib, mustahkam davlat tuzishga intildi. Shimoli sharqiy hududlarga yurish qiladi. 893 yilda Tarozi shahrini fath etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba beradi. Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishishi, shubhasiz, Arab xalifalariga yoqmas edi. Arab xalifaligini, bir tomondan, Movarounnahrda muttasil undirib olinadigan katta boyliklardan mahrum bo'lishi nihoyatda ranjitsa, ikkinchi tomondan, cho'chitar ham edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni to'qnashtirishga va ularning har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda o'z ta'sirini qayta tiklashga harakat qiladi, Xalifa Mu'tazid (892-902) safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan ham hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi g'ijg'ijlaydi. Natijada 900 yilda ular o'rtasida urush boshlanadi. Urush Ismoilning g'alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilga hukmdorlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ladi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni o'z qo'l ostida birlashtirdi. Buxoro shahri bu ikki diyorning poytaxtiga aylandi. Somoniylar davlati Nuh ibn Nasr (943 - 954) hukmronlik qilgan davrda har tomonlama og'ir ahvolga tushib qoldi. Davlat xazinasini batamom bo'shab qoldi, moliyaviy ahvol og'irlashdi. Hatto, soliq va o'p o n lar ko'payib, soliqlarni muddatidan ilgari undirib olish odati chiqarildi. Har tomonlama iqtisodiy qiyin ahvolga tushib qolgan xalq Nuhga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Bunday kurashlar Abdumalik (954 - 961) davrida ham davom etdi. Somoniylar davlatida turk lashkarboshilarining ta'siri shu darajada kuchayib ketdiki, ular davlatni boshqarish ishlarini

¹ Ergashov Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi. T.: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot -matbaa ijodiy uyi", 2015. 147 b.

batamom o'z qollariga oldilar. Bu borada turk lashkarboshisi Ali Taginning roli va o'rni g'oyatda katta bo'ldi. Abdumalik vafoti (961)dan so'ng somoniylar hukmronligining inqirozi boshlanadi. Qo'zg'olon ko'targan xalq Buxoro taxtini egallab talon-taroj qiladi, taxt uchun kurash kuchayadi. Bu kurashlar, ayniqsa, Amir Mansur ibn Nuh II (976-997-y.y.) hukmronligi davrida keskin tus oldi. Ichki nizolar oqibatida Nuh II Yettisuv qa Qashg'arda vujudga kelgan Qoraxoniylar davlatining Movarounnahrqa qilgan yurishlariga keskin qarshilik qilolmadi. Somoniylar davlatidagi beqarorlikdan foydalangan Qoraxon Xorun Bug'roxon 990-yilda G'arb tomon qo'shin tortdi va ikki yil davomida Somoniylarga qarashli bir qancha viloyatlarni bosib oldi. Shundan so'ng Somoniylar davlati o'zini tiklay olmadi. Somoniylarning so'nggi hukmdori Abu Ibrohim Muntasir 1005-yilda o'ldiriladi hamda Movarounnahr va Xurosondagi Somoniylarga tegishli bo'lgan hududlar Qoraxoniylar va G'aznaviylar tomonidan bo'lib olinadi.¹

Qoraxoniylar davlati. Qoraxoniylar-O'rta Osiyoda, asosan Movarounnahr va Sharqiy Turkiston xududlarida Somoniylardan keyin 999-1212 yillarda hukmronlik qilgan musulmon turkiy sulola. Uni barpo etishda qator turkiy qabilalar ishtirok etgan, bulardan qarluq, chigil va yag'mo qabilalari yetakchi bo'lgan. Asoschisi yag'mo qabilasidan chiqqan Abdulkarim Sotuq Bug'roxon (Qoraxon). Yag'molar X asr o'rtalarida islom dinini qabul qilganlar. 992 yilda Xorun ibn Muso Sotuq Buxoroni, 996-999 yillarda uning vorisi Nasr I Movarounnahrni butunlay bosib oldi. Qoraxoniylar davlati poytaxti dastlab Qoshg'ar, keyin Bolasog'un, O'zgan shaharlari bo'lib, kayinchalik yana Qoshg'arga ko'chirilgan. XI asrning 60-70 yillarda qoraxoniylar ichki siyosiy kurash va saljuqiylar tazyiqi ostida davlati zaiflashib, kuchsiz davlatga aylanib qoladi. 1212 yili qoraxoniylarning so'nggi vakili Qilich Arslon Muhammad Xorazmshoh tomonidan o'ldirilgan.

Qoraxitoylar-XII asrning 30-40 yillarida movarounnahrni o'troq dehqonchilik vohalariga bir necha marotaba bosqinchilik yurishlari uyushtirgan ko'chmanchi turkiy qabilalar. Qoraxitoylarning kelib chiqishi haqida fanda yagona fikr mavjud emas. Ba'zi tadqiqotchilar ularni Sibirning tungus aholisiga, boshqalar esa mo'g'ullarga mansub deb hisoblaydilar. XII asr boshlarida ular Yettisuv viloyatini ishg'ol etib to Yenisey daryosigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan kattagina davlatni barpo etadilar. Bolasog'un bu davlatning poyxtiga aylantirilgan. Podshohlari "go'rxon" deb yuritilgan.

G'aznaviylar davlati. G'aznaviylar 977-1187 yillarda O'rta Sharq (Shimoliy sharqiy Eron, Afg'oniston va G'arbiy Hindiston) da mavjud bo'lgan davlatning va uni boshqargan sulolaning nomi. G'aznaviylar davlatida turkiy sulola hukmronlik qilgan. Asoschisi somoniylarning lashkarboshisi Alptakin. U 962 yil qo'l ostidagi g'ulomlariga tayanib, G'azna viloyatida o'z hokimiyatini o'rnatdi. O'ning vorisi Sabuqtegin (977-997) va Mahmud G'aznaviylar davrida (998-1030) O'rta Sharqning eng qudratli davlatiga aylangan.

G'aznaviylar davlati ravnaq topgan davrda saroyda va shaharlarda buyuk olimlar yashab, ijod etganlar (Beruniy, Utbiy, Abulfazl Bayhakiy, Gardiziy, Firdavsiy va boshq.) Mas'ud I davri (1030-1041)da Xorazm qo'ldan ketdi, Movarounnahrning katta qismini qoraxoniylar tortib oldi. XII asrning 70-yillarida g'uriylar g'aznaviylarni Shimoliy Hindistonga siqib chiqardilar, Lahor ularning keyingi poytaxti bo'ldi. 1187 yilda g'uriylar lahorni ham bosib olib bu davlatga barham berdilar.

G'aznaviylar sulolasining vakillari: Alptegin (962-977), Sobiqtegin (977-997), Ismoil (997-998), Mahmud G'aznaviy (998-1030), Mas'ud (1030-1041), Mavdid (1041-1048), Mas'ud II (1049), Ali Abuhasan (1049-1051), Abdurashid (1051-1099), Mas'ud III (1099-1115), Sherzod (1115-1116), Bahromxon (1117-1153), Husravshoh (1153-1160), Husrav Malik (1160-1187)

Xorazmshohlar davlati. 1017 yilda Mahmud G'aznaviy tomonidan zabt etilib, o'z mustaqilligidan mahrum bo'lgan Xorazm ko'p vaqt o'tmay (1040) Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoladi. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh o'z ma'murlaridan Anushteginni Xorazmga noib qilib tayinlaydi. Anushtegin vafotidan so'ng Xorazmda uning vorisi Qutbiddin Muhammad (1097-1127) noiblik qiladi. Garchi u «xorazmshoh» unvonini tiklab, bunday jarangdor nom bilan ulug'lansada, Saljuqiylar davlatining sadoqatli noibligicha qolgan edi. Xorazmning mustaqilligi Qutbiddin Muhammadning o'g'li Otsiz (1127-1156) nomi bilan bog'liqdir.² Dastavval Otsiz turkman va qipchoqlarni o'ziga bo'ysundiradi. Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq yarimorolini egallaydi. Otsiz Kaspiy

¹ Ergashov Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi. T.: "G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi", 2015. 151 b.

² Bunyotov Z.M. Xorazmshoh –Anushteginiylar davlati (1097-1231)T., 2007. 73 b.

dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi.

Otsizning siyosatini uning vorislari Elarlon (1156-1172) va Takash (1172-1200) davom ettiradilar, XII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada keskinlashadi. 1153 yilda Sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchi o'g'uzlar isyon ko'taradilar. Buning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbaga uchrab, parchalanib ketadi. Dastavval undan Kichik Osiyo va Kermon ajralib ketadi. So'ngra Fors, Ozarbayjon va Xuroson viloyatlari mustaqil bo'lib oladi. Bunday siyosiy vaziyatda, shubhasiz, Xorazmning hukmronlik doirasi kengaytirilib, uning mustaqilligi yanada mustahkamlanadi. Xorazm davlati ayniqsa, Otsizning nabirasi Takash davrida juda kengayadi. 1187-1193 yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini zabt etadi. 1194 yilda esa Saljuqiylar sultoni To'g'ulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo'ysundiradi. Takashdan so'ng uning o'g'li Alovuddin Muhammad (1200-1220) ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. 1206 yildan boshlab Movarounnahrni qoraxitoylarga qaramlikdan ozod etishga kirishildi. 1210 yilda Talos vodiysida qoraxitoylar mag'lubiyatga uchratiladi. Yettisuv gacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlati tasarrufiga olinadi. XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoli g'arbiy va g'arbiy chegarasi Oral va Kaspiy dengizi sohillaridan janubi g'arbda Iroqqa qadar borar edi. Janubi sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli sharqiy chegarasi esa Yettisuv va Dashti Qipchoqdan o'tar edi. Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shahri edi. Xorazmshoh «Iskandari soniy» deb maqtalgan (Xorazmshoh saroyida 27 hukmdor va ularning vakillari doimo itoatda bo'lgan va buyuk hukmdorni «Iskandari soniy» deb ulug'lagan). Xorazmshohlar davlati rasman 1231 yilgacha, ya'ni so'ngi xorazmshoh Jaloliddinning halokatigacha yashaydi.¹

“Uyg'onish davri” IX-XII asrlar O'rta Osiyoda madaniy yuksalish.

IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosonda sodir bo'lgan o'ta murakkab siyosiy vaziyatning rivoji, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar mamlakat madaniy hayotiga ham kuchli ta'sir etdi.

Ma'lumki, Movarounnahr istilo qilinib, xalifalikka qo'shib olingach, zabt etilgan o'zga mamlakatlar qatorida, bu o'lkada ham faqat islom dinigina emas, balki arab tili va uning imlosi ham joriy etildi. Chunki arab tili xalifalikning davlat tili edi. Shuningdek, Arab xalifaligida davlat tili fan tili ham edi. Shu boisdan ko'p jihatdan arab tilining mohiyati oshib, uni o'zlashtirishga bo'lgan intilish kuchli bo'ldi. Islomni qabul qilgan aholining ko'pchilikka arab tili bilan muloqoti, garchi faqat ibodat vaqtlarida Qur'oni Karimning qisqa suralarini tilovat qilishdan iborat bo'lsa-da, ammo mahalliy mulkdorlar arab tilini xalifalik ma'murlari bilan yaqinlashish va mamlakatda o'z siyosiy mavqelarini tiklab, uni mustahkamlashning asosi deb hisoblardilar. Uni o'zlashtirishga astoydil kirishadilar. Arab tiliga bo'lgan bunday ehtiyoj va intilish tufayli ko'p vaqt o'tmay Movarounnahrda ham hatto o'z ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshiroq o'zlashtirib olgan bilimdonlar paydo bo'ladi. Davlatni boshqarishda abbosiylar ma'muriyati ayniqsa ko'plab bilimdon siymolarga muhtoj edi. Chunki arablar orasida bu paytda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar hali oz, bori ham zaif edi.

Shu boisdan Movarounnahr, Xorazm va Xurosonda mahalliy tillarda yozilgan asarlar yo'q qilinib, yerli bilimdonlar quvg'in ostiga olib turilgan bir paytda bu mamlakatlarning ko'pgina tolibi ilmlari xalifalikning markaziy shaharlari: Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa va Basraga borib bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur bo'ladilar. Bu davrda ayniqsa Bag'dod shahri Sharqning yirik ilm va madaniyat markazi edi. IX asrda bu shaharda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») - islom Sharqining o'z davridagi Fanlar Akademiyasi tashkil etilgan edi. «Bayt ul-hikma» da katta kutubxona hamda Bag'dodda va Damashqda astronomik kuzatishlar olib boriladigan rasadxonalar mavjud edi. Bu ilm dargohiga jalb etilgan tolibi ilmlar tadqiqotlar bilan bir qatorda qadimgi yunon va hind olimlarining ilmiy merosini o'rganish va asarlarini arab tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanardilar. Bu yerda Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Xabash Marvaziy va Abul Abbos Javhariy kabi Movarounnahr va xurosonlik olimlar ijod qilib, o'rta asr ilm-u faniga katta hissa qo'shadilar.²

Muso al-Xorazmiy qadimgi Xorazm diyorida tug'ilib, voyaga yetadi. Dastlabki savod va turli sohadagi bilimlarini u o'z ona yurti Xorazm va Movarounnahr shaharlarida ko'pgina ustozlardan oladi. So'ngra u xalifa Ma'mun zamonida (813-833) «Bayt ul-hikma» da mudir sifatida faoliyat ko'rsatadi.

¹ Eshov B. J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. T.: “Yangi asr avlodi”, 2014 y. 407 b.

² Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. T., “Marifat”, 2009. 48 b.

Xorazmiy zamondosh olimlar bilan birgalikda yer aylanasining uzunligi - radiusini hamda geografik xaritalar tuzish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'ldi. Zamonasining mashhur matematigi, astronomi va geografi sifatida fanga ulkan hissa qo'shdi. Xorazmiy 20 dan ortiq asarlar yozdi. Ulardan faqat 10 tasigina bizgacha yetib kelgan. Bu kitoblar: «Aljabr va al-muqobala» hisobi haqida qisqacha kitob; «Hind hisobi haqida», ya'ni arifmetik asar; «Kitob sural ul-arz», «Yer surati» haqida geografiyaga oid kitob; «Zij» va «Usturlub bilan ishlash haqida kitob» kabi astronomiyaga oid asarlar; shuningdek «Kitob at-tarix», «Yahudiylarning taqvim va bayramlarini aniqlash haqida risola» nomlari bilan atalgan. Xorazmiy merosida ayniqsa «Aljabr va al-muqobala» kitobining ilmiy ahamiyati nihoyatda buyukdir. Bu kitobi bilan u matematika tarixida birinchi bo'lib algebra faniga asos soldi. Xorazmiyning bu risolasi XII asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi va qayta ishlanadi. Vatandoshimiz Xorazmiy matematika faniga asos solib, tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirdi.

«Bayt ul-hikma» da faoliyat ko'rsatgan olimlardan yana biri buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad al-Farg'oniydir. U Farg'onada tavallud topgani uchun Sharqda Al-Farg'oniy, Yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuhrat topgan. U awal Matu, so'ngra Bag'dod, Damashq va Qohira shaharlarida astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug'ullandi. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirdi. U asosan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash yangicha «zij», ya'ni astronomik jadval yaratish ishlariga rahbarlik qildi. 832-833-yillarda Suriyaning shimolida Sanjar dashtida va ar-Raqqa oralig'ida yer meridianining bir darajasini uzunligini o'lchashda qatnashdi. 861-yilda uning rahbarligida Fustat (Qohira) shahri yaqinida joylashgan Ravzo orolida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr - daryo oqimi sathini o'lchagich «Miqyos an-Nil» inshooti va uning darajoti qayta tiklandi. Ahmad Farg'oniy tarixda birinchilardan bo'lib Yerning dumaloqligini isbotlab bergan olimdir.

Dunyoviy fan olimlari bilan b'ir qatorda bu davrda islom ta'limoti va mafkurasining takomili yo'lida movarounahrlik muhaddis ulamolarning ham xizmati katta bo'ldi. Bu borada ayniqsa Imom al-Buxoriy, uning zamondoshi va shogirdi Iso Termiziy - (Abu Iso Muhammad at-Termiziy - 824-894-u. u.) laming hissasi nihoyatda buyukdir. Birgina Imom al-Buxoriy islom ta'limotiga oid yigirmadan ortiq asar yozdi. Uning «Jomi' as-Sahih» nomli shoh asari musulmon Sharqida qariyb o'n ikki asr davomida islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Bu bebaho asarga kiritilgan 7275 hadislar va ularga berilgan ko'pdan-ko'p sharhlarda faqat shariat ahkomlariga oid qoidalargina ifodalanilmay, balki inson ma'naviy kamolotining ramzi hisoblanilgan mehr-muhabbat, hurmat-u izzat hamda o'zaro tinch-totuvlik kabi insoniy fazilatlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Bu davrda Movarounahr, Xuroson va Xorazmdan xalifalikning markaziy shaharlariga borib, fanning turli sohalarida ijod qilgan olimlardan tashqari madaniyatning deyarli barcha sohaları bo'yicha ham yetuk ustod-u shogirdlarning soni Bag'dod shahrida oz emas edi.

Abu Mansur al-Moturidiy. Hadis va fiqh olamining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Abu Mansur al-Moturidiy taxminan 870 yilda Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tugildi. Al-Moturidiy islomiy odob qoidalari, shariat qonunlari, ma'naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta'lim berishga mo'ljallangan qator asarlar yozgan bo'lsa-da, uning eng muhim «Kitob at-Tavhid» («Allohning birligi») va «Ta'vilot ahl as-sunna» nomli asarlarigina saqlanib qolgan. Bu asarlar ilohiyot ta'limotining eng qadimiy asarlaridan bo'lib, alohida ilmiy va nazariy ahamiyatga egadir Moturidiy asos solgan ta'limot kishilarni yaxshilikka, rostgo'ylikka, sabru qanoat-ga, sharm-hayoga, oliyhimmatlikka, vatanni sevishga chorlaydi. Al-Moturidiy 944 yilda Samarqandda vafot etgan va shahar yaqinidagi Chokardiza qabristonida dafn etilgan.

Somoniylar davlatining tashkil topishi va Xorazmning yuksalishi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy ko'tarilish madaniy hayotning ravnaqiga imkon berdi. Bu davr Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy va Muhammad Narshaxiy, Rudakiy, Daqiqiy, Abulqosim Firdavsiy kabi jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarni o'z bag'rida tarbiyalab kamolotga yetkazdi.

Abu Nasr Forobiy 873-yilda Aris suvining Sirdaryoga quyilishida joylashgan Forob (O'tror) shahrida tug'ilgan. U awal ona shahrida, so'ngra Samarqand, Buxoro va Bag'dodda bilim olgan. Umrining oxirlarida Xalab va Damashq shaharlarida yashagan, 950-yilda vafot etgan. Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U 160

dan ortiq asar yozib, o'rta asr fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shdi. Bular orasida Arastuning «Metafizika» asariga sharh», «Musiqqa kitobi», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Tirik mavjudot a 'zolari haqida», «Shaharlar ustiga siyosat yurgizish» va boshqa ko'pgina asarlari bo'lgan. Forobiy bilimli, ma'rifatli, fikr-mulohazalarining kengligi va mantig'ining teranligi tufayli Sharqda Arastudan keyingi yirik mutafakkir - «Muallimus-soniy», («Ikkinchi muallim») nomi bilan shuhrat topdi. Forobiy ilk o'rta asr sharoitida aql va ilm g'alabasi, ma'naviy ozodlik, inson takomili va adolatli jamiyat uchun kurashgan buyuk siymo edi.

Bu davrning ulug' mutafakkirlaridan yana biri Abu Ali ibn Sino edi. U 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Besh-o'n yoshlarida maktabda ta'lim oladi. Maktabni bitirgach, ustoz Abu Abdulloh-dan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rganadi. O'n olti yoshidan boshlab turli fanlar bo'yicha Sharq va G'arb olimlarining ilmiy asarlarini mustaqil o'rganadi. Ayniqsa u tabobat ilmining qadimgi allomalari Hippokrat va Golen hamda o'rta asr Sharqining buyuk hakimi va mutafakkiri Abu Bakr ar-Roziy (864-925) ning asarlarini puxta o'rganadi. Ibn Sino o'n yetti yoshidayoq e'tiborli hakim va olim bo'lib yetishadi. IX asrning oxiri va X asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda yuzaga kelgan og'ir sharoitda Ibn Sino o'z ona shahri Buxoroni tark etib, avval Urganchda, Xorazmshoh Ma'mun saroyidagi olimlar qatoridan joy oladi. So'ngra Mahmud G'aznaviyning tazyiqi tufayli Xorazmdan ham chiqib ketadi. U umrining oxirigacha Obivard, Go'rgon, Ray, Qazyin, Isfaxon va Xamadon shaharlarida hukmdorlar qo'l ostida tabiblik va vazirlik qiladi. 1037-yilda Xamadonda vafot etadi.

Ibn Sino arab va fors tillarida fanning turli sohalari bo'yicha uch yuzdan ortiq asarlar yozdi. Uning «Al-qonun fit-tib» asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. O'rta asrning buyuk allomasi Sharqda «Shayx ur-ra'is», G'arbda esa «Avitsenna» nomlari bilan shuhrat topdi.¹

Beruniy. O'sha zamonda Urganchda yashab ijod qilgan ulug' mutafakkirlardan bin Abu Rayhon Beruniy (973-1048) edi. U Xorazmda tug'ilib, dastlab Urganchda ta'lim olgan. Uzoq yillar Go'rgonda yashagan. So'ngra Xorazmshoh Ma'mun saroyida ijod qilgan. 1017-yilda Mahmud G'aznaviyning talabi bilan G'azna shahriga borib umrining oxirigacha shu yerda ijod qilgan. Beruniy 1048-yilda G'aznada vafot etdi. U falakiyot, geograflya, matematika va tarix fanlari bo'yicha 154 ta ilmiy asar yozdi. Beruniyning «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Geodeziya» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir. U o'zining falakiyotga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni o'rta asrlarda birinchi bo'lib ilgari surdi. Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab berdi. U dunyoning geografik xaritasini tuzdi. Beruniyning ilmiy va falsafiy katta merosi shubhasiz jahon fani va madaniyati xazinasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi.

Mahmud Zamaxshariy (Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariy - 1074-1144-yillarda yashab ijod qilgan). Bu davrda Xorazm diyorida yetishib chiqqan buyuk allomalardan yana biri Mahmud az-Zamaxshariydir. U 1074-yilda Xorazmning Zamaxshar qasbasida (qishloqcha) dunyoga kelgan. Dastlab ma'lumotni u otasidan oladi. So'ngra madrasada tahsil ko'radi. Ilmga bo'lgan chanqoqlik uni Buxoro, Marv, Nishopur, Isfaxon, Shorn, Bag'dod, Hijoz va Makkada hayot kechirib, arab tili grammatikasi va lug'ati, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rganishiga sabab bo'ldi. Mintaqa geografiyasiga doir ma'lumotlarni to'playdi.²

Mahmud Zamaxshariy turli soha ilmlariga oid ellikdan ortiq asarlar yozib qoldirdi. Ayniqsa, uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan «Al-Mufassal», xorazmshoh Otsizga bag'ishlangan «Muqaddamat ul-adab», «Tog'lar, joylar va suvlar haqidagi kitob» kabi asarlari nihoyatda ahamiyatlidir. «Notiqlik asoslari» va «Aruzda o'lchov» (mezon) asarlari qimmatli manbalardan hisoblanadi. Zamaxshariyning Qur'oni Karim tafsiriga oid «Al-Kashshof» asari musulmon olamida ayniqsa mashhurdir. Qohiradagi dunyoga dong'i ketgan Al-Azhar diniy dorilfununining talabalari «Al-Kashshof» asosida Qur'oni Ka-rimni o'rganadilar.

Mahmud Zamaxshariyning keng bilimi, fanning turli sohalariga doir salmoqli va mazmundor asarlari u hayot paytlaridayoq musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan edi. «Arab va g'ayri

¹ Irisov A. Ibn Sino. T., 1992. 7b.

² Eshov V.J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. T., 2014.

arablar ustozlari», «Xorazm faxri» kabi sharafli nomlar bilan ulug'langan. U 1144-yilda 70 yoshida Xorazmda vafot etgan.

Burhonuddin al-Marg'inoniy (1118-1197). Mashhur faqih (huquqshunos) Burhonuddin al-Marg'inoniy 1118 yilda Farg'ona vodiysining Rishton shaharchasida tavallud topgan. U Rishton, Marg'ilon, Samarqand, Buxoro hamda Movarounnahrning boshqa shaharlarida Qur'on, hadis ilmlarini mukammal egallab, islom huquqshunosligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'ldi. Al-Marg'inoniy Najmuddin Abu Xafs Nasafiy, Xusomuddin Umar as-Saraxsiy, Abu Umar ibn AH Poykandiy, Ahmad ibn Rashid al-Buxoriy va boshqa ko'pgina faqih ulamolardan ilm o'rgandi va Hadis, islom qonunshunosligini puxta egallab, «Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim», «Mazhabning yoyilishi», «Ilmni ziyoda qiluvchi kitob», «Inson majburiyatlari haqida kitob» kabi asarlarni yaratdi.

Turkiy yozma adabiyot. Bu davrda Movarounnahr, Shosh, Farg'ona, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda turkiy xalqlarning qadimdan davom etib kelayotgan og'zaki adabiyoti bilan bir qatorda, yozma adabiyot yuzaga keladi. Qator didaktik poemalar bitildi. Ammo ularning juda oz nusxalarigina bizgacha saqlangan. Ulardan eng nodiri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (Saodatga boshlovchi asar) nomli asaridir. Asarda inson va uning ijtimoiy mohiyati, hayotdagi o'rne va vazifasi har tomonlama tahlil qilinadi. «Qutadg'u bilig» da oddiy xalq, mehnatkash inson alohida ehtirom bilan tasvirlanadi. Yusuf Xos Hojib ayniqsa dehqonlar, chorvadorlar, hunarmand va savdogarlarni iliq mehr bilan tilga oladi. Dehqonlarni u hammadan ham yuqori qo'yadi. «Qutadg'u bilig» da axloq, odob va ilm-ma'rifatga doir ko'p qimmatli pand-nasihatlar keltiriladi. Muallif rostgo'ylik, halollik, odob, sadoqat va sevgi kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar yuritadi. U ilm va ma'rifatga saodatning kaliti deb qaraydi. Shuning uchun ham o'z dostonini «Qutadg'u bilig» deb ataydi. Unda ilm va ma'rifatni targ'ib qiladi, olimlarni ulug'laydi, davlat boshliqlarini ilm-fan ahllaridan ta'lim olishga va ularning maslahatlari bilan ish ko'rishga da'vat etadi.

XII asrda turkiy tilda ijod etgan shoir va mutafakkirlardan yana bin Ahmad Yugnakiy (tug'ilgan yili 1147- 1150-yillarga to'g'ri keladi) va ikkinchisi Ahmad Yassaviy (vafoti 1166/67-y.y) edi. Ahmad Yugnakiydan yagona adabiy meros «Hibat ul-haqoyiq» nomli asar saqlanib qolgan. U turkiy adabiy tilning qimmatli va nodir yodgorligi hisoblanadi. O'z asarida shoir Yusuf Xos Hojib singari ilm-fan, olim va fozillarni ulug'laydi, ma'rifatpa^varlikni targ'ib etadi, kishilarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga chaqiradi.

Bizga qadar Ahmad Yassaviy she'rlari to'plami aynan asli emas, balki keyingi nusxalarigina yetib kelgan bo'lsa-da, ammo bu asar turkiy adabiyotning va adabiy tilning yaratilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davr turkiy adabiy tili, xususan eski o'zbek va uyg'ur tillarining vujudga kelishida ham muhim bosqich bo'ldi. Turkiy qabilalarning bir-biriga tobora yaqinlashib borishi bilan ularning tili ham qorishib, o'g'uz, qipchoq, uyg'ur tili guruhlari yuzagakeldi. O'rtaasrlarda yoki «chig'atoy» tili deb yuritilgan adabiy tilning taraqqiy etib borishida mahalliy aholi o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalarning hamda yozma adabiyotning o'rne katta bo'ldi.

IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik. Me'morchilik va sa'nat. Me'morchilik va san'at. IX-XIII asr boshlarida Movarounnahr va Xorazmda me'morchilik va san'at yangi rivojlanish bosqichida bo'ldi. Awalambor, o'rta asr jamiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va islom dini mafkurasi madaniy hayotning bu sohasiga ham kuchli ta'sir qildi. Uning tashqi qiyofasi va mazmuni tubdan o'zgardi. Qolaversa, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi natijasida uning yangi yo'nalishda ravnaq topishi uchun qulay sharoit yuzaga keldi. VIII asrda yuz bergan tushkunlikdan keyin shaharlar kengayib, obodlashadi. Asrlar davomida to'plangan va avloddan-avlodga an'ana ravishda o'tib, tobora boyib kelgan me'morchilik yuqori darajada rivojlanadi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O'zgan va Marv kabi shaharlarda bu davrda ko'plab saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, tim va karvonsaroylar quriladi. Buxoro shahridagi Ismoil Somoniy, Nomozgoh, Minorai Kalon, Vobkent va Jarqo'rg'on minoralari va ko'pgina boshqa binolar o'sha davr me'morchiligining namunalaridandir. Bu yodgorliklar IX-XII asrlarda Movarourmahrda o'ziga xos me'morchilikning g'oyat rivoj topganligidan dalolat beradi. Bu davrda monumental me'moriy binolardan tashqari yo'nilgan tosh, pishiq g'isht va suvga chidamli qurilish qorishmalaridan turli xil suv inshootlari: suv omborlari - bandlar, novlar, ko'priklar, sardobalar va korizlar barpo etiladi. Qizig'i shundaki, bunday inshootlarning o'lchamlari matematika nuqtai nazaridan g'oyat puxta ishlangan. Masalan, X asrda Nurota tizmalaridagi Past tog' darasi to'silib, barpo etilgan

Xonbandi nomli suv omboriga 1,5 mln metr kub suv to'plangan. To'g'on granit toshi va suvga chidamli qurilish qorishmasidan qurilgan.

Xonbandining yechimlaridan ma'lum bo'lishicha, uni bino qilishda X asr uhandislari ovuzga to'planadigan suvning vertikal hamda gorizontol ag'daruvchi kuchJarigina emas, balki bu hududlarda tez-tez sodir bo'ladigan zilzilalarning silkinish kuchlarini ham hisobga olganlar. Bu shubhasiz, XVII asr mashhur fransuz fizigi Blez Paskal tomonidan suvning bosim kuchi to'g'risida yaratilgan qonun kashfiyotchisidan qariyb 7 asr muqaddam movarounnahrlik muhandislarga ma'lum ekanligidan dalolat beradi.

X asrdan boshlab binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakkasinch va qo'shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib, ustunlari-yu sarroflari va to'sinlarigacha yog'ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Bu tuzilishdagi imoratlarni qurish hozirgacha saqlanib keladi.

Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykand shahar xarobalarida kovlab ochilgan turar joy qoldiqlaridan ma'lum bo'lishicha, X-XI asrlarda ham paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rinni tutgan.

IX-XII asr boshlarida me'morchilik bilan birga naqqoshlik va o'ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topadi. Imoratni o'ymakor ustun va to'sinlar, devorlarini bo'yoqli yoki ganchkori naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Bu davrga kelib naqqoshlik va tasviriy san'at o'zgacha tus oladi. Endilikda jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab geometrik va naqshlar ishlashga o'tiladi.

Naqqoshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, miskarlik va zargarlikning ravnaqiga yordam beradi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar kulolchilik, miskarlik va zargarlik rivoj topgan markazga aylanadi. XI-XII asrlarda, ayniqsa sirli sopol buyumlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yiladi. Bu davrda xattotlik xalq san'atining muhim va keng tarqalgan sohalaridan biri edi. Turli uslubda husnixat bilan bitilgan xattotlik namunalari me'moriy naqshlarda ham hayotiy mazmun va estetik zavq beruvchi bezak sifatida ishlatiladi.

Odatda, imoratlarning peshtoqi, eshigi va devorining ayrim qismlari turli mazmundagi bitiklar bilan qoplanar edi. Shunday qilib, XIII asr boshi me'morchiligi va unda ishlatilgan me'moriy naqsh uslublari o'z navbatida mehnatkash aholining did-nafosat va binokorlik g'oyalari bilan chambarchas bog'langan xalq me'morlari - bannolarining sermazmun ijodini namoyish etadi.

Musiqqa san'ati. IX-XSH asr boshlarida musiqqa san'ati ham g'oyat taraqqiy qiladi. Bayramlar, to'ylar, xalq sayillari va boshqa marosimlar, shubhasiz kuy va qo'shiqsiz o'tmas edi. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, xalq orasida ayniqsa qo'shiq janri keng tarqalgan. Bu davrda sozandalar ud, tanbur, q'o'biz, rubob, nay, surnay, karnay, qo'shney va qonun kabi g'oyat xilma-xil torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u asboblaridan keng foydalanganlar.

Bu davrda xalq kuylari asosida keyinchalik tojik va o'zbek xalqlarining mumtoz kuyi «Shashmaqom» uchun poydevor bo'lgan «Rost», «Xusravoniy», «Boda», «Ushshoq», «Zerafkanda», «Buslik», «Sipohon», «Navo», «Basta», «Tamna» kabi yangi-yangi kuylar ijod etiladi. Bu soz va kuylarning ko'pi o'zbek va qardosh xalqlarning madaniy merosi tarzida hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Musiqqa san'ati shubhasiz she'riyat hamda musiqashunoslik ilmi bilan uzviy bog'langan holda taraqqiy etadi. Forobiy va Abu AH ibn Sino kabi ulug' olimlar musiqqa va musiqashunoslikka katta e'tibor beradilar va nodir asarlar yaratadilar.

Din va tasavvuf. IX-XIII asr ma'naviy hayotida islom dini muhim o'rin egallaydi. Bu davrda musulmon Sharqida keng tarqalib, jahon dini darajasigacha ko'tarilgan islom dini va shariat musulmon dunyosining mafkurasiga aylandi. Arab xalifaligining fothlik siyosati natijasida o'zining barcha haquqlaridan ajralib, madaniyati oyoq osti qilingan Movarounnahr aholisi o'z e'tiqodi va xat-savodidan mahrum bo'lib, islom dinini qabul qilishga, shariat ahkomlarini bajarishga, shuningdek arab tili va yozuvini o'rganishga majbur bo'ldi. Ko'p vaqt o'tmay e'tiqodli xalq o'ziga yod bo'lgan arab imlosida xat-savod chiqarishga kirishdi. Movarounnahr aholisining murakkab arab imlosini o'zlashtirib, xat-savodli bo'lishi uchun arabiy tilni mukammal o'rganib, bu o'zga tilda asarlar yarata oladigan olim va mutafakkirlarning yerli xalq orasidan yetishib chiqishi uchun qariyb bir yarim asr islom ta'limotining rivojiga ulkan hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy, Iso Termiziy va Mahmud Zamaxshariy kabi aqoid ulamolarni kamolotga yetkazdi.

Movarounnahr va Xurosonda xalifalik hukmronligi tugatilib, mustaqil Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar davlati qaror topgach, islom ta'limoti, shariat ahkamlari va ilmu ma'rifatga yanada e'tibor kuchaydi. Markaziy shaharlarda qator masjid va madrasalar qad ko'tardi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki madrasa Buxoroda X asrda shaharning Kovushdo'zlar timi yaqinida bino qilingan. U Farjak madrasasi deb yuritilgan. XII asrda esa Buxoroning Darvoza mahallasida hatto qonunshunoslar uchun maxsus «Faqihlar madrasasi» qurilgan. Bunday oliy dorilfunun asosan islom dini ta'limotining asosiy manbalari: Qur'oni Karim, Hadisi sharif va arab tilini mukammal o'rganishga katta e'tibor bergan.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida, ayniqsa Buxoro shahri markazga aylandi. Buxoro madrasalaridan juda ko'p yetuk fiqhshunos olimlar, odil qozilar, zohid imomlar yetishib chiqadi. Shu boisdan Buxoro IX asrdan boshlab «Qubbat ul-islom»- «Islom dinining gumbazi» nomi bilan shuhrat topadi.

Biroq hukmdor tabaqa mamlakatni idora qilishda imkoni boricha islom dinidan mafkuraviy qurol sifatida foydalanadi. Mafkuraning barcha sohalari islomga tobe qilinib, zardushtiylik e'tiqodi qoldiqlariga qarshi shafqatsiz kurash olib boriladi. Mehnatkash aholi ustidan jabr-zulm zo'rayib, har qanday hurfikrlilik ta'qib ostiga olinadi. Buning oqibatida zahmatkash xalqning tashvish va azobi ortib, hayoti g'oyat og'irlashadi, uning noroziligi bo'rtib, tug'yoni kuch oladi. Mana shunday g'oyat mushkul sharoitda jabrdiyda xalq o'z dardu alamiga malhamni tasawufdan axtaradi.

Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Unda kishining har bir nafasida ong, aql-idrok bo'lmog'i, bosgan har bir qadamida diqqat-e'tibor sezmog'i, u Vatan ishq bilan band bo'lmog'i, xalq bilan aloqada birga hayot kechirmog'i kerak deb uqtiriladi.

Tasavvufning tariqat yo'llari g'oyat keng bo'lib, turli davrlarda Turkiston va Movarounnahming turli o'lkalarida uning turli xildagi yo'nalishlari paydo bo'ladi. Turkistonda XII asrda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubraviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya va boshqalar vujudga keladi. XII asrda Movarounnahrda keng yoyilgan tasawuf Yassaviya tariqati bo'lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tasawufning asoslari Yassaviyning mashhur «Hikmat» asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillastiradi. Bu kamolot yo'li sari to'rt bosqich bo'lib, inson hayoti va faoliyatining asl mohiyatini tashkil etadi.

Yassaviy sulukida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo'lida bo'lmog'i hamda tarkidunyochilik targ'ib etilsa-da, ammo inson zoti sharif darajasida ulug'lanadi, uning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi.

Tasavvuf ta'limotining buyuk siymolaridan yana biri Najmuddin Kubro (1145-1221) edi. U Xorazmda sufiylik maktabini ochib, «Kubraviya» sulukiga asos soladi.

Yassaviy ta'limotidan farqli o'laroq, Kubraviya ta'limoti tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo'lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishning joizligi g'oyasi ilgari suriladi. Kubraviya ta'limotida xalqqa va Vatanga bo'lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo'lib, har qanday og'ir damlarda ham omma bilan birga bo'lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi. Bunday g'oya yo'lida Najmuddin Kubro 1221-yilda jasorat ko'rsatib, Chingizxon boshliq mo'ng'ul bosqinchilari bilan jangda shahid bo'ladi.

Tasawuf XIV asrda Naqshbandiya ta'limotida yanada rivoj topadi. Unga Bahouddin Naqshband asos soladi. U 1318-yilda Buxoro yaqinida qasri Hinduvon qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida o'qish va ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosishni puxta o'rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan, so'ngra o'z kasbida mahoratga erishib, dovrug qozongan. Ayni zamonda o'z davrining atoqli shayxlari Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, Amir Sayyid Kulol va boshqalardan odob-tariqatdan ta'lim oladi.

Xoja Bahouddin «Hayotnoma» va «Dalil ul-oshiqin» nomli asarlar yozib, o'z tariqatini yaratadi. Tarixda bu suluk «Naqshbandiya» nomi bilan shuhrat topadi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi. Naqshbandiya ta'limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo'shadilar.

Shunday qilib, tasawuf Movarounnahr aholisining ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'langan ta'limot bo'lib, o'rta asrning xalqparvar adib va mashoyixlari uni chuqur bilishga va u orqali ommaga ziyo va ma'rifat tarqatishga intilganlar.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. IX asr boshlarida mahalliy zodagonlarning kuchayishi haqida ma'lumot bering?
2. Tohiriylar davri haqida nimalarni bilasiz?
3. Safforiylar davlati haqida gapiring?
4. Samoniylarning siyosiy tarixini gapirib bering?
5. Somoniylar davrida davlat boshqaruvi qandayligini tushuntiring?
6. Qoraxoniylar davlatida davlat boshqaruvi tartibi qanday bo'lgan?
7. Somoniylar va Qoraxoniylar davlat boshqaruvining o'xshash va farqli tomonlari?
8. G'aznaviylar davlatida boshqaruv usuli qanday bo'lgan?
9. Saljuqiylar kimlar, ular haqida nimalarni bilasiz?
10. Xorazmshohlar davlari, uning inqirozi sabablari haqida gapiring?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas –kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. –Toshkent: Sharq, 2000.
3. Asqarov A. A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –Toshkent: Universitet, 2007.
4. Bunyodov Z.M. Xorazmshoh –Anushtaginiylar davlati(1097-1231) Toshkent:1998.
5. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. –Toshkent: “Ma'rifat”, 2009.
6. Buyuk siymolar, allomalar. Toshkent: me'ros (uchunchi kitob), 1996.
7. Irisov A. Ibn Sino. –Toshkent: O'zbekiston.1992.
8. Eshov B. J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. - Toshkent: .Yangi asr avlodi., 2014 .
9. Ergashov Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi. Toshkent: .G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2015.

6-mavzu. Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi - mard va jasur ajdodimiz.

Reja:

1. Mog'ullar davlatining tashkil topishi va O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari.
2. Jaloliddin Manguberding mo'g'ullarga qarshi olib brogan vatanparvarlik jasoratlari.
3. O'lkada mo'g'ullar hukmronligining o'rnatilishi va uning oqibatlari.
4. Chig'otoy ulusi.

Tayyanch tushunchalar:

Xorazmshohlar davlati, Movaraunnahr, Xuroson, Muhammad Xorazmshoh, Chingizxon, Mo'g'illar, Jaloir, Yettisuv, Buxoro, Samarqand, Urganch, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Ibn al Asir,

Mo'g'ullar qabilalari va elatlarining qudratli davlatga birlashuv jaryoni mo'g'ul xoni Temuchin (1155-1227 yy) nomi bilan bog'liq.¹

1205 yildayoq Qoraqurumda mo'g'ulla bilan yonma-yon yashab kelgan va ularning xukmronligi ostida bo'lgan jaloyir, o'yrot, keyroyit, nayman, qoraxitoy, qirg'iz, uyg'ur, qorliq kabi turkiy qabilalar ham ishtirok etgan qurultoy bo'ldi va unda Temuchin Chingizxon nomi bilan mo'g'ul xoni etib saylandi.²

Mo'g'ullar davlati XI asrda mo'g'ul qabilalari hayotida hali urug'aymoqchilik munosabatlari nihoyatda kuchli edi. Ular asosan ko'chmanchi chorvachilik, ovchilik va o'zaro mahsulot ayirbosh qilish bilan shug'ullanar edi. Bu davrda mo'g'ul urug' va qabilalari o'rtasida o'zaro kurash avj olib bormoqda edi. Mo'g'ul urug' boshliqlari orasidagi ichki kurashlarda Temuchin (1155-1227) g'olib chiqadi. 1206 yilda Onon daryosi bo'yida chaqirilgan mo'g'ul urug' va qabila boshliqlarining qurultoyida Temuchin ulug' xon

¹ Jabbarov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. T.: “Sharq”, 1999 y. 119 b.

² Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. T.: “Fan”, 1994 y. 32 b.

(qoon) deb e'lon qilinadi, unga «Chingiz» laqabi beriladi va Mo'g'ullar davlatiga asos solinadi. Chingizxon ko'p sonli yaxshi qurollangan, intizomli va uyushgan qo'shin hamda 10 ming nafar turk azamatlaridan *kezik (keshik)* - xos soqchilar qismini tuzadi. So'ng istilochilik urushlari olib borishga kirishadi.

1206 yilda dastlab naymanlar bo'ysundirildi. 1207-1208 yillarda *Enasoy havzasi*, so'ngra *Yettisuv* viloyatining shimoliy qismi zabt etildi va *uyg'urlar* taslim bo'ldi. 1211-1215 yillarda Chingizxon bir necha bor Xitoyga hujum qilib, Shimoliy Xitoyning markazi - *Szindi* shahrini ishg'ol qilib, Szin sulolasini taxtdan qulatdi. *Shimoliy Xitoy* yerlari Mo'g'uliston davlatiga qo'shib olindi. Chingizxon Xitoydan ko'p o'ljalari, cho'rilar bilan harbiy qurol yasaydigan va ulami ishlata biladigan mohir hunarmandlarni ham Mo'g'ulistonga olib ketadi. Shu yo'l bilan u o'z qo'shinini zamonasining eng yaxshi harbiy qurolas lahalari bilan ta'minlaydi.

Chingizxon 1218-1219 yillarda *Sharqiy Turkiston* va *Yettisuv* viloyatlarini deyarli talafotsiz qo'lga kiritib, bu yerdagi *Kuchluk* davlatini tugatdi. Shunday qilib, Gobi sahrosining sharqiy chegarasidan to Tangritog' (*Tyanshan*) tizmasining g'arbiy etaklarigacha bo'lgan viloyatlar Mo'g'ullar davlati hukmronligi ostida birlashtirilgan edi. Endilikda Mo'g'ullar davlatining g'arbiy hududlari *Sulton Muhammad Xorazmshoh* saltanatining chegarasiga bevosita tutashib ketgandi.¹

XIII asrning boshlarida Xorazmshohlar saltanati qo'shinining umumiy soni Chingizxon harbiy kuchiga nisbatan birmuncha oshiqroq edi. Xorazmshoh hokimiyati siyosiy, xususan ma'muriy boshqaruv jihatidan mustahkam emas edi. Chunki, mansabdorlar davlat tang ahvolga tushib qolgan paytlarda o'z vazifalarini tashlab ketar, podshoga itoatsizlik qilar, o'zboshimchalik bilan o'z bilganlaricha yo'l tutar edilar. Hatto ayrim viloyat hokimlari Xorazmshohga nomigagina bo'ysunib, amalda deyarli mustaqil edi. Buning ustiga Sulton oliy dargohi ichida kuchli nizo hukm surardi. Ayniqsa, Turkon xotun. ya'ni «*turklar onasi*» nomi bilan shuhrat topgan Sulton Muhammadning volidasi qo'shinining oliy sarkardalari hisoblangan qipchoq oqsuyaklari bilan urug'qabila aloqalari orqali mahkam bog'langan edi. U o'z qabiladoshlari manfaati yo'lida saroyda ko'tarilgan barcha fitnalarga boshchilik qilar, hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg'unlashtirib qo'ygan edi.

Ichki nizo, boshboshdoqlik va fuqarolarning noroziligi kuchayib, mamlakat siyosiy hayoti inqirozga yuz tutgan edi. Sunday o'ta xavfli vaziyatni bartaraf etish maqsadida Sulton Muhammad o'z hukmronligining so'ngida «Davlat kengashi»ni ta'sis etadi. Kengashga 6 nafar bilimdon vakillar jalb etiladi. Unda eng dolzarb masalalar muhokama etilib, qaror qabul qilinsada, ammo u amalda ijobiy natija bermaydi. Ana shunday vaziyatda u jangari mo'g'ul qabilalarining Chingizxon boshliq bosqiniga duchor bo'ldi

Chingizxon Movarounnahr yurishiga katta ahamiyat berib, puxta tayyorgarlik ko'rgan edi. Mali harbiy yurish boshlanmasdan o'z dushmanining kuchqudrati va urushga tayyorgarlik to'g'risida savdogarlar orqali to'plagan ma'lumotlarni sinchiklab o'rgangan. Chingizxon Xorazmshohlar davlatining ichki ahvolidan to'la xabardor edi. Xorazmshoh bilan sarkardalar o'rtasida mavjud ixtiloflar avval boshdanoq ustunlikdan foydalanishga imkon bermadi. Urush boshlanishi arafasida bo'lgan harbiy kengashda ular o'rtasidagi ixtilof yaqqol namoyon bo'ldi. Kengashda dushmanga zarba berishning yagona rejasini yakdillik bilan belgilab olish o'rniga fikrlar bo'linib ketdi. Sulton katta qo'shinni birjoygato'plashdan qo'rqar edi. Sulton nazarida bir joyga to'plangan qo'shin uni taxtdan ag'darib tashlashi mumkin edi. Shuning uchun ham harbiy kengashda sulton o'z qo'shinlarini turli shaharlarda alohida-alohida joylashtirishga, urushda mudofaa taktikasini qo'llashga qaror qiladi. Shu tariqa mamlakat mudofaaga tayyor bo'lmagan sharoitda mudofaachilikdan iborat xato yo'l tutildi.²

1219 yilning kuzida Chingizxon Xorazmshohga qarshi yurish boshladi. Uning jami askari 200 mingga yaqin edi. Chingizxon qo'shini Sirdaryo bo'yida joylashgan *O'tror* shahri ustiga yurish qildi. Chingizxon bu shahar yaqinida Movarounnahrni qisqa muddat ichida zabt etish uchun butun harbiy kuchlarini to'rt qisraga bo'ldi. Uning bir qismini o'g'illari Chig'atoy va O'qtoy boshchiligida O'tronni qamal qilib turish uchun qoldirdi. Ikkinchi qismga Jo'ji boshliq etilib, u Sirdaryo etagi tomon yuborildi. Unga *Sig'noq*, *O'zgan*, *Jand*, *Yangikent* shaharlarini bosib olishni buyurdi. Besh ming kishilik uchinchi qo'shin Aloqno'yon hamda Sukatu Cho'rbiy qo'mondonligida Sirdaryoning o'rta sohili bo'ylab, uning

¹ Jabbarov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. T.: "Sharq", 1999 y. 122 b.

² Jabbarov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. T.: "Sharq", 1999 y. 124 b.

yuqori oqimiga joylashgan *Banokat va Xo'jand* shaharlari tomon yuborildi. Chingizxonning o'zi asosiy kuchlari bilan Buxoro tomon askar tortdi.

O'tror mustahkam qal'ali chegara shahar edi. Qal'a noibi G'oyirxon (Inolchiq) boshchiligida shaharda 20 ming suvoriy bor edi. Qamal arafasida unga yordam uchun Qoracha Hojib qo'mondonligida yana 10 minglik qo'shin kelib qo'shilgan edi. Juvayniyning ma'lumotiga qaraganda, bu kuchdan tashqari Sulton Muhammad «Lashkar birun» deb atalgan 50 ming askar yuborgan. Natijada O'tror shahrida dushmanga qarshi kuchli bir himoya quvvati tashkil bo'lgan edi. Shunday bo'lsada, o'sha davr solnomachilarining naqliga qaraganda, mo'g'ullar shaharni qamalga olish bilan mudofaachilar sarosimaga tushganlar. Qamalning dastlabki kunlaridayoq shahar hokimiyatining vakili Badruddin Amid, Safiy Aqra' Hojib boshliq sulton tomonidan qatl etilgan O'tror qozisining avlodlari mo'g'ullar tomoniga o'tib ketadilar.

Manbalarga ko'ra, O'tror qamali 5 oy davom etgan. Mo'g'ullar shaharga oqib kiradigan ariqlarni ko'mib tashlagan, manjaniqlardan shaharga qarata tosh, neft bilan to'ldirilgan ko'zachalar (piliklarini yondirib) irg'itganlar, qo'rg'on tevaragida xandaqlar shoxshabba va tuproq bilan to'ldirilgan, qo'rg'on devori ostidan lag'm (tunnel) qazilgan, daraxtlar kesib ulama shotilar yasalgan va devorga tiklangan.

O'tror qamali davrida nafaqat qamaldagilar, balki mo'g'ullar ham katta talofat ko'rganlar. Qamaldagilarning safi siyraklashib, oziqovqat tanqisligi kuchaygan. O'tror mudofaasining eng og'ir paytida Qoracha Hojib o'z qo'shini bilan shahar darvozasidan chiqib, mo'g'ullarga taslim bo'lgan. Biroq xiyonatkorlarni mo'g'ullar ham kechirishmagan. Ular Qoracha Hojib va uning askarlarini qatl etishgan.

Shu asnoda o'trorliklar shaharni mudofaa qilib, uni besh oy davomida o'z qo'llarida ushlab turadilar. Ayniqsa G'oyirxon o'zini Chingizxon savdogarlari va sarbonlarini o'ldirishda aybdor his qilib, so'nggi nafasigacha dushmanga qarshi kurashadi. Uning askarlari ellikelliktadan bo'lib, qal'adan tashqariga chiqar va bosqinchilar bilan jang qilib, halok bo'lardi. Chig'atoy qo'shini shahar devorlaridan rahnalar (tuynuklar) ochib, ichkariga yopirilib kirgan, aholisini shahristondan quvib chiqargan va shaharni talaganlar.

G'oyirxon boshliq mudofaachilaraing bir qismi O'tror arkiga joylashib olib, mudofaani yana bir oygacha davom ettiradilar. Chig'atoyzodalar qanday bo'lmasin, G'oyirxonni qo'lga tushirishga ahd qiladilar. Oqibat u qurshovga olinib, asirga tushiriladi. U Samarqandga olib borilib, qiynab o'ldiriladi.

1220 yilning fevralida Chingizxon Buxoroga yetib boradi. Biroq Buxoro dushman kuchini qaytarishga tayyor emas edi. Bumxoroliklar dushmanga taslim bo'lishdan o'zga choralari qolmaydi. Buxoro qozisi *Badridin Qozixon* o'z oqsoqollari bilan Chingizxon oldiga shafqat so'rab chiqadi. 1220 yilning 16 fevralida mo'g'ullar Buxoroni egallaydilar. Movarounnahrning qadimiy markazlaridan hisoblangan Buxoro talontaroj etiladi. Behisob xazinalar talanadi, asriy qo'lyozma asarlar, muqaddas kitoblar yirtilib, hayvonlar oyog'i ostiga xazondek sochiladi. Ilm va ma'rifat egalari bo'lgan ulamolalar va shayxlar, e'tiborli mo'g'ul jangchilariga xizmatkor qilib, goho esa baxshilariga masxara uchun beriladi. Chingizxon amri bilan Buxoro yoqib yuboriladi.

Keyingi xujum Samarqandga qaratildi. Garchi Samarqandda Xorazmshoxning 100 ming kishilik qo'shini turgan bo'lsada, himoyachilar yetarli qarshilik ko'rsata olmadilar. Qo'shin uch kun qarshilik ko'rsatgach, Chingizxonning yolg'on va'dasiga uchgan qang'liklarning 30 ming kishilik qo'shini taslim bo'ldi. Biroq, shaxar egallangach, axolining katta qismi bilan birgalikda qang'liklar ham qirib tashlandi. Ularning yo'l boshchilari Borushmas, bog'on, Sarziqhon va yana 20 nafar sarkarda qatl etildi.

Mamlakatdagi eng buyuk shaxarlarning qo'ldan ketishi Alovuddin Muxammad Xorazmshoxni qattiq larzaga soladi. Saroyda fitna va xiyonat kuchayadi. Qunduz, Badaxshon xokimlari undan yuz o'girishdi. 1220 yil aprelda Muxammad Xorazmshox Nishopurga keldi. Ammo Subutoy no'yonning uni ta'qib etib kelayotgani sababli hech kim Muxammad Xorazmshoxni kutib olmadi va Kaspiy dengizdagi Ashura orolida qo'nim topdi. U 1220 yil dekabrda Jaloliddin taxt vorisi etib tayinlab, bir oz o'tmay vafot etdi. Xorazmshoxning O'zloqshox va O'qshox ismli o'g'illari mo'g'ullar tomonidan o'ldiriladi.

Bu davrda mo'g'ullarning Jo'ji boshliq askariy qismi ham Sirdaryo etaklarida zafarona harakat qilmoqda edi. Avval u aholisi zich joylashgan va boy savdo shahri Sig'noqqa hujum boshlaydi. Sig'noq aholisi yetti kun davomida shaharni qahramonona mudofaa qiladi. Sakkizinchi kuni shahar mo'g'ullarga majburan taslim bo'ladi. Bosqinchilar shaharni talab, aholisining oxirgi kishisigacha qirib tashlaydilar.

1220 yilning aprelda bosqinchilar Jandni egallab, uni talaydilar. Aholisining qurollangan qismi qatl etilib, shahar vayron qilinadi. Mo'g'ullar besh ming kishilik qo'shin bilan Sayhun (Sirdaryo) daryosi

bo'yida joylashgan Banokat (Shohruhiya) ustiga yuradi. Shahar to'rt kunlik mudofaadan so'ng taslim bo'ladi.

Xo'jand shahri Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan edi. Uning tabiiy joylashishi hamda shahar hokimi Temur Malikning qahramonligi bilan xo'jandliklar mo'g'ullarga kutilmagan qarshilikni ko'rsatadilar. Biroq, kuchlarning teng emasligi oqibatida Temur Malik shaharni tashlab chiqib, ming kishilik lashkari bilan shahar yaqinida daryo o'rtasidagi orollardan biriga joylashib oladi. Temur Malikning farmoyishi bilan 12 ta qayiq yasalib, dushmanning o'qi teshib o'tmasligi, o't yondirib yubormasligi maqsadida qayiqning usti namat bilan qoplanib, sirkali loy bilan suvab chiqiladi, Bunday usti yopiq qayiq bilan sohilga xavfsiz suzib borilar va qayiq yon devorlarida qoldirilgan maxsus shinaklardan dushmanni o'qqa tutardilar.

Temur Malik shu tariqa qayiqlarda mudofaa janglarini olib boradi. Lekin kuch kamligi uchun bor oziqovqat va qurol-yarog'larni 70 ta qayiqqa yuklatib, tunda mash'alalar yorug'ida Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi.

Shu tariqa Temur Malik qo'shini uzluksiz jang qilib, barcha qiyinchiliklarni yengib, Jand shahriga yetib boradi. Barchinlig'kent va Jand yaqinida mo'g'ullar daryoning har ikki sohilida yo'lni to'ssalarida, jasur xo'jandliklar sohilga tushib, dushman bilan so'nggi jangga kiradilar. Bu jangda Temur Malik qo'shini va safdoshlaridan batamom ayriladi. Faqatgina o'zi halokatdan qutulib, Urganch shahriga yetib keladi. Bir oz vaqt o'tgach, u Xorazmda to'plangan qo'shin va xalq lashkarlariga boshchilik qiladi. Jo'jiga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib, hatto undan Sayhun daryosining quyi oqimidagi Yangikent shahrini qaytarib ham oladi.

Chingizxon 1220 yilning yozida Naxshab (Qarshi) ga bostirib kiradi va uni egallaydi. Shu yilning kuzida esa Termizga askar tortadi. Termiz qamalning o'n birinchi kuni qattiq hujum bilan olinib, shahar xarob qilinadi.

Sirdaryo (Sayhun) havzasi, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari, Amudaryo (Jayhun) o'rta oqimining o'ng sohili viloyatlari zabt etilgach, Chingizxon asosiy kuchni Xorazmshohlar davlatining markaziy qismi - Xorazmga tashlaydi.

2. Jaloliddin Manguberding O'rta sharqdagi faoliyati. Mog'illar istilosi va zulmiga qarshi kurashning davom etirilishi.

1221 yilning boshlarida Chingizxon qo'shinlarining Urganchga yurishi boshlandi. Endigina Xorazm davlatining Sultoni deb e'lon qilingan Jaloliddin Manguberdi Urganchga yetib kelib mudofaaga kirishsada, ammo Turkon Xotun Jaloliddin hokimiyatini tan olmadi. Bu orada sobiq Jand noibi qochqin Qutlug'xon boshliq qipchoq lashkarboshilari tomonidan uyushtirilayotgan fitnadan xabar topgan Sulton Jaloliddin Temur Malik bilan Xurosonga jo'nashga majbur bo'ladi. Chunki bunday vaziyatda poytaxt tomon bostirib kelayotgan yovuz dushmanga qarshi Urganch mudofaasini sira ham tashkil qilib bo'lmas edi. Tez vaqt ichida shahzodalar O'zloqshoh va Oqshohlar ham Urganchni tark etib, qochib ketadilar. Poytaxt taqdiri o'ta qo'rqqoq va amalparast amir Xumortegin qo'lida qoladi.¹

Mo'g'ullarning Urganchga xujumi chog'ida shaxarda 110000 qo'shin bor edi. Shaxar ximoyasida Jaloliddin, Temur Malik, Axmad ibn Umar Xivaqiy-Shayx Najmiddin Kubro kabi sarkarda va ulamolar mislsizqaxramonliklar ko'rsatdilar. Urganch qamal yetti oy davom etdi. Mo'g'ullar bu yerda bir necha o'n minglab odamlarni qirg'in qildilar. Garchi Xorazmshoh amirlaridan Faridun Udiy boshchiligidagi sarbozlar mo'g'ullarni shaxardan xaydab chiqargan bo'lsada, shaxar mo'g'ullar tomonidan qaytadan bosib olindi va manbalarga ko'ra Urganch axolisidan million kishi o'ldirilgan. Urganchliklar dushmanning harbiy kuch va zirhli quollarining ustunligiga qaramay o'z ona shahrini mudofaa qiladilar. Poytaxt ichida olib borilgan ko'cha janglarida zamonining buyuk allomasi shayx Najmiddin Kubro nomi bilan shuhrat topgan 76 yoshli Ahmad ibn Umar Xivaqiy o'z do'stu shogirdlari va izdoshlari bilan ishtirok etadi. Najmiddin Kubroning iltijo bilan «Yo Vatan, yo sharofatli o'lim» deb aytgan xitobi rahnamoligida har bir mahalla, ko'chako'y, guzaru rasta, masjid, madrasa va har bir xonadon janggohga aylanadi. Uzoq davom etgan ko'cha janglarida minglab mo'g'ul askarlari halok bo'ladi. Mo'g'ullar to shu paytgacha Movarounnahrning hech bir shahrida bunchalik qurbon bermagan edilar. Bu qonli kurash yetti oy davom etgan.

Chingizxon Najmiddin Kubroga ahli a'yonlari, barcha yoru do'stlari bilan shahar tashqarisiga

¹ Jabbarov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. T.: "Sharq", 1999 y. 126 b.

chiqib, jon saqlashni taklif etgan. Ammo shayx Chingizxon taklifni rad qilgan. Oqibat son jihatidan teng bo'lmagan dushman bilan olib borilgan shiddatli jangda og'ir yaralangan Najmiddin Kubro o'lim oldida tig' tutgan mo'g'ul sarboziga tashlanib, qahramonlarcha halok bo'ladi. Ilojsizlikdan holi tang bo'lib, taslim bo'lgan Urganch bosqinchilar tomonidan tatontaroj qilinadi. Shaharning bosh ihota to'g'oni buzib yuboriladi. Urganchni suv bosib, uvayron bo'ladi.

Movarounnahrning asosiy shaharlari egallangach, mo'g'ul jangarilarining bosqinchilik yurishi Amudaryodan janubga joylashgan yirik savdo va madaniyat markazlaridan hisoblangan Balx, Hirot, Marv va G'azna kabi shaharlarga yo'naltiriladi. Ammo bu viloyatda ular Jaloliddin Manguberding qattiq qarshiligiga uchraydi. Bu o'lkada u kuchli lashkar to'playdi.

Jaloliddin Manguberdi ancha yillar ilgari G'azna, Bomiyon va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim etib tayinlangan edi. Shu boisdan u G'azna tomon borardi. Yo'lda unga Xuroson noiblari o'z qo'shinlari bilan kelib qo'shib bordi. Sulton Jaloliddin Niso, Qandahor shaharlari yonida mo'g'ul qo'shinlariga qaqshatqich zarbalar berib, G'aznaga yetib keldi. Uning qo'shinlari safiga yangi kuchlar qo'shildi. Jaloliddin Valiyon qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ul qo'shinlariga qarshi hujum qilib, ularni tormor etadi. Bu Jaloliddinning dushman ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi Shiki Xutuxu no'yonni 45 minglik qo'shin bilan jo'natadi. G'azna yaqinidagi Parvon dashtidagi jangda Jaloliddin g'alaba qozondi. Biroq g'alabadan keyin qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlashda Jaloliddinning lashkarboshilari o'rtasida o'zaro kelishmovchilik boshlanadi. Oqibatda lashkarboshilardan Sayfuddin Ag'roq, A'zam Malik va Muzaffar Maliklar qo'shindan ajralib ketadilar. Bu voqeadan so'ng Jaloliddinning harbiy kuchi zaiflashib qoladi.

Fursatdan foydalangan Chingizxon G'aznaga askar tortadi va ajralib chiqqanlarni alohidaalohida tormor etadi. Jaloliddin tengsiz janglar olib borib, Sind (Hind) daryosi qirg'oqlariga yaqinlashib boradi. Daryo bo'yida 1221 yilning 25 noyabrida ikki o'rtada qattiq jang bo'ladi. Jaloliddin Chingizxon qo'shinining ilg'orini yengadi. Mo'g'ullarning pistirmalarga qo' yilgan 10 ming nafar saralangan askari jangni yakunlaydi. Jaloliddin taslim bo'lishni xohlamay otda Sind daryosiga sakrab, narigi qirg'oqqa suzib o'tadi. U bilan birga uning to'rt ming kishilik askari ham daryodan o'tib oladi. Hozirgi paytda ham bu daryoning bir tomoni «*Ot sakrash*», narigi tomoni «*Cho'li Jaloliy*» deb ataladi. Jaloliddinning jasoratiga qo'yil qolgan Chingizxon hatto uni ta'qib qilish fikridan ham qaytadi. Hatto, u o'g'illariga qarab: «Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim» degan ekan. Jaloliddin yana o'n bir yil davomida goh Eron, goh Ozarbayjon hududlarida mo'g'ullarga qarshi kurashni davom ettiradi. Shunday qilib, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdini va uning jangovar kuchini tashkil qilgan fidoyi safdoshlari dushmanga qarshi yillar davomida qahramonona kurashlarda, ammo ona yurt ozodligini saqlab qolishning ilojini qilolmaydilar. Eng so'nggi Xorazmshohning hukmdorligi 1231 yilda tugaydi. Sharqdagi bu ulkan davlat batamom barham topadi. Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan buyuk ajdodimiz Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O'zbekistonda 1999 yili keng nishonlandi. Xorazmda unga haykal o'rnatildi, yirik ko'cha va maydonlarga uning nomi qo'yildi, videofilm, pyesa va dostonlar yaratildi. 2000 yil 30 avgustda «Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta'sis etilgan.

Mo'g'ullar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xorazmning yashnab turgan obod dehqonchilik viloyatlari halokatga uchradi. Gavjum va ko'rkam shaharlar, ayniqsa *Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Banokat, Xo'jand* va boshqalar xarobazorga aylantirildi. Marv vohasining sug'orish tarmoqlarining bosh to'g'oni - mashhur *Sultonband* buzib tashlandi.¹

Samarqandliklar o'z ona shaharlarini tark etib chiqib ketdilar. Marv aholisi esa suvsizlikdan qurib borayotgan qishloqlarni tashlab, o'zga yerlarga borib joylashdi. Urganch suvga bostirilib, batamom vayron etildi. Xorazm va Movarounnahming ziroatchi aholisi sonining keskin kamayib ketishi oqibatida ekin maydonlari jiddiy qisqarib, dehqonchilik inqirozga uchraydi.

Mohir hunarmandlar g'oliblarning yurtini obod etish uchun majburan Mo'g'ulistonga yuborildi. Butun Sharqda shuhrat topgan qurolaslaha yasash, nafis ipak matolar to'qish, naqshli shishasozlik hunarmandchiligi barham topdi.

Asrlar davomida Xitoy va Hindistondan Turkiston orqali Kichik Osiyo va Yevropa tomon kesib o'tgan mashhur Ipak yo'li mo'g'ullar bosqini davrida butunlay harakatsiz qoldi. Bu davrda ilm va ma'rifatga juda katta ziyon yetkazildi.

¹ Jabbarov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. T.: "Sharq", 1999 y. 128 b.

Jaloliddin jangda harbiy taktika tarixida hirinchi bo'lib dushman suvoriylariga qarshi o' (yonida turib piyoda Jang qilish uslubini qo'llaydi).

Jaloliddin va Temur Maliklar umrlarining oxirigacha mo'g'ullarga qarshi kurashlarga raxbarlik qildilar. Jaloliddin Manguberdi 1231 yil avgustida xinona o'ldirildi. Mo'g'ullar tomonidan bosib olingan xududlarda esa keyinchalik ulus vujudga keldi. Chingizxon xalqi xayotlik vaqtidayoq bosib olingan xududlarni to'rt o'g'liga boshqarish uchun taqsimlab bergan edi. Irtish daryosining narigi tomonidan to'rt o'g'iga «mo'g'ullar otining tuyog'i yetgan joy» gacha bo'lgan yerlar, Sirdaryoning quyi oqimi (Sig'noq, Barchinlig'kent, Janikent, Ashnas shaxarlari) va Xorazmning shimoliy-g'arbiy xududlari to'rt o'g'ga berildi. Jo'chining yaylovlari Irtishda, qishloq joyi Sirdaryoning quyi oqimi edi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq 1998
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston» 1992
3. Herman Vamberi. O'rta Osiyo bo'ylab sayohat. T., sharq 1996
4. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi konsepsiyasi. g' O'zbekiston tarixi. 1999 yil 1-son.
5. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., Sharq 2000
6. Sagdullayev A. va b. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarqqiyoti. T., «Akademiya» 2000
7. Abulg'ozir. «Shajarai turk». T., Cho'lpon, 1990.
8. Ziyov Buniyotov. Anushtagin Xorazmshoxlar davlati. T., G'.G'ulom, 1998.

7-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot

Reja:

1. XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatga asos solinishi.
3. Amir Temurning harbiy yurishlari.
4. **Temuriylar davlati.**
5. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat.

Tayanch tushunchalar.

Markazlashgan davlat, Amir Temur, «Loy jangi», Ilyosxo'ja, Sarbadorlar, Temur davlati, harbiy yurishlar, Anqara jangi, suyurg'ol, devonbegi, arkbegi, tarxon, «Kuch adolatdadir», «Temur tuzuklari», Temur davri ma'naviyati.

XIV asr ikkinchi yarmida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. XIV asr o'rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo'rlari qo'l ostida bo'lsa ham, bu yerlar mayda bo'laklarga bo'linib ketib, ularda toju taxt, hokimiyat uchun o'zaro nizolar kuchayib ketgan edi. 1348 yilga kelib Sharqiy Turkiston yerlarida Mo'g'uliston feodal davlati tashkil topdi, uning xoni etib Chig'atoy avlodidan Tug'luq Temur ko'tarildi. Tug'luq Temur dastlabki davrlardan o'z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahr yerlariga bir necha harbiy harakatlar uyushtirdi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, mohir sarkarda Amir Temur kirib keldi.

Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishloqida Barlos beklaridan Muhammad TaraQay oilasida 1336 yil 8 aprelda dunyoga kelgan. Uning amakisi Hoji Barlos Kesh shahrining hokimi edi. Temur yoshligidanoq harbiy mahoratga ega shaxs bo'lib, u o'z atrofiga barlos urug'idan chiqqan yosh jangchilarni to'plagan edi. 1360-1361 yillarda Tug'luq Temur hech qanday qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Vatandarparvarlik, milliy g'urur va iftixor hissiyoti kuchli bo'lgan yosh Temur esa amakisi hokimlik qilib turgan yerlarini dushman qo'lga bermaslik uchun Tug'luq Temur xizmatiga kiradi va tez orada uning ishonchini oqlab, Kesh viloyati yerlariga hokimlik qilish uchun yorliq oladi.

Amir Temurning bu ishi Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik, o'zaro kurashlar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan-bir to'g'ri yo'l edi. Chunki Movarounnahr amirlarining Tug'luq Temurga qarshi bosh ko'tarib chiqishi Mo'g'ul bosqinchilarining Movarounnahr yerlarini yana bir bor vayron etishiga olib kelishi muqarrar edi.

Tug'luq Temur 1361 yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni tajribasiz o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Lekin Temur Ilyosxo'jaga xizmat qilishdan bosh tortib, o'sha vaqtda Balx hokimi bo'lib turgan Amir QozoQonning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. Temur o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Mo'g'ullarga qarshi kurash boshlaydi. Mahalliy hokimiyat uchun bo'lgan janglarning birida, aniqrog'i Seyistonda turkmanlarga qarshi bo'lgan janglarda o'ng qo'li va o'ng oyog'idan yaralanib bir umrga oqsoq bo'lib qoladi.

1363 yilda Tug'luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo'lgan kurashlarni kuchaytirib yuboradi. Lekin Mo'g'ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahr yerlarini bermasliklari ma'lum edi. Shu munosabat bilan Amir Temur va Tug'luq Temur vafotidan so'ng Movarounnahrda haydalgan Amir Husaynning birlashgan qo'shinlari 1365 yilda Ilyosxo'ja qo'shinlariga qarshi ittifoqlikda kurash boshlaydilar. Toshkent va Chinoz oraliQida bo'lgan mashhur «loy jangi» ittifoqchilar o'rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag'lubiyat bilan tugaydi. Ushbu voqealardan so'ng Amir Husayn va Amir Temur o'rtasida dastlabki ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da g'alabaga erishgan Ilyosxo'ja uchun Movarounnahrda keng yo'l ochilgan edi.

U katta qo'shinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlonzoda va Abu Bakr Qalaviy boshliq sarbadorlar Ilyosxo'jaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalari ko'rsatib qarshilik qilganliklari tufayli Samarqandni bir oz qamal qilib turgan Mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrni butunlay tark etishga majbur bo'ladilar.

Movarounnahrda Mo'g'ullar ustidan qozonilgan G'alaba haqida xabar eshitgach, Amir Temur va Amir Husayn Movarounnahrda yo'l olib Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda sarbadorlarning rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari hiyla yo'li bilan o'ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Husayn egallab, uning hukmronligi tiklanadi. Shu vaqtdan boshlab Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib ketadi.

Bu vaqtga kelib butun Movarounnahr yerlarida o'zaro urushlardan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'irlashib ketgan edi. Mana shunday bir vaqtda, mamlakatda o'zaro urushlarga barham beradigan markazlashgan davlat tizimini barpo etish nihoyatda zarur edi. Buni birinchi bo'lib anglagan Amir Temur Amir Husaynga qarshi zimdan kurash olib borib 1370 yilda Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi.

Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatga asos solinishi.

Vatan haqida qayg'urish, Vatan mustaqilligini tiklash haqidagi fikrlar shu yillar yuzaga chiqib, Amir Temur Balx shahrida chaqirilgan qurultoyda Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi. Temur o'z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqandga ko'chib o'tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi. Sohibqiron aniq mulohazalari bilan xalqni zulmdan ozod qilish va uzoq yillik boshboshdoqlik hukmron bo'lgan yerda markazlashgan davlat tuzish mushkulligini sezganligi sababli dastlab mamlakatni tashqi xavfdan saqlash maqsadida asosini barlos urug'lari tashkil etgan yengilmas va jangovor milliy qo'shin tuzadi, ularga katta imtiyozlar beradi.

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o'z qo'shinlariga suyanligi sababli harbiy islohotga, ya'ni qo'shin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e'tibor bergan. U qo'shinlarini o'nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo'lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblagan. Amir Temur lashkarlarga ham katta e'tibor berib, ular nizomni qat'iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo'lishi, dushmanga yumshoq muomalali va adolatli bo'lishi lozim deb hisoblardi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojo'y kishilar ko'p bo'lgan. Ular bechoralarga xayru ehson ko'rsatish, boshga og'ir kunlar tushganda yordam qo'lini cho'zish, asirlarga yumshoq muomalada bo'lish va ularni ozod etishga odatlanganlar. Amir Temur doim jangda jasorat ko'rsatgan amirlar va askarlarga alohida e'tibor bilan qaradi. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo'shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o'z davlatining poydevori bo'lgan qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Amir Temurning harbiy yurishlari.

Temur Movarounnahr taxtini egallagan vaqtdan boshlab, o'z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Shu maqsadda u Amudaryo va Sirdaryo oraliQidagi yerlarni o'z tasarrufiga

oladi. Xorazmga besh marotaba yurish qilib, 1388 yilda uni butunlay bo'ysundiradi, bu yerda hukmronlik qilayotgan so'fiylar sulolasini tugatadi. Temur o'zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1396), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o'z tasarrufiga oladi. 1394-1395 yillarda Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko'p sonli qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi va Oltin O'rda hududini egallaydi. Temurning bu G'alabasi Oltin O'rdaga juda katta zarba berish bilan birga Temur qo'shinlarining Volga daryosi bo'ylarida bemalol yurishlariga ham keng yo'l ochdi. Ta'kidlash joizki, Temurning bu G'alabalari tarix sahnasida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida Halab va Bayrut shaharlarini, 1401 yilda Damashq shahrini egallaydi.

1402 yilda usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag'lubiyatga uchratdi. Bu G'alaba bilan Temur Yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha o'n yillar orqaga surib yubordi.

Temur 1404 yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko'radi. Shubhasiz, Temur bu yurish uchun uzoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yillar davomida to'plagan edi. 1404 yilda Temur 200 minglik qo'shin bilan Xitoy safariga otlandi. Ammo Temurning qattiq betoblighi tufayli uning qo'shinlari 1405 yilning yanvar oyida Xitoyga yaqin bo'lgan chegara shahar O'tror shahrida to'xtaydilar va shu yerda 1405 yilning 18 fevralida buyuk sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

«Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qurol kuchidan o'n baravar foydaliroqdir», degan dono so'zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so'zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo'li bilan hal qilishni bildiradi.

Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona - jo'g'rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi. Islom Karimov.

Amir Temur davlatining ichki va tashqi siyosati. Temur o'zining hayoti davomida harbiy iste'dodi, mohir sarkardaligi, diplomatiligi va yetuk davlat arbobi bo'lganligi tufayli milliy yuksalish va insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'ldi. Sohibqiron turk-Mo'g'ul an'anasiga amal qilgan holda o'z davlati hududlarini suyurg'ol (ulus) tariqasida in'om qilish yo'li bilan boshqargan. Temur Movarounnahrda tashqaridagi yerlarini to'rt ulusga bo'lib, farzandlariga in'om etdi. Bu masalaning e'tiborli tomoni shundaki, garchi sohibqiron tomonidan bo'lib berilgan yerlar ichki mustaqillikka ega bo'lsalar-da, lekin amalda batamom markaziy hokimiyatga bo'ysundilar. Temurning o'ta darajadagi zukkoligini shundan bilsa bo'ladiki, u uluslar o'rtasida o'zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun ularning faoliyatini doimo o'zi nazorat qilib turadi.

Temur davlatining eng ko'zga ko'ringan va muammoli tomoni shundaki, sohibqiron kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo'lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli hokimiyat ekanligini tushundi va davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi. Amir Temur vazir to'rtta sifatga ega bo'lishi lozim deb hisoblagan: birinchisi-asllik, toza nasllilik, ikkinchisi-aql-farosatlilik, uchinchisi-sipohu raiyat ahlidan xabardorlik, to'rtinchisi-sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yiqish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, saroy xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarganlar.

Bu davrlarda yerga egalikning ba'zi turlari mavjud bo'lib, ular suyurg'ol yerlar, vaqf yerlar, jamoa yerlari edi. Xususiy yer egalari tarxon unvonini olganlar, davlatga soliq to'lashda ba'zi imkoniyatlarga ega bo'lganlar, vaqf yerlar masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo'lib, ular soliq to'lashdan ozod qilganlar. Amir Temur davrida asosiy soliq daromad solig'i-xiroj bo'lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismiga teng bo'lgan. Temur tuzuklarida yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo, biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, faqat yerni o'zlashtirganining uchinchi yili (birinchi, ikkinchi yil umuman to'lamagan) qonun doirasida xiroj solig'i olingan. Undan tashqari ushr, mol, suvloq kabi soliq turlari mavjud bo'lib, ular yillar davomida amal qilgan tartib-qoidalarga binoan to'plangan. Soliq to'plovchi soliq yig'ish

jarayonida soliqni yaxshi so'zlar bilan to'plashi, aholini kaltaklash hollari, zanjirband etish hollari kelib chiqmasligini nazorat qilishi shart edi.

Amir Temur dunyodagi o'z davrining eng qudratli saltanatini barpo etib uning xududlarini SHarq Farbga, SHimolu - Janubga kengaytirdi, iqtisodiy , ma'naviy-madaniy yuksalishga erishdi, aholi turmush darajasini misli ko'rilmagan darajaga ko'tardi va o'z saltanati dovrug'ini olamga yoydi Lekin afsuski bu qudratli mamlakat uning vafotidan keyin tanazzulga uchradi. Buning sabablari quyidagilar edi :

1) Amir Temur davlati uzoq o'lkalarni qamrab olgan bo'lib, kommunikasiyalar rivojlanmagan, iqtisodiy xayot birligi shakllanmagan o'sha zamonlarda ularni bir markazdan turib boshqarish juda murakkab edi. Bunday saltanatni katta salohiyat va obro'-estiborga ega bo'lgan xukmdorgina yagona davlat doirasida birlashtirib turishi mumkin edi.

2) Amir Temur tirikligidayoq mamlakat uluslarga bo'linib idora qilingan edi. Uning tirikligida ulus boshliqlari markazga bo'ysinmaslikka jur'at eta olmas edi. Lekin uning o'limidan keyin ulus boshliqlarining xar biri mustaqillikka intila boshlandi

3) Amir Temur o'z saltanati xududlarini qurol kuchi bilan boshqa hukmdorlardan tortib olgan edi. Alamzada xukmdorlar Amir Temur o'limidan so'ng o'z hududlariga qaytadan xukmdor bo'lish uchun kurashni boshladilar.

4) Aksariyat musulmon xukmdorlar singari Amir Temur xam ko'p sonli taxtga davvogarlik qilish xuquqi bo'lgan voris - shahzodalar qoldirdi. Uning 4 o'g'lidan 2tasi, 19ta nevarasi, 15 ta chevarasi, ikkita qizidan biri Og'abegimning o'g'li Sulton Xusayn Mirzo, ya'ni 37 shahzoda taxtga davvogarlikda bir xil xuquqqa ega edilar .Taxtga vorislik xaqida barcha tomonidan maqbul topilgan qonun qabul qilinishiga erishgan aksariyat Evropa mamlakatlaridan farqli ravishda, musulmon mamlakatlari, jumladan Temur davlatida bu masala xal qilinmasdan qolgan edi. Ko'p jihatdan ana shu sababli Temuriy shaxzodalar Temur jasadi erga qo'yilmasdanoq taxt uchun kurashlarni boshladilar.

Temur farzandlari orasida eng kata salohiyatga ega bo'lgani Jahongir Mirzo edi.Lekin afsuski u 30 yoshga etmasdan xastalik tufayli olamdan o'tgan edi. Uning ikkinchi o'g'li Umarshayx Eron shaxarlaridan birini egallashda o'ldiriladi. Uchinchi o'g'li Mironshoh bazmu jamshidga berilib ulus jilovini o'zining bosh vaziriga berganligi va bu bosh vazirning xazinadagi boyliklarni o'g'irlab, soliqlar miqdorini oshirganligi Amir Temurga ma'lum bo'lgach yasoqqa tortiladi va uning nufuzi Temur ko'zida pasayadi.Temurning to'rtinchi o'g'li SHohrux o'ta madaniyatli, yumshoq tabiatli, ilm fanga, ma'rifatga moyil kishi bo'lgan. SHuning uchun boshqa farzandlaridan farqli ravishda Temur unga xarbiy yurishlar vaqtida katta qo'shin topshirmagan. Temur uni o'z taxtining vorisi deb hisoblamagan . Buning ustiga SHohruh Temurning to'ng'ich nabiralari Muxammad Sulton va Pirmuxammadbeklardan yoshroq bo'lgan.

XVasr boshlarida Amir Temur taxtning vorisi Muxammad Sulton deb e'lon qiladi. Uning o'limidan so'ng Temur Xalil Sulton nomzodi eng maqbul nomzod deb hisoblaydi. Lekin Xalil Sulton Temur ishonchini oqlamaydi. Amirlarning biriga tegishli bo'lgan kanizak SHodimulkbegimni bobosining ruxsatisiz o'z nikohiga oladi. SHundan so'ng valiahd qilib Pirmuxammadbek tayinlanadi.. Amir Temur vafot etganda Pirmuxammadbek Qandaxorda ekanligidan foydalanib Xalil Sulton Samarqandga kelib kelib o'zini xukmdor deb e'lon qiladi. Boshqa Temuriy shaxzodalar buni tan olmaydilar. Xalil Sulton o'zining noo'rin xatti xarakati bilan (masalan 60dan oshgan Saroymulixonimni majburan erga beradi) xalq orasida obro'sizlanadi. Natijada taxt uchun urush boshlanadi va Temuriylar saltanati mayda-mayda bo'laklarga bo'linib ketadi.

SHohruhmirzo otasining vasiyatiga amal qilib Pirmuxammadbek tomoniga o'tadi. Taxt uchun kurash 4 yil davom etadi. Bu orada Pirmuxammadbek 1407 yil 29 fevralda o'z vaziri Pir Ali Toz tomonidan bo'g'ib o'ldiriladi. Mironshoh Mirzo 1408 yil 21 aprelda Ozarboyjonda Qora YUusufga qarshi bo'lgan jangda xalok bo'ladi. O'zini adolatli xukmdor , qat'iyatli, shijoatli, mohir sarkarda sifatida ko'rsatgan va otasining vasiyatiga amal qilganligi sababli halq orasida nufuzi oshgan SHoxrux mirzo o'zaro urushlarda g'olib chiqadi. SHoxruxmirzodan engilgan Xalil Sulton u bilan sulh shartnomasi imzolashga majbur bo'ladi. Bitimga ko'ra Xalil Sulton Movaraunnahr taxtiga davvogarlikdan voz kechadi va Ray viloyatiga xokim etib tayinlanadi..Oradan ikki yil o'tgach 1411 yil 4 noyabrda og'ir xastalikdan vofot etadi. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra u zaxarlab o'ldirilgan.

Samarqandni egallagach SHoxrux Temur davlatini tiklashga kirishadi. U Movaraunnahr, Xuroson, SHimoliy Afg'oniston va Ozarboyjon xududlarini qamrab olgan davlat tuzadi. Akalarining avlodlariga g'amho'rlik ko'rsatib o'z qanoti ostiga oladi. Bu uning oliyjanob odam ekanligini ko'rsatadi. Movaraunnahr xukmdorligi Ulug'bek mirzoga (1394-1449), Hisor xukmronligi Muxammad Sulton o'g'li Muxammad Jaxongir mirzoga (1394-1435), Farg'ona Umarshayx Mirzo o'g'li Ahmad Mirzoga (1383-1425), SHimoliy Afg'oniston xududlari Pirmuxammadbek o'g'li Qaydu Mirzoga beriladi. Temuriyodalarning barchasi xam SHoxruxga sadoqat bilan xizmat qilmaydi. Masalan, Qaydu mirzo o'z ulusida mustaqil xokimiyat o'rnatish uchun kurash boshlaydi. Lekin mag'lubiyatga uchraydi va 1417 yilda qo'lga olinadi SHoxrux uni kechirib Hirotda saqlashga buyuradi. Qaydu mirzo Hirotdan qochib yangidan kurash boshlaganidan so'ng qo'lga olinib Ixtiyoriddin qalbasidagi zindonga tashlanadi va shu erda olamdan o'tadi. SHoxrux davrida mamlakatda tinchlik va osoyishtalik xukm suradi. Amir Temur davlatining asosiy qismi uzoq vaqt davomida SHoxrux Mirzo tomonidan idora qilingan bo'lsada amalda bu ulkan mamlakat ikkita davlatdan iborat edi. Biri poytaxti Xirotda bo'lgan SHoxruxmirzo davlati, ikkinchisi markazi Samarqand bo'lgan Mirzo Ulug'bek davlati.

Mirzo Ulug'bekning asl ismi Muxammad Tarag'ay bo'lib u 1394 yilda Sultoniya davlatida tavallud topdi. Ulug'bek bobosining eng sevimli nabiralari biri bo'lgan. Uning tug'ma istedod, aql zakovat sohibi ekanligini anglagan Temur Ulug'bek tarbiyasini o'z davrining eng ko'zga ko'ringan olimi Qozizoda Rumiya topshiradi. Ulug'bek davlat boshqaruvini puxta egallaganidan tashqari dunyoviy va diniy bilimlarni ham etuk darajada o'zlashtirgan. Mirzo Ulug'bek xukmronligi saltanatning an'anaviy rivoji va muhim ijtimoiy o'zgarishlar yo'lidan ilgarilab borishida alohida davrni tashkil qiladi. Xukmdorning mohirona rahbarligi mamlakat tinchligi, dahlsizligi va osoyishtaligini nisbatan ta'minladi. Bu esa uning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha davr tarixchilari fikricha Ulug'bek bobosi davridagi boshqaruv tizimini, barcha tartib qoidalarini to'la saqlashga intilgan. 1409 yilda Ulug'bek Movaraunnahr taxtiga o'tirganda 15 yoshda edi. SHu sababli davlat ishlarini boshqarish uning vasiysi SHoxmalikka yuklatiladi. SHohmalik raqibi SHayx Nuriddin uning xokimiyatini tan olmaydi va mo'g'ullar yordamida qo'shin to'plab isyon ko'taradi. Bundan xavotirga tushgan SHoxrux katta qo'shin to'plab yordamga keladi. 1411 yil yozida bo'lgan jangda SHayx Nuriddin o'ldiriladi. Bir necha kun o'g'lining yonida mehmon bo'lgan SHoxrux o'g'lining mustaqil xukmdor salohiyatiga ega bo'lganiga amin bo'ladi va SHohmalikni olib Xirotda qaytadi. Ulug'bek esa Movaraunnahrni mustaqil boshqara boshlaydi.

Ulug'bek bobosi singari jangu jadallarga qiziqmadi. Faqat zarurat taqozo qilgandagina u xarbiy yurishlarga otlangan. Masalan, 1414 yilda Farg'ona xukmdori Ahmad itoatdan bosh tortgach, unga qarshi qo'shin tortadi. Bu yurish vaqtida Ulug'bek nafaqat Farg'ona balki SHarqiy Turkistonni xam o'z tasarrufiga oladi.

Mamlakatning shimoliy chegaralari bobosi singari Ulug'bekni ham g'oyatda tashvishlantirar edi. O'sha davrda Oltin O'rdada feodal tarqoqlik xukm surar va bu vaziyat Ulug'bek davlati shimoliy sarhadlariga havf solar edi. SHuning uchun u Oltin O'rda taxtiga o'z odamini o'tqazib, mamlakat chegaralarining dahlsizligini ta'minlashga intildi. Amir Temurning dushmani O'risxonning nabirasi Baroqxon Ulug'bek yordamida Oltin O'rda taxtiga o'tiradi. Ulug'bek o'z ittifoqchisi taxtga o'tirganidan mamnun bo'lib asosiy e'tiborini Jeta (Mo'g'iliston) ulusiga qaratadi va SHermuxammadbekni xukmdorlikka ko'taradi. Biroq u Ulug'bekka itoat etishdan bosh tortadi. Ulug'bek g'azablanib 1425 yilda unga qarshi qo'shin tortadi. SHoxrux yurishni to'xtatish maqsadida elchilarni Samarqandga yuboradi. Lekin xalq oldida beburd bo'lishdan cho'chigan Ulug'bek yurishni to'xtatmaydi, yurish davrida SHermuxammadbek mag'lub qilinadi va Ulug'bek katta o'ljalar bilan Qashqadaryo orqali Samarqandga qaytadi. Yo'lda u Qarshidan Chingiziylar tomonidan keltirilgan yamll toshini Samarqandga jo'natadi.

1426 yilda Baroqxon Sirdaryoning quyi va o'rta oqimiga xujum qilib bobosining poytahti Sig'noqni egallaydi. To'xtamishga qarshi urushlar vaqtida bu erlar Temur tomonidan egallanib mamlakat tarkibiga kiritilgan edi. Baroqxon Ulug'bekka men shariat bo'yicha xarakat qilib o'z bobom erlarini egalladim deb elchi yuboradi. Fazablangan Ulug'bek Baroqxonga qarshi urush boshlaydi. SHoxrux o'z o'g'lining xarbiy salohiyati etarli darajada yuqori emasligini yaxshi bilgan va shuning uchun yurishni to'xtatishni buyuradi. Lekin xarbiy yurish bu buyruq etib kelguncha boshlab yuborilgan edi. SHu sababli SHoxrux zudlik bilan Ulug'bekning ukasi Muxammad Jo'qi boshchiligida qo'shinni unga yordamga

yuboradi. Ikki qo'shin 1427 yil 25 fevralda Sig'noq yo'lida qo'shiladi. Birlashgan qo'shin Baroqxon qo'shinidan ancha ko'p edi. SHu sababli bo'lsa kerak ikki shahzoda manmanlikki berilib xushyorlikni yo'qotadi. Baroqxon o'z raqibi ustunligini bilib jangga puxta tayorlanadi va Sig'noq yaqinida qo'qisdan zarba beradi. Natijada Temuriylar qo'shini to'zib ketadi. Temuriy shahzodalar zo'rg'a jonlarini saqlab qoladilar va Samarqandga qaytadilar. Baroqxon ularni Samarqandgacha ta'qib qilib boradi, shaxar va qishloqlarni talaydilar. YAngidan qo'shin to'plagan Ulug'bek Sirdaryoni kechib o'tadi va Toshkentga keladi va Baroqxonning chekinganini eshitadi. Ulug'bekning bu mag'lubiyati Amir Temurning To'xtamishxon ustidan qozongan g'alabalari natijalariga barxam beradi. Sirdaryo bo'yidagi shaxarlar ustidan ko'chmanchi o'zbeklar xukmronligi o'rnatiladi. O'zbek ulusining kuchayishi ana shundan boshlanadi. Samarqandga kelgan SHoxrux mag'lubiyat sabablarini tahlil qilib bir necha amirni jazoga tortadi. Qattiq tanbeh olgan Ulug'bek Samarqandda qoldiriladi.

Ana shu davrdan boshlab Ulug'bek mirzo o'z umrini mamlakat osoishtaligini ta'minlashga va ilm fanga bag'ishlaydi. SHunday bo'lsada ko'chmanchi o'zbeklarning Movaraunnahrga qarshi tahdidi 1430-40 yillarda kuchayganda u yana urishishga majbur bo'ldi. Lekin bu urushlar SHoxrux mirzo raxbarligi ostida amalga oshirilgan edi. Temuriylar o'shanda qiyinchilik bilan bo'lsada o'z sarhadlarining dahlsizligini saqlab qolgan edilar.

SHoxrux 1447 yil 12 martda nevarasi Sulton Muxammad isyonini bostirish vaqtida Ray shaxrida vofot etadi.. Temuriylarning toju taxt uchun kurashi yangidan avj oladi. Taxtni o'sha davr taomiliga ko'ra Ulug'bek egallashi kerak edi. Lekin Gavxarshodbegim SHoxruxning uchinchi o'g'li Boysunqur mirzo farzandi Alovuddavla valiahd bo'lishi tarafdori edi. Natijada Alauddavla va uning ukasi Abulqosim Bobur Ulug'bekka qarshi xarakat boshlaydilar. Xuroson va Xirotni Alovuddavla, Mozandaron va Jurjonni Abulqosim Bobur , Farbiy Eron va Forsni Boysunqur mirzoning yana bir o'g'li Sulton Muxammad egallaydi. Muxammad Jo'kning o'g'li Abu Bakr Mirzo Balx ,SHibirg'on, Qunduz va Bag'lon viloyatini egallaydi. SHunda Ulug'bekning o'g'li Abdulatif Rayda ekanligidan foydalanadi va SHoxruxning shu erdagi asosiy qo'shini ustidan sarkardalikni o'z qo'liga oladi. Gavxarshodbegim bu xaqdagi xabarni Alovuddavla ga etkazadi. Xirotdagi SHoxrux xazinasini qo'lga olgan Alouddavla uni sipoxiyalariga taqsimlaydi va katta qo'shin tuzadi. Nishopurga etib kelgan Abdulatif qo'shiniga to'satdan zarba berib Abdulatifni asirga oladi. Uni Ixtiyoriddin qal'asidagi zindonga tashlab o'zi Ulug'bekka qarshi qo'shin tortadi. Bu paytda Samarqanddan yo'lga chiqqan Ulug'bek Balxni egallaydi. Abu Bakrni qo'lga olib qatl ettiradi. Alovuddavla bilan esa Abdulatifni asirlikdan ozod qilish maqsadida sulh tuzadi. Ulug'bek Xirotni va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi. Abdulatifni Balx xokimi qilib tayinlaydi.

Alovuddavla va Abdulatif o'rtasidagi munosabatlar sulxga qaramay keskinlashadi. CHunki Alovuddavla sulh shartlarini to'la bajarmaydi, ya'ni Abdulatif askarlarini ozod qilmaydi. Buning ustiga chegara xududiga Abdulatif dushmani Mirzo Solixni xokim qilib tayinlaydi. SHu boisdan Abdulatif Mirzo Solixga 1447 yil oxirida xujum qilib uni mag'lubiyatga uchratadi. Ikki o'rtada yana urush boshlanadi. 1448 yil baxorida Ulug'bek va Abdulatifning 90 ming kishilik qo'shini Alauddavla ga qarshi Xirotni ga yurish boshlaydi va Alauddavla tamomila mag'lubiyatga uchratiladi. Xirotdan keyin Mashxad xam egallanadi. Abulqosim Bobur elchilar yuborib Ulug'bek xukmronligini tan olsada uning xududlariga xam Ulug'bek qo'shinlari bostirib kiradi. Mag'lubiyatga uchragan Abulqosim Bobur o'z ulusi xududlarini tark etadi. Xujumnm davom ettirish o'rniga Ulug'bek Mashxadga qaytadi. Buni dushmanlari chekinish deb o'ylaydilar va bu ularga quvvat bag'ishlaydi.

Lekin bu Ulug'bekning yagona xatosi emas edi. Urushda Abdulatif qaxramonlik ko'rsatganligiga qaramay Ulug'bek g'alabani o'g'li Abdulazizga bag'ishlaydi. Buning ustiga u Abdulatifni SHoxrux tomonidan unga in'om etilgan Ixtiyoriddin qal'asiga kiritmaydi va qal'adagi xazina, boyliklarni o'lja deb e'lon qiladi. Natijada ota bolaning munosabati buziladi. Bu orada Ulug'bekka Abulxayrxonning Samarqand xududlariga bostirib kirganligi, shaxar va qishloqlarni talayotganligi xaqida xabar beradilar. Ulug'bek Samarqandga jo'naydi Xirotni xokimi qilib Abdulatif tayinlanadi. Abulqosim mirzo Ulug'bekni yo'lida ekanligidan xabar topib unga qarshi qo'shin yuboradi. Amir Xindaku raxbarligidagi bu qo'shin Ulug'bek qo'shiniga kutilmaganda zarba berib katta talofat etkazadi. Buning ustiga Amudaryodan kechib o'tganda unga ko'chmanchi o'zbeklar xujum qiladilar. Asosiy kuchlaridan ajralgan Ulug'bek kichkina qo'shin bilan qishni Buxoroda o'tkazadi.

Abulqosim Bobur Abdulatifning Xirotda bir o'zi qolganligidan foydalanib unga qarshi qo'shin yuboradi. Abdulatif Xirotni tashlab Balxga qochadi va shu erda otasiga qarshi isyon ko'taradi. U xatto Abulqosim Bobur bilan otasiga qarshi ittifoq tuzadi. 1449 yil bahorida Abdulatif otasiga qarshi lashkar tortadi Amudaryoning ikki soxilida turib 3 oy davomida jang xarakatlari olib boradi. Bu orada Samarqand xokimi bo'lib qolgan Abdulazizning Ulug'bek bilan ketgan amirlarning xotin va kanizaklariga ko'z olaytirayotganligi va ularni majburan o'z saroyiga olib ketayotganligi ma'lum bo'ladi. Bu Ulug'bek amirlarining noroziligini kuchaytiradi. Ulug'bek ularni tinchlantirishga xarakat qiladi. SHunday bir og'ir vaziyatda Samarqandni turkmanlar qamal qilganligi xaqida xabar keladi. Ulug'bek Samarqandga bo'lgan xavfni shaxarga kelib bartaraf etadi. Lekin fursatdan foydalangan Abdulatif Termiz, Fuzor, va Keshni egallaydi. 1449 yilda Samarqand yaqinidagi Dimishq qishlog'ida Abdulatif va Ulug'bek qo'shinlari to'qnashadi. Ulug'bek engiladi va Samarqandga chekinadi. Lekin Samarqand xokimi Mironshoh Qavchin uni SHaxarga kiritmaydi. SHoxruxiya xokimi xam undan yuz o'giradi. Ulug'bek Abdulatif xuzuriga kelib xokimiyatdan voz kechishini, qolgan umrini ilm fanga bag'ishlashini bildiradi. Lekin o'g'li uni Makkaga borishi xaqida farmon beradi. Ulug'bek yo'lga chiqqach uning orqasidan Abbas ismli shaxs o'z novkari bilan kelib Ulug'bekning boshini tanasidan judo qiladi. Bu voqea 1449 yil 25 oktyabrda sodir bo'ladi.

Abdulatif Abdulazizni xam o'ldiradi. SHundan so'ng unga qarshi suiqasd uyushtiriladi va Abdulatif o'ldiriladi. Uning tanasidan judo qilingan boshi 1450 yil 9 mayda Ulug'bek madrasasi peshshoqiga ilib qo'yiladi

Bo'sh qolgan Samarqand taxti uchun yana kurash boshlanadi. Kurashda Ulug'bekning ukasi Ibroxim Sultonning o'g'li, Ulug'bekning kuyovi Abdulla Mirzo g'olib chiqadi. U davlatning avvalgi mavqeini tiklashga xarakat qiladi. Lekin tez orada Abulxayrxon yordamida qo'shin to'plagan Abusaidga (Mironshox avlodi) taxtni boy beradi. 1451 yilda taxtni egallagan Abusaid faqat Movaraunnaxr xukmdori bo'ladi. Xuroson esa Abulqosim Bobur ixtiyorida qoladi. Ular o'rtasida munosabatlar yomon bo'lgan.

1456 yilda Abulqosim Bobur jigari xastaligiga qaramay ortiqcha sharob istemol qiladi va olamdan o'tadi. Vaziyatdan foydalangan Abusaid 1457 yilda Xirotni egallaydi va saltanatni birlashtiradi. Xuddi shu vaqtda Xusayn Bayqaro xam taxt uchun kurashni boshlaydi. Jurjon va Astrabodni u 1460 yilda egallashga muvoffaq bo'ladi. SHundan keyingina eng xavfli dushmani kim ekanligini sezgan Abusaid Xusayn Bayqaroga qarshi qo'shin tortadi va Astrabodni egallaydi. Xusayn Bayqaro esa Xorazmni zabt etadi va Xuroson xududlariga vaqti-vaqti bilan xujumlar uyushtiradi. Lekin bu yurishlardan natija chiqmaydi. Faqat Abu Said 1469 yilda oqquyunli turkmanlar bilan bo'lgan jangda o'ldirilgach, u Xirot shaxri axolisining Abusaid o'g'illari Maxmud mirzo va Axmad mirzoga qarshi qo'zg'olon ko'targanlaridan xabar topadi va shaxar aholisi yordamida taxtga o'tiradi. Abusaid farzandlari qarshilik ko'rsatmasdan Xirotni tark etadilar. Natijada Temuriylar davlati yana ikkiga bo'linadi.

Xusayn Boyqaro davrida Xuroson sharqdagi eng yirik, siyosiy va iqtisodiy mavqei yuqori bo'lgan davlatlardan biriga aylanadi. Uning tarkibiga Xuroson, Xorazm, SHarqiy va SHimoliy Eron xududlari kirgan edi. Xusayn Bayqaro 38 yil xukmronlik qiladi.

Xusayn Bayqaro taxtga o'tirgach, o'z qaramog'idagi barcha viloyat va tumanlar ma'muriy boshliqlarining xammasini yangilaydi. Qozilik va Dodhohlik lavozimlariga odil va fozil kishilarni qo'yadi. Masjid va madrasalarni etuk va o'qimishli ulamoyu fuzalolar ixtiyoriga beradi va ulardan mamlakatda tartib o'rnatishda yordam berishlarini so'raydi. Tartib intizomni buzgan va adolatsizlik qilgan kishilarni kim bo'lishidan qat'iy nazar qattiq jazolaydi. Bu borada u xatto o'z o'g'lini xam ayamaydi.

Afsuski Xusayn Boyqaro umrining oxirigacha mamlakatni birday qat'iyat va shijoat bilan boshqara olmadi. Umrining oxirida boqi beg'am, maishatparast, kayfu safoga mukkasidan ketgan xukmdorga aylanadi. Bundan Xadichabegim ustalik bilan foydalanadi. O'sha davr taomiliga ko'ra taxtni katta o'g'il egallashi kerak edi. Baddiuzamon uning o'g'illari orasida eng aqlli, shijoatli, qat'iyatlisi edi. Xadichabegim esa o'z o'g'li Muzaffar Xusayn mirzoni vali axd qilmoqchi edi. Buning oqibatida saroyda ziddiyatli vaziyat vujudga keldi. SHunda Alisher Navoiy Badiuzamonning o'g'li Mo'min mirzoni taxtga o'tqazishni taklif qildi. Mo'min mirzo o'g'il va nabiralar orasida taxtga eng munosibi bo'lgan. Xadichabegim Xusayn Boyqaro mastligida unga Mo'min mirzoni qatl etish to'g'risidagi farmonga imzo chektiradi. Alisher Navoiy Mo'minn mirzoning qatl etilishi Temuriylar xonadonining inqirozi ekanligini

taʼkidlagan. Chunki qatl natijasida siyosiy barqarorlikka barxam etadi va mamlakat urush girdobiga tortiladi.

Moavraunnahrda xam Abusaidning o'g'illari dastavval Sulton Axmad mirzo (1469-1493), so'ngra Sulton Maxmud mirzo (1493-1494), Boysunqur mirzo (1494-1497) va nixoyat Maxmudning o'g'li Sulton Ali mirzo (1497-1501) lar davrida feodal tarqoqlik va beboshliklar misli ko'rilmagan darajada kuchayadi. Bu xol Dashti Qipchoq cho'llarida chorvadorlik bilan kun kechirayotgan ko'chmanchi o'zbek qabilalarining Markaziy Osiyo xududlaridan Temuriylar sulolasi vakillarini quvib chiqarib, o'lkani egallab olishlariga qulay imkoniyatlar yaratadi.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat.

Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yiqish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, saroy xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarganlar.

Bu davrlarda yerga egalikning ba'zi turlari mavjud bo'lib, ular suyurg'ol yerlar, vaqf yerlar, jamoa yerlari edi. Xususi yer egalari tarxon unvonini olganlar, davlatga soliq to'lashda ba'zi imkoniyatlarga ega bo'lganlar, vaqf yerlar masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo'lib, ular soliq to'lashdan ozod qilganlar. Amir Temur davrida asosiy soliq daromad solig'i-xiroj bo'lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismiga teng bo'lgan. Temur tuzuklarida yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo, biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, faqat yerni o'zlashtirganining uchinchi yili (birinchi, ikkinchi yil umuman to'lamagan) qonun doirasida xiroj solig'i olingan. Undan tashqari ushr, mol, suvloq kabi soliq turlari mavjud bo'lib, ular yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga binoan to'plangan. Soliq to'plovchi soliq yig'ish jarayonida soliqni yaxshi so'zlar bilan to'plashi, aholini kaltaklash hollari, zanjirband etish hollari kelib chiqmasligini nazorat qilishi shart edi.

Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarining tutgan o'rniga keng e'tibor berdi. Fransuz olimi Alfons de Lamartin Amir Temur davlati haqida shunday degan edi: «Yevropa na Iskandarda, na Atillada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi fotih Napoleonda adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas». «Davlat ishlarini, - deb yozgan edi Amir Temur, - saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim».

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e'tibor berdi. Dastlab, Samarqandni poytaxt qilib olgach, u juda katta imtiyozlarga ega bo'lgan shaharga aylanadi. Sohibqiron harakati bilan Samarqandda dunyoning yirik shaharlaridan keltirilgan binokorlar, me'morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar bino etildi. Hatto G'ariblariga oziq-ovqat beradigan G'aribxonalar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan maxsus joylar ham qurilgan. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma'muriy bino Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar ham aynan shu yerda quriladi. Temur noyob qurilishlardan tashqari Samarqand atrofida o'zining xeshu aqrabolariga atab turli go'zal bog'lar qurdirardi.

Temur ulkan sohibqiron sifatida o'zining ona yurti Keshga katta diqqat-e'tibor bilan qaradi. Yozma manbalardagi ma'lumotlariga qaraganda, Amir Temur Shahrisabzda Oqsaroy, jome' masjid, madrasalar barpo ettiradi. Sohibqironning ulug' sahvotning yana bir tomoni shunda ediki, u bepoyon dashtlar bilan qamrab olingan Turkiston shahrini ham obodonchiligiga keng e'tibor berdi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurish bilan bu yerda nafaqat obodonchilik, balki ko'chmanchi va o'troq aholi orasidagi munosabatni yaxshi yo'lga qo'yish, urug'lar o'rtasida tinchlik saqlash maqsadi yotgani ma'lum.

Amir Temur davrida yangi shaharlar, savdo va hunarmandchilik keng rivojlanganligini aytib o'tmoq lozim. Temurning sa'y-harakatlari bilan Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi. Ayniqsa, bu davrlarda hunarmandchilikning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Sohibqiron savdo yo'llari rivojiga, uning tinchligiga keng e'tibor berib bordi. Shaxsan o'zining nazorati ostida savdo yo'llari nazorat qilib borilishi savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minladi.

Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yo'naltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham kuch keng yo'lga qo'ydi. Sohibqiron chet davlatlar bilan aloqani keng yo'lga qo'ydi. U davr shart-sharoitlariga ko'ra tashqi siyosatda qat'iy, faol harakat qilib, o'z saltanati dovruq'ini jahon miqyosiga chiqara oldi. Sohibqironning Yildirim Boyazid ustidan bo'lgan g'alabalaridan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif etgan. Shunday qilib u Yevropa davlatlari bilan yaqin qo'shnichilik qilish, savdo karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib o'z davlati shuhratini Yevropaga tarqata oldi. Uning saltanatini dovuQi bu mamlakatlarga yetib borishi bilan Fransiya, Angliya, Genuya, Vizantiya, Ispaniya kabi davlatlarning qirollari sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o'rnatishga intilganlar. Shu bois ular sohibqiron huzuriga muntazam elchilar yuborib turganlar. Temurning chet davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalarida uning o'g'li Mironshoh ko'p yordam bergan.

Amir Temur davrida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo'lgan. Sohibqiron o'z davrining fan va madaniyati jonkuyari sifatida shuhrat qozondi. Temur taqvodor ruhoniylarga chuqur hurmat bilan qaradi. Ularning duolarini oldi, doimo kamsitilgan mazhab tarafdorlarini o'z himoyasiga oldi. Darvesh, faqir va miskinlarni o'ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslik uchun barcha talablarini bajardi.

Nazorat uchun savollar:

1. Amir Temur davlatni boshqarishda davlatchilikning qaysi jixatlariga ko'proq e'tibor qaratgan?
2. Davlat boshqaruvida dargox va devonning o'rni qanday edi?
3. Davlat boshqaruv ishlarida Amir Temur qanday qonunlarga asoslangan?
4. «Temur tuzuklari» da axoli qanady ijtimoiy qatlamlarga bo'linganligi xaqida yozib qoldirilgan?
5. Amir Temur davlatida soliq tizimi qanday tartibda amalga oshirilgan?
6. Amir Temur davlatida xuquqiy munosabatlar qanday qonunlarga asoslangan edi?

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar. 4-jild. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Amir Temur haqida so'z. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., „Ma'naviyat“, 2008 y.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili - buyuk kelajagimizning garovidir. T., “O'zbekiston”, 2012.
4. Temur tuzuklari. Toshkent. G'afur G'ulom nomli nashriyot, 1991.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
6. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent. Kamalak, 1994.
7. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. Toshkent. O'zbekiston, 1996.
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. I-II j. Toshkent. Mehnat, 1992.
9. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. Chingizxon va Amir Temur. Toshkent, 1994.
10. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. Toshkent. G'.G'ulom nashriyot, 1996.
11. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Toshkent. Fan, 1993.
12. N.Jo'rayev, H.Sodiqov. O'zbekiston tarixi. 1-2-3 tom. T., 2012 y.
13. Eshov B. O'zbekiston tarixi. T., Sharq, 2013 y.

8-mavzu. O'rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.

Reja:

1. Buxoro xonligi (Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri).
2. O'rta Osiyoda Buxoro amirligi.
3. Xiva va Qo'qon xonliklarining tashkil topishi.
4. Xonliklarning hududi, aholisi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti.

Tayanch tushunchalar:

Muhammad Shayboniyxon, Z.M. Bobur, Abdullaxon II, Ubaydullaxon II, Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, Buxoro mang'itlari, Xivada avval shayboniylar keyin qo'ng'irotlarning hokimiyat tepasiga kelishi, Qo'qon xonligida minglar sulolasi, Xalq noroziligining kuchayishi, O'rta Osiyo xonliklarida feodal tarqoqlik va uning sabablari,

Buxoro xonligi (Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri).

Balx ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan to Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan ulkan xududlar XI asrdan boshlab Dashti Qipchoq deb atala boshlandi. 1236 yilda Botuxon tomonidan bu yerdagi qipchoq va boshqa turkiy qabilalarbo'ysunbirilib, Oltin O'rda davlatiga asos solindi. XIV asr boshlarida bu davlat ikki qismga bo'linib ketdi va Sharqiy qismi Oq O'rda yoki manbalarda o'zilikcha «O'zbeklar mamlakati» deb yuritila boshlandi. XV asr o'rtalarida Jo'chining beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412-1468) ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Abulxayrxon davrida kuchaygan bu davlat uning vafotidan so'ng inqirozga uchray boshladi. XV asrning 80-yillarida ko'chmanchi o'zbeklar davlati Muhammad Shoxbaxt Shayboniyxon (1451-1510) tomonidan qayta tiklandi va tez orada ancha kuchayib, o'sha vaqtda ichki siyosiy kurashlar oqibatida inqirozga uchrab, parokandalik xukm surgan Temuriylarning ichki siyosiy kurashlariga ham ta'sir o'tkaza boshladi. XVI asr dastlabki o'n yilligida temuriylarning Movarounnaxr va Xurosondagi barcha mulklarini Shayboniyxon bosib oldi va bu yerda o'z davlatiga asos soldi. Muhammad Shayboniyxon, Abusaidxon (1529-1533), Ubaydullaxon (1533-1539), kabi xonlar hukmronlik qildi. Abdullaxon I ning qisqa hukmronligi (1540-1541) dan so'ng mamlakatda qo'sh-hokimiyatchilik vujudga keldi. Ya'ni bir davlatda ikki hukmdor paydo bo'ldi.

Biri - Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon Buxoroda, ikkinchisi - Ko'chmunchixonning o'g'li Abdulatifxon Samarqandda hukmdorlik qila boshladilar. Buxoro Abdullaxon II hukmronligi davrida Mamlakatdagi parokandalikka chek qo'yish uchun markaziy hokimiyatni yana tiklash va kuchaytirish zarur edi. Bu zaruriyatni qonli urushlarsiz amalga oshirib bo'lmas edi. Ana shunday sharoitda kurash maydoniga Miyonqol hukmdori Iskandar Sultonning o'g'li Abdullaxon II (1534-1598) chiqdi.

Iskandarxon xonadoniga Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'ida istiqomat qiluvchi, g'oyatda katta nufuzga ega bo'lgan shayx Muhammad Islom (1493-1563)ning ixlosi baland bo'lganligi Abdullaxonga bu kurashda juda katta madad bo'ldi. XVI asrning ikkinchi yarmida Shayx Muhammad Islom, keyinchalik uning o'g'li Shayx Abubakr Sa'd Buxoroda shayxulislom lavozimini egallagan edilar.

1556-yil Muhammad Islomning ko'magida Abdullaxon amalda Buxoro taxtini egallaydi. Abdullaxon II avval amakisi, Balx va Badaxshon hukmdori Pirmuhammadni (1557-1561), keyin otasi Iskandarxonni (1561 - 1583) xon deb e'lon qilgan bo'lsa-da, amalda mamlakat hukmdori Abdullaxon II ning o'zi edi.

Abdullaxonning butun hukmronlik davri tinimsiz urushlarda kechdi. Chunonchi, 1574-yili Balxni, 1578-yili Samarqandni, 1583-yili Toshkent va Farg'onani, 1584-yili Badaxshonni, 1595-yili Xorazmni zabt etdi va o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Shundan keyin uning davlati sarhadlari janubda Hirotdan Mashhadgacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Issiqko'lgacha yetdi. Butun Movarounnahr, Xorazm va Xuroson yana yagona hukmdor qo'li ostida birlashtirildi. XVI asr oxirlariga kelib Buxoro xonligi nisbatan markazlashgan ulkan davlatga aylandi.¹ Shunday qilib, XVI asrdagi davlatchiligimiz tarixida yetakchi sulola - shayboniylar sulolasi bo'ldi. Bu sulola o'zbek davlatchiligi rivojiga ma'lum darajada hissa qo'shdi. Sulolaning eng qudratli vakili Abdullaxon II davrida esa o'zbek

¹ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., "Sharq", 2003. 94 b.

davlatchiligi o'z tarixida yana bir bor yuksak darajaga ko'tarila oldi. Shayboniylar sulolasi hukmronligining barham topishi - Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish yo'lida shaybomy sultonlarining markaziy hokimiyatni kuchsizlantirishga urinishlariga qarshi tinimsiz va shafqatsiz kurash olib bordi. Bu maqsad yo'lida qarindoshlariga ham shafqat qilmadi. Abdullaxon II garchand davlatni markazlashtira olgan bo'lsa-da, davlatdagi ichki nizolarga tola barham bera olmadi. Shunday qilib, Abdullaxon II vafotidan atigi 3 yil o'tgach, bir asr davom etgan shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi. Shayboniy Abdullaxon II 1598-yil fevral oyida vafot etgach, taxtga uning o'g'li Abdulmo'min o'tqizildi. Biroq o'sha yili -1598-yil iyul oyida Abdulmo'min fitnachilar tomonidan O'rtepa va Zomin oralig'ida o'ldirildi. Undan qolgan ikki yashar o'g'ilning xonlik huquqini hech kim tan olmadi.

Buxoroning bir guruh amirlari shayboniylardan Ibodulla Sultonning o'g'li Abdulaminni xon qilib ko'tarishga urindilar. Shayboniylarning boshqa guruhi esa Abdullaxon II ning jiyani, Sulaymon Sultonning o'g'li Balx hokimi Pirmuhammadni shayboniylarning oliy xoqoni deb e'lon qiladilar. Ichki kurash natijasida Pirmuhammad Balxdan chaqirib olinadi va taxtga o'tqiziladi.

Ichki nizolar tufayli Buxoro xonligida sodir bo'lgan og'ir vaziyatdan foydalangan Eron hukmdori shoh Abbos bostirib kirib, Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirotni egallaydi. Xorazm esa xonlik tasarrufidan chiqib, davlat mustaqilligini tiklab oldi. Ayni paytda, qozoq xoni Tavakkal Movarounnahrqa qo'shin tortib, Axxi, Andijon, Toshkent, Samarqandni egallab, Buxoro tomon yurdi. Xurosondan Buxoroga yetib kelgan Pirmuhammadxon Buxoro himoyasiga kirishdi. Xonlikning ko'pgina amirlari o'z qo'shinlari bilan Pirmuhammadxonga qo'shildi. Tavakkal Buxoroni 2 oy davomida qamal qilsa-da, uni ololmay Samarqand tomon chekindi, Pirmuhammadxon qo'shinlari uni ta'qib etib, 1599-yil avgust oyi oxirlarida Miyonqolning Uchqora mavzeyiga yetib oldilar va shu yerda bo'lgan jangda Tavakkal qo'shinlari tor-mor keltirildi. Movarounnahr hududi ozod etildi, qozoq lashkarlari Dashti Qipchoqqa chekindi.

Pirmuhammad Buxoro xonligini yana ikki yilcha idora qildi. Tez orada Jaloir, Do'rmon qabila boshliqlarining ig'vosi bilan Pirmuhammadxon bilan Boqi Muhammad o'rtasidagi munosabatlar buzildi. Oxir-oqibatda Pirmuhammadxon bilan ashtarxoniy Jonibek Sultonning o'g'li Boqi Muhammad o'rtasida 1601-yilda Samarqand yaqinidagi Bog'i Shamol mavzeyida jang bo'ladi. Jangda Pirmuhammadxon yengiladi va 80 yoshida qatl etiladi.

1601-yilda Jonibek Sultonning o'g'li Boqi Muhammad Buxoro taxtiga o'tqizildi.¹ Buxoro xonligi tarixida yangi sulola - ashtarxoniy sulolasi hukmronligi boshlanib, qariyb 1,5 asr davomida mamlakat shu sulola tomonidan boshqariladi. Boqi Muhammad (1601-1605) mamlakat sarhadlari jipsligini mustahkamkurashlash, boshqaruv tizimini izga solish uchun ko'p urindi, 1602-yilda Eron safaviylariga zarba berib, Balxni kuch bilan bo'ysundirdi va ukasi Vali Muhammadni hokim etib tayinladi. 1603-yilda Eron safaviylarining Balxga hujum qilgan qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Boqi Muhammad Toshkent uchun qozoq sultonlariga qarshi kurashdi. 1604-yilda qozoq xoni Keldimuhammad qo'shinlarini mamlakat hududidan haydab chiqarib, qator hududlarni Buxoro xonligiga bo'ysundirdi.

1605-yilda Boqi Muhammad vafot etgach, uning ukasi Vali Muhammad taxtga o'tqizildi. Ichki kurash yana avj oldi. Buxorolik amirlar xonga qarshi isyon uyushtirganligidan xabar topgan Vali Muhammad farzandlarini olib Eronga qochadi. Amirlar taxtga Boqi Muhammadxonning o'g'li Imomqulixonni (1611 - 1642) o'tqizdilar. U Vali Muhammad boshlab kelgan Eron qo'shinlarini tor-mor keltirib, mamlakat mustaqilligini saqlab qoldi. Vali Muhammad asir olinib, qatl etildi. Imomqulixon Toshkent va xonlikning shimoli-sharqiy chegaralari uchun qozoqlar, asosiy negizi oyrotlardan kelib chiqqan jung'orlar va qalmiqlarga hamda qoraqalpoqlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. 1613-yilda Toshkent yerlarini egallagan qozoqlarga hujum qilib, Toshkentni o'z tasarrufiga kiritdi. O'gli Iskandar Sultonni Toshkent hokimi etib tayinladi. Iskandar Sulton boj, xiroj va boshqa soliqlarni ko'paytirib, aholiga qattiq zulm o'tkazdi. Bunga qarshi Toshkentda qo'zg'olon ko'tarildi va Iskandar Sulton o'ldirildi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkent ustiga qo'shin tortdi. Qo'zg'olonchilar ayovsiz jazolandi, Iskandar xuni uchun aholi qirg'in qilindi.

Imomqulixon davrida markaziy davlat hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Imomqulixonidan keyin taxtni egallagan Nodir Muhammad (1642-1645) davrida ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik yana kuchaydi.²

¹ Eshov B.J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. T., 2014. 64 b.

² Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy. Tarixi jahonnomayi. "Sharq yulduzi", N-8, 1991.

1645-yilda qozoqlar yana Movarounnahrğa yurish qilib, Xo'jandgacha yetib keladilar. Nodir Muhammad ularni quvib chiqarish uchun o'g'li Abdulaziz boshchiligidagi katta qo'shinni safarbar etadi. Xondan norozi bo'lgan bir guruh amirlar yurish davrida Abdulazizni xon deb e'lon qiladilar. Abdulaziz Buxoroga keladi, aslzodalar uni taxtga o'tqizadilar.

Abdulazizxondan keyin taxtga o'tirgan Subhonqulixon (1681- 1702) davrida ham ahvol o'nnglanmadi. Subhonqulixon, bir tomondan, Balx viloyatlarida hokimlik qilayotgan o'g'illariga qarshi, ikkinchi tomondan, Movarounnahr viloyatlaridagi amir va beklarga qarshi urushlar qilishga majbur bo'ldi. Uchinchi tomondan, Xiva xoni Anushaxon qo'shinlari hujum qilib, Buxoro, Karmana va Vardonzeni egalladi, hatto Samarqandni ham ishg'ol qildi. Samarqandda Anushaxon nomiga xutba o'qitilib, uning nomidan tanga pullar zarb etiladi.

Subhonqulixon qatag'on urug'idan bo'lmish Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliq yordamida Xiva qo'shinlarini Samarqanddan quvib chiqarishga erishdi.

1702-yili Subhonqulixon vafot etgach, toju taxtni uning o'gli Ubaydullaxon (1702-1711) egallaydi. Ubaydullaxon II goh isyonkor qabilalarga qarshi, goh bo'ysunmas mahalliy hukmdorlarga, goh davlat sarhadlariga bostirib kirgan ko'chmanchilarga qarshi urush olib borishga majbur bo'ldi. Ubaydullaxonning asosiy maqsadi siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi. U ana shu maqsad yo'lida harakat qildi.

Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan Farg'ona vodiysida ham XVIII asr boshlarida ajralib chiqish harakati boshlanib, hokimiyat awal Chust yaqinidagi Chodak xo'jalari qo'lga o'tadi. 1710-yilda esa hokimiyatni *ming* qabilasi boshlig'i Shohruxbiy egallab, mustaqil Qo'qon xonligiga asos soladi.

Ubaydullaxon davrida ijtimoiy-siyosiy parokandalik kuchaydi. Har bir viloyat hokimi mustaqil bo'lish uchun Ubaydullaxonga qarshi fitna uyushtirildi va 1711-yilning 16-martida u o'ldirildi.

Taxtga Ubaydullaxonning inisi Abulfayzxon (1711 - 1747) o'tqizildi. Abulfayzxon tomonidan fitnaning hamma ishtirokchi va ijrochilari saxiylik bilan mukofotlandi. Ular katta-katta lavozim egalari bo'ldilar. Ubaydullaxonning yaqinlari, amaldorlarining mol-mulklari talandi, o'zlari esa qatl etildi.

Shunday qilib, parokandalikka qarshi, oliy hokimiyatni kuchaytirish va mamlakat birligini ta'minlash uchun kurashgan Ubaydullaxonning hukmronligi fojiali yakunlandi.

Abulfayzxon kundan kunga mamlakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo'lida bir qo'g'irchoq hukmdor edi, xolos. Bu davrga kelib, xonning ahvoli shu darajaga borib yetdiki, uning farmonlari saroy ostonasidan nariga o'tmaydigan bo'lib qoldi. Zamondosh tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda, Abulfayzxon „Registon (ya'ni Saroyning oldi) tinch bo'lsa bo'lgani“, degan gapni doimo takrorlab turgan.

Abulfayzxon davrida o'zbeklarning mang'it qabilasidan kelib chiqqan Muhammad Hakimbiy katta nufuzga ega bolib oladi. U barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olingan edi.

Shahrisabz hokimi, *kenagas* qabilasidan chiqqan Ibrohimbiy Urgut va Miyonqol hokimlari bilan til biriktirib, Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga qaror qildi. 1722-yilda Samarqandni egallab, kuyovi Rajab Sultonni xon deb e'lon qildi. Natijada mustaqil Samarqand xonligiga asos solindi va 1730-1731 -yillargacha bu xonlik mustaqilligi saqlanib turildi. Ibrohimbiy o'ziga „amir ul-umaro“ (ulug' amir) unvonini berdi.

Abulfayzxon esa vaqtini ko'ngilxushlik ishlariga sarflab, mayxo'rlikka berilib ketadi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi siyosiy tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona, Badaxshon amalda mustaqil bo'lib oldilar. Bu ahvol tashqi dushmanlarning Movarounnahrğa bostirib kirishiga qulay imkoniyat yaratdi. Davlat mustaqilligining yo'qotilishi Eron shohi Nodirshoh Kavkaz, Hindiston, Usmonli turklar saltanati va Afg'onistonga qarshi zafarli yurishlardan so'ng, 1736-yili Buxoro xonligiga qarshi katta qo'shinni safarbar etdi. Nodirshohning o'g'li RizoquI yetakchiligidagi qo'shinlar Amudaryodan o'tib, ko'pgina hududlarni bosib oladi va Qarshini 15 kun qamal qiladilar.

Bunday og'ir sharoitda Buxoro xoni Xiva xonidan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Xiva xoni Elbarsxonning yordamga kelayotganidan xabar topgan Nodirshoh buyrug'iga binoan RizoquI qo'shinlari orqaga qaytib ketadilar.

1740-yilda Eron qo'shinlari Buxoroga qarshi ikkinchi marta Nodirshoh boshchiligida hujum qiladilar. Buxoro va Xiva xonlari umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun birlasha olmaydilar.

Abulfayzxon (1711-1747) davrida mamlakatdagi eng asosiy viloyatlar va shaharlar mustaqil

hokimliklarga bo'linib ketdi. Buxoro xonligi siyosiy hayotida mang'itlar yo'l boshchisi Muhammad Hakimbiy ta'siri nihoyatda kuchaydi.

O'rta Osiyoda Buxoro amirligi.

1740-yilda Eron qo'shinlari Nodirshoh boshchiligida Buxoroga qarshi yana hujum boshladi. Buxoro va Xiva xonlari umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun birlasha olmadilar. Bu ham yetmaganidek, Buxoroning o'zida xoinlik yuz berdi. Xonlikda yetakchi mavqega ega bo'lib olish niyatidan qaytmagan Qarshi hokimi Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib ketdi, Abulfayzxon Eron bosqiniga qarshi kurashni uyushtira olmadi va taslim bo'ldi.

Shartnomaga ko'ra, Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 yilga yetadigan 200 ming xarvor bug'doy va arpa to'plab beradi. Bundan tashqari, Buxoro xonligi aholisidan 10 ming nafarli qo'shin to'planib, Nodirshoh ixtiyoriga jo'natiladi. Bu qo'shinga Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim qo'mondon etib tayinlandi.¹

Abulfayzxon amalda Eronga qaram qo'g'irchoq hukmdorga aylandi. Muhammad Hakimbiy esa qo'shbegi lavozimini egalladi. Butun hokimiyat amalda uning qo'lida to'plandi.

Muhammad Hakimbiy 1743-yilda vafot etgan edi. Uning o'g'li Muhammad Rahimbiy o'zining muntazam qo'shinga egaligidan foydalanib, hokimiyatda otasi kabi alohida mavqe uchun da'vogarlik qila boshladi. So'nggi ashtarxoniy Abulfayzxon unga Bosh vazirlik lavozimini berishga majbur bo'ldi va oxir-oqibatda markaziy hokimiyat uning qo'lida to'plandi.

Muhammad Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhoniylarining qo'llab-quvvatlashi bilan 1756-yilda o'zini hukmdor deb e'lon qildi. Biroq mang'itlar chingiziylar nasliga mansub bo'lmaganligi uchun mang'it hukmdorlari o'zlarini xon deb emas, amir deb ataganlar. Ular Buxoro mintaqasining diniy hukmdori - *amir ul-mo'minin* hisoblanganlar.

Shunday qilib, 1756-yili Buxoroda hokimiyat tepasiga yangi sulola mang'itlar sulolasi keldi² va davlatni 1920-yilgacha idora qildi. Shundan boshlab Buxoro xonligi endilikda Buxoro amirligi deb ataladigan bo'ldi. Mang'itlar 92 o'zbek qabilasining biri edi.

Mang'it hukmdori Muhammad Rahimbiy (1756-1758) mamlakatda o'zining mutlaq hukmdorligini o'rnatish hamda ichki boshboshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi.

Muhammad Rahimxon mustaqillikni da'vo etib yurgan Miyonqol, Nurota, Qo'bodiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut beklklarini to'rt yil davomida o'ziga bo'ysundirdi.

Muhammad Rahimxon vafotidan so'ng uning amakisi Doniyolbiy otaliq hokimiyatni o'z qo'lga oldi (1758-1785). U o'zini xon atamadi va Abulfayzxonning nabirasi Abulg'oziniy taxtga o'tqizdi. Doniyolbiy ham otaliq mansabini, ham amaldagi hukmdorlikni o'z qo'lida saqlab qoladi.

Amir Shohmurod (1785-1800) Amir Doniyolbiy otaliqning to'ng'ich o'g'li bo'lib, yoshligidan xudojo'y, porso bo'lib o'sgan. Madrasani bitirib, darvishlik suluki tarafdori, targ'ibotchisidan biriga aylanadi. Shohmurod Abulg'oziniy hokimiyatdan chetlatib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi va taxtni egallaydi. Xalq unga hurmat bilan „amiri ma 'sum" (begunoh amir) unvonini bergan. Shohmurod o'z faoliyatida ommaga tayanib ish tutdi.

Amir Shohmurod ba'zi islohotlar o'tkazib, davlatni mustahkamlashga erishdi. Boj va xirojdan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi. Rais mansabini va qo'shin tarkibida qozi askar lavozimini joriy qildi.

Mamlakat iqtisodini yo'lga qo'yishda Shohmurod o'tkazgan pul islohoti muhim ahamiyat kasb etdi. Ashtarxoniy davrida zarb qilingan tangalarda kumush miqdori kamaytirib yuborilgan edi.

Shohmurod joriy qilgan qonun bo'yicha kirn mol-mulkka xiyonat qilsa, jamiyatdagi martabasidan qat'iy nazar qattiq jazoga tortilishi lozim edi. Bu tadbir xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi.

1800-yilda Qarshi viloyatida va Kattaqo'rg'on ham xalq qo'zg'olonlari bo'ldi. Doimiy 1821-yili Miyonqolda ham qo'zg'olon ko'tarildi. Kattaqo'rg'on, Chelak, angiqo'rg'on qo'zg'olonchilar qo'lga o'tadi. 1826-yilda amirlik taxtiga Nasrullo (1826-1860) o'tirdi. U Amir Haydarning uchinchi o'g'li edi. Nasrullo qisqa vaqt ichida taxtga da'vo qilishi mumkin bo'lgan barcha avlodlarining bahridan o'tadi. Ularning uy-joylarini talash, oila a'zolarini esa tahqirlashni lashkarlar ixtiyoriga topshiradi.

Amir Nasrullo amirlik tarkibiga rasmangina kirgan beklklarni yagona davlatga birlashtirish yo'lida qat'iyat bilan kurash olib bordi. U Buxoroda birinchi bor 40 mingga yaqin sarbozdan iborat muntazam

¹ Ergashov D. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T., 2015. 214 b.

² Osha joyda, 215 b.

piyoda qo'shin tuzdi.¹ U zamonaviy to'pchilar qismini tuzish niyatida chetdan to'p quyuvchi ustalarni, to'p quyish ilmiga o'rgatuvchi mutaxassislarni jalb etdi.

Amir Nasrullo qanchalik qattiqqo'l bo'lmasin, uning davrida ham beklklarning mustaqillik uchun kurashiga to'la chek qo'yishning iioji bo'lmadi. Masalan, Shahrisabz bekligi mang'itlarning o'zaro qirg'inlaridan foydalanib, amirlikdan ajralib chiqqan va o'zini mustaqil deb e'lon qilgan. Bundan darg'azab bo'lgan

Amir Nasrullo „o'zboshimcha" kenagaslarga qarshi kurash boshladi. Bu kurash 30 yil davom etdi. Shu davr mobaynida u Shahrisabzga 32 marta yurish qilgan. Va nihoyat, 1856-yildagina u Shahrisabz va Kitobni o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

Amirlar mang'it qabilasidan bo'lganliklari uchun bu qabilani o'zlarining asosiy siyosiy va ijtimoiy tayanchlariga aylantirgan edilar. Davlat muassasalari asosan ulardan tashkil etilgan. Buxoro amirlari o'zbek qabilalari boshliqlarining o'z qabifadoshlariga ta'sirini juda yaxshi bilar edilar. Qabila boshliqlari bilan o'zaro til topa olish - bu mamlakat xavfsizligining asosiy kafolatlaridan biri edi. Shuning uchun ham mang'it amirlari boshqa o'zbek qabifalari boshliqlarini o'z xizmatlariga olar edilar.

Amirlik aholisi tarkibida yahudiylar ham anchagina edi. Ular o'z diniy e'tiqodlarini saqlab qolgan edilar, amirlikdagi deyarli butun savdo-sotiqni o'z qo'llariga olib, ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lib olgan edilar. Biroq ularga nisbatan inson qadr-qimmatini kamsituvchi tartiblar ham joriy etilgan edi. Xususan, yahudiylarga ot minib yurish man etilgan edi. Bellariga kamar emas, chilvir bog'lab yurishlari shart edi.

Xiva va Qo'qon xonliklarining tashkil topishi.

Xorazm hududida jami 20 ga yaqin o'zbek qabilasi istiqomat qilar edi. Ular orasida qo'ng'iro't, mangit, nayman, qipchoq va qiyot qabilalari ko'p sonli va eng kuchli qabilalar bo'lgan. Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq Xuroson davlati tasarrufida edi. Xorazmda qo'ng'iro't qabilasidan chiqqan Chin So'fi hokim edi. U rasman Husayn Boyqaro noyibi hisoblanardi.

1505-yili Shayboniyxon, 1510-yilda esa Eron hukmdori shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq shoh Ismoilning hukmronligi uzoqqa bormadi. Vazir shahri qozisi Umar qozi yetakchiligida safaviylar hukmronligiga qarshi harakat boshlanadi.

Xorazmning mo'tabar zotlari mamlakat taxtiga Shaybon avlodlaridan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqizishga qaror qildilar. U bu davrda Dashti Qipchoqda edi. Berka Sultonning xonadoni Shayboniyxon xonadoni bilan garchand bir shajaradan bo'lsa-da, ular o'zaro dushmanlik munosabatida edilar. 1480-yilda o'zaro toj-u taxt uchun kurashda Muhammad Shayboniyxon tomonidan o'z bobokaloni Shaybonxon avlodiga mansub Berka Sultonning o'Idirilganligi buning sabablaridan biri edi.

Xorazmning erksevar xalqi Elbarsxon yetakchiligida 1511-1512-yillarda Eron qo'shinlarini mamlakatdan butunlay quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa 1511-yilda Xorazm mustaqilligi tiklandi va bu davlat endi Xiva xonligi deb atala boshlandi. Bu davlat asoschisi ham shayboniylar vakillari bo'ldi. Xiva xonligida shayboniylar hukmronligi 1770-yilgacha davom etdi.

Elbarsxon davrida mamlakat poytaxti Vazir shahridan Urganch shahriga ko'chirildi. Elbarsxon Vazir shahrini Eron qo'shinlaridan ozod etgach, bu g'alaba sharafiga o'z o'g'illari nomiga „g'ozi" laqabini qo'shib aytishni buyurgan.

Elbarsxon davrida Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'pgina qabilalarning ko'chib kelishi yanada kuchaydi. Natijada xonlik hukmdorlarining ijtimoiy tayanchi mustahkamlandi. Bu omil Xiva hukmdoriga xonlik hududini qo'shni davlatlar hisobiga kengaytirib olish imkonini berdi. Chunonchi, Elbarsxonning 1516-yilgacha bo'lgan hukmronlik davrida Shimoliy Xuroson, Saraxs, Orol va Mang'ishloq egallandi.

Movarounnahrda shayboniylar davlati singari Xiya xonligi ham bir qancha katta kichik mulklarga bo'lingan. Xiva xonligining aholisi etnik, madaniy va til jihatdan bir-biridan keskin farq qiluvchi uch guruhga bo'lingan:

- 1) qadimiy xorazmlklarning bevosita avlodlari;
- 2) turkman qabilalari;
- 3) Dashti Qipchoqdan Xorazmga ko'chib kelgan qabilalar.

Ayni paytda ular markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka, mustaqillikka intilishgan. Bu hoi o'zaro

¹ O'sha manba, 244 b.

nizolarni keltirib chiqargan. Xiva xonligida yirik o'zbek qabilalarining boshliqlari amalda mustaqil mulk egalari aylangan. Ular xonlikning butun ijtimoiy-siyosiy hayotiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatib kelganlar.

XVI asrda Xiva xonligi iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi. Buning asosiy sabablaridan biri - Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirib, 1573-yildan boshlab Kaspiy dengiziga oqmay qo'y-ganligi bo'ldi. Daryo 15 yil davomida Orol dengizi yo'nalishiga burildiki, natijada eski o'zan atrofidagi yerlar cho'lga aylandi. Aholi esa xonlikning boshqa hududlariga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan. Bundan tashqari, Xiva xonligining XVI asrda ikki marta Buxoro xonligi tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o'zaro qabilaviy urushlar, og'ir soliqlar hamda turli to'lov va jarimalar mamlakat aholisini xonavayron qilgan. Bu hoi savdo-sotiqqa katta putur yetkazgan. Markaziy Osiyoda dastlab tashkil topgan ikki davlat - Buxoro va Xiva xonligi o'rtasida doimo o'zaro dushmanlik munosabatlari hukm surgan.¹ Buning asosiy sababi - xonliklarning doimo bosqinchilik urushlari hisobiga o'z hududlarini kengaytirishga urinishlari bo'lsa, ikkinchisi, Buxoro va Xiva xonligida hukmron sulolalarning bir-biriga g'anim bo'lib qolgan xonadonlarga mansubligi edi. Xivani Buxoroga bo'ysundirish harakati Ubaydullaxon davrida boshlandi. Ubaydullaxon 1537- 1538-yillarda Xorazmga hujum qilib, Xiva xonligini Buxoroga bo'ysundiradi. Xiva xoni Avanesxon (1525-1538) qo'shinlari tor-mor keltirildi, xonning o'zi esa o'ldirildi. Ubaydullaxon o'g'li Abdulazizni Xorazmga noib etib tayinladi. Biroq bu ahvol uzoq davom etmadi. Mahalliy xalq Avanesxon avlodlari boshchiligida mamlakatni ozod etdi. Ubaydullaxon yuborgan qo'shin ham tor-mor keltirildi. Abdulazizxon Urganchdan Buxoroga qochib ketadi. Keyingi hukmdorlar davrida ham bu ikki xonlik o'rtasidagi adovat va dushmanlik to'xtamadi.

Jumladan, Buxoro xoni Abdullaxon II 1593-yili Xiva xonligini bosib oladi. Xiva xoni Hojimxon (1558-1602) oilasi bilan Eron shohi Abbos huzuriga qochishga majbur bo'ladi. 1595-yilda Xiva sultonlari xonlikning yirik shaharlarini egallaydilar. Lekin shu yili Abdullaxon II Xiva xonligi ustiga yana qo'shin tortib keladi. Hoji Muhammad (Hojimxon) yana Eronga qochadi. Faqatgina 1598-yili Abdullaxonning vafotidan keyin Buxoro xonligida boshlangan o'zaro toj-u taxt uchun kurashlar oqibatida Hojimxon Xiva xonligi taxtini qayta egallashga va o'z hokimiyatini mustahkamlab olishga erishadi. Bu davrda Xiva xonligi Mang'ishloq, Bolxon tog'lari, Dehiston, O'zboy, Shimoliy Xuroson hududlarini ham o'z tasarrufiga olgan edi. XVII asr Xiva xonligining siyosiy hayotida o'ziga xos ikki xususiyat -- bu, bir tomondan, markaziy hukmron sulola nufuzining pasayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, qabila boshliqlari ta'sirining kuchayishi bo'ldi. Qabila boshliqlari: beklar, biylarning kuch-qudrati shu darajaga borib yetgan ediki, ular oliy hukmdorga o'z xohish-istaklarini o'tkaza olganlar.

Xiva xonligidagi siyosiy vaziyat hukmron tabaqalarning urushlari va qabilalar o'rtasidagi mojarolarni to'xtatishga qodir bo'lgan kuchli markaziy hokimiyatning barpo etilishini taqozo etardi. Bunday hokimiyatni barpo etishga qodir kuch sifatida maydonga o'zbeklarning qo'ng'iroq qabilasi chiqdi. Bu zaruriyatning natijasi o'laroq, XVIII asrning 60-yillaridan boshlab, Xiva xonligida hokimiyatni qo'ng'iroq qabilasi boshliqlari asta-sekin o'z qo'llariga ola boshladilar.

Yirik zodagonlar va ruhoniylar tabaqasining madadiga tayangan qo'ng'iroq qabilasining yo'l boshchisi Muhammad Amin 1761-yilda inoqlik lavozimiga ko'tarilgan.² U turkmanlarning yovmut va chovdur qabilalariga qarshi kurash olib borgan. Biroq u dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Buxoroga - Doniyolbiy otaliq yoniga ketadi. Turkman qabilalari Xorazmni egallab, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Kat, Shohobod shaharlarini xonavayron qiladilar. Ocharchilik va vabo tarqalib, o'zbeklar Orolbo'ylari va Buxoroga ketishga majbur bo'ladilar.

1770-yilda Muhammad Amin inoq Buxorodan qaytib kelib, yovmutlarga qarshi kurashni uyushtiradi va ularni Xorazmdan haydab chiqaradi.

Muhammad Amin mahalliy beklarni ham bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. U xon avlodidan bo'lmagani sababli taxtga Abulxayrxonning o'g'li Bo'lakayxonni nomiga, qo'ng'irchoq xon sifatida o'tqizadi. Hokimiyatni esa o'zi boshqaradi. 1782-yilda Buxoro amirligi qo'shinlarining hujumini qaytarib, Xiva xonligi mustaqilligini saqlab qoladi. Xiva xonligini boshqargan Muhammad Amin inoq 20 yil davomida 13 marta soxta xonlarni almashtirgan.

Hukmronligining so'nggi yillarida o'z qabilasining faol qatlamiga, savdogarlar va ruhoniylar madadiga tayangan hamda turli turkman qabilalari o'rtasidagi o'zaro nizolardan oqilona foydalana olgan

¹ Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. T. 1994.

² O'sha asardan, 300 b.

Muhammad Amin mamlakatda nisbatan siyosiy osoyishtalik vaziyatini yaratishga erishdi. Bularning barchasi mamlakat iqtisodining ko'tarilisliini ta'minladi. Jon saqlash uchun o'zga yurtlarga qochib ketgan fuqarolar yana qaytib kela boshladilar. Avaz Muhammad inoq davrida Xiva xonligi iqtisodiy jihatdan ancha mustahkamlandi. Muhammad Amin ham, uning o'g'li Avaz (1790-1804) ham davlat hokimiyatini inoq unvonida boshqarganlar. Chingiz biylaridan soxta xonlar chaqirilib turilgan, Hokimiyat amalda inoq va maxsus kengash tomonidan boshqarilgan. Kengash tarkibiga qo'shbegi, mehtar, vazir va otaliqlar kirgan. Inoq va kengash soxta xon nomidan ish yuritgan.

Faqat Avazning o'g'li Eltuzar (1804-1806) hukmronligi davrida chetdan soxta xon chaqirish to'xtatildi. Nafaqat to'xtatildi, ayni paytda, 1804-yildayoq chetdan chaqirilgan soxta xon Abulg'oziyini taxtdan tushirib, o'zini xon deb e'lon qildi. Shu tariqa qo'ng'irotlar sulolasi Xiva xonligi taxtini rasman egalladi. Bu sulola 1920-yilga qadar Xiva xonligini idora qildi.

Eltuzarxon xonlikda markazlashgan davlat siyosati yuritish uchun harakat qildi. 1804-yilda Eltuzarxon Buxoroga yurish qildi. 1806-yilda Amudaryo bo'yida bo'lgan hal qiluvchi jangda Xiva qo'shinlari tor-mor etildi, Eltuzarxon ham halok bo'ldi, Eltuzarxon vafot etgach, taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o'tirdi. Muhammad Rahimxon I Xiva xonligini siyosiy jihatdan birlashtirishga kirishdi.

Ayni paytda, turkmanlarni bo'ysundirish masalasi yctakchi o'ringa chiqdi. Turkmanlarning turli qabilalari qanchalik qattiq qarshilik ko'rsatmasinlar, birin-ketin bo'ysundirib borildi.

Muhammad Rahimxon I o'zbeklar va turkmanlardan tuzilgan qo'shinga tayanib yirik zodagonlar qarshiligini sindirish uchun shiddatli kurashda o'z raqiblarini birin-ketin bo'ysundira bordi.

Muhammad Rahimxon I ga dushmanlik ruhidagi Orolbo'yi zodagonlari guruhi qattiq qarshilik ko'rsatdi. 1811- yilda ularning ham qarshiligi sindirildi. Qo'ng'irost shahri yakson qilindi. Xiva xoni mustaqil bo'lib ajralib chiqqan qoraqalpoqlarni bo'ysundirishga kirishdi. Qoraqalpoqlar Buxoro amiri Haydardan yordam olishga harakat qildilar. Biroq bunga erisha olmagach, Xiva xonligiga bo'ysunishga majbur bo'ldilar.

1812-1820-yillar oralig'ida qozoqlarning Kichik juz xonligi hududiga 2 marta hujum uyushtirildi. Buning oqibatida, xonlik hududlarining yanada kengayishiga erishildi.

1813-yilda Shimoliy Xurosonda joylashgan turkmanlarning takya qabilasi Xiva xonligiga qaramligini tan olishga va belgilangan hajmda soliq to'lab turishga majbur etildi.

1822-yilda esa Marv shahri xonlikka qo'shib olindi. 1824-yilda Yangi Marv shahri bunyod etildi.

Muhammad Rahimxon I bo'ysundirilgan qabilalar zodagon-larining qabila orasidagi mavqeyi nihoyatda qudratli bo'lganligini hisobga olib, ularga xon yer-mulk va turli imtiyozlar in'om etgan. Bu omil xonlikda siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi kerak edi.

Muhammad Rahimxon I davrida xonlik siyosiy jihatdan birlashtirildi. Ayni paytda, mamlakatda nisbiy barqarorlik ta'minlandi. Uning hududlari yanada kengaydi.

Xiva xonlari Olloqulixon (1825-1842) va Muhammad Aminxon (1846-1855) davrida ham o'zaro urushlar to'xtamadi. Olloqulixon Buxoroga 7 marta, Xurosonga 5 marta yurish qilgan bo'lsa, Muhammad Aminxon Marvga 10 marta yurish qiladi. O'nlab shahar va qishloqlar talanadi. Zulm, talonchilik davom etdi. Xalq turmushi og'irlashib bordi.

Qo'qon xonligiga asos solinishi. Farg'ona vodiysi Buxoro xonligi tasarrufida edi. XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi ichki kurashlar oqibatida zaiflashadi. Bunday vaziyatdan foyda langan jung'arlar Farg'ona vodiysiga tez-tez bostirib kirib, talon- taroj qila boshladilar. Vaziyat ichki kuchlarni birlashtirishga, mustaqil davlat tuzishga undamoqda edi. Dastlab Chust yaqinidagi Chodak qishlog'i xo'jalar jamoasi o'z mulklarini mustaqil deb e'lon qildilar. Vodiydagi ming qabilasi oqsoqollari yig'ilishib, Buxoro xonligidan mustaqil davlat tuzishga qaror qilishgan. Ming qabilasi yo'l boshchilaridan biri Shohruxbiy hukmdor (1710-1721) deb e'lon qilinadi.

1710-yilda minglar chodaklik din peshvolari hokimiyatini ag'dardilar va Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Shu tariqa, Markaziy Osiyoda keyinchalik Qo'qon xonligi deb atalgan yangi davlat¹ vujudga keldi. Tepa qo'rg'on Shohruxbiyning qarorgohiga aylantirildi.

Shohruxbiyning o'g'li Abdurahimbiy (1721 - 1733) davrida Xo'jand, O'ratepa viloyatlari qo'shib olindi. U Shahrizabz ostonalariga qo'shin tortib bordi va uning hokimi bilan Qo'qonga tobelik haqida

¹ Ishoqxon To'ra Ibrat. Tarixi Farg'ona. T., 2005. 81 b.

bitim tuzishga erishadi. Keyin Samarqandni va Jizzaxni egallaydi.

Erdona hukmronligi davrida (1751-1762) xonlikning qudrati ortdi. U O'sh va O'zganni bo'ysundirdi. Erdona davrida Qo'qon xonligi g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy bilan tengma-teng kurash olib bora olgan davlatga aylandi. Biroq hukmronlik davri urushlar bilan o'tdi. Toj-u taxt uchun kurash kuchaydi. Nihoyat, 1763- yilda taxtga Abdulkarimbiyning nabirasi Norbo'tabiy o'tqizildi (1763 - 1798). U dastlab Chust va Namangan hokimlarining isyonini bostirdi. Xo'jandni qayta bo'ysundirdi.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Norbo'tabiy davrida ekinlardan mo'l hosil olinib, bozorlarda narx-navo arzonlashgan. Har tomonlama mamlakatning qudrati o'sgan.

Norbo'tabiy vafot etgach, taxtga uning o'g'li Olimbek o'tqizildi. Uning davrida (1798 - 1810) Qo'qonning siyosiy mavqeyi yanada kuchaydi. U Ohangaron vohasini, Toshkent, Chimkent, Sayram va Turkistonni o'ziga bo'ysundirdi. Natijada Rossiya bilan savdo yo'li ochildi. Orenburgga boradigan savdo yo'llari tutashgan joyda xonlikning chegara qal'asi Oqmasjid qurildi. U o'z davlatini 1805-yili rasman Qo'qon xonligi deb, o'ziga esa „xon“ rutbasini oldi va uni Olimxon deb atay boshlashdi. Olimxonning markazlashgan kuchli davlat tuzishga intilayotganligi ayrim qabila boshliqlari orasida keskin norozilik tug'dirdi.

Umarxon (1810-1822) akasi Olimxon davrida Farg'ona hokimi edi. U Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan. Farg'onalik tarixchi Muhammad Hakim Umarxon hukmronligi davrini eng yaxshii podsholik davrlaridan biri sifatida tavsif lagan.

Umarxon hukmronligining dastlabki paytlarida Buxoro bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlar Jizzax va O'ratepa uchun azaliy kurash oqibatida yana uzilib qoldi. Bu kurash Umarxonning butun hukmronlik davrida davom etdi va ilgari bo'lganidek, u tomonga ham, bu tomonga ham g'alaba keltirmadi.

Qo'qon qo'shinlarining ko'chmanchi qozoq va qirg'iz elatlariga yurishlari ancha muvaffaqiyatliroq kechdi. Katta va qisman Kichik juz o'rdalarini o'z ichiga oluvchi keng hududlar Qo'qon xonligiga bo'ysundirildi. Sirdaryo bo'yidagi Yangiqo'rg'on, Julek, Qamishqo'rg'on, Oqmasjid, Qo'shqo'rg'on nomli harbiy istehkomlar qurildi va Turkiston shahrini o'z tasarrufiga oldi.

Qo'qon xonligining hududi Umarxonning o'g'li va vorisi Muhammad Alixon (Madalixon) davrida (1822-1842) ancha kengaydi.¹ Qo'qon qo'shinlari Farg'onaning janubida joylashgan, asosan, tojik o'troq aholisi yashaydigan va o'z hokimlari bo'lgan Qorategin, Darboz va Ko'lobga yurish qilib, bu yerlarni egalladilar.

Madalixon boshqaruvining so'nggi yillarida, Qo'qon xonligida g'alayonlar kuchaygan paytida, Madalining ko'ngli tusagan ishlarni qila berishini qo'llab-quvvatlovchi odamlar ta'siriga tushib qolgan yosh xon o'z marhum otasining eng obro'li a'yonlarini ta'qib qila boshladi. Umarxon davrida xon hokimiyati bilan mahalliy zodagonlar o'rtasida mustahkamlangan ittifoq buzila boshladi. Amaldorlarning ayrimlari surgun qilindi, ba'zilari qatl etildi, ba'zilari esa Buxoroga qochib ketishdi. Joylarida qolgan amaldorlar esa xon hokimiyatidan norozi bo'lganlarning hammasini o'z atroflariga yig'ib, xonni taxtdan qulatishga tayyorlana boshladilar. Bularning hammasi aholining barcha tabaqalarini Madaliga qarshi qilib qo'ydi. Ruhoniylar xonni turli axloqsizlik va shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab, unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishdi.

Xondan norozi bo'lganlar unga qarshi ochiq kurashish uchun yetarli kuchga ega bo'lmay, o'z elchilarini Buxoro amiri Nasrullo huzuriga yuborib, undan yordam so'radilar.

Amir Nasrullo 1842-yilda o'z qo'shinlarini Qo'qonga qarshi safarbar etdi. Qo'qon qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi.

Madalixon o'z a'yonlari bilan tutib olindi va Amir Nasrullo buyrug'iga binoan qatl etildi. Amir Nasrullo hatto Madalixonning onasi Nodirabegimga ham shafqat qilmadi.

Sheralixonning hukmronligi davrida aholidan soliq undirish kuchaydi. Bu hoi mehnatkash aholining noroziligini keltirib chiqardi. Bundan tashqari, davlatda muhim lavozimlarni egallab olgan qipchoqlar davlat ishlarida o'z hukmronligini o'tkazishga, o'zbek, qirg'iz va tojiklarning mamlakat hayotidagi ta'sirini kamaytirishga urindilar. Qipchoqlar Qo'qonga ko'plab ko'chib kela boshlagach, mahalliy aholining uy-joyini, mol-mulkini zo'ravonlik bilan ola boshladilar. Bular xonlikda qipchoqlarga nisbatan norozilikni kuchaytirdi.

¹ O'sha asardan 83 b.

Musulmonqul 1845-yilda soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib qo'zg'olon ko'targan O'sh xalqi qo'zg'olonini bostirish uchun qo'sliin bilan yuborildi. Bu paytda Isfara hokimi Samarqandda istiqomat qilib turgan marhum Qo'qon xoni Olimxonning o'g'li Murodxonni olib kelib Qo'qon taxtiga o'tqizadi va SHERALIXON o'ldiriladi. Musulmonqul o'z qo'sliini bilan Namanganga keladi. Ishni awal qizini marhum SHERALIXONNING o'g'li Xudoyorxonga nikohlab berishdan boshlaydi. 13 yoshli Xudoyorxon bu davrda Namangan hokimi edi. Shundan keyin Musulmonqul Qo'qonga kelib Murodxon va uni qo'llab-quvvatlaganlarni fitnachi sifatida ayblab, ularni qatl ettiradi. Kuyovi Xudoyorxonni esa taxtga o'tqizadi.

Xudoyorxon yosh bo'lganligi tufayli amalda xonlikni qaynotasi Musulmonqul boshqarardi. Shunday qilib, xonlikda qipchoqlar hukmronligi davri boshlandi. Endilikda qipchoqlar Qo'qonga yoppasiga ko'chib kela boshladilar, mahalliy aholini shahardan haydab chiqarib, ularning uy-joylariga o'nashib ola boshladilar. Sug'orish inshootlarini qo'lga kiritdilar, bundan tashqari, aholi endi suv uchun soliq to'laydigan bo'ldi. Bularning barchasi mahalliy aholining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi.

Bu ahvol, o'z navbatida, xonlikda hukmronlarga qarshii qo'zg'olon ko'tarish xavfni tug'dirdi. Bunday vaziyatda Musulmonqul o'z mavqeyini yo'qotmaslik yo'lida ruslar bilan aloqa o'rnatishga intiladi va rus qo'mondonligi vakili V.V.Velyaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda uclirashadi. Bu hol Xudoyorxonni qattiq cho'chitib qo'ydi. Ana shunday sharoitda u birdan bir to'g'ri yo'l ni tanladi. Bu yo'l - qaynotasi Musulmonqul va qipchoqlar hukmronligiga xotima berish edi.

1852-yil 9-oktabr kuni u Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtirdi. Uning bu ishini mahalliy aholi qo'llab-quvvatladi. Qaynotasi Musulmonqul asir olinib, Qo'qonda qatl etildi. Qipchoqlarning mol-mulki musodara qilindi va aholiga sotildi.

Musulmonqul hukmronligiga xotima berilgan bo'lsa-da, ichki nizolar bu bilan barham topmadi.

Xonliklarning hududi va aholisi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti.

Shayboniylar davlati o'z moxiyatiga ko'ra yirik davlat bo'lib, davlat tepasida cheklanmagan xokimiyatga ega bo'lgan xon o'tirgan. Xonlikning siyosiy tizimida va davlat boshqaruvida Temur va temuriylar davrida qaror topgan tartib qoidalar, xususiyati bilan birga ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga xos bo'lgan an'analar ham mavjud edi. Davlat boshqaruvida islomiy shariat va odat qonun-qoidalariga amal qilingan.

Markaziy boshqaruv davlatning ichki va tashqi xayotiga bog'liq barcha masalalarni hal qiladigan dargox-saroy devonida jamlangan edi. Davlatning oliy darajadagi amaldorlari a'zo bo'lgan va odatda bosh vazir tomonidan boshqariladigan bu maxkam mamlakatning siyosiy, moliyaviy, xar

Biy, tashkiliy va boshqa masalalarni ko'rib chiqardi. Bunda qabul qilingan qarorlar faqatgina xon tasdiqlangandan so'ng kuchga kirar edi.

Davlat boshqaruv apparatida ko'kaldosh, otaliq, naqib, a'zam, vazir, devonbegi va boshqa oliy amldorlar katta o'rin tutardi. Davlat boshqaruvida xarbiy-ma'muriy amaldorlardan tashqari, ulamolar, din peshvolari, shayxlar va xojalar, xususan, Shayx ul islom, Qozi kalon, Mufti kabi diniy mansab egalarining ham ta'siri katta bo'lgan. Bu davrda ayniqsa, Jo'ybor shayxlarning mavqei oshib ketgan edi.

Shayboniylar davlatida 40 dan ortiq soliq turlari va jarimalar bo'lgan. Soliq to'lovchi axoli raiyat (fuqaro) deb atalgan va ulardan olinadigan soliqlardan tashqari jarimalar ham undirib olingan. Shayboniylardan so'ng Buxoro xonligi taxtiga Ashtarxoniylar (Joniyalar) sulolasi chiqdi va xokimiyatni 150 yildan ortiqroq (1601-1756) o'z qo'lida saqlab qoldi. Bu davr o'zbek davlatchiligi tarixidagi eng ziddiyatli davr xisoblanadi.

Ashtarxoniylar davlati tizimi o'z tuzilishiga va moxiyatiga ko'ra Shayboniylar davlat tizimidan deyarli farq qilmasdi. Xon rasman oliy xokimiyat boshlig'i xisoblanardi va barcha farmon va qonunlar uning nomi bilan chiqarilar edi. Biroq, amalda ko'pgina ashtarxoniy xonlar yirik saroy amaldorlari qo'lida o'yinchoq bo'lib, joylardagi davlat boshqaruvi viloyatlar xokimlari qo'lga o'tib qolgan edi. Bu esa o'z navbatida markaziy xokimiyatning zaiflashuvi va siyosiy-iqtisodiy inqiroziga olib kelar edi.

Ashtarxoniylar davrida Buxorodan keyingi eng nufuzli shaxar Balx bo'lib, uni taxt vorisi boshqargan. Davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo'lib, markaziy va maxalliy boshqaruv tizimiga ega edi.

Mamlakat iqtisodiy xayotida savdo-sotiqning axamiyati xatto urushlar bo'lib turgan vaqtda ham pasaygani yo'q. Asosiy savdo markazlari Buxoro, Samarqand, Qarshi, Toshkent, Balx va boshqalar edi. Tashqi savdoda asosan Rossiyaning turli shaxarlari (Astraxan, Orenburg, Sibirdagi shaxarlar), Xindiston, Xitoy, Turkiya, Eron, Qoshg'ar bilan aloqalar mustaxkamlandi. Ashtarxoniylar davlatida soliq tizimi

shayboniylar davlati soliq tizimiga o'xshash xolda yuritilgan. Biroq bu davrda tinimsiz urushlar sababli axolidan soliqlar yig'ib olish ko'paygan. Xatto Subxonqulixon davrida bir yo'la yetti yillik soliqni yig'ib olishxaqida farmon berilgan va bu xalqning qashshoqlashuviga narxlarning oshib ketishiga olib kelgan edi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ashtarxoniylar garchi davlat tepasida bir yarim asrdan ortiqroq vaqt davomida turgan bo'lsalarda, kuchli markaziy xokimyatni saqlab qolishga erisha olmadilar, bu esa mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, xarbiy salohiyatining tushkunlikka uchrashiga va inqiroziga olib keldi hamda XVIII asr o'rtalaridan ular xokimyatni mang'it amirlari qo'liga topshirishga majbur bo'ldilar.

Qo'qon davlat boshqaruv tizimida eng oliy xukmdor «xon» bo'lib, u deyarli chelanmagan xuquqqa ega edi. Qo'qon xonlari dastlab «biy» unvonida bo'lib, Olimxon davridan boshlab (1805 yildan boshlab) «xon» unvoni joriy etilgan. Uning vorisi Umarxon(1810-1822) esa o'ziga «amir al-mo'minin» unvoni oldi va amalda siyosiy va diniy xokimyatni birlashtirdi. Garchi xon cheksiz xokimyat egasi sanalsada, saroyda urug' boshliqlari va qo'shin qo'mondonlarning ta'siri kuchli edi. Bu esa xonning siyosiy kuch-qudrati ma'lum iqtisodiy asoslarga va ijtimoiy guruxlarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Xon saroyda tuzilgan Kengash muxim ishlarni ko'rib chiqqan va unga mingboshi raxbarlik qilgan. Bu kengashning davlat boshqaruvida axamiyati katta edi. Saroy amaldorlari ichida mingboshi (bosh vazir) va amirlashkar (xarbiy vazir), qushbegi- xon maslaxatchisi yoki viloyat xokimi, parvonachi (xon maslaxatchisi), shig'ovul (vaziri ilmiya) va boshqa amaldorlar katta o'rin tutgan. Ular o'z xizmatlari evaziga yillik maosh olganlar. Shuningdek, ularga xizmatlari uchun yer-mulklar ham in'om etilgan.

Ichki savdo munosabatlari mahalliy maxsulotlar asosiy o'rin tutardi. Tashqi bozorga chiqadigan maxsulotlarning asosini qishloq xo'jalik mahsulotlari (paxta, jun, ip, mato, quruq meva va boshqalar) tashkil etib, ular XIX asrdan boshlab, bevosita Rossiyaga chiqarila boshlandi. Tashqi davlatlardan (Xitoy, Rossiya, Hindiston) asosan metall va metall buyumlar, fabrika mahsulotlari, choy va boshqalar keltiriladi edi. Xonlikdagi asosiy soliq hiroj bo'lib, u pul va mahsulot tarzida undirilib olinardi. Zakot va boshqa soliqlar bilan birga kanallar qazish, ariqlarni tozalash, obodonchilik ishlari, turli qurilishlar kabi majburiy ishlar ham mavjud edi.

Xonlikdagi barcha mansab va unvonlar 3 toifaga:

xarbiy-ma'muriy.

Xarbiy.

Diniy amallarga bo'lingan.

Saroy unvonlari ichida xondan keyin turuvchi eng nufuzli amaldorlar inoq, otaliq, biy xisoblangan. Ular xonning eng yaqin maslaxatchilari bo'lib, davlatning siyosiy, moliyaviy, iqtisodiy, xarbiy xayotini nazorat qilib turganlar. Xonlikning siyosiy – iqtisodiy xayotida ulardan tashqari naqib, amir al - umaro, mextar, qo'shbegi, beklarbegi, devonbegi, parvonachi, dasturxonchi, eshikog'asi, shotir, yasovulboshi, udaychi, mingboshi, mirobboshi va boshqalar muhim o'rin tutardi. Shayxulislom boshchiligidagi din peshvolari diniy hokimiyatni boshqarar edi.

Xiva xonligida davlat tili o'zbek tili bo'lib, barcha ishlar va hujjatlar yagona tilda – o'zbek tilida olib borilar edi. Xiva xonligi XVI – XVIII asrlarda viloyatlarga bo'lingan bo'lsa, XVIII asr oxiri - XIX asr boshlaridan boshlab, davlatdagi siyosi ma'muriy birlik bekliliklarga aylantirildi. Bu davrda xonlikda 16 ta beklilik, ikkita noiblik mavjud edi. Ular Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Qiyot, Shobboz (Shoxaboz), Shovot, Toshhovuz, Ambarmanak, Urganch, Xo'jayli, Shumanay va Qo'ng'irov bekliliklari hamda Beshariq va Qiyot - Qo'ng'irov noibliklaridir.

Bu noiblik va bekliliklarni xon tayinlaydigan beklar va noiblar boshqarar edi. Xiva shaxri esa xon va bosh vazir (inoq) ning izmida bo'lgan. Xonlikda o'troq dexqonchilik tumanlarida asosan o'zbeklar yashar, ular mamlakat aholisining asosiy ko'pchiligini tashkil etardi. Xonlikda saroy amaldorlari, markaziy va mahalliy boshqaruvning yuqori pog'onalari egallab turgan ijtimoiy tabaqalar, harbiy ma'muriy amaldorlar va mansab egalari katta xuquq va imtiyozlarga ega ijtimoiy tabaqa edi.

Xonliklar orasida Xiva xonligi boshqa davlatlarga nisbatan o'zining tajovuzkor yurishlari bilan ajralib turardi. Bunday yurishlar asosan Buxoro va Eron davlatlariga nisbatan olib borilgan. Xonlikda oliy bosh qo'mondon xon hisoblangan. Inoq harbiy – ma'muriy amaldorlarga yetakchilik qilardi. Qo'shinlar

boshlg'i sarkarda bo'lib, amir – ul umaro deb yuritilgan. Xonning shaxsiy gvardiyasiga yasovulboshi qo'mondonlik qilgan.

Qo'shinlar otliq va piyoda qismlarga bo'lingan. Shuningdek, yollanma turkmanlardan ham iborat qo'shin mavjud bo'lib, ular o'zbek sarbozlari bilan birgalikda qo'shinningsh asosiy kuchi sanalgan. Jang olib borish usuli Chingizxon va Amir Temur davridagi qoidalarga asoslangan. Asosiy qurollari o'q - yoy, qilich, nayza, dubulg'a, kam miqdorda miltiq va zambaraklar bo'lib, qalqon va sovut himoya vositasi hisoblangan.

Xonlikda asosiy sudlov mahkamalari qozilik idoralari bo'lgan. Bu mahkamalar bir necha pog'onali bo'lgan. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat yoki oliy shaxs xon hisoblangan. Uning o'zi og'ir jinoiy ishlarni shaxsan ko'rib chiqqan. Undan keyingi o'rinda bosh sudya - qozikalon turgan. Xonlikda har bir viloyat, tuman, qasaba, shaxarlarda xon tomonidan tayinlangan qozilar bo'lib, ular o'z yordamchilari – muftilar yordamida mulkchilik bilan bog'liq masalalarni hal qilish, mayda jinoyatlarni ochish va shu singari ishlar bilan shug'ullangan. Viloyatlarda jinoiy ishlarni ko'rib chiqishga maxalliy xokimning ham xuquqi bor edi. Qishloqlarda mayda mojarolar qishloq oqsoqoli tomonidan xal etilgan

Xonlikda barcha yerlar davlat yerlari, vaqf yerlar va xususiy mulklarga bo'linar edi. Voxa iqtisodiyotining asosini dexqonchilik va chorvachilik, xunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etardi. Dexqonchilikda Amudaryo quyi oqimidan bosh oladigan kanallar va ariqlar katta o'rin tutgan. Asosiy yerlar quyidagi 11 kanaldan sug'orilgan: Pitnak, Polvon, Qazovot, Shoxabboz, Yarmish, Qilich Niyoz biy, Karakuz, Arna, Bo'zsvu, Suvvoli va Xon kanallari.

Xonlikda paxtachilik va bug'doy asosiy ekinlar bo'lgan. Chorvachilikda yilqi, tuya, qoramol boqilgan. Xunarmandchilik ancha keng tarqalgan bo'lib, asosiy yirik shaxarlarda to'plangan edi. Mamlakat iqtisodiyotining asosini savdo-sotiq tashkil etgan. Xonlikning geografik qulayligi uning ichki va tashqi savdosi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatardi. Xonlikda tranzit savdo aloqalari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan edi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Movarounnahr va Xurosonda Shayboniylar hukumronligining o'rnatilishi haqida gapiring?
2. Ashtarxoniyalar davlatining parchalanib ketishi sabablari nimada?
3. Buxor-Xiva va Buxoro-Qo'qon davlatlari o'rtasidagi ziddiyatlar sabablari nimada, ko'rsatib bering?
4. Buxoro mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelish davridagi siyosiy vaziyat haqida gairing.
5. Qo'qng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishdagi siyosiy vaziyat haqida gapiring?
6. Qo'qon xonligida madaniy hayot, adabiyot, sa'nat, tarix, musiqa qaydarajada rivojlangan?
7. O'zbek xonliklarida me'morchilik va sa'nat qay darajada rivoj topadi?
8. Xonliklar davrida ta'lim va madaniyatning ahvoli haqida gapiring?
9. Qoraqolpoqlarning etnik tarixi haqida nimalarni bilasiz?
10. VI-XIX arning birinchi yarmida Qoraqolpoqlarning ijtimoiy hayoti qanday edi?
11. Xonliklar va Qoraqolpoqlar o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlarining asl mohiyatini ayting?
12. O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi ziddiyatlarning kuchayishi nimalarda o'z aksini topganligini aniqlang?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas –kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. –Toshkent: Sharq, 2000.
3. Asqarov A. A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –Toshkent: Universitet, 2007.
4. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. –Toshkent: "Ma'rifat", 2009.
5. Eshov B. J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. - Toshkent: .Yangi asr avlodi., 2014 .
6. Ergashov Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi. Toshkent: .G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2015.
7. Haydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi. Toshkent: .O'qituvchi., 2009.

**9-mavzu. O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi.
Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik.**

Reja:

1. XVI-XIX asrlarda O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi bilan savdo-elchilik aloqalari.
2. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi.
3. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati va unga qarshi milliy ozodlik harakatlari.
5. Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati.

Tayyanch tushunchalar:

O'rta Osiyoga yuborilgan "Rus ekspeditriyalar" maqsadi, A.B. Cherkasskiy, O'rta Osiyo xonliklariga hujumning sabablari va bosib olishning bisqichlari, Oqmasjid (Qizil O'rda), Turkmaniston, Chimkent, Avliyoota, Pishpek, Toqmoq, Toshkentning ruslar tomonidan egallanishi, Toshkent mudofasi, Erjar, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax uchun janglar, "Cho'pn ota" jangi, General Koufman va amir Muzaffar o'rtasidagi sulh shartnomasi, Abdulmalik To'ra, Kitob begi Jo'rabek, Shahrisabz hokimi Bobobek, Sulton Sodiq, Xiva xonligining bosib olinishi, "Gandimyon" shartnomasi, Qo'qon xonligining tugatilishi, Po'latxon, Darveshxon, Toshkentda(1892), Andijonda (1898) qo'zg'olonlar, O'lkada demokratik va milliy-ozodlik harakatlari avj olishi, jadidchilik harakati, 1916 yilgi qo'zg'olon.

XVI-XIX asrlarda O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi bilan savdo-elchilik aloqalari.

XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari o'rtasida Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari hududlari uchun raqobatchilik kuchayib, keskinlashib ketdi. Raqobatchilikning kuchayishiga quyidagilar sabab bo'ldi:

Buyuk Britaniya va Rossiyaning Markaziy Osiyo hisobiga yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari;

o'z mollarini sotish va undan mo'may daromad olish uchun Markaziy Osiyo bozorlarini egallash istagi;

d) Markaziy Osiyoning boy xomashyo manbalariga ega bo'lishga intilishlari.

Bu omillar dunyodagi ikki yirik mustamlakachi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib keldi.

Hindistonda mustahkam o'rnashib olgan ingliz mustamlakachilari o'zlari tuzgan Ost-Indiya (Sharqiy Hindiston) kompaniyasi orqali Markaziy Osiyo tomon siljishga urindilar. Ularning maqsadi Rossiyaning o'zbek xonliklaridagi ta'sirini yo'qqa chiqarish hamda xonliklarni o'z ta'sir doirasiga olishdan iborat edi. Buyuk Britaniya hukmron doiralari xonliklarning ichki va tashqi ahvolini, ularni bog'lab turgan yo'llarni aniqlash, xonlar bilan aloqa o'rnatish maqsadida maxsus ekspeditsiyalar yubora boshladi. Ekspeditsiyalar zimmasiga, ayni paytda, mahalliy nufuzli kuchlar bilan aloqa o'rnatish vazifasi ham yuklatilar edi.

Ingliz ekspeditsiyalaridan biri U.Murkford boshchiligida uyushtirildi. Murkford ekspeditsiyasi 1825-yil fevral oyida Buxoroga yetib keldi. Manbalarda qayd etilishicha, ekspeditsiya tarkibida 70 ta kishi bo'lib, ular olib kelgan 80 sandiq turli xil mollar Buxoro qushbegisiga ko'rsatilgan. Inglizlar Buxoro xonligini har tomonlama o'rganishga, mahalliy hukmdorlar orasida inglizlarga tarafdor guruhni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan edi.

Murkford ekspeditsiyasidan xabar topgan Rossiya hukmron doiralari tashvishga tushdilar. Natijada Rossiya hukumati Buxoro amiri Haydarga inglizlarning Buxorodagi xatti-harakatidan noroziligini bildiradi. Rossiya hukmron doiralari borgan sari Markaziy Osiyoni bosib olish kayfiyati kuchayib bordi. 1826- yilda Rossiya hukumati polkovnik F. Berg boshchiligida Ustyurtga ekspeditsiya yuborib, Markaziy Osiyogaboradiganyo'llarni yanada aniqroq belgilab oldi. 1831-yilda inglizlar Markaziy Osiyoga ikkinchi marta elchi yubordilar. Elchilarga ingliz armiyasi leytenanti Aleksandr Byorns boshchilik qildi.

A. Byorns 1832-yilda Buxoroga kirib keldi. U o'zini arman savdogari deb tanitdi. Qo'lida hind va afg'on savdogarlarining tavsiyanomalari bo'lgan bu „tadbirkor“ Buxoro xonligi qushbegisi bilan aloqa bog'lay oldi. Buyuk Britaniya hukumati Hindiston bilan Markaziy Osiyo o'rtasida savdo aloqalarining kengayishiga o'zining xonliklardagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li deb qarar edi. Shuning uchun ham Angliya hind savdogarlariga xonliklar bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishlarida katta yordam ko'rsatdi. Xususan, hind savdogarlariga qarz hamda ingliz mollari berib turildi. Bu mollar Markaziy Osiyoda Rossiya mollari narxidan arzonroq sotilar edi.

Aleksandr Byorns mamlakat hududida katta razvedka ma'lumotlari ham to'play oldi. Bu elchilik missiyasi Markaziy Osiyoda ingliz savdosining rivojlanishiga yordam berdi.

1839-yili Angliya Afg'onistonga qarshi harbiy harakatlar boshlaganida Rossiya - Buyuk Britaniya munosabatlari yanada keskinlashgan. Agar Afg'oniston bosib olingudek bo'lsa, navbat Markaziy Osiyoga kelishi mumkin edi. 1839-yili Hirotda o'z qarorgohini vujudga keltirgan ingliz razvedkasining ayg'oqchilari Markaziy Osiyo xonliklariga yuborilib turildi. Xususan, ingliz razvedkasi vakillaridan kapitanlar Jeyms Ebbot, Charlz Stoddart, Konolli, Richard Shekspirilar Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklariga kelib harbiy, siyosiy, iqtisodiy masalalarda ma'lumotlar to'plab, o'z rahbarlariga yetkazardi.

Inglizlarning Markaziy Osiyodagi harakatlaridan tashvishga tushib qolgan Rossiya 1839-yili Xiva xonligiga qarshi birinchi harbiy yurishni boshladi. Bu yurishga Orenburg gubernatori V.A. Perovskiy rahbarlik qilgan edi. Biroq urush qatnashchilarining o'zini sovuqqa oldirishi, oziq-ovqat, yem-xashakning tugab borishi oqibatida orqaga qaytadi. Bu yurish muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi.

O'rta Osiyo xonliklarining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlaka aylantirilishi hamda podsho Rossiyasining Turkistonda olib borgan mustamlaka siyosatiga doir manbalar boy va salohiyatlidir. Bu manbalarni bir necha xilga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Manbalar orasida eng ishonarli va nufuzli hisoblanganlari mahalliy tarixchilarimiz tomonidan XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yaratilgan. Ular orasidan Muhammad Solix Toshkandiyning «Tarixi jadidi Toshkand», Avaz Muhammad Attor Xukandiyning «Tarixi Jahonnamoyi», Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar», Mullo Holiboy Mametovning «Urus lashkarlarining Turkistonda tarixi 1269-1281 sanalarda qilgan futuxotlari», Mullo Olim Maxmudxojaning «Tarixi Turkiston», Niyoz Muhammad Xuqandiyning «Tarixi Shohruxiy», Ibratning «Tarixi Farg'ona», Muhammad Yunus Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy» va boshqa bir qator asarlarini alohida ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Bu manbalar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan ko'plab hujjatlar, rus harbiyolari va tarixchilari tomonidan yozib qoldirilgan asarlar va hujjatlar ham mavzuni o'rganishda muhim manbalar bo'lib hizmat qiladi. Biroq bu asarlar va hujjatlarni o'rganishda ularga tanqidiy nuqtai nazardan yondashib, haqqoniy va holis xulosalar chiqarish maqsadga muvofiqdir.

Rossiya imperiyasi XIX asr boshlaridanoq Turkistonni hududiy – geografik, harbiy-siyosiy, ilmiy o'rganishga jiddiy kirishdi.

1803 yilda Ivanov boshchiligidagi dastlabki missiya xonliklar orasida harbiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan katta kuchga ega bo'lgan Buxoroga yetib keldi va amirlik haqida bir qancha ma'lumotlarni qo'lga kiritdi.

1920 yilda A.F.Negri boshchiligida o'z tarkibida olimlardan G.Meyendorf, E.Eversman, Budrinlarga ega bo'lgan ikkinchi missiya amirlik haqida ko'proq ma'lumot yig'ish uchun keldi. G.Meyendorf kelajakda rus qo'shinlarining Buxoroga harbiy bosqinchilik bilan kelganlarida foydalanishlari uchun butun tafsilotlarni o'zida mujasam etgan xaritalar tuzish bilan shug'ullandi.

1834 yilda Buxoroga yangi missiya yuborildi. Bu missiya mutlaqo josuslik maqsadidagi topshiriqlarni bajardi. Bu missiyaga turkiy tillarni va bu xalqlarning tarixini yaxshi bilgan Qozon universitetining Sharqshunoslik fakulteti talabasi P.Ch.Demizon rahbarlik qildi. Unga tatar mullasi Mirza Ja'far nomi bilan soxta pasport va diplomatligini tasdiqlovchi hujjat berildi. Unga yuklatilgan vazifa o'ta muhim bo'lib, Rossiya bilan Xiva o'rtasida urush kelib chiqsa Buxoro bunga qanday munosabatda bo'lishini aniqlashdan iborat edi.

1835 yilda praporshik Vitkevich maxfiy ko'rsatmalar bilan Buxoroga jo'natildi. 1839 yil aprelda Buxoroga muhandis – geolog, kapitan Kovalevskiy boshchiligidagi ekspedisiya yuborildi va unga Turkistondagi mavjud oltin va boshqa ma'dan konlarini xaritalashtirish topshirildi. Shuningdek Buxoro amirligining geologik tuzilishi, Buxoroda oltin buyumlar bilan savdo qilishning ahvoli va amirlikning tashqi savdo munosabatlari haqida statistik ma'lumotlar to'plash vazifasi yuklatilgan edi.

1841 yil Buxoroga N.Xaniqov boshchiligidagi missiya o'z tarkibida N.Zalesov, Leman kabi olimlar bilan birgalikda keldi va O'rta Osiyo flora va faunasini o'rganishga kirishdi. 1843 yilda N.Xaniqov o'z safar natijalari haqida hisobot to'plab tashqi ishlar vazirligiga topshirdi va shu yiliyoh hisobot tegishli idoralar uchun yo'llanma sifatida «Opisaniye Buxarskogo xanstva» nomi bilan kitob holda nashr etildi. Bu kitob O'rta Osiyoga yurish qiladigan qo'shinning zobit va askarlariga tarqatish uchun

Orenburg general – gubernatorligiga jo'natildi. Kitobda Buxoro xaritasi, Samarqand shahri plani ilk marta e'lon qilindi.

1842 yilda Buxoro amirligiga yuborilgan K.Butenevga yanada maxfiy topshiriq berildi. U bu topshiriqlarni qoyil qilib bajardi. Rus hukumatiga «Buxoroga qo'shin tortib borish imkoniyatlari» deb atalgan maxfiy ish topshirdi. Unda amirlikni bosib olish mumkinligi aniq tavsiflab berilgan. Hukumatni va rus generallarini amirlikni tezroq bosib olishga undadi.

Xuddi shunday missiyalar Xiva va Qo'qon xonliklariga nisbatan ham amalga oshirilgan.

1820 yilda kapitan Muravyov boshchiligidagi missiya Xiva xonligini bosib olish Rossiya uchun Buxoro va Hindistonga yo'l ochadi va butun O'rta Osiyoni Rossiya ta'sirida ushlab turish imkoniyatini beradi degan xulosaga keladi va bu xulosalarga tayangan hamda Muravyovning maslahatlariga amal qilgan graf Perovskiy rus hukumatining roziligini olib, 1839 yil Xivga yurish qiladi va to'la mag'lubiyatga uchraydi. Yurish ishtirokchisi M.Ivanin «Opisaniye zimnego poxoda v Xivu(1839-1840gg)» nomli asarida Xiva xonligi ustidan tamomila o'lim hukmini chiqarish va unga xatto kerak bo'lsa eklogik urush e'lon qilish, ya'ni, Amudaryoni Kaspiy dengiziga burib yuborish takliflarini kiritadi. Bu g'oyalari bilan rus mustamlakachilari shafqatsizlik borasida Chingizxondan ham o'tib ketgan edilar.

1858 yil O'rta Osiyoga yuborilgan polkovnik Ignatyev boshchiligidagi missiya o'z ishini tugatar ekan, «O'rta Osiyo xonliklari bilan teng asosdagi savdo va boshqa aloqalar foyda bermaydi. Elchilarni kutish va jo'natishga ketadigan barcha harajatlarni harbiy yurishlarga sarflab, bu hududlarni bosib olish kerak» – mazmunidagi o'ta shovinistik va bosqinchilik ruhi yaqqol namoyon bo'lib turgan xulosalarni chiqaradi.

Yuqoridagi kabi missiyalar va ekspeditsiyalar, elchiliklar yordamida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklari to'g'risida ko'plab qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldi. Xonliklar orasida birlikning yo'qligi, ular o'rtasida davom etib turgan qonli nizolardan foydalanib tezroq xonliklarni bosib olish rejasini ishlab chiqa boshladi va ularni amalga oshirishni eng tajribali rus generallariga topshirdi.

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishi va uning bitmas tunganmas boyliklariga egalik qilishni bir asrlar avval o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun amaliy harakatlar Petr I davridayoq boshlangan edi. Bir necha bor amalga oshirilgan elchilik va josuslik ma'lumotlariga tayangan holda Petr I O'rta Osiyoni qo'lga kiritish uchun dastlab qozoq juzlarini bo'ysundirish va ulardan keyinchalik vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Degan fikrni ilgari surgan edi. Turli yo'llar bilan qozoq yerlariga kirib kelgan ruslar birin ketin zab etilgan yerlarda harbiy qal'alar va istehkomlar ko'ra boshladi. 1717 yilda ko'rilgan Omsk, 1718 yilda ko'rilgan Semipalatinsk, 1720 yilda ko'rilgan Ust-Kamenogorsk, 1735 (1742 -?) yil ko'rilgan Orenburg qal'alari kabi mustahkam harbiy istehkomlar ruslarning bu yerdagi harbiy hukmronligi hali uzoq davom etishi va ular faqatgina qo'lga kiritgan yerlar bilan qanoatlanib qolmasliklarni bildirardi. 1731-1740 yillar davomida Kichik va Katta qozoq juzlarining Rossiya tobeligiga o'tish Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoning ichki hududlariga bostirib kirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi. Yuqoridagi hududlarni qo'lga kiritganlaridan so'ng, Rossiya davlati chegaralari bevosita o'zbek xonliklari chegaralari bilan tutashib qolgan edi. Biroq Rossiyaning Yevropada yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va tashqi davlatlari bilan harbiy harakatlarning olib borilishi O'rta Osiyo xonliklariga qarshi qaratilgan harbiy harakatlarini yana bir asr kechiktirishga majbur qildi. Bu davr mobaynida bosib olingan hududlarda erkparvar qozoq sultonlaridan biri Kenasari Qosimov ruslarga qarshi ozodlik kurashlari olib boradi.

Bu qo'zg'olonlarni bostirish uchun minglab qurolli kuchlarga ega bo'lgan general Obruchev, polkovnik Lebedev, Dushikovskiy, podpolkovnik Gorskiylar hyech qanday natijaga erisha olmadilar. Bunda xulosa chiqarganrus hukumati bepayon qozoq dashtlarida ko'plab harbiy qal'alar va istehkomlar ko'rishga kirishdi. Natija XIX asr o'rtalariga kelib Qozog'iston hududlarida 60 ga yaqin harbiy va 100 dan ortiq kichikroq istehkomlar barpo etildi. Bu ishlarning hammasi kelgusida o'zbek xonliklariga qarshi kurashga puxta tayyorgarlik ko'rilganligini bildirar edi. Chor Rossiyasining xonlikarga qarshi harbiy yurishlardan dastlabkilaridan biri 1839 yilda Xiva xonligiga qarshi Orenburg general gubernatori graf Perovskiy tomonidan amalga oshirildi. 1839 yil 16 fevralda tasdiqlangan rejaga ko'ra Xivagacha bo'lgan 1300 chaqirim masofa uch oy ichida bosib o'tilishi lozim edi. 5333 kishilik armiya mahalliy aholining kuchli qarshiligiga duch keldi va 1045 kishi o'ldirildi, 609 kishi yarador bo'ldi. Harbiy yurish esa to'laligicha mag'lubiyatga uchradi. Keyingi yillarda ruslar xonliklar bilan chegaralarda kichik-kichik

harbiy to'qnashuvlar bilan cheklangan bo'lsalarda, bu hududlarda o'z harbiy imkoniyatlarini kengaytirish va endi Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlashni maqsad qilib qo'ygan edilar.

XIX asrning 50 - yillariga kelib Rossiya mohiyatiga ko'ra adolatsiz va bosqinchilik xususiyatiga ega bo'lgan mustamlakachilik yurishlarini Qo'qon xonligiga qarshi faollashtirib yubordi va xonlikka qarshi rosmana urush harakatlarini boshlab yubordi. Deyarli o'rta asrlarga xos qurollanishga ega bo'lgan Qo'qon xonligi zamonaviy quro-yarog'larga ega bo'lgan va Yevropadagi urushlarda katta tajriba orttirgan dahshatli dushmanga qarshi urushga kirdi. Bu vaqtga kelib Qozog'iston hududlarini egallab olgan Rossiya imperiyasi harbiy qo'shinlari Qo'qon xonligi hududlariga ikki yo'nalishda Orenburg harbiy okrugi va G'arbiy Sibir harbiy okrugi tomonidan harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

1864 yilga kelib harbiy harakatlari yanada shiddatli tus oldi. Xonlikning ichkari hududlariga suqulib kirayotgan rus mustamlakachilari oldida Avliyo ota, Turkiston, Chimkent, Toshkent kabi qudratli harbiy kuchga va muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar turardi. 1864 yil 1 may kuni Avliyootaga yetib kelgan polkovnik Chernyayev otryadlari shaharlarga qarshi shiddatli janglar olib bordi. Vatan himoyachilarining qattiq qarshiligiga qaramay shu yilning 4 iyunida ruslar tomonidan bosib olindi. 4 iyulda Chinoz, 11 iyulda esa Manket bosib olindi.

Orenburg yo'nalishi bo'yicha harakat qilayotgan polkovnik Verevkin otryablari 1864 yil Turkiston shahrini qamal qildi. Qattiq janglardan so'ng 12 iyunda Turkiston shahri ham ruslar tomonidan bosib olindi. Navbatdagi shahar Chimkent edi. Chimkent shahri ikki yo'nalishni birlashtiruvchi nuqta sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo'lsa, vatan himoyachilari uchun xonlikning ichkari hududlariga ruslarning kirib kelishiga tusiqlik bo'luvchi so'nggi kuchli tayanch edi. Chimkent uchun jangga bosqinchilar ham, himoyachilar ham qattiq tayyorgarlik ko'radilar. Avliyo ota va Turkistondan kelgan harbiy kuchlari iyul oyida Chimkentga hujum boshlaydilar. Vatan himoyachilari rus bosqinchiligiga qarshi kurashlarga rahbarlik qilgan eng mahoratli sarkarda Mullo Aliquli Amirlashkar boshchiligida ruslarga qaqshatqich zarba beradi va 22 iyul kuni mag'lubiyatga uchragan rus qo'mondonlari sulh so'rab Aliquli Amirlashkargi murojaat qiladi. Amirlashkar ularga Oqmachit, Avliyoota, Turkiston shaharlarini qaytarish va 200 ming tillo tovon to'lash sharti bilan omonlik beradi. Biroq ruslar ikki oy davomida qaytadan kuch to'plab, Chimkentga qayta hujum qiladi. Shiddatli kechgan muxorabada ruslarning zamonaviy qurollari ustunlik qilib, himoyachilarni mag'lubiyatga uchratadi. 22 sentyabr kuni Chimkent bosib olinadi.

1864 yilning kuzida Qo'qonga qaytgan Aliquli davlat ishlari mashg'ul bo'ladi. 1 oktyabrda general Chernyayevning Toshkentga hujum qilganligi haqidagi habar Qo'qonga yetib borishi bilanoq 10 ming kishilik qo'shin bilan Toshkent mudofaasiga o'tlanadi. Bu vaqtda esa toshkentliklar Kush parvonachi va Mirzo Axmad boshchiligida ruslarga qattiq zarba berib, ularni Chimkentga qochishga majbur qiladi. Toshkentga yetib kelgan Aliquli Amirlashkar bu yerda bir muncha vaqt bo'lib, Toshkent qal'asini mustahkamlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi. 4-6 dekabr kunlari esa ruslarni g'aflatda qoldirib, 10 ming kishilik qo'shin bilan bu vaqt ruslar qo'lida bo'lgan Turkistonga qarashli Ikonga yurish qilib, yuz boshi Serov boshchiligidagi otryadni mag'lubiyatga uchratadi. Aliqulining bu yurishi rus generallari tomonidan urushlar davridagi eng ajoyib harbiy san'at sifatida e'tirof etilgan edi. Keyingi oylarda Amirlashkar tashqi siyosat va elchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lib turgan vaqtda rus harbiylari Toshkentni bosib olishga tayyorgarlik qurayotgan edilar. Avvalgi mag'lubiyatdan alamzada bo'lgan rus generali M.G.Chernyayev 1865 yilning aprelida Toshkent bekligiga qarshili va shaharni suv bilan ta'minlovchi Niyozbek qal'asiga hujum qiladi. Ruslar bilan hozirgi Qibray tumanidagi Do'rmon, Uymovut atroflarida bo'lib o'tgan qisqa to'qnashuvlardan so'ng Niyozbek qal'asi bosib olinadi. Bu voqyea 29 aprelda sodir bo'lgan va bunda shaharlik ayrim xoin kimsalar ruslarga yordam ko'rsatgan edilar. Bosqinchilar shaharga kiradigan suvni Chirchiq daryosiga burib yuboradilar. Bu habar Qo'qonga yetishi bilanoq Aliquli Amirlashkar barcha harbiy kuchlarni olib Toshkent mudofaasiga o'tlanadi. U Toshkentning Mingo'rlik mavzesiga 8 may kechasi yetib keladi va ortiqcha tayyorgarliklarsiz 9 may erta tongdanoq ruslarga qarshi janglarni boshlab yuboradi. Salor arig'i atroflarida bo'lib o'tgan jangda mudofaachilar dastlab ruslarga qattiq zarba berib ularni chekinishga majbur qiladilar, kunning o'rtalariga yaqin ruslar zambaraklardan o'q otib jangni boshlaydilar. Aliquli ham keyingi yillarda takomillashtirilgan xonlik zambaraklarining ruslarga qarshi o'q otishlarini shaxsan o'zi boshqarib boradi. Shu vaqtda uning yaqinida ruslarning zambarak snaryadi portlaydi va Amirlashkar og'ir yarador bo'ladi. Kunning ikkinchi yarmida u vafot etadi va bundan habardor bo'lgan fitnachi qirg'iz va qipchoq sarbozlari jang maydonini

tashlab ketadilar. Mudofaa ishlarining butun og'irligi shahar aholisi ustiga tushadi. Shahar ulamolarining sa'y-harakatlari bilan Buxoro amridan so'ralishi ham natijasiz tugaydi. Shaharliklar bosqinchilarga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Biroq kuchlarning teng emasligi, oziq-ovqat va suvsizlik, qurol-yarog'larning kamligi mudofaachilarning mag'lubiyatiga sabab bo'ladi. Ruslar 1865 yilning 16-17 iyun kunlari shiddatli janglar qilib, Toshkent shahrini bosib oladilar. Ruslar tomonidan bosib olingan joylarning barchasi Rossiya mulki e'lon qilindi.

Bu vaqtlarda Qo'qon xonligi bilan urush holatida bo'lgan Buxoro amirligi xonlikning Jo'jand qal'asini bosib oldi. Amir o'zining toshkentga da'vogar ekanligini bayon qilib, rus qo'mondonligi oldiga Toshkentni toshirish talabini qo'ydi. Shu bilan birga muzokaralar uchun Buxoroga yuborilgan rus elchilarini ham qamoqqa oldi. Yuzaga kelgan vaziyat rus qo'mondonligiga Buxoro amirligiga qarshi urush ochish uchun bahona bo'ldi. Biroq rus hukumati Buxoroga nisbatan urush harakatlari ochishga botina olmay, Toshkentdagi harbiylarga amirlik bilan kelishuvchilik siyosati olib borish majburiy holatdagina urush harakatlari olib borishni buyurgan edi. Toshkent mustaqil o'lka deb e'lon qilingach, general Chernchev o'zboshimchalik bilan Buxoro amirligiga qarashli Jizzax qal'asiga yurish qildi. Jizzax himoyachilari rus qo'shinlariga qarshi qattiq zarba berib ularni mag'lubiyatga uchratdi. 1866 yil yanvarda ro'y bergan bu voqyeadan so'ng general Chernyayev harbiy harakatlar olib borish ta'qiqlab qo'yildi. Shunga qaramay Jizzaxdagi mag'lubiyatdan so'ng Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashib ketdi.

General Chernyayev o'rniga tayinlangan yangi qo'mondon F.I. Romanovskiy amirlikka qarshi harbiy harakatlarni davom ettirdi va 1866 yil 8 mayda Erjar yaqinida Amir Muzaffar qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. U keyingi yurishlarini Xo'jandga qaratib, 17-24 may kunlari bo'lib o'tgan janglardan so'ng qal'ani bosib oldi. Shu yilning 2 oktyabrida O'ratepa bosib olindi. 11 oktyabrda esa ruslar Jizzaxni qamal qildilar. Jizzahliklar bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashib, dastlabki janglarda ruslarga zarba berdilar. Shiddatli janglar va 5 kunlik qamaldan so'ng Jizzax qal'asi 18 oktyabr kuni bosqinchilar tomonidan egallandi.¹

1867 yilning 27 may kuni esa qattiq janglardan so'ng Yangiqo'rg'on qal'asini bosib olindi.² Rus hukumati bosib olingan joylarda mustamlakachilik boshqaruvini joriy qilish va bosib olingan yerlarda Rossiya imperiyasi hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Qo'qon xonligi va Buxoro amirligidan tortib olingan yerlarni Rossiya mulki deb e'lon qildi.

Imperator Aleksandr II farmoni bilan 1867 yil 14 iyulda bosib olingan yerlarda Turkiston harbiy okrugi va Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilish to'g'risidagi farmon berdi. Tashkil etilgan harbiy okrug qo'mondoni va general-gubernator etib general-ad'yutant K.P. Fon Kaufman tayinlanadi. Unga berilgan «Oltin yerlik» ka ko'ra Kaufman cheklanmagan hokimiyatga ega bo'ldi. Unga mustaqil ichki va tashqi siyosat masalalarini hal qilish vakolati berildi. General-gubernatorlikning markazi etib Toshkent shahri belgilandi.

Jizzaxning bosib olinishi va erjar yonidagi mag'lubiyat amir Muzaffarxonning K.P. Fon Kaufman bilan sulh shartnomasi tuzish fikriga olib keldi va u Kaufmanga sulh shartnomasi imzolashni taklif qildi. Biroq, Kaufman amir Muzaffar oldiga og'ir shartlarni qo'ygach, sulhdan umidini uzgan amir Muzaffar Turkiya sultoni Abdulazizxonga, Afg'oniston amiri Sheralixonga va Turkmanlarga o'z elchilarini yuborib, Rossiyaga qarshi kurashda harbiy madad so'radi. Biroq bu elchiliklar ijobiy natijaga erisha olmadilar.

Fon Kaufman Buxoro amiriga qarshi harbiy harakatlarni davom ettirib 1868 yil 1 may kuni Samarqandga qarshi kurash boshladi. Amirlik Rossiya imperiyasi harbiy qo'shinlari o'rtasidagi jang Samarqand yonidagi Cho'ponota tepaligida bo'lib o'tdi. Qattiq va shiddatli tarzda kechgan harbiy to'qnashuvdan so'ng, 2 may kuni Samarqanda shahri ruslar tomonidan bosib olindi. O'rta Osiyodagi yuz berayotgan voqyealarni kuzatib turgan chet el ommaviy axborot vositalari bu voqyealarni o'z matbuotlarida yoritib o'tdilar. Ulardan birida ruslar Samarqandni bosib olishi butun urushlar tarixida eng katta shovqshuvli voqyea bo'ldi, Jahongir Temur poytaxtning bosib olinishi rus qurolining qudrati deya baholangan bo'lsa, Samarqandning ruslar tomonidan bosib olinishi xalqlarimiz uchun juda katta yo'qotish bo'ldi. Garchi amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchragan bo'lsalarda, xalq urushni davom ettirish va bir

¹ Haydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi. T.: "O'qituvchi", 2009 y. 82-83-betlar.

² Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy. Tarixi jahonnamoyi. "Sharq yulduzi" jurnali, 8-son, 1991 y

tomchi qonlari qolguncha dushmanga qarshi kurashga harakat qiladilar. Samarqanda shahrini qaytarib olish uchun jang Zirabuloqda bo'ladi.

Zamonaviy qurol-yarog'lar va 8000 dan ortiq qo'shinga ega bo'lgan Kaufman amir Muzaffar qo'shinlari bilan shiddatli janglar olib borishga majbur bo'ladi. Buxoroliklar Zirabuloq jangida katta qaxramonliklar ko'rsatishga qaramay mag'lubiyatga uchraydilar.

Zirabuloqda janglar davom etayotgan bir paytda Qarshi, Kitob va Shahrisabz beklari o'z qo'shinlari bilan Samarqandliklarga yordamga yetib keladilar va Samarqandda qoldirilgan rus garnizonini mag'lubiyatga uchratadilar. Bundan habar topgan Kaufman zudlik bilan Samarqandga yetib keladi va vatan himoyachilariga qarshi kurash boshlaydi.

1868 yilning 2 iyunidan boshlangan Samarqand qo'zg'olonida Kitob Begi Bobobek va Shahrisabz begi Jo'rabeklar katta jasorat ko'rsatadilar. Bu qo'zg'olon rus qo'shinlari tomonidan 8 iyunda bostiriladi va juda ko'p begunoh shahar aholisi qirg'in qilinadi. Samarqanda va Kattaqo'rg'onning bosib olinishi, Cho'ponotp va Zirabuloqdagi mag'lubiyatlardan so'ng amir Muzaffar 1868 yil 23 iyunda general-gubernator Fon Kaufman bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Bunga ko'ra amirlik o'z mustaqilligini yo'qotib, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi yerlardan mahrum etiladi va 500 ming oltin to'lashga, mustaqil tashqi siyosat yuritmaslikka majbur etiladi.

Bu voqoyalardan so'ng amirning katta o'g'li Abdumalik to'ra Jo'rabek, Bobobek, Sulton Sodiqlar bilan birgalikda ruslarga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Ruslarga va amir Muzaffarga qarshi qaratilgan bu kurash rus harbiylar tomonidan bostiriladi. Buxoro amirligi esa bundan buyon Rossiya imperiyasining vassal davlatiga aylanadi.

Xiva xonligi va Rossiya imperiyasi o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar XIX asrning 30 yillari oxiridan boshlandi. Petr I tomonidan uyushtirilgan harbiy ekspeditsiyaning mag'lubiyatga uchraganligi bu davrga kelganda ham rus hukumatiga tinchlik bermasdi. Ular o'zbek xonliklariga qilinadigan hujumlarning dastlabkilaridan birini Xiva xonligiga qarshi qaratishga intilib, 1839 yil boshlarida Orenburg general-gubernatori graf Perovskiy boshchiligida Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yubordilar. Biroq bu harbiy harakat Xivaliklar tomonidan mag'lubiyatga uchratildi va graf Perovskiy sharmandalarcha ortga qaytishga majbur bo'ldi. Natijada rus hukumati harbiy-siyosiy doiralari tomonidan Xiva xonligi "Bo'ysunmagan O'rta Osiyo jazoiri" deya e'tirof etildi. Bundan xulosa chiqargan rus hukumati Xiva xonligini bosib olishga shishilmadi.

1868 yil Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligi bo'ysundirilgach, Xiva xonligi imperiyaga qarashli uchta harbiy okrug-Turkiston, Orenburg va Kavkaz harbiy okruglari qurshovida qoldi. Shuningdek "Orol" harbiy flotiliyasi ham kuchaytirilgan holda Xiva xonligiga qarshi bo'lish mumkin bo'lgan janglar uchun tayyorlab qo'yildi.

Xonlikka qarshi harbiy harakatlarni boshlashdan avval rus harbiylari xonlikka eltuvchi barcha yo'llar, joylar, xonlikning harbiy qudrati va imkoniyatlarini batafsil o'rganib chiqdilar. Xonlikka qarshi harbiy harakatlar uchun 12 mingdan ortiq harbiy askarlar tayyorlandi.

Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlar 1873 yil bahorida boshlandi. Bu yurishda ishtirok etayotgan barcha harbiy kuchlarning bosh qo'mondoni etib general-gubernator Fon Kaufman belgilandi. Bu harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan Orenburg harbiy okrugi qo'shinlariga general Verevkin, Mingqishloq otryadiga polkovnik Lomakinlar boshchilik qilishdi. "Orol" flotiliyasiga qarashli "Samarqand", "Perovskiy" kemalari va uchta barchja ham yurishlarda ishtirok etdi. General Kaufman urush harakatlarini boshlar ekan bunga bahona qilib Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tomonidan xonlik hududlarda mavjud ruslardan iborat qullarni ozod qilmasligini ko'rsatadi.

Ruslarning hujumi haqida habar eshitish bilanoq xon amaldorlar bilan mashvarat o'tkazadi va Kaufmanning yo'lini tusish uchun Matmurod devonbegini qo'shin bilan jo'natadi. Qo'ng'iro't yo'nalishi bo'yicha hujum qilayotgan general Verevkinga qarshi esa Eltuzar inoq jo'natiladi.

Xiva xonligi sarbozlari va ruslar o'rtasida dastlabki to'qnashuv 10-11 may kunlari Uchuchoq yaqinida bo'lib o'tadi va devonbegi qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. 18 mayda esa Kaufman qo'shinlari Amudaryodan kechib o'tadi. Bosqinchilar hujumini kuchaytirib borib, 23 may kuni Xazorasp qal'asini egallab oladilar. Qattiq janglardan so'ng birin-ketin Qo'ng'iro't, Xo'jayli va boshqa qal'alar bosib olinadi. 1873 yil 29 may kuni esa xonlik poytaxti Xiva shahri ham ruslarga taslim bo'ladi. Bu vaqtda mag'lubiyatga uchrayotganligini payqagan Muhammad Rahimxon II Izmiqshur tarafga qochib

ketagan edi. Xonning nomidan muzokaralar olib bormoqchi bo'lgan Otajon to'ra va Amir to'ralarni Kaufman qaytaradi va faqatgina xon bilan muzokaralar olib bormoqchi ekanligini bildiradi.

Bu orada xon saroyi talon-taroj qilinib, ko'plab qimmatbaho boyliklar, nodir qo'lyozmalar imperiya markaziga jo'natiladi.

General Kaufman va Muhammad RahimxonII o'rtasida muzokaralar Gandimiyen qishlog'ida o'tkaziladi. Gandimiyen shartnomasi deb nom olgan bu hujjatga asosan Xiva xonligi Rossiya imperiyasining vassaliga aylantiriladi va xon huzurida saroy amaldorlari va rus qo'mondonlaridan iborat kengash (devon) tuziladi. Bu devon Xiva xonligining barcha sohaları faoliyatini kuzatib borishi va nazorat qilishi lozim edi.

Shuningdek, shartnomaga ko'ra Xiva xoni siyosiy huquqlaridan va tashqi mustaqil siyosat yuritishdan mahrum etildi, quyi Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlar Rossiya mulki deb e'lon qilindi va bu yerda Rossiyaga qarashli Amudaryo bo'limi tashkil etildi. Xonlikka 2 million 200 ming so'm miqdorda tovon puli to'lash yuklatildi. Shu tariqa Xiva xonligi ham Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati yo'lida bo'sundirildi.

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati va unga qarshi milliy ozodlik harakatlari.

Rossiya imperiyasi XIX asrning 50-60-yillarida harbiy istilochilik yo'li bilan Qo'qon xonligi hududining bir qismini bosib oldi. K.R Kaufman xonlikni qolgan hududlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatish maqsadida 1868-yilda xon bilan shartnoma tuzdi. Unga ko'ra, xonlikda Rossiya savdogarlariga katta imkoniyatlar berildi. Bu davrda xonlik yerlari ancha qisqarib, xazinaga tushadigan daromadlar kamaydi. Urush natijasida ko'rilgan zararlar xalq ommasi zimmasiga tushdi, soliq va majburiyatlar ko'paydi. Buning oqibatida xonlikda ichki nizolar, xalq noroziligi kuchayib ketdi.

Po'latxon qo'zg'olonining kuchayib ketishidan xavotirga tushgan mustamlakachi hukumat, ularni tor-mor qilish uchun Andijonga hujum qildi. Chunki qo'zg'olonchilarning asosiy kuchlari shu yerda joylashgan edi.

General M. Skobelev boshchiligidagi hujum 1875-yil oktabr oyi boshida boshlandi. Shahar 1876-yil yanvarda uyushtirilgan ikkinchi hujum natijasida qiyinchilik bilan egallandi.

Rossiya imperiyasining general M. Skobelev boshchiligidagi qo'shinlari 1875-yil 18-oktabrda Namanganga joylashib, K.P. Kaufman qo'mondonligi ostidagi harbiy kuchlarga qo'shildi. Ikki tomon o'rtasida janglar 1876-yil yanvar oyi oxirigacha davom etdi. General M. Skobelev boshchiligidagi qo'shin fevral oyiga kelibgina harbiy qurol ustunligi bilan g'alabaga erishdi. Po'latxon va uning tarafdorlari qatl qilindi.

1876-yil 19-fevralda podsho hukumatining Qo'qon xonligining tugatilganligi to'g'risidagi farmoni e'lon qilindi. Shu tariqa, Qo'qon xonligi hududi o'rnida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Farg'ona viloyati tashkil qilindi. Vi- loyatga Qo'qon xonligini bosib olinishidagi harbiy yurishlarga rahbarlik qilgan general M. Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoda olib borgan istilochilik yurishlari natijasida Qo'qon xonligi Buxoro va Xiva davlatlaridan farqli ravishda davlat sifatida butunlay tugatildi.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, boshqaruvi tuzimi. Podsho Rossiyasi Turkiston o'lkasini bosib olgach, jahonning eng yirik mustamlakachi davlatiga aylandi. Yevropada Rossiyaga nisbatan «ulkan miqdordagi mulk o'g'risi» degan kinoyali ibora ishlatila boshlandi. Yevropa va Osiyoning bir qismini o'z ichiga olgan bu imperiya boshqa mustamlakachi davlatlardan farqli ravishda o'ziga xos mustamlakachilik tizimini yuzaga keltirdi. Bunday zo'ravonlik va zulmga asoslangan mustamlakachilik tizimi Turkistonda keng ko'lamda amalga oshirila boshlandi. Bu siyosat mahalliy xalqlarga mutlaqo ishonmaslik, ularni nazarga ilmaslik kabi o'ta millatchilik ruhidagi siyosat asosiga ko'rilgan edi.

Turkistonda boshqaruv tizimi butunlay harbiylashtirilgan hokimiyat ixtiyoriga to'laligicha topshirilgan bo'lib, ularning qo'lida cheklanmagan va hech qanday insoniy huquqlarni tan olmaydigan hokimiyat tizimi shakillantirilgan edi. «Bu joyda bizning umumiy dushmanimiz-musulmonlik va yovvoyilikdir» - deya harbiy vazir Milyutinga maktub yo'llagan general Kaufman 1868 yil 22 yanvarda

Toshkent jamoatchiligi vakillari oldida soʻzlagan nutqida ruslarni Turkiston aholisining katta ogʻalari degan fikrni ilgari surdi.

1867 yilda harbiy vazir Milyutin Turkiston oʻlkasini boshqarish toʻgʻrisidagi Vaqtli Nizom loyihasini podsholik vazirlar qoʻmitasi taqdim etdi va bu qoʻmita tomonidan tasdiqlangan ushbu loyiha qonun sifatida kuchga kiritildi. Bunga koʻra markaziy fuqarolik va harbiy boshqaruv tizimi toʻlaligicha general gubernator koʻliga topshirildi. U ayni vaqtning oʻzida Turkiston harbiy okrugi bosh qoʻmondoni ham edi. Markaziy davlat boshqaruvidan boshqaruvning eng quyi pogʻonalari gacha hokimiyat harbiy qoʻliga topshirildi. Bu boshqaruv tizimi Turkiston oʻlkasi va aholisini har tomonlama mustamlakachilik sirmogʻiga solish bilan mashgʻul boʻldi va ayrim oʻzgarishlar bilan 1917 yilga qadar davom etdi.

Turkiston general-gubernatorligida joriy qilingan boshqaruv usuli mahalliy aholi ustidan toʻla nazorat qilish imkonini bera oladigan tarzda qilib tashkil etilgan edi.

Markaziy oʻlka boshqaruvi general gubernatori, uning Kengashi va mahkamasidan iborat boʻlgan.

Turkiston general gubernatori oʻz qoʻlida harbiy va fuqarolik hokimiyatini birlashtirgan edi. Ayni vaqtning oʻzida u podsho noibi, harbiy okrug qoʻshinlari qoʻmondoni, Yettisuv kazak qoʻshinlari qoʻmondoni, bosh mirshab va bosh prokuror vazifalarini ham oʻz qoʻlida birlashtirgan edi.

Turkiston general gubernatori Rossiyaga vassal hisoblangan Buxoro amirligini Rossiya imperator siyosiy agentligi (1885-1917) va Xiva xonligini Amudaryo boʻlimi (1873-1918) boshliqlari orqali nazorat qilingan.

Rus mustamlakachilarining oʻlkaga rus aholisini koʻchirib keltirish siyosati. Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan koʻzlangan asosiy va bosh maqsadi oʻlkani Rossiya manfaatlar uchun xizmat qiluvchi xom-ashyo bazasiga aylantirish va eng serhosil yerlar joylashgan hududlarga rus dexqonlarini keltirib oʻrnatish edi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi yer suv munosabatlari Oʻrta Osiyoda oʻz hukmronligini mustahkamlash va uning imkoniyatlaridan oʻz manfaatlarini yoʻlida foydalanishni koʻzda tutgan edi.

1886 yilgi nizomga koʻra, rus dexqonlari Oʻrta Osiyoga koʻchib kelishlari uchun katta imtiyozlar berildi. Shuningdek, bu nizomga koʻra, «boʻsh yotgan davlat yerlariga» birinchi navbatda harbiy xizmatdan boʻshatilgan harbiy xizmatchilarni qoʻyish koʻzda tutildi.

Imperiyaning Turkistondagi yer suv masalalariga doir siyosatida quyidagi siyosat amalga oshirildi:

1. Turkistonda barcha yerlar davlat mulki deb eʼlon qilindi, oʻtroq mahalliy aholiga yer merosi yakka jamoa ekanligi tariqasida, koʻchmanchi aholiga esa azaliy dehqonchilik odatlariga rioya etilgan holda, muddati cheklanmagan holda jamoa boʻlib foydalanish uchun topshirildi;

2. Oʻtroq aholi yashaydigan joylarda yer, undan amalda foydalanganiga biriktirib qoʻyildi;

3. Dastlab vaqf yerlariga soliq joriy etilgan boʻlsa, keyinroq bu mulklar butunlay tugatilib yuborildi;

4. Shahar tashqarisida mahsus koʻchiruv fondlaridan tashqari rus aholisiga yer ajratish taʼqiqlandi;

5. Yevropaliklar, xususan, ruslar tomonidan mahalliy aholi yerlarini sotib olish mutlaqo taʼqiqlab qoʻyildi va bu qonun 90-yillarning oxirigacha saqlanib qolindi. Koʻchiruvchilik siyosati Turkiston general gubernatorligi tashkil etilgan 1867 yildayoq boshlab yuborildi.

1869 yilda Yettisuvdagi dexqonlar manzilgohlari toʻgʻrisida qoidalar ishlab chiqdi. Bu hududda 1869-1882 yillarda 25 ming kishilik aholisi boʻlgan 29 ta rus qishlogʻi, Sirdaryo viloyatida esa 1300 kishilik aholisi boʻlgan 19 ta rus qishlogʻi barpo etildi.

1886 yilgi Nizomga koʻra, oʻlkaga rus aholisining koʻchib kelishiga siyosiy tus berildi va har bir koʻchib keluvchiga 10 desyatnadan kam boʻlmagan yer ajratilishi koʻzda tutildi.

Yuqorida aytganimizdek, 1875 yilda Avliyootada ilk rus qishlogʻi barpo etilgandan boshlab oʻtgan 15 yil davomida, yaʼni 1890 yilgacha Turkiston oʻlkasida 1300 oiladan iborat 19 ta rus qishlogʻi barpo etilgan boʻlsa, Rossiyada ocharchilik yuz bergan 1891-1892 yillarda Turkistonga koʻchib keluvchilar soni keskin ortdi va shu ikki yil davomida 25 ta rus qishlogʻi paydo boʻldi. Oʻlkadagi rus dexqonlarining soni ikki barobar ortdi.

Oʻlkada rus dexqonlarining salmogʻi bir oz ortgach, rus mustamlakachi maʼmuriyati ularni qurollantirish va zurur boʻlgan hollarda mahalliy aholi noroziliklari, qoʻzgʻolonlari, isyonlarini bostirishda foydalanish siyosatini amalga oshira boshladi. Shu maqsadlar 1896 yilda Sirdaryo viloyatiga koʻchib kelgan kazaklarga 123 ta miltiq va oʻq-dori, 1897 yilda yana 3000 ta miltiq, Yettisuvda 300,

Farg'onada 131, Kaspiyortida 431 miltiq va o'q-dori taqsimlab berildi. Bu bilan Rossiya ko'chiruvchilik siyosati harbiy siyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilganligini ko'rsatdi.

Chor Rossiyasi O'rta Osiyoni bosib olgach, bu yerda o'z manfaatlarini oshirish borasida turli siyosatlar va tadbirlarni amalga oshira boshladi. Mustamlaka hukumatning amalga oshirgan ishlaridan biri Turkistonda temir yo'lining barpo etilishi bo'ldi. Turkistonda temir yo'l ikki asosiy maqsadni harbiy strategik va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlab qurildi.

Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari. Jadidchilik. O'lkada XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib chor Rossiyasining mustamlakachilik, ulug' davlatchilik, shovinistik siyosati mahalliy aholining milliy ozodlik harakatlari boshlanishiga asosiy sabab bo'ldi.

Tarixiy manbalarda, arxiv hujjatlarida chor Rossiyasi qo'shinlarining O'rta Osiyo hududiga kirib kelishi bilan, unga qarshi xalq ozodlik harakatlari boshlanganligi va bu chor hukumatining ag'darilishiga, qolaversa mustaqillikka erishganimizga qadar davom etganligi haqidagi ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar asosida O'rta Osiyo xalqlarining chorizmga qarshi olib borgan quyidagi eng yirik va ommaviy tus olgan kurashlarini qayd qilishimiz mumkin: 1837-1846 yillarda Sulton Kenesarin rahbarligidagi, keyinchalik Buxoro amirligining, Shahrisabz bekligidagi harakatlar, 1871 yilda Eshon Eshmuhammad boshchiligida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar; 1871 yildagi Farg'onada Yetimxon qo'zg'oloni; 1872 yilda Chirchiqdagi isyonlar, 1873-76 yillar Qo'qondagi Po'latxon qo'zg'oloni; 1892 yildagi Toshkent qo'zg'oloni; 1898 yildagi Andijonda Dukchi Eshon qo'zg'oloni; 1899 yildagi Sirdaryo viloyatidagi harakatlar, 1916 yildagi Jizzax qo'zg'oloni va boshqalar.

XIX asr 70-yillar boshlaridagi Farg'onadagi xalq harakatlarini alohida qayd etish lozim. 1868 yilda Kaufman bilan sulh shartnomasi tuzib, Qo'qon xonligining katta hududlarini Rossiya ixtiyoriga bergan va Rossiya hukmronligini tan olgan Xudoyorxon siyosatidan nafaqat oddiy xalq, balki yirik yer egalari ham norozi edilar. Qo'qon xonligida elchi va josus vazifasini bajargan polkovnik Shaufus ma'lumotlariga qaraganda norozi beklar tepasida Abdurahmon oftobachi turgan. 1872 yilda xon siyosatiga qarshi xalq harakati ayniqsa kuchaydi. Bundan foydalangan Abdurahmon oftobachi o'z tanishi mulla Is'hoq O'asan o'g'lini Qirg'izlar orasida Po'latxon nomi bilan qo'zg'olon ko'tarishga undaydi va o'zi ham bu harakatga qo'shiladi. 1873 yilda boshlangan bu qo'zg'olonida oddiy xalq, dehqonlar, hunarmandlar faol ishtirok etdilar va bu harakat butun Farg'ona vodiysi bo'ylab yoyildi. Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek boshchiligidagi xon qo'shinlari ham qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatladilar. Bu voqeadan qo'rqib ketgan Xudoyorxon rus hokimiyatidan boshpana so'rab, Toshkentga qochdi. Qo'qon taxtiga uning o'g'li Nasriddinbek (1875-76) xon qilib ko'tarildi.

Qo'zg'olonchilar kelishuviga binoan esa Po'latxon xon etib saylanishi kerak edi. Nasriddinbekning xonlikka ko'tarilishi va uning ham ruslar bilan kelishuv siyosatini olib borishi, qo'zg'olonchilar o'rtasida norozilik keltirib chiqardi. Natijada Marg'ilon, Namangan, Andijon hududlarida Po'latxon tarafdorlari yerlarni kambag'allarga bo'lib berib, xon siyosatiga qarshi chiqdilar. Qo'qon xonligining ruslarga qarashli bo'lgan yerlarida ham norozilik chiqishlari avj ola boshladi. Bu rus hukumatini xavotirga solib qo'ydi va Kaufman Qo'qon xonligini tugatish to'g'risida podshoning roziligini so'rab, iltimosnoma jo'natdi. Qo'qon xonligi hududiga esa Skobelev boshchiligida harbiy jazo otryadi kiritildi. Bu vaqtda Nasriddinxon hokimiyatdan chetlashtirilib, vodiya Po'latxonning mavqei oshib ketgan edi.

Harbiy jihatdan ustun bo'lgan rus qo'shinlari qo'zg'olonchi-larni tezda mag'lubiyatga uchratdi. Po'latxon qo'shinlari harakatining ikkinchi bosqichi 1875 yili Ohangaron, Telov, Pskent va Toshkentda bo'lib o'tgan harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu harakatlarda qattiq zarbaga uchragan qo'zg'olonchilar 1876 yili Andijonda, Oloy vodiysida kurashni davom ettirdilar. Ammo harbiy jihatdan kuchlar teng emas edi. 1876 yil 1 martda Po'latxon tutib olinib Marg'ilonda osib o'ldirildi. Boshqa qo'zg'olonchilar ham qattiq jazolandi. Podshoning buyrug'i bilan Qo'qon xonligi tugatilib, Farg'ona viloyati tashkil etildi.

Farg'ona vodiysida bo'lib o'tgan 70-80-yillardagi xalq harakatlarida Qurbonjon dodxoh, Yetimxon, Darvishxon to'ra, Yoqubbek boshchiligidagi qo'zg'olonlarni alohida qayd qilishimiz zarur. Qurbonjon dodxoh rus qo'shinlariga qarshi kurashda sharq ayollarining qahramonligini, jasoratini namoyon etdi. Manbalarning ma'lumot berishicha, general Skobelev sulh tuzish uchun mayor Ionovni Qurbonjon dodxoh huzuriga jo'natadi. Ammo Qurbonjon dodxoh mayorni qabul qilmay faqat o'z mavqei bilan teng bo'lgan sarkarda bilangina muzokaralar olib borishi mumkinligini bildiradi. Chorasiz qolgan rus generali Skobelev u bilan sulh tuzishga va uni «Oloy malikasi», deb tan olishga majbur bo'ldi. Qurbonjon

dodxohning nabiralari 1898 yilgi milliy ozodlik qo'zg'olonida ham faol qatnashganlar Rus amaldorlari doimo Oloy malikasidan hayiqishgan. Shuning uchun gubernatorlar uning oldiga tez-tez kelib turishgan. 1901 yilda Rossiya imperiyasi Qurbonjonga imperatritsaning sovg'asini shaxsan topshirgan. Qurbonjon dodxoh 1907 yilda O'shda 96 yoshida vafot etgan.

O'rta Osiyo xalqlarining mustamlakachilarga qarshi kurashida Yoqubbek va u boshqargan Yettishahar davlati (1865-1877) ham muhim o'rin egallaydi. Chunki ular Qo'qon, Buxoro, Xiva vatanparvarlarining rus bosqinchilariga qarshi kurashlarida yordam berib turishgan. Shu sababli Turkistondagi so'nggi mustaqil davlatni tugatish Rossiya uchun kechiktirilmas vazifa bo'lib qoldi. 1877 yil 22 iyunda rus qo'shinining o'uljaga bostirib kirishi shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan edi. Amir Yoqubbekning to'satdan vafot etishi Yettishahar davlati qo'shinining mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi. Oqmachit, Chimkent, Toshkent mudofaalarini tashkil qilishda jonbozlik ko'rsatgan Yoqubbek Turkiston ozodligi uchun kurash yo'lida jon baxshida etgan qahramonlarimizdan biridir.

1878 yili Mingtepada chorizmning siyosiy- iqtisodiy zulmiga qarshi Yetimxon boshchiligidagi g'alayon ko'tarildi. Bunday G'alayon 1879 yilda Farg'ona viloyatida ham sodir bo'ldi. Bu qo'zg'olonlar kuch bilan bostirilsa ham aholining qahr-g'azabidan xavfsiragan Farg'ona viloyati gubernatori Qayriqonuniy soliq yiquvchilarni ishdan olib tashlashga majbur bo'ldi.

1889-1890 yillarda Farg'ona vodiysi va Toshkent hududlarida ko'plab xalq harakatlari, qurolli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Shulardan biri Darveshxon qo'zg'olonidir. Andijon uyezdining Qo'rg'ontepa volostida Yuqori tabaqaga mansub bo'lgan vatanparvar Darveshxon qo'shin to'plashga kirishdi. U mustamlakachilik tuzumiga qarshi ochiqdan-ochiq qurolli qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rdi, ammo Farg'ona viloyati harbiy ma'murlari katta kuch yuborib Darveshxon kuchlarini tor-mor etdi, uning yordamchisi Mo'minboy ushlab olinib, dorga osildi.

1892 yilgi qo'zg'olon ko'plab tarixiy adabiyotlarda rus hukumatini o'lkaning bir qancha shaharlarida vabo kasali tarqalishining oldini olish uchun Toshkent shahrida ko'rilgan chora-tadbirlariga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon deb ta'riflangan bo'lsa-da, aslida bu qo'zg'olon chor Rossiyasining o'lkada ko'p yillar davomida olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan edi.

Rus hukumatining vaboni oldini olish uchun ko'rgan chora-tadbirlari davomida mahalliy aholining diniy e'tiqodlari, urf-odatlari hisobga olinmaganligi natijasida sabr kosasi to'lgan xalq ommasining noroziligi kuchaydi. Natijada bu qo'zg'olonda Toshkent shahri aholisining barcha qatlamlari ishtirok etdi. Mahalliy aholining milliy-madaniy an'alariga xos diniy bayram «Qurbon hayit» kuni boshlangan bu qo'zg'olon, tezda chor askarlari tomonidan bostirilib, qo'zg'olonchilardan 8 kishi dorga osib o'ldirilishga, 15 kishini 2 yil muddat bilan mahbuslar rotasiga yuborilishiga, 2 kishini olti oydan qamoq jazosini o'tashga hukm qilishdi. Lekin chor Rossiyasi dunyo matbuotchilari oldida bu jazolar shov-shuvga sabab bo'lishidan cho'chib, o'lim jazoni umrbod surgun bilan almashtirdi. Bu qo'zg'olon Toshkent shahrining o'zida yuz bergan bo'lsa-da, uning aks sadosi butun Turkiston o'lkasi bo'ylab tarqaldi.

XIX asr oxirlarida Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi o'lka xalqlarining milliy ozodlik harakatining yana bir yorqin namunasi 1898 yil may oyida Andijonda bo'lib o'tgan Dukchi Eshon qo'zg'oloni orqali namoyon bo'ldi. Bu qo'zg'olon rahbari Muhammadali Eshon o'z davrining obro'li, diniy va dunyoviy ilmlardan boxabar, davr siyosatini to'g'ri tushungan shaxs edi. U o'z muridlari va hamfikrlari bilan bosqinchilarning xalqqa qarshi olib borayotgan zulmkor siyosatini qoralar va bunga qarshi har qanday harakatni ma'qullar edi.

Dukchi Eshon Mingtepa qishloqidan turib Farg'ona shaharlari va Qirg'iz yerlaridagi mustamlakachilardan norozi aholini birlashtirish va bu zulmni aQdarib tashlash uchun harakat boshladi. Qo'zg'olon olib borish usullaridan bexabarlik, birlikning yo'g'ligi, uyushmaganlik, qurol-aslaha va moddiy bazaning yetishmasligi qo'zg'olonning tezda mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi, ayniqsa qo'zg'olonning kelishilgan muddatdan oldin boshlanishi, harakat mag'lubiyatining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilib, uning rahbarlari qattiq jazolandi. Qo'zg'olon natijasida Farg'ona viloyatida va butun Turkiston general-gubernatorligida harbiy politsiya rejimi kuchaytirildi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Rossiya tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi sabablari nimaga?
2. O'rta Osiyo masalasida Ingiliz-rus raqobatlarini ayting?
3. Toshkent uchun bo'lgan janglarni tushuntirib bering?

4. Qaysi janglar Rossiya va Buxoro amirligiga tegishli?
5. Jo'rabek, Bobobek, Sulton Sadiq, Kenesarovlar kimlar bo'lgan. gapirib bering?
6. "Bo'ysinmas O'rta Osiyo Jazoiri" iborasining ma'nosini tushuntiring?
7. Po'latxon qo'zg'aloni haqida gapiring?
8. Rossiya-Buxoro shartnomasi (1968) haqida ma'lumot bering?
9. "Rossiya xiva-shartnomasi" (1873) haqida ma'lumot bering?
10. Turkiston General Gubernatrligining tuzilishi haqida ma'lumot bering?
11. Ruslarning mustamlakachilik yurishlari o'qibatlarini qanday bo'ldi.
12. Mustamlaka hukumronligi davrida Turkiston o'lkasida irod qilgan olimlar haqida ma'lumot bering?
13. Mustamlaka davrida maktab va marif sohasi qanday bo'lgan?
14. Qaysi O'zbek tarixchi olimlari mustamlakachilik davrini o'rganishga harkat qilgan?
15. Chor Rassiyasining o'lkadagi yer-suv sohasidagi siyosati haqida gapiring?
16. Paxta yakka hokimligi nima? Va "Amerika paxta" navi tarqalishi haqida nimlar bilasiz?
17. Jadidchlik harakatipaydo bo'lishi sabablarini ayting?
18. Jadidlarning maqsad va vazifalarini ayting?
19. 1916 yildagi qo'zg'alonlarning boshlanish sabablarini ayting?
20. Jizzax qo'zg'aloni boshlanishi va oqibatlarini ayting?

Foydalanilgan adabiyotlar

8. Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas –kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. –Toshkent: Sharq, 2000.
10. Asqarov A. A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –Toshkent: Universitet, 2007.
11. Eshov B. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. –Toshkent: "Ma'rifat", 2009.
12. Eshov B. J. Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. - Toshkent: .Yangi asr avlodi., 2014 .
13. Ergashov Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi. Toshkent: .G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2015.
14. Haydarov H., Usmonov Q. Jizzax tarixi. Toshkent: .O'qituvchi., 2009.
15. Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy. Tarixi jahonnamoyi. "Sharq yulduzi" jurnali, 8-son, 1991 y

10-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarning mustamlakachilik mohiyati (1917-1989 yy.)

Reja:

1. Rossiya imperiyasidagi 1917 yilgi inqiloblar va Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi.
2. Turkiston Muxtoriyatining qulatilishi va sovet hokimiyatiga qarshi istiqloqlilik harakatlari.
3. O'rta Osiyodagi milliy-hududiy chegaralash va O'zSSR ning tashkil topishi.
4. Sovet hukumatining qatag'onlik siyosati va uning oqibatlarini.
5. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston.
6. 50-80-yillarda O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy hayot.

1917 yil fevral inqilobining Turkistonga ta'siri. 1917 yil 27 fevralda Petrograd da demokratik inqilobi g'alabasi Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada Turkistonda ham ishchi va soldat deputatlari Sovetlari va har xil toifalar vakillaridan tuzilgan ijroiya komitetlar tashkil etila boshlandi. Toshkentning hamma dahalari vakillari to'planib «Sho'roi Islomiya» tashkilotini tuzdilar.

1917 yilning mart oyida o'lka muxtoriyati masalasi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi asosiy masala bo'lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g'oyasi nafaqat demokratik ziyolilar o'rtasida, hatto oddiy fuqarolar orasida ham tarqala boshladi. 31 mart kuni rus podshosining o'lkadagi tayanchi-Turkiston general-gubernatori hokimiyatni tark etdi. 1917 yil 7 aprelda Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N.N.Shchepkin raisligida Turkiston qo'mitasi tashkil qilindi. 9 kishidan iborat bu komitet a'zolarining to'rttasi: A. Bukeyxonov, M.Tinishboyev, S. Maqsudov va A. Davletshinlar turkiy xalqlar vakillaridan edi. Turkiston mahalliy aholisining oshib borayotgan ijtimoiy-siyosiy faolligi

sharoitida Toshkentda 1917 yil 16 aprelda «Sho'roi Islomiya» ning Toshkent tashkiloti tashabbusi bilan chaqirilgan Butunturkiston musulmonlarining 1 qurultoyi ish boshladi.

1917 yil 10 sentyabrda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi ochildi. Ushbu qurultoy hokimiyatni soldat, ishchi va dehqon deputatlari sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Sentyabr voqealari jamiyatdagi siyosiy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirib, o'lkadagi ishchilar harakati bilan milliy harakatning keyingi yo'llarini bir-biridan ajratib yubordi.

1917 yil sentyabr oyida bolsheviklashgan Toshkent Soveti soldatlarni va asli rossiyalik ishchilarni o'z tomoniga torta olgan edi. Oktyabr oyida Rossiyada to'ntarish bo'lib o'tgandan co'ng, uning ta'siri tez orada mustamlaka o'lkaga ham yoyildi. Toshkentdagi Oktyabr to'ntarishi qatnashchilari 1 noyabrda Bosh komissar general Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasini qamoqqa oldilar va shu kuni Turkistonda Sovet hokimiyatini o'rnatilganligi e'lon qilindi. Qurollangan yevropali ishchilar, asosan temiryo'lchilar, Toshkent garnizonining soldatlari davlat to'ntarishini o'tkazdilar.

Turkiston bolsheviklari o'lkadagi butun hokimiyatni o'z qo'llariga olish uchun shafqatsiz kurash olib bordilar.

1917 yil 15-22 noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ishchi, soldat va dehqon deputatlarining III o'lka s'yezdida hokimiyat masalasi hal qilindi. Bunda 15 kishidan iborat Turkiston Xalq komissarlari soveti tuzildi (8 so'l eser va 7 bolshevik). Hukumatga mahalliy aholidan birona ham vakil kiritilmadi. S. Lapin boshliq «ulamochi»lar, menshevik va so'l eserlarning o'lka Soveti tarkibiga musulmon vakillarini ham kiritish borasidagi takliflari inobatga olinmadi. Bu esa bolsheviklarning milliy masalada yo'l qo'yg'an katta siyosiy xatosi bo'lib, bunda sovet rahbarlarining shovinistik kayfiyatlari ochiq namoyon bo'ldi. Hukumatning bunday ziddiyatli tarkibi o'lkada yevropali aholi hukmronligini mustahkamladi.

Rossiya Xalq Komissarlari Soveti 2 noyabrda «Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiyasi» va 20 noyabrda «Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga» murojaatnomasini e'lon qildi. Ushbu dabdabali hujjatlarda xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi rasmiy ravishda tan olindi; hattoki ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqi; hamma va har qanday milliy, diniy imtiyozlar va cheklashlar bekor qilindi.

Bu hujjatlar qanchalik balandparvoz va'dalar bermasin, amalda qurug' tashviqot bo'lib chiqdi. Ko'p o'tmay, Turkiston XKS «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi Ulamo» tashkilotlarini tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning a'zolari Turkiston muxtoriyatini, keyinroq esa milliy istiqloq harakatini qo'llab quvvatladilar.

3. Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi va bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinishi.

1917 yil 26-28 noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yevropali qismi vakillari ham teng huquqli bo'lib ishtirok etdilar. Turkistonning boshqarish tuzumi to'g'risidagi masala uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi. Qurultoyda o'lkaning barcha mintaqalari va ko'pgina jamoat tashkilotlaridan 200 nafardan ortiq vakillar hozir bo'ldi. Unda vakillarning siyosiy faolligi tufayli muhim masalalar yuzasidan munozaralar bo'lib o'tdi. Muxtoriyat e'lon qilish g'oyasini qo'llab-quvvatlovchilar ko'pchilikni tashkil etdi. Qurultoyda qabul qilingan qarorda: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z taqdirini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Rossiya tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qildi». 28 noyabrda tarkib topayotgan mazkur davlatning nomi aniqlanib, Turkiston muxtoriyati deb ataladigan bo'ldi. Butunrossiya Ta'sis majlisi chaqirilgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat kengashi va Turkiston xalq (millat) majlisi qo'lida bo'lishi kerak edi. Turkiston Muvaqqat kengashi a'zolaridan tuzilgan Muvaqqat hukumat hay'ati tarkibiga 8 kishi saylandi, yana 4 o'rin yevropa aholi vakillariga ajratildi.

Qurultoy jarayonida Turkiston Millat majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi, shundan 2/3 qismi, ya'ni 36 nafari mahalliy aholi vakillaridan edi.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa fursat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. Abdurauf Fitrat muxtoriyat e'lon qilingan kunni «milliy laylatul qadrimiz» deb atadi. Turkiston muxtoriyatini barcha demokratik kuchlar qizqin quvvatladi.

Afsuski, o'lka bolsheviklari Turkiston Muxtoriyati hukumatiga katta xavf deb qaradilar. Turkiston Sovetlarining IV s'yezdi Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari deb

hisobladi va hukumat a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror qabul qildi. Turkiston XKS muxtoriyat hukumatni tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning «Dashnoqsutyun» partiyasi a'zolaridan keng foydalandilar.

1918 yilning 19 fevralida (eski hisob bilan 6 fevral) Qo'qon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan Turkiston muxtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumlari natijasida aQdarib tashlandi. Hukumat ag'darilgach ham Qo'qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash va o'ldirish battar avjiga chiqdi. Faqat Qo'qonning o'zida uch kun davomida 10000 kishi o'ldirildi.

«Ulug' Turkiston» gazetasi chuqur qayg'u bilan xabar berganidek, 20 (7) fevral Ho'qand tarixining eng dahshatli kuni bo'ldi. Eski shahardagi hamma magazinlar, savdo firmalari, banklar va ozmi-ko'pmi yaxshiroq ko'ringan xususiy xonadonlarning hammasi talangan. Gazetadagi ushbu maqola «Ho'qand hozir o'liklar shahri» deb tugaydi. Turkiston Muxtoriyatini ag'darilishi O'rta Osiyoni sovetlashtirishga keng yo'l ochib berdi.

4. Turkiston mintaqasidagi istiqolchilik harakati va uning tarixiy ahamiyati

Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklar tomonidan tor-mor qilinsa ham, u Farg'ona vodiysida istiqolchilik harakatini tashkiliy jihatdan rasmiylashtirdi, unga milliy bo'yoq va tus berdi. Muxtoriyat hukumatining tugatilishi istiqolchilik harakatining butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o'tadiki, chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan Farg'onaliklar endi bolsheviklar tuzumi va sovet Rossiyasiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Demak, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha tuzumga qarshi istiqolchilik harakatining boshlanishini xronologik jihatdan 1918 yil fevral oyining so'nggi o'n kunligida deb belgilashimiz mumkin. Dastlabki istiqolchi guruhlarining tuzilishi Qo'qon atrofidagi Bachqir qishloqidan chiqqan Kichik va Katta Ergashlarning nomlari bilan uzviy bog'liqdir. 27 fevralda bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash qo'rboshi (uni Mulla Ergash ham deyishgan) Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi. Skobelev uyezdida esa Marg'ilon militsiyasining sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li – Madaminbek sovetlarga qarshi kurash e'lon qildi. «Yakkatut volosti Garbobo qishloqidagi Madaminbek guruhining qarorgohiga ommaviy ravishda mahalliy yoshlar kelib qo'shildilar», deb yoziladi 1918 yilga oid arxiv hujjatlarining birida.

1918 yil mart oyiga kelib Farg'ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsatardi. Madaminbek Skobelev uyezdida, aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Pahlavon, Qobul, Sotiboldi Qozi va Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon shahri atrofida, Eshmat qo'rboshi Qo'qonning Buvayda qishloqida, Jonibek Qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda o'z faoliyatlarini boshladilar.

Istiqolchilik harakatining harbiy birlikka aloqasi bo'lmagan qurolli bezorilik yoki bosqinchilik, yoxud «bosmachilik» harakati emasligini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Istiqolchilik harakatining o'ziga xos milliy yo'nalishi va Turkistonga mos xususiyatlari bo'lgan. Harakatning boshdan oxirigacha ustuvor g'oya – bu butun Turkistonning milliy istiqololi edi.

Sovet hokimiyati vakillarining butun Turkiston o'lkasida yuritgan shovinistik va mustamlakachilik siyosati, mahalliy aholi manfaatlari bilan hisoblashmay ularning nafsoniyatiga tegishi istiqolchilik harakatining doimiy ravishda avj olishi hamda uning uzluksiz davom etishiga olib keldi.

Turkistondagi istiqolchilik harakatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar edi. Turkiston respublikasi rahbarlaridan birining e'tirof etishicha, istiqolchilik harakatiga «asosan dehqonlar va hunarmandlar qatnashdi». Farg'onadagi qurolli muxolifat kuch va son jihatdan tish-tirnog'igacha qurollangan sovet qo'shinlaridan ba'zan mag'lubiyatga uchrab tursada, e'tiqod va ozodlik uchun kurashayotgan istiqolchilar vodiydagi butun aholi orasidan doimo madad va yordam olib turardilar.

Turkistondagi istiqolchilik harakatining uyushgan bir shaklda namoyon bo'lishida qo'rboshilar ko'rsatgan Qayrat-shijoatni alohida ta'kidlab o'tish kerak. O'z vaqtida Farg'ona vodiysida Kichik va Katta Ergashlar, Madaminbek, Shermuhammadbek, Islom Pahlavon, Buxoro Xalq Respublikasida Said Olimxon (sobiq amir), Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Anvar Posho, Salim Posho, Davlatmandbek, Jabborbek, Oston G'orovulbegi, O'rmon Polvon, Hayit Amin, Fuzayl Mahdum, Doniyolbek, Xorazm Xalq Respublikasida Junaidxon, Qo'shmamedxon, Temir Alixon kabi qo'rboshilar bu harakatni yagona kuchga birlashtirish uchun rahbarlikni birin-ketin o'z qo'llariga olsalar-da, lekin Farg'ona vodiysi, Xorazm va

Buxorodagi istiqloqchilik harakati boshdan oxirigacha yagona markazga to'liq uyusha olmadi. Turkiston fidoyilarining ozodlik harakatini yagona markazga birlashtirish uchun izchil kurashayotgan Madaminbek bilan Anvar Poshoning taqdirleri esa fojiali tugadi.

Farg'ona vodiysidagi istiqloqchilik harakati 1919 yil yozining oxiri va kuzida o'zining Yuqori cho'qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi islom qo'shinlari safiga Jalolobodda turgan rus krestyanlar armiyasining qo'shilishi vodiya sovet hokimiyatini ag'darish uchun real kuch edi. Sentyabrning dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod shahrini egalladi. Qurshob qasabasi yonidagi janglarda sovet armiyasi qismlari katta mag'lubiyatga uchrab, O'sh shahriga chekindi. 8 sentyabrda bir yarim kechakunduzlik qonli janglardan keyin O'sh shahridagi garnizon taslim bo'ldi va qamoqhonada yotgan mahbuslar istiqloqchilar tomonidan ozod qilindi.

Madaminbek qo'shinlari 13 sentyabrda Eski Marg'ilon shahrini egalladilar. Shu bilan birga vodiydagi eng yirik strategik shahar-Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Afsuski, bir oy davomida Farg'ona vodiysini larzaga keltirgan Madaminbek boshchiligidagi musulmon qo'shinining hujumi pirovard natijada mag'lubiyat bilan tugadi.

1919 yil 22 oktyabrda Pomirning Ergashtom ovulida bo'lgan anjumanda Farg'ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 musulmon va 8 rus, hammasi bo'lib 24 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lishi bilan birga Bosh qo'mondon qilib ham tayinlandi.

1919 yilning kech kuziga kelib Madaminbek qo'l ostida 30 mingga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi istiqloq janglarini olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbekda 20000 yigit, Ergash qo'rboshida 8000 yigit bo'lgan. Aynan ana shu uch lashkarboshi vodiydagi jangovor harakatlarni yo'naltirib turganlar. Madaminbek siyosida sarkardalik, davlat va siyosat arbobiga xos sifatlar o'zaro uyqunlashib ketgan edi. U Farg'ona vodiysidagi istiqloqchilarning haqiqiy ma'nodagi dohiysi, tan olingan yo'lboshchisi edi. Madaminbek vodiydagi sovet hokimiyati organlariga muqobil ravishda o'z siyosiy boshqaruv usulini joriy qildi. Bunday boshqaruv usulini yana Ergash va Shermuhammadbek qo'rboshilargina joriy etgan edilar.

Turkistondagi istiqloqchilik harakati 1920 yilning yozi va kuzida o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Kurash yana ham shafqatsiz va murossasiz tus oldi. Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatidagi vatanparvarlar bilan bir qatorda endilikda Xorazm va Buxorodagi fidoyilar ham bosqinchi qizil armiya jangchilariga qarshi muqaddas kurashga o'tlandilar. Kurash bayrog'ini vodiya Madaminbek o'rniga endi Shermuhammadbek ko'tardi. Farg'ona vodiysidagi butun qo'rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumanida o'zlarining nav-batdagi qurultoylariga to'plandilar. Qurultoy 1920 yil 3 mayda Turkiston muvaqqat hukumatini tuzdi. Ushbu qurultoyda Shermuhammadbek hukumat raisi va islom qo'shinlarining Oliy bosh qo'mondoni qilib saylandi. Bolshevik maddohlardan birining e'tiroficha, «Madaminbek qo'rboshilar o'rtasida eng kuchlisi bo'lgan bo'lsa, Shermuhammadbek shubhasiz, eng xavflisi edi». Turkiston MIK raisi Inog'omjon Xidiraliyevning sal keyinroq yozishicha, «1920 yil sentyabrda bosmachilarning soni 70000 kishiga yetdi va kuchli vahima uyg'otdi».

Turkistondagi istiqloqchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari ham yetarli darajada mavjud bo'lib, ular asosan jadid munavvarlari va islom ulamolari edi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, istiqloqchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qilish borasida jadidlar bilan ulamolar o'rtasida o'zaro raqobat mavjud edi. Namanganlik Nosirxon To'ra Said Kamolxon To'ra o'g'li, toshkentlik muftiy Sadriddinxon Maxsum Sharifxo'ja Qozi o'g'li, Turkiston MIKning sobiq o'rinbosari To'raqul Jonuzoqov, asli boshqirdistonlik Ahmad Zakiy Validiy To'g'on va boshqalar istiqloqchilik harakatining g'oyaviy mafkurachilari edilar. Harakatga rahbarlik qilgan islom ulamolari orasida yassaviylik va naqshbandiylik tariqatlarining pirlari ko'p bo'lgan. 1920-1924 yillarda istiqloqchilik harakati Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oldi. Buxoro Xalq Respublikasidagi harakatning Turkistondagi istiqloqchilik harakatidan farq qiladigan asosiy tomoni shundan iboratki, vatanparvarlar Buxoroda ikki jabhada turib kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Bir tomondan, amirlik tuzumi tarafdorlari bo'lgan mujohidlar, jadidlardan iborat. Buxoro hukumatiga va shuningdek, qizil armiya qo'shinlariga qarshi kurash olib bordilar (Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor va b.). Ikkinchi tomondan, milliy istiqloq g'oyalariga sodiq bo'lgan buxorolik vatanparvarlar Fayzulla Xo'jayev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati bilan yashirin aloqalar o'rnatib, Buxoroning muqaddas tuprog'idan qizil askarlarning olib ketilishi, Buxoro respublikasining mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar (Anvar Posho, Davlatmandbek, Jabborbek, Doniyolbek va b.).

Xorazm Xalq Respublikasida qizil armiyaga qarshi kurashning tepasida Junaidxon turdi. U Xorazmda siyosiy hokimiyat uchun kurash boshlab, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Qisqa muddatda Junaidxon o'z qo'shinini 20000 kishiga yetkazdi. O'zbek hunarmandlari va dehqonlaridan tashkil topgan dastalarga Madraimboy, Sa'dulla bola, Shokir bola va boshqalar rahbarlik qilgan. Junaidxon boshchiligidagi mujohidlar hujumga o'tib, 1920 yil yozida Qo'hna Urganch, Xo'jayli, Ilonli va Taxtani qayta egallashdi, ko'plab qizil askarlarni asirga olishdi. Junaidxon sovet qo'mondonligiga maxsus maktub yuborib, agar qo'shinlar Xorazmdan olib chiqib ketilmasa, asirlarni otib tashlashini bildirdi. Biroq sovet qo'mondonligi Junaidxonning haqli talablarini rad qilgach, u bosqinchilarni otib tashlashga buyurdi.

1924 yilga kelganda istiqloqlar iqtisodiy tanazzul va qashshoqlik, dahshatli ochlik, xalqning og'ir turmushini ko'rmasliklari mumkin emas edi. Tinimsiz davom etgan yetti yillik kurashdan Turkiston xalqlari ham, qo'rboshi va ularning yigitlari ham juda toliqqan edilar. Shuning uchun qasoskorlarning ko'pchiligi 1924 yil davomida qarshilikni to'xtatdilar. Bunga ularning rahbarlari orasida jipslik va umumiy dasturning yo'qligi ham sabab bo'ldi.

Sovet tuzumining milliy rahbar xodimlarga nisbatan qatag'onlik siyosati (20-30 yy.)

1918 yil aprel oyida RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzildi. Bolsheviklarning majburan yon berishi bilan hokimiyat organlarida mahalliy aholi vakillari ishtirok qila boshladilar. 1919 yil sentyabr oyida mahalliy aholining Sovetlarga jalb qilinishiga xalaqit beruvchi, sovet hokimiyatining o'lkadagi tayanchi faqat rus ishchilari deb hisoblaydigan, mahalliy aholiga ishonchsizlik bilan qarovchi Turkistonning bir qator rahbarlariga nisbatan choralar ko'rildi. Shu o'rinda qayd qilish lozimki, o'lkada mustamlakachilik siyosatini olib borishda Markaz tashkil qilgan Turkkommissiya va RKP (b) MK Turkbyurosi, keyinroq uning o'rniga VKP (b) MK ning O'rta Osiyo byurosi kabi tashkilotlar katta xizmat ko'rsatdilar.

Turkistondagi rahbar xodimlar, xususan Turor Risqulov (Turkiston MIK raisi) boshchiligidagi milliy kommunistlar, Turkiston mustaqilligi va uning o'z taqdirini o'zi belgilashdek demokratik tamoyillar uchun kurash boshladilar. 1920 yilda TKP Musulmon byurosining III-konferensiyasi va TKP ning V-o'lka konferensiyasida T. Risqulovning turk xalqlari kommunistik partiyasi tuzish va Turkiston Respublikasini Turk respublikasi deb atash haqidagi G'oyalari ko'rib chig'ildi va ma'qullandi. Biroq bu g'oyalarning asl maqsadi Turkiston mustaqilligi bo'lganligi bois, Markaz T.Risqulov va uning tarafdorlarining fikrlariga qarshi chiqdi. O'z navbatida Markazning Turkistondagi hukmronligining tayanchi Turkkommissiya bu harakatni rad etdi va millat fidoyilarini quvg'inga uchratdi. T. Risqulov o'lkada ulug' davlatchilik shovinizmi, burjua millatchiligi yuzaga kelayotganligi to'g'risidagi masalalarni ko'tarib chiqdilar. F. Xo'jayev partiya ichidagi tog'at qilib bo'lmas holatlarni ko'rsatib o'tdi. Ushbu vatanparvarlarning chiqishlari, keyinchalik ularni jismoniy yo'q qilishda ayblov uchun asos bo'ldi. Turkistonning sotsial - iqtisodiy rivojlanishi borasida bildirilgan muqobil fikr mualliflari millatchilikda ayblandilar. Ayni shu damlarda O'zbekistonning ilg'or, hurfikrli farzandlari «Inog'omovchilik», «18 lar guruhi», «qosimov-chilik» kabi guruhbozlikda va davlatga qarshi - millatchilikda aylanib qatag'on qilindilar. 20-yillarning oxiriga kelib respublikada mustabid tuzum o'zini to'liq namoyon etdi. Siyosiy qatag'onliklar avj oldi.

1929 yilda mashhur jadidchi, ma'rifatparvar Munavvarqori Abrurashidxonov boshliq «Milliy istiqloq» tashkiloti a'zolarini qamoqqa olish boshlandi. Bu tashkilotning qamoqqa olingan 85 a'zosidan 15 tasi otildi, qolganlari axloq tuzatish lagerlariga jo'natildi. «Milliy ittihad» tashkilotining a'zolari ham qatag'on qilindilar. Mashhur jamoat arboblari Mannon Abdullayev (Ramzi), Nosir Saidov, Mahmud Mirxodiyev, Xosel Vasilov, Sobir Qodirov va boshqalar o'lim jazosiga hukm qilindilar, so'ngra bu hukm uzoq muddatli qamoq jazosiga almashtirildi.

1930 yilda Davlat Banki ma'muriyatida o'tkazilgan tozalash vaqtida qator rahbar xodimlar qamoqqa olindilar. O'zbekiston SSR Sudi raisi Sa'dulla Qosimovning «qosimovchilik» deb nomlangan ishini ko'rib chiqish boshlandi. Bu jarayonlarning mohiyati ko'zga ko'ringan siyosiy arboblarni tugatishga qaratilgan edi.

30-yillarning boshi dindor va e'tiqodli kishilarga nisbatan zo'ravonlik siyosiy qatag'onlikning cho'qqisi bo'ldi. Juda katta miqdordagi islom, xristian, budda diniga taalluqli asarlar yo'q qilindi. Bu davrda O'zbekistondagi dindorlar, ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo'natildi. O'tmishda nafaqat diniy rusumlar ado etadigan, balki madaniyat, fan, tarbiya, san'at markazlari, xalqning ko'p asrlik

merosini saqlovchisi bo'lgan machit va madrasalarning deyarli barchasi yopib qo'yildi, ayrimlari buzib tashlandi.

Butun respublikaning hayoti Markazning qattiq nazorati ostiga o'tdi. Partiya direktivalaridan har qanday chekinish aksilinqilobiy, siyosiy muxolifat deb baholandi.

1937 yildan «antisovet», «xalq dushmanlari»ni qidirib topish va jazolash keng tus oldi. Xususan, siyosiy boshqaruv organlarining (OGPU) faoliyati asosan ana shunday «tamg'a» olgan shaxslarni qidirish va tekshirish bilan bog'liq bo'ldi. Masalan, F. Xo'jayev, A. Ikromov, D. Manjara, A. Karimov kabi partiya va davlat rahbarlari hibsga olindilar va otib tashlandilar.

O'zbekiston Ichki Ishlar Xalq Komissarligining «uchliklari» olib borgan faoliyati oqibatida 1939-1953 yillar mobaynida 61799 kishi qamoqqa olingan, ulardan 56112 nafari turli yillarga qamoq jazosiga, qolganlari otishga hukm qilingan. Keyinroq ularning ko'pchiligi oqlandi, ming afsuslar bo'lsinki, ularning aksariyati bu adolatga o'limidan so'ng sazovor bo'ldilar.

1930-50-yillarda ziyolilarning ta'qib qilinishi. Milliy adabiyot va san'atning ahvoli qiyin va nomutanosib holatda edi. Shaxsga sig'inishning rutubatli iqlimiga qaramay ijodiy hayot so'nmadi, yozuvchilar va adabiyotshunoslar qatori kengaydi. 1934 yil martda Toshkentda O'zbekiston yozuvchilarining s'yezdi bo'ldi va unda Respublika Yozuvchilar uyushmasi tashkil qilindi.

O'zbek yozuvchilarining nomlari jahonga keng yoyila boshladi. G'afur G'ulom, Oybek, Hayratiy, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Oydin Sobirova, Usmon Nosir, Komil Yashin va boshqalarning asarlarida xalqning ijtimoiy hayoti va an'analari, mehnat qahramonlari, shijoati kabi xususiyatlar o'z badiiy ifodasini topgan.

Lekin 30-yillarda kuchaygan ma'muriy buyruqbozlik tizimi va shaxsga sig'inish mafkurasi ijod ahlini, qolaversa respublikaning madaniy hayotini bo'g'a boshladi. Ijodni partiyaviylik va yagona mafkuraga bo'ysundirilishi hayotni badiiy tasvirida vulgar-sotsial ko'rinishlarga keng yo'l ochdi. Partiya tomonidan yangi hayotni kuylashga bo'lgan chaqiriq va majburiy cheklashlar ijodiy jarayonda tarixiy o'tmishni bir tomonlama tasvirlashga olib keldi.

Adabiyotda borliqni, murakkab ijtimoiy muammolarni bo'yab ko'rsatish, xato va kamchiliklar haqida sukut saqlash zaruriy shart bo'lib qoldi.

Milliy madaniyat 30-yillarda qattiq fojiga uchradi. Inson haq-huquqlarining poymol qilinishi kuchaydi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Shokir Sulaymon, Ziyo Said, Elbek, Botu, A'zam Ayub, Usmon Nosir, Qosim Sorokin kabi millatning yetuk ziyolilari qatag'on qilindi va xalqimiz ularning asarlarini o'qishdan uzoq vaqt mahrum bo'ldi.

40-yillar oxirlarida fan va madaniyat xodimlarini qatag'on qilishlar davom etdi. VKP (b) MKning 1946 yil «Zvezda» va «Leningrad» jurnallari haqidagi qarorlari qatag'onlar yangi to'lqinining G'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi. Shu paytdan boshlab adabiyot va san'atda ijodiy demokratik rivojlanish uzoq yillar davomida sun'iy ta'qib qilindi, joylarda hurfikrlilik siquvga olindi.

Markazning ko'rsatmalariga asoslanib, respublikaning partiya organlari ijodiy ziyolilarga qarshi kurash olib bordilar. Ularning asarlaridagi milliy g'oyalar ularni ayblash uchun foydalanildi. Yozuvchi va shoirlarning asarlarida o'rta asr va inqilobgacha bo'lgan davrdagi xalq tarixini, madaniyatini badiiy tasvirlash-o'tmishni qo'msash, ideallashtirish deb ayblandi va ularga «millatchi» degan tamg'alar yopishtirildi. Shu qabilda Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda va boshqa o'zbek yozuvchilari qoralandi.

1951 yil avgustda respublika matbuotida «qator shoir va yozuvchilarning ijodida mafkuraviy og'ishlar» mavzusida maqola chop etildi. Unda Turob To'la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, Sobir Abdulla, Habibiy kabi ijodkorlar millatchilikda va panturkchilikda ayblanib, tanqid qilindilar. Shuningdek, Oybek, X.Zarifov, X.Yoqubov, Said Ahmad, I.Sultonov va boshqalar «o'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda turish»da va «jiddiy g'oyaviy xatoliklar»ga yo'l qo'yganlikda ayblandilar.

1951 yilda Maqsud Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, o'ulom Alimov va boshqa bir qator ijodkorlar «antisovet millatchilik faoliyati» da ayblanib qamoqqa olindilar va 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilindilar. Shu yillari jamiyatshunos olimlardan bir guruhi, chunonchi, faylasuf V.Zohidov, iqtisodchi A.Aminovlar panturkizmni tashviqot qilishda va burjua-millatchilikda ayblanib, ta'qib qilindi. Qatag'on qilingan san'at, fan va madaniyat arboblari mustabid tuzum davrida haq-huquqsizlik qurboni bo'ldilar.

Adolat bir qadar qaror topib, shaxsga sig'inish va uning oqibatlarini tuzatish uchun olib borilgan kurashlardan keyin asossiz qatag'on qilingan madaniyat va fan arboblari oqlandilar.

3. Qatag'onlikning yangi to'liqlari. 80-yillarning o'rtalariga kelib atag'onlik va qonundan chekinishlar yana bo'y ko'rsata boshladi. Galdagi qatag'onlik to'liqiga nafaqat ijod ahli, balki xo'jalik xodimlari va davlat arboblari ham tortildi.

O'zbekistonning milliy ziyolilari hech qachon, hattoki mustabid tuzumning «gullab-yashnagan» davrida ham o'zbek xalqining milliy mustaqilligi g'oyalaridan voz kechmadilar. Ochiq kurash imkoni bo'lmaganda ham milliy mustaqillikni qo'lga kiritish uchun zimdan kurash olib bordilar.

O'zbekistonda qonunchilik va huquqiy tartiblarni tiklash, partiya davlat organlarini kadrlar bilan mustahkamlash degan niqoblar bilan Markazdan katta vakolatga ega bo'lgan mas'ul xodimlarning «desant» guruhlari kela boshladi. Ularga partiya, sovet va sud organlaridan muhim ahamiyatga ega bo'lgan lavozimlar berildi. Uydirma, to'qib chiqarilgan «paxta ishi» va «o'zbeklar ishi» deb ishlarga siyosiy tus berildi. Oqibatda go'yoki butun O'zbekiston jinoyatchilar makoniga aylanib qolgandek tasavvur uyg'otishga harakat qilindi. Ittifoqning Gdlyan va Ivanov boshliq emissarlar guruhi respublikadagi turli sohalarda ishlayotgan bir necha minglab rahbar xodimlarni tergov jarayoniga tortdilar.

Ularga poraxo'rlik, ko'zbo'yamachilik va jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlaridagi aybnomalar qo'yildi. Mahbuslarni «o'z aybiga iqror qilish» uchun jismoniy zo'ravonliklar, ruhiy azoblar qo'llanildi. O'zbekiston Kompartiyasi MK ning sobiq birinchi kotibi Sh.R.Rashidov nomiga ham nohaq tuhmatlar qilindi, o'zbek xalqining milliy g'ururi toptaldi. Bunda O'zbekiston SSRning o'sha davrdagi qo'g'irchoq rahbarlarining mash'um hissasi bo'ldi.

Ommaviy qamoqqa olishlar avj oldi, qiynoqlarga ko'plab halol, sof vijdonli kishilar ham tortildi. Qo'shib yozishlar, ko'zbo'yamachilik va poraxo'rlik kabi illatlar sotsialistik jamiyatda tabiiy holat bo'lib, o'sha paytdagi barcha respublikalarda mavjud hodisa edi. O'zbekistonga nisbatan «paxta ishi» oldindan, maxsus tayyorlangan uzoqni mo'ljallab tashkil qilingan siyosiy fitnadan boshqa hech narsa emasdi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng «paxta ishi» qayta ko'rib chig'ildi va minglab begunoh kishilar oqlandilar. O'z navbatida O'zbekistonning mohir, taniqli davlat va jamoat arbobi Sh.R.Rashidovning pok nomi tiklandi. Shuningdek, mehnatkash o'zbek xalqining yuzi yorug' ekanligi asoslandi. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning tashabbusi bilan 2000 yil 12 mayda Toshkent shahrida Yunusobod mavzesida mustabid sovet rejimi davrida qatag'on qilingan shahidlar xotirasiga bag'ishlab o'rnatilgan yodgorlik majmuining ochilishi bugungi minnatdor avlodning ajdodlarimiz oldidagi chuqur ehtiromi ramzidir.

20-30-yillar O'zbekiston iqtisodi va uning Markazga qaramligi. 20-yillarning boshlarida joriy etilgan yangi iqtisodiy siyosat O'zbekistonning ham iqtisodiyotida jonlanishga olib keldi. Lekin 20-yillarning oxirida bu siyosat o'zining mohiyatini yo'qota boshladi va 1929 yilda batamom bekor qilindi. Erkin savdo, xususiy tadbirkorlikka chek qo'yildi. Qishloq xo'jalik maxsulotlarining xarid narxi tushirilishi oziq-ovqat muammosini keltirib chiqardi, dehqonlar qashshoqlashdi.

O'zbekistonda sovet hokimiyatini mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida industriyalashtirish siyosatini amalga oshirish boshlandi. Sanoati qoloq, malakali ishchi kadrlari, mutaxassisleri deyarli yo'q, og'ir sanoatni rivojlantirish tajribasi yo'q o'lkada industriyalashtirish og'ir kechdi. Shu bahona malakali ishchilar, muhandis-texnik xodimlarni Rossiyaning markaziy hududlaridan ko'chirib keltirildi. Faqat 1931 yilning o'zida ko'chirib keltirilganlar 15.000 nafarni tashkil qildi. Oqibatda 1926-1939 yillari O'zbekiston aholisi 37 foizga ko'paygan bo'lsa, yevropaliklar soni 62 foizga oshdi.

Industriyalashtirishning dastlabki paytida kichik suv elektrostansiyalari hamda qishloq xo'jaligiga, paxtachilikka qaratilgan xom-ashyoni qayta ishlash korxonalari qurilib ishga tushirildi. Chirchiqdagi GESlar, Toshkent tikuvchilik, poyafzal, tamaki, Farg'ona to'qimachilik, Samarqand va Marg'ilondagi ipak fabrikalari shular jumlasidandir. 30-yillarda Toshkent to'qimachilik kombinati, qishloq xo'jalik mashinasozlik zavodi, Chirchiq ximiya kombinati va boshqa ko'plab yirik korxonalar ishga tushirildi. 30-yillar oxirida respublikada 1445 ta har xil sanoat korxonalari mavjud bo'lib, bularda 142 ming ishchi mehnat qilar edi.

Sovetlarning «o'z kuchimiz bilan qisqa muddatda» deb olib borgan industriyalashtirish siyosati O'zbekiston uchun g'oyat og'ir kechdi. Markaz respublikamizning yer osti va yer usti qazilma boyliklari,

xom-ashyo manbalarini talon-taroj qilib, arzon ishchi kuchidan foydalanib, o'lkadan mumkin qadar ko'proq foyda olish harakatida bo'ldi. Bu siyosat ayniqsa millionlab dehqonlar hisobidan amalga oshirildi. Chunki qishloqda zo'rlik bilan olib borilgan jamoalashtirish siyosati g'arazli maqsad uchun juda ham qo'l keldi.

1930 yilning boshlaridan yoppasiga jamoalashtirish harakati boshlanib, katta yer egalari, o'rta hol dehqonlar va kambag'allarning yerlari jamoa xo'jaliklariga birlashtirildi, ularning qo'llaridagi ot-ulov, mehnat vositalari, chorva mollari ham majburiy umumlashtirildi. Davlat, jamoa xo'jaliklari orqali rejalashtirilgan yo'l bilan mehnatkash dehqonlar oladigan hosilning deyarli barchasini yig'ib oladigan bo'ldi. Buning natijasida dehqonlar xo'jaligi xonavayron bo'ldi. 30-yillar boshlarida yuz bergan ocharchilik, uning oqibatida minglab kishilarning qirilib ketishi, aholining haligacha qishloq xo'jalik mahsulotlariga yolchimay kelishi-o'sha davr ko'r ko'rona siyosatining natijasi bo'ldi. Ommaviy jamoalashtirishga suyanib, badavlat xo'jaliklar, ayrim o'rtahol dehqonlardan 5,5 mingdan ortig'i o'z oilasi bilan uzoq o'lkalarga surgun qilindi. Bu bilan sovet davlati qishloq aholisining bosh ko'tarishga qodir, vaziyatni tushunadigan qismini yo'q qilib, talonchilik siyosatini osonlashtirdi.

O'z-o'zidan ravshanki, jamoalashtirish siyosati natijasida qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi pasayib, moddiy manfaatdorlik yo'qoldi, qishloq aholisi qashshoqlashdi, dehqonni ekspluatatsiya qilishning birdan-bir takomillashgan uslubi kashf etildi.

Hatto xalqimizning qadim an'anasi hashar ham ekspluatatsiya quroliga aylantirildi. 1939 yilda qazilgan Katta Farg'ona kanali bir tomondan, xalqimizning mehnat jasorati, ikkinchi tomondan xalqni ezishning sovetcha ko'rinishi bo'lgan desak xato qilmaymiz. O'zbekistonda paxta yakkahokimligini kuchaytirish yo'li bilan SSSR paxta mustaqilligiga erishdi.

1941 yil 22 iyun kuni gitlerchilar Germaniyasining SSSRga to'satdan qilgan hujumi o'zbek xalqining ham tinchini buzib, qalbini nafratga to'ldirdi. O'tkazilgan miting va yig'ilishlarda ariza bergan ko'ngillilar soni dastlabki oylardayoq 32 mingdan ko'proqni tashkil etdi.

Front orqasini mustahkamlash, xalq xo'jaligini qayta qurib, harbiy izga tushirish mamlakatni yagona harbiy lagerga aylantirishga doir umumiy dasturning eng muhim tarkibiy qismi bo'ldi. Bu dasturni amalga oshirishda O'zbekiston qizil Armiyaning front orqasidagi mustahkam bazasiga aylandi. O'zbekiston g'arbdan keltirilgan 100tadan ortiq korxonalarni qabul qilib oldi va bu zavodlar xalqimizning fidokorona mehnati bilan qisqa vaqt ichida mahsulot bera boshladi. «Rostselmash», «Красный Аксоy», «Moskva», «Pod'yemnik» va «Elektrostanok» zavodlari shular jumlasidandir. «Tashsel-mash» zavodi, Chirchiq elektrokimyo zavodi va boshqa respublika sanoati korxonalari ham front ehtiyoji uchun ishlay boshladi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari aholisi va moddiy resurslarini safarbar qilish va jangovar tayyor holga keltirishda O'rta Osiyo harbiy okrugi muhim rol o'ynadi. Bir yarim yil ichida bu okrug 110 qo'shilma tuzdi. O'zbekiston mehnatkashlari milliy harbiy qo'shilma tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. 1941 yil noyabridan 1942 yil martigacha O'zbekistonda 14 ta milliy brigada, jumladan, 9 ta alohida o'qchi brigada, 5ta otliq diviziya tuzildi. Urush yillarida bir million to'rt yuz ming o'zbekistonliklar frontlarda jang qildilar. Ulardan to'rt yuz ellik ming kishi qaytib kelmagan. Urushning dastlabki kunlarida Respublika mudofaa fondiga 30 mln. so'm miqdorida pul to'plandi. Qisqa vaqt ichida O'zbekiston xalq xo'jaligi harbiy izga o'tkazildi. Butun xalq, jamiyki moddiy resurslar vatan himoyasiga sarf qilindi.

Sobir Rahimov, Mamadali Topivoldiyev, R. Abzalov, O. Rahimov, Xalloq Aminov, Qo'chg'or Turdiyev, Nazar Rajabov kabi o'zbekistonliklar jangovor jasoratlari uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan bo'lsalar, butun O'zbekiston ahli xalq xo'jaligi mehnat frontida yuksak jasorat namunalarini ko'rsatdilar. 280 dan ortiq o'zbekistonliklar frontdagi jasoratlari uchun Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, minglab jangchilarimiz esa urush yillari ta'sis etilgan orden va medallarga o'z jasurliklari sababli sazovor bo'ldilar.

Mamlakatning turli rayonlaridan ko'chirib keltirilgan aholini O'zbekistonda hurmat-e'tibor va Qamxo'rlik bilan kutib olindi. Bu yerga bir millionga yaqin odam, jumladan, 200.000 bola ko'chirib keltirildi. O'zbekistonda ular boshpana va mehr topishdi. Ularga 135 ming kvadrat metr dan ko'proq turar joy berildi, ularni ishga joylashtirish yuzasidan doimiy ish olib borildi. O'zbekiston aholisi o'zining so'nggi burda nonini, kiyim-kechagini, turar joyini ko'chib kelganlar bilan birgalikda baham ko'rdi. 15 nafar yetim bolani farzandlikka olgan Shomahmudovlar oilasining nomi butun jahonga ma'lum. Bu

xalqlar do'stligining buyuk namunasi bo'lib, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirsa-da, bu yillarda milliy siyosatda kechirib bo'lmaydigan xatolarga ham yo'l qo'yildi. 1943-44 yillarda qalmiqlar, qrim tatarlar, chechenlar, ingushlar, nemislar, Qorachoylar, mesxeti turklari o'zlarining tarixiy vatani va doimiy joylaridan mamlakatning sharqiy rayonlariga ko'chirib yuborildi. O'zbekistonga 15 mingdan ortiq qrim tatarlar, 175 ming chechenlar, 157 ming ingushlar va boshqa xalqlar ko'chirib keltirildi. Urush yillarida va undan keyin omon qolgan harbiy asirlarning ham ahvoli og'ir kechdi.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimining urush yillaridagi xunuk ko'rinishlaridan biri «talafotlar bilan hisoblashib o'tirmay, har qanday qilib bo'lsa ham harbiy maqsadlarga erishish zarur» degan prinsip bo'ldi. Halaba nihoyatda qimmatga tushdi. Sovet kishilarining 27 millionga yaqin nafari urushning alangayu otashida halok bo'ldi. 18 milliondan ortiqroq jangchilar yarador bo'ldilar. Ularning ko'pchiligi mehnat qobi-liyatlarini yo'qotib, nogiron bo'lib qolishdi.

Yurtboshimiz aytib o'tganlaridek, bu urush kimlar tomonidan qanday maqsadlarda, qayerlarda bo'lib o'tganligidan qat'i nazar, unda o'zbekistonliklar qatnashib, o'z oilasi, bola-chaqasi, ota-onasi, muborak zaminni himoya qildilar. Ularning jasorati esa hech qachon unutilmaydi.

50-80-yillarda O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot.

Ikkinchi jahon urushi yillari davrida izdan chiqqan O'zbekistonning iqtisodiyoti urushdan keyingi 1946-1950 yillari g'oyat keskinlashgan xalqaro vaziyatda qayta tiklana boshladi. Mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini g'oyat kuchli ekspluatatsiya qilish evaziga, xorijiy sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash xalq boshiga og'ir kunlarni keltirdi. O'zbekiston xalq xo'jaligini tiklash ishlari sovet hukumatining zo'r berib kurollanish siyosatiga buyundirildi. Ayni bir vaqtda o'zbek xalqi urushda vayron bo'lgan o'lkalarni tiklashga ham o'z hissasini qo'shdi. Urush davrining shart-sharoitlari saqlangan holda xalqning mardona va fidokorona mehnati bilan besh yil ichida sanoat mahsulotini ishlab chiqarish urushdan avvalgi darajaga yetib, deyarli ikki marta oshib ketdi.

Urushdan keyingi yillarda qishloq xo'jaligini, ayniqsa chorvachilikni tiklash ishlari ancha og'ir o'tdi. 1945 yil 15 iyuldagi Markaziy hukumatning «O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish choralari to'g'risida»gi qarori asosida paxta yakkahokimligi kuchaytirildi va O'zbekistonning markazga bog'liqligi yana ham mustahkamlandi. Ob-havoning injiqligiga, tiklash ishlarining qiyinchiliklariga qaramasdan, 1950 yilgi tayyorlangan paxta 2.200.000 tonnaga yetdi.

50-60-yillarda sanoat va qishloq xo'jaligini boshqarish tizimiga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Jumladan, 1954-1956 yillari ittifoq miqyosidagi bir qator yirik korxonalar respublika ixtiyoriga o'tkazildi. Natijada sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning salmoqi 31 foizdan 55 foizga ko'tarildi. Xo'jalikni boshqarishda iqtisodiy omillarga suyanish, mehnat manfaatdorligini oshirish va boshqa tadbirlar o'z samarasini bermadi, chunki jamiyatda tub islohotlar o'tkazilmagan edi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ekstensiv yo'l bilan, ya'ni tabiiy boyliklardan o'rinsiz, hisobsiz foydalanish, butun xalqning mehnatini haddan ortiq ekspluatatsiya qilish hisobiga 60-70-yillarda sanoatning yangi sohalari vujudga keldi.

O'zbekistonda oltin, uran, rangli metallar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yila boshlandi. Energetika, kimyo sanoati rivojlandi. Sanoatning rivojlanishi natijasida yangi shaharlar: Navoiy, Uchquduk, Zarafshon, Zafarobod, Nurobod kabilar qad ko'tardi. Lekin mustamlaka holatidagi respublikaning rivojlanayotgan iqtisodidan boshqalar ko'proq manfaatdor edilar. So'nggi hisob-kitoblarga qaraganda bevosita Ittifoq ministrliklariga bo'ysundirilgan faqat oltin va uranning o'zidan 15 milliard amerika dollariga teng boylik Markazga olib ketilgan. O'zbekistonning aksariyat shahar, qishloqlari gazlashtirilmagan holda respublikada qazib chiqarilgan tabiiy gaz Rossiyaning sanoat markazlariga yetkazib berildi.

50-60-yillari O'zbekistonda paxta maydonini yanada kengaytirish maqsadida qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish ishlari olib borilib, 1945-1985 yillari qariyb 2.400.000 gektar yangi yerlar o'zlashtirildi. Sug'orish ishlarini yaxshilash uchun sun'iy suv omborlari qurildi. Qishloq xo'jaligi uchun traktor, paxta terish mashinasi va boshqa texnika uskunlari tayyorlab berildi. Paxtachilikning moddiy texnika bazasini mustahkamlash bilan birga paxta hosildorligini oshirish uchun kimyoviy moddalardan cheksiz foydalanildi. Ko'rilgan tadbirlar natijasida 1970 yili respublikada paxta maydoni 1.700.000 gektarni tashkil qildi, yalpi hosil 4.495.000 tonnaga yetdi.

Yirik sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan Respublikaning Ittifoqqa bog'lanishi yana ham kuchaydi. Birinchi Prezident I.A. Karimov: «... u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga - Markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi», deydi.

1985 yilning bahorida qishloq xo'jaligini boshqaruv tizimiga o'zgartirish kiritilib, mehnatni tashkil etishning brigada yoki oila pudrati, ijara singari yangi shakllari joriy etildi. Lekin markazda ma'muriy buyruqbozlik boshqaruv tartibi saqlangan holda ko'rilgan tadbirlar, qayta qurishlar natija bermadi. Jamiyatda, xususan iqtisodiyotda inqirozli holatlar kuchaya bordi. Qayta qurish deb boshlangan qurug' kompaniya Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ta'biri bilan aytganda, «hamma yoqni buzib, baqir-chaqir, o'Qrilik, qotillikni kuchaytirdi».

XII besh yillik vazifalari ilgarigi uch besh yilliklardagi kabi bajarilmay qoldi. O'zbekistonda milliy daromadning o'sishi 80-yillar birinchi yarmida o'rta hisobda 3,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchi yarmida bu ko'rsatgich 2,2 foizni tashkil qildi.

Paxta ekin maydonlarining o'rinsiz kengaytirilishi va agrotexnika qoidalarining buzilishi tufayli yerning hosildorligi pasayib ketdi. O'sildorlikni oshirish uchun ekin maydonlarida haddan tashqari ortiqcha mineral o'g'itlaridan foydalanish oqibatida bu yerlar ma'lum bir vaqtdan keyin batamom yaroqsiz holga kelib qoldi. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, O'rta Osiyoning yirik daryolari suvlaridan nazoratsiz foydalanish, o'lkada o'rinsiz ravishda sun'iy suv havzalarining qurilishi natijasida Orol dengizi asta-sekin quriy boshladi va XX asrning eng yirik Orol fojiasi vujudga keldi.

O'zbekistonning iqtisodiy ahvolidagi noxush holatlarning ijtimoiy oqibatlari nihoyatda og'ir bo'ldi. O'lkaning o'ziga xos demografik holati hisobga olinmasdan davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratiladigan mablag' qoldiq prinsipiga asoslanib yildan-yilga qisqarib bordi. Ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish masalalarida miqdoriy o'sishlar ko'zga tashlanganligi bilan, aslida bular inson talabini qondirmas edi. Respublika bu sohalardagi ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi 15 respublika o'rtasida 13-14 o'rinlarda turdi.

80-yillarda fan, madaniyat va xalq ta'limiga ajratilgan xarajatlar davlat byudjetining atigi 2,7 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1989 yili Yevropa mamlakatlarida 5,5 foizni, Afrika mamlakatlarida 5,4 foizni tashkil qilgan. Bolalar o'limi, oshqozon-ichak va yuqumli kasalliklar bo'yicha O'zbekiston SSSR da birinchilar qatorini egalladi. Aholining o'rtacha yoshi 1970 yil 72 yosh bo'lsa, 1980 yili bu ko'rsatkich 67,7 yoshni tashkil qildi. Bunga asosiy sabab ekologik vaziyatning keskinlashuvi bo'ldi. Jafokash o'zbek xalqining turmush darajasi achinarli ahvolda bo'lib, boshqa respublikalar bilan qiyoslaganda oxirgi o'rinlarda edi. Bundan boshqacha bo'lishi mumkin ham emas edi. Davlat bosh ekspluatator rolini bajargan sotsialistik tizimda mehnat ahli o'z kuchi bilan yaratgan mahsulotning atigi 25-30 foizi hajmidagina haq oldi. Sovet Ittifoqining sanoat rivojlanishiga, yadro qurollarini ishlab chiqarish, koinotni o'zlashtirishdagi yutuqlariga katta hissa qo'shgan O'zbekistonning million tonnalab paxtasi, ming tonnalab oltin, kumush, uranlari uchun Markaz u bilan nohaq, surbetlarcha, adolatsiz hisob-kitob qildi. O'sha davrning mehnat ilg'orlari sovet tizimidagi sotsial siyosatning og'ir oqibatlarini hali ham ko'rishyapti.

«Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat»ning oqibatlari. Totalitar tizim jarayonida o'lkadagi madaniy-ma'rifiy ishlar e'tibordan chetda qolmadi. 20-30-yillarda savodsizlikni tugatish, ta'lim-tarbiya ishlari astoydil qo'lga olindi. 1941 yili O'zbekistonda 5.504 maktab bo'lib, ularda 42.000 o'g'ituvchilar dars berdi, 1 mln. 315 ming o'quvchi ta'lim oldi. Sanoat ishlab chiqarishining ishchi kadrlarga talabini qondirish uchun fabrika, zavodlar qoshida maxsus o'quv yurtlari ochildi.

O'rta Osiyoda oliy ta'limning beshigi, hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti bir qancha oliy o'quv yurtlariga asos bo'ldi, 1940 yili respublikada 30 ta oliy, 100ga yaqin o'rta maxsus o'quv yurtlari ishlab turdi.

1943 yilda tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi va uning ilmiy tekshirish institutlarida fanning turli sohalari: ayniqsa kimyo, fizika, elektronika, tarix, arxeologiya va boshqa fanlar rivojlandi.

20-30-yillarda adabiyot va san'at sohasida jahonga mashhur yozuvchilar va shoirlar yetishib chiqdi. Teatr va kino san'ati o'zining dastlabki qadamlarini qo'ydi. Madaniy-oqartuv muassasalarining soni ortib bordi.

Achinarlisi shundaki, respublikada ta'lim-tarbiya, madaniy-ma'rifiy ishlar «Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» shiori ostida olib borildiki, asl maqsad «baynalmilalchilik» niqobi bilan pardalanib, o'lkaga rus madaniyatini, ularning turmush tarzini tarqatishdan iborat bo'ldi. 1929 yil 19 martda O'zbekiston rahbariyati milliy maktablarda majburan rus tilini o'g'itish to'g'risida qaror qabul qildi. O'qishlar va idoralarda ish yuritishlar 1929 yildan boshlab lotin, 1940 yildan boshlab kirill alifbosida olib boriladigan bo'ldi. Bularning oqibatida ko'p asrlar davomida arab alifbosida yaratilgan tariximiz, madaniyatimizni o'rganishdan respublikaning tub aholisi mahrum bo'ldi. 1927 yili o'tkazilgan «Hujum» harakati oqibatida o'zbek xotin-qizlari jahon taraqqiyotiga tortilgan holda, ikkinchi tomondan, ular industriyalashtirish girdobiga keng jalb qilinib, o'zlarining tabiiy burchlarini bajarish hamda sharqona fazilatlaridan mahrum bo'ldilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar kompartiyaning g'oyalarini, sotsialistik mafkurani omma o'rtasida keng tarqatish yuzasidan faol ishlar olib bordi.

Fashizmga qarshi urush yillari izdan chiqqan ta'lim-tarbiya ishlari, madaniy-oqartuv muassasalari urushdan keyingi yillarda qayta tiklandi va kengaytirildi. 1970 yili respublikada 2977 ta klub muassasalari, 5822 ta kutubxonalar, 26 ta muzey, 3988 ta kinoqurilmalar ishlab turdi. Lekin, amalda bu muassasalarning bir qismi statistik axborotlarda oshirib ko'rsatilgan, boshqa qismi har xil sabablarga ko'ra qoniqarsiz bo'lib, moliyaviy yordamga muhtoj, ayniqsa, qishloq joylarda tashlandiq ahvolda edi. Qanday bo'lmasin bu muassasalar marksizm-leninizm soxta g'oyalarini, sotsialistik qurilish amaliyotini tashviqot-targ'ibot qilishning quroli bo'lib xizmat qildi. Urushdan keyin majburiy 7 yillik, 1959 yildan 8 yillik, 1970 yildan boshlab 10 yillik ta'lim amalga oshirila boshlanadi. 1980 yillarda o'rta va oliy ta'lim tarmoqlari kengayib bordi. 1990 yil O'zbekistonda maktablar soni 9.000 ga yetdi, lekin ulardan 1.700 tasi vayrona ahvolda bo'lib, kapital ta'mirlashni talab qilar edi. 1978-79-o'quv yilida respublikada 43 ta oliy o'quv yurti bo'lib, bularning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlarida 26.000 talabalar o'qidi. Respublika Fanlar Akademiyasida ilmiy-tadqiqot institutlarining qatori kengayib, ularda yirik olimlar ilmiy izlanish ishlarini olib bordilar.

Talabalar, oliy ma'lumotli mutaxassislar, ilmiy xodimlarning soni jihatdan 10.000 kishiga hisoblaganda O'zbekiston ilg'or mamlakatlar qatorida tursa ham kadrlar tayyorlash tizimida qo'pol nuqsonlar bor edi. Oliy o'quv yurtlariga viloyatlardan qat'iyana reja asosida qabul qilish: qanday o'qimasin, ularni bitirtirib chiqarish natijasida ko'pincha malakasi yetarli bo'lmagan mutaxassislarga diplom berishga to'g'ri keldi.

Ta'lim-tarbiya, ilmiy-tadqiqot ishlarining miqdoriy ko'rsatkichlari qanchalik Yuqori bo'lmasin, ular Markazga qaramligi sababli o'zlarining ish faoliyatida kompartiya mafkuraviy tazyiqidan chetga chiqolmadilar. O'quv dasturlari, ayniqsa ijtimoiy fanlar haddan tashqari siyosatlashtirildi. O'tmishda dunyoga mashhur bo'lgan, jahon fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimiz nomi esga olinmadi, millatimizning boy tarixi va adabiyoti o'g'itilmadi. Chunki, maktab, oliy ta'lim tizimining asl maqsadi O'zbekiston misolida butun jahonga sovet davlati milliy siyosatining tantanasini ko'rsatishdan boshqa hech narsa emas edi. Bu tizim respublikaning Markazga qaramligini yana ham kuchaytirdi.

Markazning baynalmilalchilik siyosati aslida mamlakatda istiqomat qiluvchi 120 dan ortiq millatlar va elatlardan yagona sovet xalqini shakllantirish siyosatini ro'yobga chiqarish uchun jadal ishlarni olib bordi. Shu maqsadda rus tilini hayotga kiritish faollashdi. 1969 yildan boshlab O'zbekistonning barcha bolalar bog'chalarida rus tilini o'rgatish boshlandiki, butun harakat yagona baynalmilal til yaratishga qaratildi. Bunday siyosatning oqibatida o'zbek tilining jamiyatdagi o'rni, milliy, diniy qadriyatlarini yo'qola bordi.

11-mavzu. O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida (1989-1991 yy.)

Reja:

1. I.A.Karimovning O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi birinchi kotibi etib saylanishi.
2. «Qayta qurish»ning barham topishi va tarixiy adolatning tiklanishi. «Davlat tili haqida»gi Qonun.
3. Birinchi Prezident I.A.Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asarida sovet davrining so'ngi yillari inqirozi masalalarining aks ettirilishi.
4. Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati.
5. 1991 yil avgust voqealari. SSSRning tanazzulga yuz tutishi.

O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida (1989-1991 yy.)

Ma'lumki «qayta qurish» yillarida respublika aholisining asosiy qismini tashkil etgan dehqonlarning hayoti yanada yomonlashdi. Natijada qishloqlarda va bunga monand ravishda shaharlarda hayot juda og'irlashib ketdi. Bundan holi bo'lishning yagona yo'li yerga nisbatan bo'lgan siyosatni o'zgartirishdan iborat edi. Shu bois Islom Karimov partiyaning agrar siyosatiga qarshi o'laroq dehqonlarni yer bilan ta'minlashni boshlab yubordi. Vaholanki barcha yer va suvlar davlatniki hisoblanib faqat markazning ruxsati ila unga munosabatni o'zgartirish mumkin edi.

«Avvalo, - deb yozadi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoyalash borasida aniq ishlar qilish lozim. Biz 1989 yilni iyulidan beri ta'minlab kelayotgan barqarorlik esa ushshg kafolatidir. O'shanda, 1989 yilda dahshatli davr edi. O'sha paytda biz qilgan birinchi ish shu bo'ldiki, odamlarga yer bera boshladik. Men janob Gorbachevning davlat kengashi majlisidaga so'zlarni eslayman... Unga tan berish kerak, gapirishni biladi, ammo boshlagan nutqini nima bilan tugatishni hamisha ham tushunib bo'lmaydi. Mana bunga qaranglar, degan edi u meni ko'rsatib, hozir uni boshi shuhratga cho'lg'anib turibdi, u yer bera boshladi, endi uni ilohiylashtirishadi... Biz qat'iy turib tartib o'rnatdik - yerga muhtoj bo'lgan va, albatta, dehqonchilik qo'lidan keladigan, yerdan mo'l hosil ola biladigan har bir kishiga chorak gektar yer berdik. Kolxozsovxoz sharoitida bu jarayon yengil ko'chmadi».

Ko'rinib turibdiki, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov markazning noroziligiga qaramay mustaqil iqtisodiy siyosatga qaratilgan dastlabki qadamni tashlagan. Hech kimga sir emaski, paxta o'zbek xalqining kundalik hayoti va taqdirini hal etuvchi muhim omillardan biridir. Tinimsiz va mashaqqatli mehnat evaziga yetishtirilgan paxta juda arzon narxda majburan davlatga topshirilgan. Mehnatiga yarasha haq ololmagan dehqonlar hamisha yetishmovchilik va muhtojlikda hayot kechirgan. Islom Karimov buni yaxshi anglagan holda paxta narxini oshirish masalasini ochiqdanochiq talab qildi. Xususan, u respublika kompartiyasi Markaziy qo'mitasining 1989 yil 19 avgustda bo'lib o'tgan XVI plenumida shunday degan: «Biz 1990 yil plani loyihasi bilan Ittifoq organlariga ikki marta uchrashdik. KPSS Markaziy Komiteti, mamlakat ministrlar Soveti va Gosplani rahbariyati bilan uchrashdik. Butun mas'uliyatni zimmamga olib, shuni ayta olamanki, paxta narxi masalasi yaqin oylar ichida kurib chiqiladi. Bu muammoni hal qilishimiz uchun hisobkitoblarga ko'ra, kamida bir yarim milliard sum talab qilinadi...

Hozir, ochig'ini aytish kerak... Moskvada o'rta qo'ygan masalalarni hal qilish qiyin bo'lyapti. Biz rahbarlar bu masalalarni qat'iyat bilan, bilimdonlik bilan o'rta qo'yishimiz, ularning hal etilishiga izchillik bilan erishishimiz har qanday holda ham aybni birovlariga tunkamay va birovlarining orqasiga yashirinmay, mas'uliyatni o'z zimmamizga olishimiz kerak». Sirdan qaraganda paxtani narxini oshirish shunchaki bir oldiy iqtisodiy masala bo'lib ko'rinishi mumkin. Ammo, uning zaminida juda muhim siyosiy masala yetibdi. Chunonchi paxtani arzon narhsa davlatga topshirilishi nafaqat kundalik turmushga, balki respublikaning ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda edi. Narxni oshirishga erishish sovet davlatining mustamlakachilik siyosatiga zarba berilishiga olib kelardi. Shubhasiz, ochko'zlik va to'ymaslikda nom chiqargan sovet davlatining paxta narxini oshirishga rozilik bildirishi juda qiyin edi. Shunga qaramay Islom Karimovning hukumatning siyosatiga qarshi bosh ko'tarishi vatanparvarlikning yorqin namunalariidan biridir.

1989 yil 29 oktabrda o'zbek tilini Davlat tili sifatida qonunlashtirilishi ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bu tarixiy hujjatning ahamiyati shu darajada kattaki, ta'riflashga qalam ojizlik qiladi. Shuni unutmaslik kerakki, ona tilining Davlat tili bo'lishi xalqning milliyligi va taqdirini kafolatlaydi hamda u mustaqillikning eng muhim belgilaridandir.

1990 yil 20 iyunda O‘zbekistonda «Mustaqillik deklarasiyasi» e‘lon qilinishi katta ahamiyat kasb etdi. U qizil imperiyani qattiq larzaga va tashvishga soldi. Chunki demokratiyada O‘zbekiston Ittifoq tarkibida suveren va teng huquqli mamlakat deb e‘lon qilinib, o‘z davlat belgilari (gerb, bayroq va madhiya)ni ta‘sis etish va yangi konstitusiyani ishlab chiqish vazifasi quyildi.

Respublikada mustaqil iqtisodiy siyosatni ta‘minlashga qaratilgan choralarni ko‘rish davom etdi. Chunonchi, 1990 yil 30 oktabrda O‘zbekiston mulkchilikning hamma shakllari uchun teng sharoitni ta‘minlashga qaratilgan qonun qabul qilindi. Respublika Oliy Kengashi 1991 yil 14 iyunda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar» to‘g‘risidagi qonuni ma‘naviy hayotda tub o‘zgarishlarni yasadi. Ma‘lumki yuz yillar davomida kipshlarning e‘tiqodi, hurmatini qozonib kelgan islom dini taqiqlanib «dinsiz jamiyat» bunyod etildi. Bu ma‘naviy qashshoqlikni yuzaga keltirib taraqqiyotga salbiy ta‘sir etdi. Shu bois o‘sha qonunning qabul qilinishi xalq tomonidan zo‘r xursandchilik va mamnuniyat bilan qabul qilindi. «Ushbu qonun, - deyiladi unda, - fuqarolarning dinga o‘z munosabatini ixtiyoriy ravishda belgilash va ifodalash, hech qanday to‘sqinliksiz, dinga e‘tiqod qilish va diniy rasmlarini bajarish huquqlarini ta‘minlaydi». Shu tariqa sovet davrida oyoqosti qilingan va quvg‘inga solingan dinning barcha xillariga jon kirgizildi. 1991 yil 22 iyunda sanoat korxonalarini, tashkilotlarni va muassasalarni O‘zbekiston ixtiyoriga o‘tkazish xususida qonun chiqarildi. Asrimizning 80-yillarida qizil imperiya ichichidan chirib, inqirozni boshidan kechirmoqda edi. Uning belgilari 60yillardayoq boshlanib qanchalik vaqtlarning o‘tishi bilan shunchalik ko‘p chuqurlashib bordi. «80-yillarda, - deb yozadi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, - iqtisodiy inqirozning kuchayib borish sabablarini ochish, uni bartaraf etish yo‘llarini topish borasidagi o‘rinlar ham muvaffaqiyatsizlikkauchradi. Ishlab chiqarish sur‘atlarining pasayishi sabablari rivojlanishning ekstensiv omillari tugaganligidadir, deb yuzaki tushunilganligi ustuvor tarmoqlarni alohida ajratmasdan, xalq xo‘jaligining barcha sohalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish to‘grisida noto‘g‘ri qaror qabul qilinishiga sabab bo‘ldi. Bu hol, pirovard natijada, cheklangan mablag‘larning parokanda bo‘lib ketishiga, moliya va ta‘minot tizimining batamom izdan chiqishiga olib keldi, inqirozni chuqurlashtirdi, qayta qurish siyosati davrida iqtisodiyetda juda kuchli bo‘zilishlar ruy berdi».¹ Shu tariqa «sotsializm» tuzumi o‘zining g‘ayritabiyligi va samarasizligini namoyish etib, mamlakatni halokat yoqasiga keltirdi. Odatdagidek kompartiya qatag‘onlar o‘tkazish yo‘li bilan chetdan «aybdorlar»ni topib va xalqni chalg‘itib inqirozni xaspo‘shlash va niqoblashga o‘tdi. Ma‘lumki 30yillardagi ocharchilik va umuman inqirozning sabablari «xalq dushman»lari va «imperialistlarning ayg‘oqchilari»ga to‘nkali, ommaviy qatag‘onlar vahshiylarcha o‘tkazilgan. Qayta qurish yillarida ham xuddi mana shunday siyosat qaytarildi, chunonchi O‘zbekistonda «paxta ishi» yoki «o‘zbek ishi» nomida qatag‘on o‘tkazildi. Bu yerda shuni hisobga olish kerakki, «o‘zbek ishi» aslida niqoblangan siyosiy kurash bo‘lib, maqsad mustamlakachilik va ulug‘millatchilik siyosatini yanada avjiga mindirish, xalqni og‘ir ahvoldan chalg‘itishdan iborat edi. Bu siyosiy nayrangning iqtisodiy tomoni ham bor edi. Markazga O‘zbekistondan daryo kabi oqib borayettan turlituman boyliklarni yanada ko‘paytirish va ularni zarrachasini ham tub aholiga yuqtirmaslik ko‘zlangan. Bundan tashqari, «o‘zbek ishi» vositasida mamlakatda O‘zbekistonni ishonchni yo‘qottan xavfli zona sifatida gavdalantirib Rossiyadan kadrlarni - o‘z odamlarini keltirishni va respublika hokimiyat tarmoqlarini tamomila egallashni maqsad qilib quyildi. Ayni paytda bir chemodan bilan keladigan o‘sha «ustoz»larning katta boylik to‘plashlari uchun sharoit yaratish nazarda tutildi. Bu respublika boyliklarini navbatdagi uzlashtirishning bir turi edi. Umr bo‘yi dahshatli fojialarni uyushtirishga, qirg‘inbarotlarga va tusto‘polonlarga tuymagan markaz «o‘zbek ishi» bo‘yicha 4,5 ming kishini qamoqqa tashladi, xurladi va mol-mulkini taladi. Bundan tashqari minglab kishilar «guvoh» sifatida qattiq qiynoqlar ostiga olinib, qipqizil tuhmatdan iborat aybnomalarni to‘qidi. Hatto «o‘zbek ishi»dan keyin ziyelilarning va rahbarlarning ilg‘or vakillari ham ommaviy ravishda qatag‘on qilinib emish degan ovozlari eshilib turdi.

Butun millat boshiga dahshatli ofat kelib turgan paytda, unga qarshi qalqon bo‘ladigan birorta rahbar chiqmadi. Aksincha, ular sotqinlik qilib olovga kerosin qo‘yib turdilar.

Islom Karimov davlat tepasiga kelishi arafasida ahvolni quyidagicha ta‘riflagan edi: «Bor gapni aytadigan bo‘lsam, kuz o‘ngimda dahshatli, qurqinchli manzaralar paydo bo‘ldi». Islom Karimov bu g‘oyatda og‘ir ahvoldan cho‘chimay va tislamay, mazlum xalq manfaatini uchun kurashdi. U «o‘zbek ishi»ning soxtaligini fosh etib, millatni ofat va navbatdagi ommaviy qatag‘ondan qutqardi. U bu xususdagi markazning ko‘rsatmasini bajarishdan ochiqdanochiq bosh tortib, mustaqil siyosat yurgizdi.

Umumiy xulosa shuki, 1989 yilning ikkinchi yarmidan to 1991 yil 31 avgustgacha bo'lgan davrda shaxsan Prezident Islom Karimovning tashabbusi va ishtirokida mustaqillikni tamomila tiklashning zamini hozirlandi. Shu bois uning rahbarlik mahoratini yoritish ayni muddaodir.

Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati.

Mustaqillikning o'ziga xos xususiyatlari va buyuk tarixiy o'zgarishlar

Birinchidan. Mustaqillikni tiklash uchun kurash 1989-1991 yillarda namoyon bo'lib siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida bosqichmabosqich muhim choralar amalga oshirilib borildi. Mustaqillik sharofati ila milliy davlat, milliy boshqaruv tizimi va milliy qo'shin to'zildi. Bularning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, tariximizda birinchi marotaba jahon andozalari asosida tashkil etildi. Boshqaruv tizimining yuqori bosqichiga kutarildi. Davlatni Konstitusiyaga rioya qilgan holda boshqarish, qonun ustuvorligi va jamiyatni demofatlashtirishga qaratilgan choralar ham mustaqillikning xususiyatlarini anglatadi. Bu borada parlamentni, bayroqni, gerb va madhiyani joriy etishi alohida ahamiyat kasb etadi. Tariximizda hech qachon hozirgidek tashqi aloqalar rivojlangan emas. Endilikda O'zbekistonda o'nlab xorijiy mamlakatlarning elchixonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida O'zbekiston elchixonalari ko'p chet el mamlakatlarda ochildi. Utmish zamonlarda o'zbek diplomatiyasi hozirgidek yuqori bosqichga kutarilmagan edi.

O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo qilinishi butun tariximiz davomida birinchi hodisadir.

Ikkinchidan. O'zbekistonda 70 yildan ortiq o'zgilishdan so'ng xususiy mulkchilikka, erkin bozor va ishbilarmonlikka asoslangan tamomila yangi jamiyat tizimi bunyod etildi. U o'z hududidagi yerlar, suvlar, turlituman boyliklar va umuman tabiatdagi barcha mavjudotning chinakam egasi bo'lib qoldi. Bu iqtisodiyetdagi tub o'zgarishlardan biri hisoblandi. Endiliqda yer va boyliklar respublika va xalqning mulki bo'ldi. Iqtisodiyetdagi eng muhim yana bir tub o'zgarishlardan biri iqtisodiyetni mafkuradan batamom holi qilinishida o'z aksini topdi. Keyingi tub o'zgarish mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirib sanoatni, savdoni, maishiy xizmat korxonalarini va uy-joylarni xususiylashtirishdan va davlat tasarrufidan chiqarishdan iborat bo'ldi.

Uchinchidan, ma'naviy hayotda ham tub o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Men bu masala bo'yicha so'z yuritilganida birinchi galda kommunistik g'oyalardan darhol voz kechilganini nazarda tutmoqdaman. Haqiqatan ham bu g'oyaning ulotirib tashlanishi ma'naviy hayotdagi muhim inqilobiy o'zgarishdir. Tarixan shakllangan, lekin ilgari oyoqosti qilingan milliy an'analarga, udumlarga, qadriyatlarga va madaniy meroslarga jon kirgizildi.

O'zbeklar o'tmish tarixi, buyuk olimufozillari, davlat arboblariyu din peshvolari bilan g'ururlanish va faxrlanish imkoniga ega bo'ldilar. Milliy odob-axloq, insonparvarlik, vatanga sodiqlik singari fazilatlar o'z kuch-qudratini ko'rsatmoqda. Respublikada vijdon va din erkinligining tiklanishi, ko'plab masjid va madrasalarning qurilishi hamda «ziyaratgoh» joylarning ta'mirlanishi ham ma'naviy hayotda muhim yangiliklarni yuzaga keltirdi. Sovet davridagi dinsiz jamiyat o'rniga dinli jamiyat tashkil topishi ma'naviy hayotning tub o'zgarishlaridan biri bo'ldi. Ijtimoiy fanlar sohasida, jumladan, tarix, adabiyet va san'atda milliy his-tuyg'ularning, ozodlik va vatanga sodiqlikni madh etuvchi, tarixiy shaxslarni faoliyatini ko'rsatuvchi asarlar chop etilmoqda. Sovet davrida bunday qilish taqiqlangan bo'lib, ozodlik jarchilari «millatchilar» va «xalq dushmanlari» deb qoralangan va jazolangan.

12-mavzu. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish

Reja:

1. O'zbekistonning davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. I.A.Karimov - O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti.

2. Mustaqil O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasidagi islohotlar.

3. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomalarining mohiyati.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi" va uning mohiyati.

Tayanch tushunchalar:

Mustaqillik, demokratiya, Mustaqillik Deklaratsiyasi, Oliy Kengash, "Harakatlar strategiyasi", Prezident farmonlari, qorolar, farmoyishlar, qonunlar, "Yoshlar dasturi", "Talim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", tashqi siyosat, ijtimoiy soha, ma'naviy soha, siyosiy soha, elektron hukumat, sudlar, sayyor sudlar, bog'dorchilik, tolgo-250, maishiy soha.

Mustaqillik - o'zbek xalqining azaliy orzu-intilishi.

Mustaqillik tushunchasi o'zida azaldan insoniyatning orzu-umidlarini, armon va iztiroblarini mujassam etgan. Darhaqiqat, inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. U hamisha har jihatdan o'zini erkin his qilishga, ozod yashashga, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha min-taqalarida ozodlik uchun kurashni, shaklan turlicha, mohiyatan o'xshash bo'lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko'p ko'rgan.

XX asr intihosida dunyoning qariyb uchdan bir qismida misli ko'rilmagan hodisalar sodir bo'ldi. Sotsializm deb atalgan totalitar tuzum, zo'ravonlik va tazyiqqa asoslangan kommunistik mafkura tanazzulga uchradi. Jahonga, Yer yuziga hokimi mutlaqlikni da'vo etgan SSSR jamiyat sifatida ham, davlat sifatida ham jarga quladi. Uning tarkibiga kirgan ittifoqdosh respublikalar torn ma'nodagi mustaqil davlat maqomini oldilar.

1991-yil 31-avgust kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot O'zbekiston hukumatining siyosiy yo'lini to'la qonunlashtirib berdi. Bu tarixiy hujjatda quyidagi xulosalar ilgari surilgan edi:

- «O'tmishdan saboq chiqarib va SSR Ittifoqining siyosiy hamda ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni e'tiborga olib;

- xalqaro-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga asoslanib;

- O'zbekiston xalqlarining taqdiri uchun butun mas'uliyatni anglab;

- shaxs huquq va erkinlikining, Mustaqil davlatlar o'rtasidagi chegaralarning buzilmasligi to'g'risidagi Xelsinki shartnomalariga qat'iy sadoqatini bayon etib;

- millati, diniy e'tiqodi va ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, respublika hududida yashovchi har bir kishining munosib hayot kechirishini, sha'ni va qadr qimmatini ta'minlaydigan insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilib;

- Mustaqillik Deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning davlat Mustaqilligini va ozod suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi.

Mustaqillikning mohiyati, uning tarixiy ahamiyati milliy uyg'onish va milliy tiklanish jarayoni bilan bog'liq. Millatini va vatanini himoya qilish qudrati beqiyos bo'ladi. Milliy tiklanish, uyg'onish hodisasi juda keng, murakkab tarixiy jarayondir. U xalqimiz hayotining hamma sohalarini qamrab oladi. Iqtisodiyot, siyosiy faoliyat, ma'naviyat, ilm-fan, til, tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me'morchilik barcha-barchasini inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rnida bir necha mustaqil respublika, Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga bo'linib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi. Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashib, nemislar yashaydigan ulkan hududda sotsialistik tuzum barbod etildi. Ayni chog'da sobiq SSSR parchalanib, uning o'rnida mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan 15 mamlakat tashkil topdi.

Boshqacha qilib aytganda, bu davrga kelib ko'pgina mamlakatlarda mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan tarixiy jarayonga aylandi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi. «Xalqlarning ozodlik, Mustaqillik, baxt-saodatga azaliy intilishi, o'z taqdirini o'zi belgilashga azm-u qarori hayotdagi chuqur o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuchdir», - degan edi Islom Abdug'aniyevich Karimov.

SSSR Rahbariyatida shu yo'naUshdagi amaliy ishlar qizg'in tus oldi. 1990-yil 25-iyulda SSSR Prezidentlik Kengashida Bosh Ministrning mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish yuzasidan qo'shimcha choralar haqidagi axboroti tinglandi. 1990-yil 27-iyuli va 30-avgustida SSSR Prezidentining olimlar, mutaxassislar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan iqtisodiy islohotlar mavzuidagi uchrashuvi bo'ldi.

1990-yil 11-sentabrda RSFSR Oliy Soveti II sessiyasi S. Shatalinning «500 kun» Programmasini qabul qildi.

SSSR Oliy Sovetining 21-sentabrda bo'lib o'tgan IV sessiyasida bu Dastur ham qabul qilinmadi. 1990-yil 24-sentabrda sessiya «Xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari»ni muhokama qilib, Hukumat Dasturi va S.Shatalin Dasturidan iborat Yagona Dastur ishlab chiqishga qaror qildi. 1990-yil 18-oktabrda sessiya: «Bozor iqtisodiyotiga o'tish jahon amali-yotidan kelib chiqqan zarurat, ammo u iqtisodiyotning sotsialistik yo'nalishiga ziyon yetkazmaydi», - deb xulosa berdi.

Demak, 80-yillar oxiriga kelib, sobiq mamlakatda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazishni hayotning o'zi kun tartibiga qo'ya boshladi va uning huquqiy asoslarini yaratishni zaruratga aylantirdi. Shunday bo'lsa-da, 1990-1991-yillarda iqtisodiyot orqaga qarab keta boshladi va xalqning turmush tarzi, sharoiti yomonlasha bordi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tuta boshladi.

Mutaxassislar ana shunday tisarilish hodisasini mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga uchta yo'nalishdagi kuchlar manfaatlarini to'qnashgani bilan izohlaydilar. Jumladan:

Birinchi kuchlar - N.Rijkov va V.Pavlov Dasturi tarafdorlari. Ular sobiq SSSRni saqlab qolish, xalq xo'jaligini markazdan boshqarish, huquqni ko'proq markazda to'plash niyatida edilar. Ular iqtisodiyotni rivojlantirishda sotsialistik yo'ldan voz kechmaslikni talab qilar edilar.

Ikkinchi kuchlar - S.Shatalin guruhi a'zolari tarafdorlari. Ular SSSRni tarqatib yuborish, ittifoqdosh respublikalar o'rnida suveren, Mustaqil Davlatlar tuzish, cheksiz xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, kolxoz va sovxozlarni tugatib, fermer xo'jaliklari tuzishni ko'zda tutdilar. Bu mohiyatan iqtisodiy rivojlanishning sotsialistik yo'lidan voz kechishni bildirar edi.

Uchinchi kuchlar - bu M.Gorbachyov Dasturini quvvatlovchilar. Ular murosa yo'lini qidirib, yuqorida tilga olingan har ikki dastur yo'nalishlarini uyg'unlashtirish va SSSRni saqlab qolish, markazlashgan ma'muriy buyraqbozlik hokimiyatini yo'qotmaslik, «shokovaya Terapiya» («falaj qilib davolash») usulidan foydalanish g'oyasini ilgari surar edi. Yangi Ittifoq Shartnomasini tayyorlash ham shu maqsadlarga yo'naltirilgan edi. Jumladan, yangi Ittifoq Shartnomasida mamlakat nomini ham «Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi» deb emas, «Mustaqil Sovet Respublikalari», «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi» deb atash to'g'risidagi takliflar ham o'rtaga tashlana boshladi.

Ana shu obyektiv holatni hisobga olib, 1990-yil 24-martida XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo'ldi. Sessiya O'zbekiston tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Rayosati a'zolari, komissiya raislari va muovinnalari «Mustaqillik Deklaratsiyasi» xususida fikrlashib, deputatlar fikrini olish va so'ng uni sessiyaga olib chiqish lozim, deb topdilar.

19-iyun kuni 40 dan ortiq deputat, doimiy komissiyalarning raislari, huquqshunoslar tayyorlagan Deklaratsiya matnini batafsil ko'rib chiqdi. Natijada bu masala 20-iyun kuni sessiyada kun tartibiga kiritildi.

«Mustaqillik Deklaratsiyasi» deputatlar tomonidan moddama-modda, bandma-band muhokama qilindi, har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilashi, Deklaratsiya qoidasi bilan kafolatlanishi qayta-qayta ta'kidlandi. Unda o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajriba-si va an'analari hisobga olinishi uqtirildi.

1991-yil 19-21-avgustida Moskvada davlat to'ntarishi qilish-ga urinib ko'rildi. Ulaming maqsadlari Ittifoq hududida yashovchi barcha xalqlarning mustaqillikni qo'lga kiritishlariga, o'z taqdirini o'zlari hal qilishlariga yo'l qo'ymaslik edi.

Shuni ham aytish kerakki, to'ntarishni uyushtirgan kishilar mamlakatda yuz bergan boshboshdoqlik va parokandalik cho'qqisiga chiqqan bir paytdan foydalanib qolmoqchi bo'lishdi. Ammo qayta qurish yillarida ko'zi ochilgan xalqni endi eski tuzum doirasiga kiri-tishga, unga eskicha buyruqbozlik qilishga urinish behuda edi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimov Hindiston safaridan qaytgani hamonoq - 19-avgust kuni kechqurun respublika rahbarlari va Tosh-kent shahri faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda O'zbekiston nuq-tayi nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati: «Markazdan, kim bo'lishidan qat'i nazar, qonunga xilof ko'rsatmalarni baja-rish mum kin emas», - deb hisobladi. 20-avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati, O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Va-zirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlis bo'ldi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgar-masligi haqida Bayonot qabul qilindi.

I.Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston mustaqilligi haqida Qonun qabul qilish masalasini keskin qo'ydi. Chunki har bir milliy respublikaning chinakam teng huquqliligi va mustaqilligi ta'minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Buning uchun mustaqillik yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlanishi, har bir respublika so'zda emas, balki amalda tenglar orasida teng bo'lishi lozim edi.

Ayni shu maqsadlarni ko'zlab, O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991-yil 31-avgustda o'z ishini boshladi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi hamda «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

Qliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so'ng «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risida»gi qonunni qabul qildilar. So'ngra Respublika Davlat Mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot qabul qilindi. O'zbekiston SSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Mustaqillik e'lon qilin-gan kun 1-sentabr 1991-yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni, deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifo-dasi bo'ldi.

«O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lganligi uchun bu muhim hujjat haqida batafsil to'xtash lozim. Mazkur qonun aso-sida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. O'z mohiya-tiga ko'ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya roli-ni ham o'ynaydigan bo'ldi. 17 moddadan iborat bu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi.

Shu tariqa xalqimizning uzoq yillar kurashib, intilib qo'lga kirit-gan mustaqillik erki qonun bilan mustahkamlab qo'yildi.

Islom Karimov - mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvi-ning yangi, zamonaviy va samarali tizimi shakllana boshlandi. Bosh-qaravning Prezidentlik shakli mazkur tizim o'zagini tashkil etdi.

1991-yil oxirida O'zbekiston hayotida torn ma'noda ulkan tari-xiy voqea sodir bo'ldi. 29-dekabrda xalqimiz uzoq yillik mustamla-kachilikdan so'ng torn ma'nodagi mustaqillik ramzi sifatida birinchi bor umumxalq xohish irodasi bilan mustaqil O'zbekiston Respubli-kasi Prezidentini sayladi.

Prezidentlikka nomzodlar har birining saylovoldi dasturlari aks ettirilgan 301 ming nusxadan iborat plakat, nomzodlar har birining 40 ming nusxadan saylovchilarga murojaamomalari chop etildi.

O'zbekiston Respublikasi saylovlari muqobilik asosida o'tdi. Oliy lavozimga ikki nomzod - O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi nomzodi LA. Karimov va «Erk» demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi.

Saylovlar yakuniga ko'ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovoz berishda qataashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3%) Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi.

Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis ba-yonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. Saylovlar natijalari o'zbek xalqining mustaqil taraqqiyot va rivojlanishning yutuqlarini LA. Karimov shaxsi, uning dono siyosati, tashabbuskorligi va fidoyi Ugi bilan bog'lashining yaqqol dalili edi.

2000-yilning 9-yanvari mustaqil O'zbekistonimiz tarixida asrlar tutashgan paytda sodir bo'lgan, davlatimizning XXI asrdagi taqdiriga va taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan muhim siyosiy voqea sifatida muhrlanib qoladi. O'zbekiston fuqarolarining aksariyati hozirgi davlat boshlig'ining rahbarligi ostida va tashabbusiga ko'ra amalga oshirilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni qo'llab-quwatlagan holda Islom Karimov nomzodi uchun ovoz berdi.

2000-yil 11-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlis kun tartibi bitta masalaga - 2000-yil 9-yanvar kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalariga bag'ishlandi.

Islom Karimov uchun 11 million 147 ming 621 saylovchi yoki saylovchilarning 91,90 foizi ovoz berdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzodi ko'rsatilgan Abdulhafiz Jalolov uchun 505 ming 161 saylovchi yoki 4,17 foiz saylovchi ovoz berdi.

2007-yil 23-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. 14 ta saylov okrugi, 8266 ta saylov uchastkasi aloqa vositalari, kompyuter va orgtexnika, saylov qonunchiligi me'yorlariga oid adabiyotlar bilan ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yakunlariga ko'ra, Islom Karimov 13 million 8 ming 357 yoki saylovda qatnashgan saylovchilar umumiy sonining 92,1 foizi ovozi oldi.

Muxtasar qilib aytganda, I. Karimov O'zbekiston davlati va davlatchiligini barpo qilish, demokratik fuqarolik jamiyati qurish asoslarini yaratdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng kun tartibida ja-hon andozalariga mos keladigan davlat qurish, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohada tub islohotlarni amalga oshirish, ularni qonun bilan mustahkamlaydigan huquqiy tizimni vujudga keltirish vazifasi turar edi. Chunki sobiq sotsialistik tuzumga xos ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar endilikda respublikada barpo qilinajak yangi jamiyat manfaatlariga mos kelmas edi. Mulkchilik, mulkka egalik qilish va uni boshqarish, ishlab chiqarish omillari, bozor mexanizmi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini normal izga solish ana shunday jiddiy yangilanishlarni taqozo etar edi.

Shuni ham aytish kerakki, jahonda hamma mamlakatbop ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari, barcha uchun tavsiya etish lozim bo'lgan tayyor andozalari hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Shu bilan birga rivojlanishning madaniy, ma'rifiy, tarixiy jihatdan asrlar mobaynida shakllangan an'analari mavjud bo'lgan O'zbekistonda qadimiy makonda o'ziga xos yo'l tanlash uchun ancha-muncha izlanish lozim edi. Biroq, vaqtni boy bermay, tezkorlik bilan ish tutish lozim edi. Shuning uchun ham «Mustaqil O'zbekiston tug'ilgan kuniyoq oyoqqa turishga, o'zi yurishga majbur edi».

Yana shuni ta'kidlash darkorki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan paytda mamlakat ichkarisida bo'lgani kabi uning tashqarisida ham unga ishonmaydigan, shubha bilan qaraydiganlar bor edi.

I. A. Karimov mamlakatning dastlabki yillardagi rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi sifatida quyidagi beshta asosiy qoidani o'rta taga tashladi.

Mustaqil O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasidagi islohotlar.

Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish bilan bog'liq ko'zda tutilgan vazifalar pirovardini davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari va tuzilmalarini (qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati), qolaversa, munitsipal hokimiyat tuzilmalarini demokratlashtirish, ulaming bir-biridan mustaqil holda ish tutishi tamoyillarini yanada takomillashtirish, davlat hokimiyati vakolatlarini bosqichma-bosqich munitsipal organlarga va nodavlat hamda fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish tuzilmalariga o'tkazib borish kabilar tashkil qiladi.

2002-yili bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasida Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ayni ana shu ko'p qirrali islohotlarni amalga oshirishning yangi tamoyillarini o'rtaga tashladi. «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» deb atalgan ushbu ma'ruzasi, aytilish mumkinki, katta konseptual ahamiyatga ega bo'ldi. Unda islohotlarga doir yettita masala - ustuvor yo'nalish belgilab berildi.

-O'zbekistonda islohotlarni amalga oshirishning izchil mexanizmi yaratildi. Buyuk kelajakka qaratilgan yalpi yangilanishlar konsepsiyasi vaqt o'tgani sayin shakllantirib, rivojlantirib borilmoqda. Buni Birinchi Prezidentimiz I. Karimov 2005-yil 28-yanvar kuni Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mam-lakatni modernizatsiya va isloh etishdir» mavzusida ma'ruza qildi. Unda ko'p qirrali islohlarni amalga oshirish tamoyillarini yana ham chuqurlashtirdi. Biz oldimizga qo'ygan maqsadni soddagina ifodalamoqchi bo'lsak - har qanday hokimiyat, u qonunchilik yoki ijro va sud hokimiyati bo'ladimi bularning barchasi quyidagi talablarga javob berishi shart. Ya'ni, har qaysi o'z vazifasini anglashi, o'z mas'uliyatini his qilishi, o'z yukini ko'tarishi va ta'bir joiz bo'lsa, o'z aravasini mustaqil ravishda tortishi darkor.

1992-yil 8-dekabrda XP chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo'ldi. Unda «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish haqida»gi masala ko'rildi. Bu xusus-da Konstitutsiya komissiyasi Raisi, Prezident I. Karimov ma'ruza qildi. Ushbu ma'ruzada sessiya muhokamasiga havola qilingan O'zbekistonning asosiy Qonuni respublikada awalgi yillarda qabul qilgan qonunlardan farqli o'laroq, demokratik yo'l bilan tayyorlan-gan bo'lib, unda yillar davomida sinovdan o'tgan umuminsoniy qad-riyatlar o'z aksini topganligi, u ko'plab taraqqiy etgan mamlakat-lurning tajribalarini o'ziga singdirganligi alohida uqtirildi. Shuning uchun ham mazkur Konstitutsiya har qanday yetakchi mamlakatning Konstitutsiyasi bilan bahslasha olishi mumkin», - deb ta'kidlandi.

Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgarish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Jumladan, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlarining vakolat muddati o'n yildan besh yilgacha tushi-rildi. Oliy Kengash 84-moddani quyidagi yangi qism bilan to'ldirdi: «Oliy Majlis Raisi va uning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili hisobot berib turadilar». 78-moddaning 8-bandiga esa yangi jumla qo'shildi: «Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy lo'lovlarni joriy qilish» va hokazo.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng boshqaruvning bu tizimida islohot o'tkazishni taqozo qilgan omil nimadan iborat edi? Awalo shuni aytilish kerakki, bu tizim o'z tarkibiga viloyat, tuman, shahar, shaharlar tarkibidagi tuman, shahar, qishloq, posyolka Kengashlarini oluvchi davlat muassasalari majmuini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrda qabul qi-lingan Qonuniga muvofiq viloyat, tuman, shahar hokimi mahalliy hududning oliy mansabdor shaxsi sifatida tegishli hudud ijroiya Hokimiyatini boshqaradigan bo'ldi. Joylarda hokimliklar joriy etildi. Respublikaning 12 viloyati va Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va tegishli Xalq de-putatlari Kengashlari sessiyasida tasdiqlanadigan hokimlar boshchi-ligidagi boshqaruv tizimi tashkil qilindi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari va tegishli hokimlarning faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va Qoraqalpog'iston respublikasining Qonunlari bilan tartib-ga solinadigan bo'lindi.

Shuningdek, 163 qishloq tumanlari, 18 shahar tumanlarida, 120 shaharlarda hokimlik idoralari tashkil qilindi.

Biroq tahlillar shuni ko'rsatdiki, hokimliklar hamma joyda ham butun imkoniyatlari va iqtidorlarini ko'rsata olmadilar. Ular-ning ayrimlari yangicha tizimda eskicha usul bilan ishladilar. Mahalliy davlat hokimiyati tizimidagi kamchiliklar islohotlarni izchil amalga oshirishga to'sqinlik qila boshladi. Joylarda odamlar rasmiyatchilik, poraxo'rlik, «sendan ugina, mendan bugina» qabilida llhlash, tamagirlik, qonunbuzarlik - holatlaridan aziyat cheka boshladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlaridagi mas'ul shaxslar kadrlarni o'zgartirish, ulaming ma'naviy-ruhiy qiyofasini takomillashtirish, loqaydlik, sansalorlik, o'zi bo'larchilik va boqimandalik knviviitlarini yo'qotish zamr edi. Har bir davlat hokimiyati organi joylarda o'zining nufuziga, obro'-e'tiboriga ega bo'lmog'i, xalq usti-dan hukmron guruh emas, aksincha xalq uchun yashayotganligi sin-gari ijobiy fazilatlarini chuqurlashtirish kerak edi. Chunki ayni ana shunday fazilat butunlay yangi tarixiy sharoitlarda shakllanayotgan yangi davlatning, fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi.

Prezident siyosatining bosh yo'li huquqiy, demokratik davlatni vujudga keltirish, hamma narsadan qonunni ustun qo'yish, qonun oldida barchaning tengligini ta'minlash, «fuqaro - jamiyat - davlat» prinsipini joriy etish, ana shu yo'l bilan fuqarolik jamiyatini vujudga keltirish. Bu prinsipga zid bo'lgan barcha harakatlarga qarshi mamlakatda qat'iylik bilan kurash olib borildi.

Shunday qilib, 1991-2006-yillar mobaynida respublikada davlat hokimiyati barcha organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar vujudga keldi. Ular markaziy, viloyat, shahar va tumanlar dnrajasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv vazifalarini aniq belgi-lab berdi. Bu mustaqil milliy davlatchiligimizni ta'minlovchi muhim •liarlardanbiriedi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respubliksi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomalarining mohiyati.

Mamlakatimiz mustaqillika erishganidan so'ng barcha javhalarda tom ma'noda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar boshlandi. Bu jarayon ayniqsa 2016 yildagi yana bir bor o'tkazilgan Prezidentlik saylovidan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi.¹ Bunga 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi qabul qilinganligini misol keltirish mumkin.² Unga ko'ra quyidagi ishlar qilinishi belgilangan edi. Bularga Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari 1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizasiya qilishda Oliy Majlis, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

Davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qabul qilinayotgan qonunlarning amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirish;

siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish: davlat boshqaruvinini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish; mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish; «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish: xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini

¹ Shavkat Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" T.: "O'zbekiston", 2018 yil. 7 b.

² WWW. <http://Lex.uz>. harakatlar strategiyasi.

joriy etish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish; fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish; mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini oshirish; ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari 2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish: sud yalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash; sud yalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish; sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud prosessida tomonlarining tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish; «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish; sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash; sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish.¹

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash: fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralari ko'rish; sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash; fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash; sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish: jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvaplasmachilikka aylantirish; odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining prosessual asoslarini takomillashtirish; jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish; elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish. 2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish: jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish; diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish; aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.²

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash: huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va sharoitlarni bartaraf etish; sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotasiya qilish tizimini takomillashtirish; huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari xodimlari orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish; huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish: davlat organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish; advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik,

¹ "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil. 12 sentabr. 182(6876)-soni..

² Shavkat Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" T.: "O'zbekiston", 2018 yil.45 b.

ma'muriy va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokatlarning rolini oshirish; notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilish.

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari 3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish: makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institusional o'zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish; soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish; ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash; bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitalashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investisiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashni yanada kengaytirish; sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning xajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish, shuningdek kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish; xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investisiya va kreditlardan samarali foydalanish.

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish: milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish; ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investisiya siyosatini olib borish; yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish; iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish; prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash; ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish; iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish; faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish; xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rnini va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish; turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish; yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish; paxta va boshqoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan erlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish; fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investisiya loyihalarini amalga oshirish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish; sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya ob'ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish; kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy er-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvonot zotlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish; global iqlim o'zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish.

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish: xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish; davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; investisiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni faol jalb qilish; korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish; tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash; hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish ko'llamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo'li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirish; yangi sanoat korxonalarini va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investisiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish; sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish

hisobiga subvensiyaga qaram tuman va shaharlarni kamaytirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat korxonalari va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizasiya qilish.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari 4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish: aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish; byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyasiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish; yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish; mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish.

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish: aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish; oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish; xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslarini yanada mustahkamlash; pensionerlar, nogiron, yolg'iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish; farmasevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; aholi o'rtasida kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta'minlash.¹

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizasiya qilish: aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash; aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni tubdan yaxshilash; odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizasiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo'q qilish bo'yicha zamonaviy ob'ektlar bilan ta'minlash; aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish; yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish,

¹ "Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta'minlashni rag'batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston respublikasining prezidenti qarori.

xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash; yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizasiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish: uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, komp yuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish; umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish; bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish; kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish; ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovasiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish: jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish; yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish; yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar 5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar: O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish; axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish; fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash; davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish; atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon etkazadigan ekologik muammolarni oldini olish; favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish. 5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar: davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatidagi o'rni va rolini

oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot etkazish;

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish; davlat chegarasini delimitasiya va demarkasiya qilish masalalarini hal etish. Ma'lumki, mamlakatning makroiqtisodiy prognoz ko'rsatkichlarini sifatli ishlab chiqish va samarali ijrosini ta'minlash o'ta muhim vazifalardan sanaladi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli farmoyishi asosida Iqtisodiyot vazirligi tomonidan vazirliklar, idoralar, hududiy boshqaruv organlari hamda korxonalar bilan birgalikda 2018-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini ishlab chiqish jadal sur'atlarda olib borilmoqda.

Xususan, 2018-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozini o'z vaqtida shakllantirish Idoralararo ishchi guruhi tashkil etilgan bo'lib, unga tegishli vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, prognozning har bir qismini asosli hamda to'liq ishlab chiqishni ta'minlash uchun har bir yo'nalish bo'yicha alohida kichik ishchi guruhlari tashkil etilgan. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, investitsiya dasturi va qurilish ishlari, tashqi iqtisodiy faoliyat, monetar va pul agregatlari ko'rsatkichlari, byudjet siyosatini shakllantirish va ijtimoiy sohani rivojlantirish ko'rsatkichlari bo'yicha ishchi guruhlari shular jumlasidandir.

Iqtisodiyot vazirligining mutasaddi boshqarma va bo'limlari tomonidan 2018-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini ishlab chiqish uchun iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha jadval-maketlari ishlab chiqilgan. Ushbu jadvallar tegishli vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyatlariga yetkazilgan.

2018-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini ishlab chiqish ishlari puxta va asoslangan tarzda joylardagi haqiqiy holatni chuqur tahlil qilish, tuman, shahar, korxonalar darajasidan viloyat va tarmoq darajasiga, so'ng respublika miqyosiga tamoyili asosida tashkil etilgan.

2018-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini sifatli ishlab chiqilishini ta'minlash maqsadida, shu yilning 1-maydan 12-mayigacha har bir hududda amaliy seminarlar bo'lib o'tdi.

Amaliy seminar mashg'ulotlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bosh boshqarmalari, tuman hamda shahar iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bo'limlari, mutasaddi vazirlik va idoralarning hududiy boshqarmalari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning xodimlari ishtirok etishdi.

Seminar ishtirokchilari prognozlarni shakllantirishning metodologik asoslari, prognozlarni puxta va sifatli tayyorlashning mexanizmlari, xorijiy tajriba va O'zbekiston amaliyotining o'ziga xos jihatlari haqida atroflicha fikr almashishdi.

Yoshlarning biznes tashabslari, g'oyalari va rejalarini ro'yobga chiqarish, ko'maklashish qo'llab quvvatlash, band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab katta bo'lgan sohalarga o'qitish maqsadida prezident tomonidan "Yoshlar -kelajagimiz" davlat dasturi qabul qilindi. Unga ko'ra "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi tashkil etildi.¹

Bundan tashqari davlat dasturiga asosan yoshlar uchun yana quyidagilar taminlandi

- Yoshlarning biznes tashabslari, go'ya va rejalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali 7 foiz stavka bilan imtiyozli kreditlar berish.

- Tegishli ko'nikmalarga ega band bo'lmagan yoshlar yashayotgan uy xo'jaliklari uchun 20 ta parranda va qo'y bolasi, 5 ta mayda va 2 ta yirik qoramol sotib olish va ularni boqish imkoniyatlarini yaratib berish.

- Umuman yoshlar uchun ushbu dastur orqali 2018 yilning 1 oktyabridan 1 dekabrighacha 500 mlrd beg'araz moliyaviy yordam ko'zda tutiladi.

- **Nazorat savollari**

- 1. Harakatlar strategiyasi qachon qabul qilindi?

¹ WWW. <http://Lex.uz>. "Yoshlar kelajagimiz" davlat dasturi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

- 2.Harakatlar strategiyasi necha banddan iborat?
- 3.Harakatlar strategiyasining Milliy taraqqiyot modelimizdan farqi nimada?
- 4.Harakatlar strategiyasini amalga oshirishdan maqsad nima?
- 5.Harakatlar strategiyasidagi yo'nalishlarning ranglarig izox bering?
- 6. Jizzax industrial zonasi qachon tashkil topgan?
- 7.Harakatlar strategiyasida 2017 yil bo'yicha paxta va bug'doy ekinlari necha ming gektarga kamaytirildi?
- 8.Qishloq xo'jaligida asosan qanday ekinlar yetishtirishga e'tibor ortdi?
- 9. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning qaysi davlatlarga tashrifini bilasiz va qanday shartnomalar imzoladi?
- 10. Bugungi kunda O'zbekiston dunyodagi qaysi jahon tashkilotlari bilan keng ko'lamda hamkorlik ishlarini amalga oshirmoqda?
- 11."Jamoat joylarida chilm va elektron sigaretalarni chekishni cheklash to'g'risidagi" qonun nehcha moddadan iborat?

13-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. O'zbekiston va jahon hamjamiyati

Reja:

1. Taraqqiyotning «O'zbek modeli». Iqtisodiy va agrar islohotlar.
2. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik.
3. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi. Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm kabi ma'naviy taxdidlarga qarshi kurashda O'zbekistonning tutgan o'rni.
4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

Tayyanch tushunchalar:

Xalqaro ahvol, Tinchlikka xavf soluvchi tahdidlar, O'zbekistonning geosiyosiy o'rni, Tashqi siyosat tamoyillari, O'zbekiston va BMT, O'zbekiston va YeXHT, O'zbekiston va Yevropa itifoqi, O'zbekiston va MDH, O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari, O'zbekiston va AQSH, O'zbekiston va Yevropa mamlakatlari hamkorligi.

Milliy qadriyatlarning tiklanishi - demokratik jamiyat qurishning muhim sharti. Demokratik jamiyat kontsepsiyasida milliy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, diniy qadriyatlarning o'rniga alohida ehtibor qaratilmoqda. Negaki, ular o'rtasida qathiy chegara yo'q. Bunday fikr bildirishimizga muayyan tarixiy sharoitlarda ob'ektiv zaruratlar tufayli jamiyat rivojlanishi uchun milliy qadriyatlar diniy qarashlar bag'rida shakllanganligidir. SHunga ko'ra bizning milliy qadriyatlarimiz faqat islom zaminida vujudga kelmagan, balki zardushtiylik, buddaviylik kabi dinlardan ham ko'p narsalarni olgan. Binobarin, har qanday qadriyatlarning bosh manbai ijtimoiy hayotdir. Buning isboti sifatida hozirgi davrda mamlakatimizda ko'pgina tarixan din bilan bog'liq qadriyatlar o'zlarining diniy mazmunini o'zgartirib, dunyoviy milliy qadriyatlarga aylanganligidir. Ayni paytda, demokratik jamiyatni barpo etishda din har doim ham uning tarafdori bo'lavermaydi. Ayniqsa, hozirgi murakkab o'tish davrida islom g'oyalari va qarashlaridan bir-biriga tubdan qarama-qarshi maqsadlar yo'lida foydalanishga urinishlar jonlangan bir paytda, ana shu omilning o'rnini alohida tahlil etish zarur.

Uning zaruratini Prezident I.A.Karimov alohida va bir necha marta ta'kidlab kelmoqda. «Mustaqillik yillarida eng katta qo'lga kiritgan yutuqlarimizdan biri tarixiy, milliy va axloqiy qadriyat hamda anhanalarning, muqaddas dinimizning jamiyatni ma'naviy yuksalishidagi o'rni va ahamiyatini qayta tiklanganligidir. Ayni zamonda, tajovuzkor aqidaparast kuchlar islom dini xalqimiz uchun muqaddas qadriyat ekanligidan foydalanib, O'zbekistonni demokratik, mahrfiy taraqqiyot yo'lidan og'dirishga intilmoqdalar». Keyingi yillarda dunyo miqyosida islomdan qarama-qarshi maqsad yo'lida foydalanishlar yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etishda milliy tamoyillarning asosini tashkil etuvchi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, qadriyatlar alohida o'ringa egadir. Mustaqillik tufayli unga bo'lgan yangicha yondashuvlar Prezident I.A.Karimovning milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risidagi

metodologik ilmiy mulohazalari hamda amaliy faoliyatlaridagi ko'rsatmalari, tashabbuslari buning yorqin misolidir. O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarimizga asoslanadi.

SHu nuqtai nazardan, qadriyat tushunchasining ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda ko'pgina ilmiy tahriflari mavjud. Berilgan tahriflarni tahlil etish bir tomondan turli xil yondashuvlarning mavjudligini, ikkinchi tomondan esa, ularning butunlay bir-birini inkor etishi hollarining mavjud ekanligini ko'rsatadi. Masalan, "Falsafiy entsiklopediya"ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflangan: "Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U **birinchidan**, bir ob'ektning ijobiy yoki salbiy qiymatini, **ikkinchidan**, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihati (sub'ektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlarini)ni ifoda etadi"²⁴. Rus tilidagi "tsennostg'" ya'ni qadriyat tushunchasiga, kishilarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga, ma'naviy dunyoqarashiga ijobiy yoki salbiy tahsir ko'rsatadigan barcha narsa va hodisalar kiritilgan. Ana shunga yaqin nuqtai nazar boshqa ilmiy manbalarda ham bayon etilgan: "Qadriyat (falsafa, sotsiologiyada) - voqelikdagi muayyan hodisalarning iqtisodiy, ijtimoiy va mahrfiy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlarining mazmuni va xarakteriga ko'ra, **progressiv va reaksion tiplarga** ajratish mumkin" deyilgan. Fikrimizcha, bunday tahriflar mazkur kategoriyani o'ta sig'imdor qilish bilan birga, uning asli mohiyatini aniqlashda bir qator ilmiy chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. SHunga ko'ra uning mazmuni, tuzilishi, asosiy shakllari namoyon bo'lish xususiyatlari va umuminsoniy qadriyatlar tizimi, bu tizimdagi asosiy qadriyat shakllarining o'rni va ahamiyatini ilmiy tahlil qilish bilan bog'liq bir qator masalalarga ehtibor kam ekanligini ko'rsatib o'tish lozim.

"Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat nehmatalari hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim"²⁵. Rus, ingliz, nemis, frantsuz va chex tillarida Rossiya Fanlar Akademiyasining akdemigi G.V.Osipov muharrirligida chop etilgan "Sotsiologicheskii entsiklopedicheskiy slovarg'"da qadriyatlarini baholash, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy qadriyatlar, qadriyatlar yo'nalishi va umuman qadriyatlarga tahriflar berilgan²⁶. Qadriyatlar tushunchasiga "Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati"da ham alohida o'rin ajratilgan.

Qadriyat nima?

Qadriyatlar xamisha muayan faoliyatlar tarzida namoyon bo'lib kishilarning voqelikka bo'lgan munosabatlari mazmunini ifoda etadi xamda ularning fe'l atvorlari, say xarakatlari yo'nalishlarini ifodasidir.

Qadriyatlar mahlum bir xalqning ko'p ming yillik tarixiy- madaniy tajribasi sifatida shakllangan turmush tarzi, tafakkur maxsuli bo'lib, dunyoga kelgan. Xalqning azaliy udumlari, urf- odatlari anhanalari insony va milliy мансублик ифодасидир.

Qadriyatlar muayan millat va xalqlarning shonli va musibatli o'tishi, tarixiy, madaniy tajribalari, saboqlari, surur va baxtiyor damlarining ifodasidir. "Qadriyatlar — jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, ehtiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi"²⁷ degan tahrif berilgan. Qadriyatlarini bunday tahriflash uning mohiyatini ancha yorqin ifodalasada, lekin qadriyatlarga berilgan tahriflar ichida o'zining ilmiyligi bilan boshqa tahriflardan ajralib turadi, degan fikrdamiz. Bizningcha, "**umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi**. Umuminsoniy qadriyat tushunchasining ob'ektiv asosi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz xayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyatdir". Darxaqiqat "umuminsoniylik" tushunchasida qadriyatlarini tirik tabiatning bir qismi bo'lgan odam zotining hayoti va kamoloti uning tarixiy taraqqiyoti, siyosiy va boshqa birliklar uchun ahamiyati o'z ifodasini topishi kerak. SHu o'rinda insoniyatning eng umumiy jamoasi bo'lgan jamiyatgina, umuminsoniy qadriyatlarining yaratguvchisi va saqlab turuvchisidir. Umuminsoniy qadriyatlar nihoyatda keng ko'lamlil va serqirra tushuncha. Uning zaminida eng avvalo ozodlik, erkinlik, tinchlik, demokratiya tufayli shakllangan inson baxt-saodati kabi umumijtimoiy mahno va mazmun kashf etadigan qadriyatlardan iborat, deyish mumkin. Qadriyatlarini faqat moddiy va ma'naviy boyliklar sifatida tushunish va uni shunday izohlash ham ilmiy nuqtai nazardan to'g'ri emas.

Demak, «Qadriyat» atamasi bizga arabcha «qadri» soʻzidan kirib kelgan boʻlib, bugungi kunda bu tushuncha «borliq va jamiyatdagi biror bir narsa va hodisaning kishilar oʻrtasidagi oʻzaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatni ifoda etish uchun qoʻllanilmoqda. Bu masalaning bir tomoni. Uning ikkinchi tomoni shundan iboratki, «qadriyat» soʻzi qadim zamonlarda paydo boʻlgan va barcha xalqlar tillarida mavjuddir. Demak, bu tushuncha bir necha ming yillik tarixga egadir. Fikrimizning isboti sifatida qadimgi dunyoda «aksiologiya» degan atamaning mavjud boʻlishidir. Aksiologiya aslida falsafaning muhim yoʻnalishlaridan biridir. Faqat bu tushuncha XIX-XX asrlarga kelib, Yevropa mamlakatlari falsafasida rivojlantirildi. Uning tarixi demokratiya tarixi bilan bogʻliqdir. Binobarin, Yevropa mamlakatlarida ham demokratik jamiyatni barpo etishda qadriyatlarga asoslanish ustuvor boʻlgan.

Yuqoridagi adabiyotlarning tahlillari shuni koʻrsatadiki, oʻtmishdagi barcha ijtimoiy-falsafiy tahlimotlarda qadriyatlarning mohiyati va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan oʻrni masalasiga katta ehtibor berishgan. Agarda qadimgi dunyo ijtimoiy-falsafiy tahlimotlarida umuminsoniy qadriyatlar inson aqliy taraqqiyotining mahsuli deb qaralgan boʻlsa, Turondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida «Avesto»dagi uchinchi davr deb atalgan insoniyat kelajak istiqboli, adolatli jamiyat haqidagi fikrlar uning tarixiy ildizlarini tashkil etadi.

Milliy tamoyillar va qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda aks etishi

Milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishda tutgan oʻrni. Har bir millat oʻz qadriyatiga ega. Binobarin, uning har bir mamlakat, har bir xalq rivoji uchun imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish - demokratik jamiyatni barpo etishda muhim oʻrin egallaydi. Hozirgi davrda qadriyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ham ana shundadir. Mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlarning demokratik jamiyat qurishdagi oʻrnini aniqlash borasida jiddiy ilmiy izlanishlar ham, amaliyot bilan bogʻliq muammolar ham davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Negaki, biron-bir jamiyat maʼnaviy imkoniyatlarini, odamlar ongida maʼnaviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib oʻz istiqbollari tasavvur eta olmaydi. Ayniqsa, bizning SHarqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli maʼnaviyat manbai boʻlib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin oʻtmishidagi uzoq vaqt davom etgan kuchli mafkuraviy tazyiqqa qaramay, Oʻzbekiston xalqi avloddan-avlodga oʻtib kelgan oʻz tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda oʻziga xos anhanalarini saqlab qolishga muvaffaq boʻlganligi sababi ham ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq boʻlganligidir. «Biz, deb taʼkidlaydi I.A.Karimov, - maʼnaviy qadriyatlarni tiklashni milliy oʻzlikni anglashning oʻsishidan, xalqning maʼnaviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz»²⁸. Demak, **birinchidan**, Oʻzbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning milliy, umumbashariy tamoyillarini har bir xalqning qadriyatlarisiz, alohida ajratib boʻlmaydi.

Ammo biron-bir narsa va hodisa, xoh u moddiy boʻlsin, xoh maʼnaviy boʻlsin, qadriyatga aylanishi uchun maʼlum bir vaqt, davr oʻtishi kerak. Demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham shunday bosqichlarni bosib oʻtgan. SHunga oʻtmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat hisoblanavermaydi. **Ikknchidan**, uning **milliy qadriyatga** aylanishi uchun oʻzini koʻrsata olishi shart. Demak, biz demokratik jamiyat qurishdagi oʻtmishimizdagi barcha narsalarimizni toʻlalgicha ololmaymiz. Negaki u Hamma uchun ibratli emas.

SHu oʻrinda Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlari oʻta muhim ahamiyat kasb etadi «... oʻtmish qadriyatlarga, anhanalarga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini oʻylamay qaytish boshqa bir keskinlikka - hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin» edi. Ayni shu inkor etish onlarida ekstremistik ruhdagi muxolifatning vujudga kelish xavfi tugʻildi. U aslini olganda, maʼnaviyatga qarshi muxolifat boʻlishi mumkin edi²⁹. **Uchinchidan**, «Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahmiyatga ega boʻlgan jihat va xususiyatlar. Oʻz milliy qadriyati boʻlmagan millat yoki elat yoʻq. Millatning tanazzuli — milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, maʼnaviyat hamda madaniyat bilan uzviy bogʻliq holda namoyon boʻladi»³⁰. Negaki, milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan maʼnaviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan asrlarga meros boʻlib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy

jarayonda shakllangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasini yaratdi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda **milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga** ham alohida o'rin berilayotganligi tasodifiy hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat o'rtasida qathiy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, bir-biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy va diniy qadriyatlar mutelikdan, fikr qaramligidan qutulish, milliy o'zlikni anglashga xizmat qilishi bilan ular jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarining qaror topishiga zamin yaratadi.

Demokratik qadriyatlarning muayyan sharoitlarda shakllanishi. Ularning mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo'lishi. Demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mutanosibligi hamda rivoji. O'zbekistonda adolatli demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlarning ma'lum mahnoda umumbashariy ahamiyat kasb etishi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tushunchalarining demokratik uyg'unligi dialektikasining qiyosiy tahlili jarayonida Amir Temur siyosiy-huquqiy qarashlarini o'rganish zarur. Amir Temur siyosatining bu g'oyasi "Kuch-qudrat, iqtidor-adl-insofda", deganidir. Saltanatni boshqarishida uchragan har qanday voqea va ishni to'ra va tuzuk asosida boshqardim³¹ degan fikrlari umuminsoniy demokratik va milliy qadriyatlar tushunchasining ijtimoiy-falsafiy, ilmiy nazariy va metodologik ildizlarini tashkil etadi. Binobarin biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustaxkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqlarning madaniy qadriyatlari, **to'rtinchidan, ma'naviy merosining** ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qildi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu borada fikr yuritib, shunday deb ta'kidlaganlar: "Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos anhanalarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi"³². Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga tahsir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Demokratik jamiyatni umuminsoniy va milliy qadriyatlarsiz barpo etib bo'lmaydi. Qadriyatlar haqida fikr yuritganda uning ikkita tarkibiy qismini nazarda tutmoq kerak. Bunda, eng avvalo, insonning ob'ektiv olamga nisbatan bo'lgan aktiv faoliyatini alohida tahlil qilish zarur. Umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga moddiy va ma'naviy muhit, yashash shart-sharoitlarining rivojlanishi va vorislik sodir bo'lib, yangi-yangi qadriyatlarning shakllanishiga o'tishdan meros bo'lib qolganlari esa davr ruhi, yangi ijtimoiy ehtiyoj va taraqqiyot uchun asos bo'lgan qadriyatlarga kiradi. **Umuminsoniy qadriyatlarning asosiy vazifasi olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omilidir.**

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tamoyillar uyg'unligi qiyosiy tahlili uning inson ma'naviy kamolatining muhim omili ekanligidan kelib chiqishi zarur. Bunga:

Yurtboshimizning "Mustaqillikka erishganimizdan keyingina biz buyuk ajdodlarimizning hurmatini o'rniga qo'ya oldik. Bizning bu intilishlarimizni Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, madaniy xalqaro hamjamiyat qo'llab-quvvatladi. Bu hol tasodifiy emas — sohibqiron Amir Temur shaxsi uning avlodlari bo'lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun mahriy insoniyatning boyligidir" degan fikrlari har bir millat rivojlanishidagi tarixiy voqealar, unga ijobiy hissa qo'shgan shaxslar ham milliy qadriyatlar jumlasiga kirishini anglatadi. SHu nuqtai nazardan Amir Temur shaxsi buning yorqin isbotidir. Binobarin, Amir Temur qanchalik taqvodor, asl musulmon bo'lmasin, qonunchilikning turli tizimlari — diniy va dunyoviy tomonlari borligini, ularni hisobga olish kerakligini juda to'g'ri anglagan. Amir Temur qonunchilik deganda faqat, SHariat qonunchiligini emas, balki boshqa xalqlar qadriyatlari, urf-odatlarini ham tushungan.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi xos jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom;
- 2) ajdodlar xotirasiga sadoqat;
- 3) kattalarga hurmat, yoshlarga izzat;
- 4) insoniy muomalada mulozamat;
- 5) hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi.

Ma'lumki, demokratik qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. SHu sababli ular:

- mahalliy;
- milliy;
- mintaqaviy;
- umuminsoniy mazmunda namoyon bo'ladi.

Milliy muhit demokratik qadriyatlarni yaratish va saralashning asosiy manbasidir. Aynan milliy muhit mahalliy qadriyatlarning ustuvorlarini o'z darajasiga ko'taradi va ularni voyaga yetkazib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga olib chiqadi. Umuminsoniy qadriyatlarni har bir kishi o'zining boyligiga aylantirgandagina milliy tamoyillar o'z kuchini ko'rsatadi. "SHu bilan birga o'tmish qadriyatlariga, anhanalarga va turmush tarziga betartib ravishda orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka — hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin"³³ deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. Biz bugungi kunda haqiqiy qadriyatlarimizni:

- tadrijiylik, andishalilik asosida;
- buhron paytida sabr-toqat, maromiylilik va vazminlik asosida;
- mulozamatda sertakalluflik, keksalarga munosabatda hurmat-izzat asosida;
- ijtimoiy-siyosiy hayotda bosiqlik, sipolik va boshqa asoslarda asrab-avaylab rivojlantirmoqdamiz.

3. O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umumbashariy qadriyatlarning uyg'unlashuvi va uning uning tarixiy ahamiyati

Milliy qadriyatlar ham qandaydir o'zgarimas hodisalar emas. Millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borish, yashash va mehnat qilish sharoitlar o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi. Har bir qadriyat ma'lum konkret davr, sharoit va ehtiyojlarning mahsuligina emas, balki uning ko'zgusi hamdir. SHu nuqtai nazardan **qadriyatlarning demokratik tamoyillar bilan qaror topishidagi** o'rniga baho berishdan oldin ulardan foydalanishda ikki omilga alohida ehtibor berish kerak: birinchisi – qaysi bir qadriyatlarning yuzaga kelgan aniq tarixiy sharoitlar, **ikkinchisi**, o'sha davrlarga xos bo'lgan imkoniyat va ehtiyojlarni ham bilish kerak. SHuningdek, umumbashariy demokratik qadriyatlarni, mintaqaviy qadriyatlarni, milliy qadriyatlarni uning qaysi zamin ehtiyoji asosida vujudga kelganligini, ular o'rtasida qanday uyg'unlik mavjud bo'lganligi, vorisiylik masalalarini ham o'rganish zarur. Ayni paytda, fikrimizcha, muayyan milliy, sinfiy, mintaqaviy, shaxsiy va boshqa xususiy qadriyatlar tizimi ham umuminsoniy qadriyatlar tizimining o'rnini bosa olmaydi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etishda umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lish xususiyatlari nisbiy xarakterga ega bo'lib, uning bu xususiyati, ya'ni nisbiylik har doim ham ko'zga tashlanavermaydi. SHunga ko'ra **demokratik tamoyillarni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishda** uning quyidagi **namoyon bo'lish shakllarini** alohida ta'kidlash zarur.

- a) demokratik jarayonlarning uzviyiligi asosida milliy qadriyat sifatida shakllantirish;
- b) odamlarning tafakkuri va ijtimoiy-siyosiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasini mutanosib bo'lishiga erishish orqali;
- v) jamiyatdagi turli xil guruhlar qarashlarini yagona maqsad – «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» degan milliy g'oya asosida hamjihatlilik, millatlararo totuvlik ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosida;
- g) demokratik jarayonlar xalqimizning qonunni hurmat qilishi, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash;
- d) siyosiy munosabatlarda ham axloqiy, ma'naviy, milliy qadriyatlar ustuvorligiga erishish orqali umumbashariy demokratik tamoyillarni mamlakat fuqarosining turmush ehtiyojiga aylantirish va boshqalar.

Demak, **umuminsoniy qadriyat** deganda jamiyat ahzolarining Hammasi uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan va har bir shaxsning hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ijobiy tahsir etadigan, kishilarning xatti-harakati, amaliy faoliyati, yashash tarzi, boshqalarga munosabati ham umuminsoniy qadriyatlarning mezoni sifatida baholanadi. SHu bilan ham umuminsoniy qadriyatlar tizimida demokratik tamoyillarning o'zi uning shakllanishi uchun keng maydon ochib beradi. Biroq, bu degani milliy qadriyatlarning o'rnini ana shu tizimda passiv holatda ekan-da degan xulosani chiqarmaslik kerak. Negaki,

qadriyatlar tizimida millat, unga xos bo'lgan belgilar, jihatlar, xususiyatlar, ularning vujudga kelish jarayoniga bevosita tahsir ko'rsatadigan hudud, ma'kon va u bilan bog'liq tuyg'ular demokratik jamiyatni barpo etishda muhim o'rin egallaydi. Milliy qadriyatlar shaxs qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi zanjirning muhim va asosiy bo'g'ini hisoblanadi. SHunga ko'ra, millat xar qanday milliy qadriyatning ob'ekti, uni yaratuvchisi va milliy qadriyatlar tizimida asosiy tayanadigan ijtimoiy tayanch hamdir. Millat bir tomondan, o'zining qadriyatlarini mutassil vujudga keltirib turganligi bilan ham u yashovchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Demak, milliy qadriyatlar o'tmishdan kelajakka rivojlanish jarayonida ularni doimiy takomillashtirib yangi-yangi qirralarini vujudga keltiradi. Aynan ana shu jarayon adolatli va demokratik jamiyatning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, **birinchidan**, milliy qadriyatlarsiz demokratiya tamoyillarini hayotga joriy etish, uni har bir shaxsning turmush tarziga aylantirish mumkin emas. Demokratiya nafaqat shaxs faoliyati, balki u millatning ruhiyati hamdir.

Ikkinchidan, demokratik jarayonlar davomida mavjud qadriyatlar tizimining o'zi ham rivojlanib va o'zgarib boradi. **Uchinchidan**, millat milliy qadriyatning xaqiqiy egasi. Demak, millat uning ma'kon va zamondagi harakati ham, o'tmishdan kelajakka tomon yashashi ham, avloddan avlodga yetkazib beruvchisi ham, uning asosiy ob'ekti ham aynan shu millatdir. **To'rtinchidan**, milliy qadriyatlarining takomillashmaganligi millatning yo'q bo'lib ketishiga va oxir oqibatda egasiz bo'lib qolishining boshlanishidir. Sobiq sho'rolar davrida millatga bo'lgan hujum eng avvalo, uning qadriyatlariga bo'lgan hujumdan boshlanganligini tasodifiy hol emas edi. Buning bir qator misollarini ko'hna tarixdan ham, hozirgi davrdan ham ko'plab keltirish mumkin. **Beshinchidan**, milliy qadriyatlarining saqlanib qolishi, bu faqat ularning o'zini o'zi asrab qolishining asosiy masalasi deb qarash kerak emas. Balki har qanday millatning saqlanib qolishi uchun har bir millatning o'zi javobgar, mashul bo'lishi shart. Ana shu javobgarlik, mashullik darajasi milliy rivojlanish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu haqda qozog'istonlik professor, faylasuf F. Qodirjonov xalqaro konferentsiyalarning birida o'zi tan olib, shunday fikrni bildirdi: "Qozoq ziyolilarining o'z ona tillarini o'rganishlari, o'zlashtirishi va o'z tillarida ilmiy falsafiy, siyosiy kitoblarni yozishi o'ta mushkul bo'lib qolayotganligining sababi - ular milliy ruhining erkinligiga nisbatan uzoq yillar xukmron bo'lgan "qizil imperiyaning" mafkuraviy tazyiqning natijasidir. Bunday holatni Qirg'iziston va O'zbekiston ziyolilari o'rtasida ham kuzatish mumkin".¹ **Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik - O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etishning asosiy tamoyili. 1. Umuminsoniy qadriyatlar** inson ma'naviy, ijtimoiy kamolotining qandaydir alohida, boshqalardan ajralgan tomoni emas. Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlarining umumlashgin ifodasidir. Umuminsoniy qadriyatlar butun insoniyatga xos qadriyatlar asosida tashkil topadi va rivojlanadi. Ular ayni vaqtda barcha milliy qadriyatlarining bir-biriga yaqinlashishi va rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Insonparvarlik g'oyalariga sadoqat, demokratiya, ijtimoiy adolat Hamma yerda barqaror bo'lishiga intilish, inson huquqlari poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, Hamma xalqlarning milliy mustaqillik uchun bo'lgan kurashlarini himoya qilish, kishilarni do'stlik, hamkorlik va hamdardlikka chorlash, Hamma yerda tinchlik, osoyishtalik qaror topishiga harakat qilish, atrof-muhitni toza saqlash umuminsoniy qadriyatlarining hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan jihatlaridir.

Bu qadriyatlar butun insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlantirish borasidagi yangi jihatlar, demokratiya, qonunchilik, adolatni barqarorlashtirish borasidagi yutuqlardan ham iborat bo'lib, ulardan oqilona foydalanish respublikamizni jahondagi rivojlangan davlatlardan biriga aylantirish ishiga ham xizmat qiladi. Bu borada biror chekinishlarga, milliy mahdudlikka va kalondimog'likka yo'l qo'yish nihoyatda katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Umuminsoniy qadriyatlar mahalliy sharoit, imkoniyatlar, tarixiy anhanalar bilan bog'langandagina kerakli samara beradi.

2. Mintaqaviy qadriyatlar ham umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. Qadriyatlarining bu turkumi bir-biriga yaqin bo'lgan sharoitlarda yashagan va mehnat qilgan, tarixi tutash bo'lgan mamlakatlar va xalqlar uchraydi. Bu qadriyatlar hozirgi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari ming yillar davomida bir-biri bilan yaqindan iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'rnatganlar. Ularning turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlari bir-biriga yaqin bo'lishi

ko'plab umumintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan. Bu qadriyatlar turli joylarda bir-biridan biroz farq qilsa-da, mohiyat jihatidan yaqindir.

Mehmondo'stlik, bolajonlik, yaqin qo'ni-qo'shnicilik, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan yaqin aloqada bo'lish, sahiylik, halol bilan haromni farqlash O'rta Osiyo xalqlarining Hammasiga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlaridir. Garchand mehmondo'stlik bilan bog'liq udumlar mintaqamizning Hamma yerida keng tarqalgan yaxshi anhana bo'lsa ham, ular turli joylarda bir-biridan farq qiladi. Keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish ham Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos yuksak ma'naviy boyligidir.

Keksalar ko'pni ko'rgan, aql va idrok bilan har ishda maslahat bera oladigan, yoshlarga katta tarbiyaviy tahsir ko'rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o'rganish ma'naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir. Ota-onani hurmat qilish, ularning gapiga, pand-nasihatiga quloq solish ham katta ma'naviy qadriyatdir. Ota-ona hech vaqt o'zining farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Ular hayotda ko'p og'irlik, yengilliklarni ko'rgani sababli, farzandlarining istiqbolini ham ulardan ko'ra ko'proq o'ylaydilar. Bahzan ota-onaning nasihatleri noqobil farzandlarga og'irroq tuyuladi. Bu - hayotni chuqur bilmaslik, hayotning turli jarayonlariga yengil-elpi qarashning oqibatidir. Farzandlar ota-onaning qadrini o'zlari ota-ona bo'lganidan keyingina fahmlab oladilar. Bu davr ichida ular ma'naviy kamolotning ko'p imkoniyatlarini qo'ldan boy berib qo'yadilar. SHuning uchun ulkan ma'naviy qadriyat bo'lmish ota-onani hurmat qilish odatini aslo unutmazlik kerak.

Ota-onaga bo'lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin bizning mintaqamizda bu qadriyatni ehzozlash boshqa joylarga nisbatan ustunroq turadi. Hashar yo'li bilan uy-joy qurishda, uy-joylarni tahmirlashda bir-biriga yordam ko'rsatish, yetim-esirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, mehr-muruvvatli bo'lish, ularni qarindosh-urug'lar o'z himoyasiga olib, xoru zor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir.

O'zbekiston suveren demokratik davlat bo'lib, xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai hisoblanadi. Bu haqda Konstitutsiyaning 13-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasi demokratik umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, shahni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi»³⁴. Demak, demokratik davlatda xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai bo'lib, umuminsoniy tamoyillarni amalga oshirish orqali inson va jamiyatning farovonligini, barcha xalqning turmush darajasini oshirib borishga erishadi.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mintaqaviy qadriyatlardan yana bari – **jamoatchilik fikridir**. Jamoatchilik fikri odamlar o'rtasidagi bir-biriga yaqinlik, o'zaro hurmatning ifodasi bo'lib, keng foydalanish mumkin bo'lgan qadriyatdir.

Xulosa qilib aytganda qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy tahsir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy boyliklardir. SHu nuqtai nazardan, tarixiy tajriba, anhanalarning meros bo'lib o'tishi - bularning barchasi yangidan yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolishi lozim.

Demak, milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo sho'rolar davrida qadriyatlar bir tomonlama yoritilar, bu borada ko'p tadqiqotlar olib borilgan edi. Lekin milliy qadriyatlarining mavjudligi ehtibordan chetda qolar edi. Bunday "tadqiqot"lardan maqsad har bir millatning o'z muayyan tarixiy tajribasi asosida o'z qadriyatlari tizimi shakllanganiga qadar kishilarning ehtiborini tortmaslik, demokratiyaning umumjahon va umumbashariy tamoyillari esa sinfiy asosda talqin etilar edi. Tanlab olingan va umumjahon tamoyillar va qadriyatlar ichida eng nufuzli joyni "**ulug' millat**"ning qadriyatlari egallab turardi.

«Bugungi kunda, - mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - anhanaviy qadriyatlarimizni demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir»³⁵. SHu nuqtai nazardan umumbashariy demokratik tamoyillarni qaror toptirish, ko'p bor ta'kidlanganidek, jamiyatimiz

taraqqiyotidagi eng murakkab masalalardan biridir. Ayniqsa, bu uzoq vaqt totalitar tuzum asoratida yashagan sobiq ittifoq makonida, jumladan O'zbekistonda ham uning illatlaridan butkul qutula olmagan jamiyatda yanada murakkabroq kechadi. Ana shu murakkab jarayonni, ijtimoiy-siyosiy larzalarga olib kelmaslikning yo'llaridan biri, qonun ustuvorligi tamoyilidir.

Darhaqiqat, O'zbekiston suveren davlat sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotda ma'naviy yangilanish jarayonini amalga oshirmasdan mustaqillikni har tomonlama mustahkamlash uchun xalqni safarbar qilib bo'lmasligini hayotning o'zi ko'rsatadi. Shuning uchun ham mamlakat rahbariyati istiqloqlning dastlabki paytlaridanoq bu borada zarur choralar ko'rildi. O'zbekiston rahbarligiga saylangan I.A.Karimov O'zKP XXII sezidida (1990 yil iyun) shunday degan edi:

“Yaqindagina o'zbek adabiyotining klassigi Boburni baholashda tor sinfiy yondashuv ro'y berdi. Adib ijodining milliy va umuminsoniy ahamiyati kamsitildi. O'zbekiston Kompartiyasi markaziy qo'mitasining 1986-yilda bo'lgan uchinchi plenumida Bobur shaxsi tahqirlanib u ma'rifatli zolim” deb tilga olindi.

Xalqimiz Markaziy Qo'mita Jumhuriyat Navoiy, Uliug'bek, Bobur, Mashrab, Furqat, Qodiriy va boshqa xalqimizning buyuk farzandlari yubileylarini o'tkazish to'g'risida qarorni juda ruhlanib kutib olingani bejiz emas. Ularning merosi O'zbekiston xalqlari umuminsoniy qadriyatlarining ravnaqi va boyishiga xizmat qilib kelgan edi va bundan buyon ham xizmat qildi. Biz ularning bebaho merosini xalqqa, avvalo yoshlarga yetkazish uchun barcha ishlarni qilamiz”.

O'zbekiston yangi rahbariyatning bunday pozitsiya respublikada ma'naviy poklanish, yangilanish davrining boshlanganligini bildirar edi.

Shundan so'ng adib P.Qodirovning Bobur va boburiylar haqida hikoya qiluvchi “Yulduzli tunlar” romani e'lon qilindi, Boburning “Boburnoma”si yangitdan nashr qilindi. “Sharq yulduzi” jurnalida “Temur tuzuklari”ning to'la e'lon qilinishi keng jamoatchilikni behad quvontirdi. Bular albatta, yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz shaxsiga yangicha munosabatlar qaror topayotganligini ko'rsatar edi.

Endilikda mamlakat istiqloliga erishganidan so'ng, asrlar davomida ota-bobolarimiz yaratgan bu boyliklarini e'zozlash, avaylab-asrash, o'rganish va ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'lindi. 1991 yil A.Navoiy tavalludining 550 yilligi barcha hurfikrli kishilar tomonidan keng nishonlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori bilan 1994-yil Ulug'bek yili deb qilindi va uning 600 yilligi mamlakat va jahon miqyosida keng nishonlandi. Bu tadbirlar buyuk alloma qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir. Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Zahriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan allomalar sifatida xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldi. Samarqand, Buxoro va Xiva butun insoniyat uchun ziyoratgohga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga binoan 1998-yil 24-oktabr kuni Farg'onada Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi, 1999-yil 5-noyabrda Xorazmda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga, 1999-yil 17-dekabr kuni Xorazmda Muhammad Rizo Ogahiy tavalludining 190 yilligi, 1999-yil 18-dekabr kuni Nukusda Ajiniyoz Qosiboy o'g'li tavalludining 175 yilligi keng nishonlandi. Bulardan tashqari, mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, Bexbudiy, Berdaq, Fayzulla Xo'jayev singari madaniyat va jamoat arboblari yubileylarini o'tkazish yuzasidan ko'rilgan chora tadbirlar ham ma'naviy hayotdagi muhim qadamlardir.

Tabiiyki, ma'naviy-ruhiy poklanish, qadriyatlarining tiklanishi bir kunda bo'ladigan jarayon emas, balki bu bizdan izchillik bilan ish olib borishimizni talab etadi. 2001-yilda hazrat A.Navoiyning 560 yilligi yana ham kengroq nishonlandi. 2001-yilda Xorazmda “Avesto”ning 700 yilligi keng nishonlandi. Mo'tabar madaniy yodgorlik hisoblangan “Avesto” kitobi dunyoga kelganidan buyon birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. 2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi, Shaxrasabzning 2700 yilligi YUNESKO ishtirokida keng bayram qilindi. 2003-yilda Abduxoliq G'ijduvoni tavalludining 900 yilligi nishonlandi. Ma'naviy poklanish o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. “Ozbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi qonuni ancha ilgari- 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan edi. Bu qonun xalqimiz milliy ongining rivojlanishiga, mamlakat mustaqilligining mustahkanlanishida, madaniy merosning tiklanishi va jamiyatning ma'naviy yangilanishida muhim rol o'ynaydi. Xalq turmush tarzi va ma'naviyatining tarkibiy qismini uning azaliy

udumlari odat-marosim bayramlari tashkil qilindi. Shu bois, mustaqilik yillarida amalga oshirilgan ma'naviy tiklanish haqida gapirganda xalqning azaliy qadriyatlarini tiklash borasida olib borilgan ishlarini ham alohida ta'kidlash lozim. Mamlakat prezidenti I.A.Karimovning Farmoni bilan 1991-yildan boshlab har yili 21-mart – “Navro'z” bayrami umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Bu kun dam olish kuni deb e'lon qilindi. Xalqimizning azaliy qadriyati sevimli bayrami hisoblanmish “Navro'z” bayramining xalqimizga qaytarib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi.

Davlat tili va ma'naviy yuksalish

Har bir millatning o'z ma'naviyatini chuqur anglashi, ongining tarkibiy qismiga aylantirishi millatning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, e'tiqod va qadr hissini boyitadi. Shuning uchun ham sho'rolar istibdodi davrida hukmron mafkura doirasida milliy ma'naviyatga e'tibor berilmaydi, to'g'rirog'i u har jihatdan kamsitildi. Oqibatda, o'zbek xalqi o'z ma'naviy merosining ko'pgina qatlamlarini haqqoniy tarixini o'rganishdan mahrum bo'ldi.

Mustaqilik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy ilmiy, tarixiy, madaniy va diniy merosini o'rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviyatimizning qadimiyligini, mazmunan va mohiyatan chuqurligini, bugungi kunda salohiyati cheksiz ekanini to'la ravishda ko'rsatmoq uchun “Avesto” dan boshlab, Forobiy, Navoiy, Bobur, Furqat, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va Avloniy orqali to hozirgi kungacha bo'lgan yaxlit manzarasi yaratilmoqda. Muataqillik ayni paytda ma'naviyatning ajralmas qismi bo'lgan milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyg'ular, g'ururni vatanparvarlikni o'stirish va mustahkamlashga ham yo'lga ochilganini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Bir paytlar, aniqrog'i, o'tgan asrning 50-yillarida, milliy merosimizning ko'pgina namunalari kabi, «Alpomish» dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib, qatag'onga uchragan edi. O'sha og'ir yillarda fidoyi ziyolilarimiz jasorat ko'rsatib, uni saqlab qolishga muvaffaq bo'lganliklarini bugun minnatdorlik bilan eslaymiz.

Bu o'lmas asarni xalqimiz asrlar davomida yaratgan, o'z iymon-e'tiqodidek asrab-avaylagan, qancha avlod-ajdodlarimiz «Alpomish» dostoni asosida tarbiya topgan, o'zligini anglagan, ma'naviy boylikka ega bo'lgan. Demak, xalqimiz bor ekan, Alpomish siymosi ham barhayot.

Chunki «Alpomish» dostoni ijodiy tafakkurimiz, ma'naviy boyligimizning yorqin namunasi bo'lib, tarixiy ildizlarimizning qanchalik chuqur ekani, xalqimiz qanday tabiiy-ijtimoiy muhitda shakllanib, rivojlanganini, ajdodlarimizning olis davrlarda ham jamoa bo'lib, bir-biriga yelkadosh bo'lib, o'z boshiga tushgan qiyinchiliklarni birgalikda engib yashaganini yorqin bo'yoqlarda tasvirlab beradi.

.Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning engilmas bahodiri – Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz.

Ko'hna tariximizni shu ma'noda ko'z o'ngimizdan o'tkazib, tahlil qiladigan bo'lsak, muhim va ibratli bir fikrni takroran aytishga to'g'ri keladi. Ya'ni, ota-bobolarimiz ruhiy olamining tomir-ildizlari aynan yuqorida zikr etilgan ma'naviy zaminda, tarixda ham, bugun ham barchaning havasini tortib kelayotgan olijanob fazilatlar asosida shakllangan.

Shu o'rinda ma'naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yana bir mezon – muqaddas dinimiz haqida alohida to'xtalib o'tish zarur.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Lekin sho'rolsr istibdodi davrida insonlarni dinidan, tarixidan, ma'naviyati, madaniyati va tilidan ayirishga bo'lgan harakatlarning amalga oshirilganligi tarixdan ma'lum. General gubernator Chernyaskiy ta'biri bilan aytganda “Biror millatni yo'q qilish uchun uning ustiga bostirib borish va jang qilish shart

emas, balki u millatning dini, tili va ma'naviyatini yo'qotilsa, bu millat o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketadi ” degan fikrni ilgari surganligi va amalga oshirganligining guvohi bo'lib turibmiz. Ammo ayni ma'naviyatli, ziyoli bo'lishga intilgan insonlarni yo'q qilishga qaratilgan bunday razilliklar ham o'zbek xalqning irodasini sindira olmadi va aksincha mustaqillik, erk va ozodlikka erishishga bo'lgan ishonchning kuchayishi natijasida O'zbeiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Dastlabki, kunlardan boshlab ma'naviyat sohasiga e'tiborni qaratdi. Mustaqilik sharofati bilan dinga berilgan erkinlik tufayli turli marosimlarimiz Qur'oni Karim tilovatlarini bilan boshlanmoqda. Bu o'tmishda bir orzu edi, holos.

O'zbekiston xalqining ma'naviy merosi va milliy madaniyatning tiklanishi

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng sho'ro davrida “millatchi” deb badnom etilib qatag'on qilingan xalqimizning millatparvar farzandlari tarixiy xotirasi qayta tiklandi. Prezidentimiz so'zlari bilan aytganda: “El-yurtimiz taqdiriga daxldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq saxifalarini to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar hotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farzdir”. Ana shu insoniy burchimizni ado etish maqsadida prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida 2000 yil poytaxtimizning Yunusobod tumanida qatag'on yillarida xalqimizning minglab asl farzandlari qatl etilib ko'mib tashlanga, nech yillar davomida qarovsiz qolib kelgan Bo'zsuvo kanali sohilidagi Alvastiko'prik deb nom olgan jar o'rnida Shahidlar xotirasi hiyoboni va keyinchalik shu nomda muzey va jamg'arma tashkil qilindi. 2001 yildan e'tiboran 31 avgust yurtimizda Qatag'on qurbonlarini yod etish sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Amalga oshirilgan va oshirilayotgan bunday savobli ishlar xalqimiz, ayniqsa unib-o'sib kelayotgan farzandlarimizning ongu shuurida tarixiy adolatga ishonch va insoniylik fazilatlarini qaror toptirish, ularning ma'naviy olamini kengaytirishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekani bilan ayniqsa e'tiborlidir.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq din va diniy tashkilotlar va dinga e'tiqod qiluvchilarga nisbatan davlatning adolatli munosabatini o'zida ifoda etgan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi (1991) qonun qabul qilindi. Shunindok, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayotda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar, o'zgarishlar, yangilanishlar qatori vijdon erkinligi, davlat va din, dinga ishonuvchanlar va ishonmaydiganlar o'ratasidagi munosabatlarga ham davlatning adolatli siyosati o'natildi. Dinning mamlakatda siysiy bag'rikenglikni ta'minlashda o'rni va rolini hisobga olib, yana bir bor vijdon erkinligiga e'tibor qaratish lozim deb topildi. 1998 yil birinchi mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida jamiyat rivojida din bilan bog'liq muammolarga aniqlik kiritish va turli havf-hatarlarning oldini olish “Vijdon erkinligi” qonunining yangi tahriri qabul qilindi.

Yaqin o'tmishning salbiy asoratlaridan biri shuki, sobiq sho'ro tuzumi davrida dunyoviy ilm va diniy-falsafiy ta'limot, ya'niki diniy ilmlar bir-biriga qarama – qarshi qo'yildi. Ular bir-birini inkor etadigan hodisalar tarzida etildi. Diniy tafakkur dunyoviy ilm rivojiga mo'nelik ko'rsatadigan chirkin bid'at sifatida qoralandi. Biz bugun bunday qoralashning tubdan zararli va tarixan asossiz ekanligini ochiq aytishimiz mumkin. Dunyoviy va diniy g'oyalr bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tarildi... Bunga bashariyat tarixda o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom G'azzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko'rsatgan davrlar yorqin misol bo'la oladi.

Mustaqillik farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to'plagan hadislar, Naqshbandiy ta'limoti, Termiziy o'g'itlari, Yassaviy hikmatlari asosida tarbiya qilish imkoniyatlariga ega bo'ldik. Bugun guvoh bo'lib turgan yuksak e'tirof avvalo ana shunday ajdodlarimizning tabarruk nomlari va qoldirgan merosiga qo'shgan beqiyos hissasiga berilgan munosib baho demakdir. Mustaqillik davrida islomiy qadriyatlar tiklandi, iymon-e'tiqodimiz o'zimizga qaytdi. Bu savobli ezgu ishlarga karvonboshi hurmatli prezidentimiz Islom Karimov ekanini har daqiqa eslab turishimiz lozim. Eng muhimi, mamlakatimizning barcha hudud va mintaqalarida islomiy qadriyatlarni tiklashdek ezgu maqsad yo'lida hamma uchun ibratli va hayrli ishlar amalga oshirilmogda. Bu haqida so'z yuritilganda, Toshkent shahrida joylashgan Qur'oni Karimning eng qadimiy va mo'tabar nusxalarida biri bo'lgan mashhur Usmon Qur'oni saqlanayotgan Hazrati Imom majmuasida amalga oshirilgan keng ko'lamli qayta tiklash va ta'mirlash ishlarini eslash, Samarqanddagi Imom Buxoriy va Imom Moturudiy ziyoratgohlari,

Buxorodagi Abduxoliq G'ijduvoni va Bahouiddin Naqshband, Minorai Kalon va Masjidi Kalon majmulari, Surxondaryodagi Hakim Termiziy va Imom Termiziy, Xivadagi Ichan qal'a, Shaxrisabzdagi Dor'ut tilovat, Qarshi shahridagi Odina va Ko'kgumbaz obidalari, Karmana shahridagi Qosimshayx maqbarasini aytish mumkin. Bu amalga oshirilgan ishlar xalqimizning tarixiy hotirasi, milliy o'zligi va ma'naviyatining yuksalishida katta ahamiyatga egadir.

Sobiq sho'rolar tuzumi tanazzulga yuz tutib, eski hukmron, yakkahokim bolshevistik-kommunistik mafkura batamom inqirozga uchrab, yangi mustaqil davlatlar shakllanishida jarayonida ma'lum muddat g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliq holati vujudga keldi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari ahamiyatga ega: "Men ko'hna bir haqiqatni eslatmoqchiman: tabiatda bo'shliq bo'lmaganidek, insonning ongu tafakkurida ham bo'shliq bo'lishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Har bir ongli odamning voqelikka o'z munosabati, maqsad va intilishlari bo'lishi tabiiydir". Mana shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq ma'naviyat sohasiga katta e'tibor berila boshlandi. Prezidentimiz aytganlaridek, xalqimizning tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi katta bir xazina. Bu xazinadan mustaqilligimizni mustahkamlashda, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda oqilona foydalanishimiz lozim. Qadimiy yozuvlar, bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari, ulug' shoir va mutafakkirlarimiz yaratgan dunyoviy bilim va badiiy asarlar, Qur'oni Karim, hadis, va boshqalar bizning boy ma'naviy merosimiz hisoblanadi. Ular inson ichki dunyosining, ruhiyatining, inchunun ma'naviyatning sayqal topishiga qaratilgan. Umuman olganda mustaqillikdan keyingi davrlarda amalga oshirilgan islohotlarning aksariyat qismi ma'naviyat sohasiga qaratilgan bo'lib, buyuk ma'naviy merosni o'rganishdan iborat.

XX asrning oxirgi o'n yiligidagi xalqaro munosabatlarining rivojlanishida g'oyat muhim voqealar sodir buldi. Sotsialistik sistema parchalanib Evropaning qator mamlakatlari mustabid tizim zulmidan kutilib demokratik rivojlanish yo'liga utdi. Sobiq SSSR urnida mustaqil davlatlar paydo bulib ular jahon xam jamiyatiga bevosita kushilib halqaro munosabatlarning alohida sub`ektlariga aynaldilar. 1991 yilda SSSR tarqalib ketgach jahon rivojlanishida yangi murakkab bir davr yuzaga keldi. Birinchidan, davlatlararo munosabatlar tizimidagi muvozanat buzildi. Jahonda siesiy-iqtisodiy bulinish ruy berdi. kuchlar markazi ilgacha asosan ikki joyda tuplangan, dune ikki kutbli bulgan bulsa, endi vaziyat uzgardi, dune kup kutbli bulib qoldi, nazorat kilish kiyinlashdi. Ikkinchilan, jahon mamlakatlari urtasida ijtimoyi-iqtisodiy tengsizlik va ziddiyatlar yanada usdi. Uchinchidan jaxonning kupgina mamlakatlari ijtimoyi-osoyishtalikka qarshi xavf-xatarlar usib borayapti. Boy va kambag'allar urtasida mulkiy tafovutning kuchayishmi, ishsizlikning, kashshoqlikning avj olishi, bir qator mintaqalarda milliy-etnik va diniy nizolarning kelib chiqishi ekstremizm va fundamentalizm kabi ilatlarning kuchayishi ijtimoyi-siesiy barkarorlikka futur etkazuvchi omillar xisoblanadi. Tortinchidan yadro urushi xavfi a`cha kamaygan bulsa xam xali ommaviy kirgin kuroliginig kup miqdorda saqlanaetganligi va bunday kurolga ega bulaetgan davlatlar safining ortib borishi,

shuningdek ekologik muammolarning kuchayishi xam jahon tarakkietiga salbiy ta`sir kursatmoqda. O'zbekistonning jahon xamjamiyatiga munosib urin egallashi uchun asosiy shart-sharoitlar bu uning jug`rofiy-siesiy jahatdan qulay mintaqada ekanligidir. Birinchidan, O'zbekiston markaziy Osiyo mintaqasining transport, boy xamda mustaqil energetika omillari markazida joylashgan. Ikkinchidan, O'zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega. Bizda kadimiy dehqonchilik madaniyati va boy mineral-xamashe resurslari bor. Uchinchidan davlatimiz nafokat o'zini o'zi ta'minlaydigan, balki chetga chiqarishga. Iqtisodietning asosi bulmish muhim tarmoqlarga ega. Turtinchidan O'zbekistonning insoniyat tsivilizatsiyasida salmoqli o'rni bor. Yurtimiz ma'naviy serosga boy. Shu bilan birga O'zbekistonning jahon xamjamiyatiga kushilib mustaqil rivojlanigshida salbiy ta`sir kursatuvchi qator kiyinchiliklar xam mavjud. Bular kuyidagilar: Birinchidan, jug`rofiy-strategik tarafdand olib qarasaq, Markaziy Osiyoda kommunikatsiyalar nomaqbul rivoj topgani va uning tarmoqlari a`cha buzilganligini kuramiz. Ikkinchidan, markaziy Osiyoda suv resurslari cheklangan va Oral dengizi bilan bog`liq ekologik falokat ta`siri seziladi.

Uchinchidan, mintaqada xavfsizlik tizimi alohida e'tiborni taqozo etadi. Bu erda atrofdegai kuchli davlatlar va siesiy kuchlar markazlarining bir-biriga mos kelmaydigan ta`sir etish istaklari borligini xam xisobga olmasdan bulmaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi yutuqlardan muhimi, uning jahon xamjamiyatidan munosib o`rin olganidir. 1991 yil 31 avgusta Oliy Kengash VI sessiyasida kabul

kilingan ²Mustaqillik xakidagi Baenotda² O`zbekistonning tashqi siesatdagi yo`li oniq qilib belgilangan edi. Jumladan unda: ²Xalqaro xamjamiyatning tula xuquqli a`zosi bulgan O`zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro xuquq sub`ekti sifatida qatnashadi, uning maqsablari mustahkam tinchlik, kurolsizlanish, o`z xududini kurol yarog`lardan xoli qilish, yadroviy kurolni va boshka ommaviy

kirg`in kurollarini yo`qotish, suveren davlatlar o`rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va taziyyiqqa yo`l kuymaslikdan ibarot² - deb qayd qilindi. Prezident I.Karimov o`zining ²O`zbekistonning o`z istiklol va taraqqiet yo`li² kitobida mamlakatimizning mustaqil tashqi siesatini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 moddasida mamlakatimiz tashqi siesatining qoidalari konunlashtirildi. Bu koidolar ²O`zbekiston Respublikasi tashqi siesiy faoliyatining asosiy tamoyillari tug`risidagi ²Chet el investitsiyalari tug`risidagi, jiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish

tug`risidagi, ²Tashki iqtisodiy faoliyat tug`risidagi² xujjatlarda o`z ifodasini topdi. O`zbekiston Prezidenti I.karimovning birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48 (1993) va 50-yubiley (1995 sessiyalaridagi nutqlarida mustaqil O`zbekiston tashqi siesatining bosh io`nalishlari belgilab berildi.

O`zbekiston xukumati respublika tashqi siesatining asosiy tamoyillari kuyidagilardan iborat:

- mafkuraviy karashlardan kat`iy nazar xamkorlik uchun ochilik, umuminsoniy kadriyatlariga, tinchlik va xavfsizlikni saklashga sodiqlik:
- davlatning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini xurmat qilish:
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik:
- nizolarni tinch yo`l bilan hal qilish:
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid kilmaslik:
- ichki milliy konunlar va xuquqiy normalardan xalqaro xukukning umum e`tirof etilgan qoidolari va normalarining ustuvorligi:
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonlik va xavfsizligini ta`minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, xal dustliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish:
- tajovuzkor xarbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik:
- davlatlararo alokalarda teng xukukning va o`zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi:
- tashqi alokalarini xam ikki tamonlama, xam ko`p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yakinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

1992 yil 2 martda O`zbekiston Respublikasi o`z tarixida birinchi bor xalqaro xamjamiyatning teng xukukli sub`ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti a`ziligiga qabul qilindi. 1993 yil fevral oyida Toshkentda BMT vakolatxonasi ta`sis etilib, ish boshladi. Bugungi kunda BTM ning O`zbekistondagi vakolatxonasi respublikada BTM ning taraqqiet Dasturi, Sanoat taraqqieti dasturi. Jahon sog`likni saqlash tashkiloti, narkotiklarni nazorat qilish buyicha Dastur, Bolalar jamg`armasi singari ixtisoslashgan muassalarni o`z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq buldi. O`zbekiston 1992 yil fevral oyida duneda tanslikni mustaxkamlash, inson xukuklarini himoya qilish buyicha katta tadbirlarni amalga oshiraetgan mufuzli xalqaro tashkilot - Evropada Xavfsizlik va Xamkorlik Tashkilotiga (EXHT) a`zo bulib kirdi. O`zbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnika va madaniy tashkilotlar Jahon iqtisodiy xamkorlik tashkiloti, Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg`armasi Evropada tiklanish va taraqqiet banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, xalqaro pochta ittifoqi, Jahon sog`likni saqlash. tashkiloti, Xalqaro Olimpiya Kumitasi, Osiyo va Tinch okean xavzasi buyicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiya, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy xamkorlik tashkiloti, Bajxonalar xamkorligi Kengashi, BTMning ta`lim, fan va madaniyat buyicha Kumitasi (YuNESKO) va boshqa tashqilotlar a`zositir. O`zbekiston o`z taraqqietida, shuningdek tashqi siesiy alokalarida Amerika Kushma Shtatlari bilan xamkorlikka katta e`tibor bermokda. 1992 yilda Toshkent va Vashingtonda elchixonalar ochildi. O`zbekistonda 1996 yil boshlarigacha amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 200 ta uzbekamerika kushma karxonalarini tashkil topdi va faoliyat kursatdi. Bular orasida Navoyi viloyati Zarafshon vodiysidagi, Muruntovda AQSh ning N`yumont Mayning Korporatsiyasi bilan xamkorlikda tog` jinslaridan oltin va kumun ajratib oluvchi kushma korxonasi bor.

Sunggi yillarda O`zbekistonning AQSh bilan tashqi savdo munosabatlari ortib bormoqda. Masalan, 1998 yilda O`zbekistondan chikarilgan balsa, shu davr mobaynida AQSh dan 242,9 mln. dollarlik maxsulot isport qilib olindi e`tibor olindi. O`zbekiston kuppina mantakaviy tashkilotlar, chunonchi, Evropa Ittifoqi, Nato, EKO, Islam konferentsiyasi, kushilmaslik xarakati va boshqalar bilan xam samarali xamkorlik qilmoqda.

O`zbekiston O`rta Osiyo davlatlari bilan Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy xamkorlik tashkilotiga a`zo bulib kirdi va Trans Osiyo temir yo`li kurulishida faol ishtirok etmoqda. Tashqi iqtisodiy alokalarda respublikamiz iqtisadietiga xorijiy sarmoyalarning tuxtovsiz kirib kelishni ta`minlamoqda. O`zbekiston xukumati Kanada, XXR, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, Shveyttsariya banklari va firmalari bilan 1,5 milliard AQSh dollari hajmida 32 ta yirik kredit bitimi tuzdi va ular amalga oshmaqda.

Sobiq SSSR parchalanib ketganday so`ng, 1991 yilning dekabrda Mustaqil davlatlar Xamrustligi tuzildi. O`zbekiston xamrustlik g`oyasini kullab, uning ta`sis etuvchilaridan biri bulib bu tashkilotga a`zo mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo aloqalarini mustahkamlas borasida faol ish olib bormoqda.

Davlatimizning tashqi siesatda Xamrustlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama xamkorlikni yo`lga kuyish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Rossiya, Ukraina, Belarus`, Moldova, MDH ning boshqa mamlakatlari bilan siesiy, savdo, iqtisodiy va boshqa sohalarda ikki tomonlama shartnomalar imzalanib uzaro manfaatli xamrustlik asoqalar uchun mustahkam asos yaratildi.

**MAVZUNI O`ZLASHTIRISHDA FOYDALANISH UCHUN
ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Shavkat Mirziyoyev."Milliy taraqqiyot yo`limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz" T.: "O`zbekiston", 2018 yil.

2. Shavkat Mirziyoyev."Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T.: "O`zbekiston", 2017 yil.

3. Shavkat Mirziyoyev."Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" T.: "O`zbekiston", 2017 yil.

4. Shavkat Mirziyoyev."Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T.: "O`zbekiston", 2017 yil.

5."Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta`minlashni rag`batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to`g`risida" O`zbekiston respublikasining prezidenti qarori.

6."Jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi qonuniga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish haqida. "Xalq so`zi" gazetasi, 2017 yil. 12 sentabr. 182(6876)-soni..

7. WWW. http. Lex.uz."Yoshlar kelajagimiz" davlat dasturi to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni.

SEMINAR MAVZULARI

T/r	Mashg'ulot Turi	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1.	Seminar	Markaziy Osiyo - insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri.	2
2.	Seminar	O'zbekiston hududida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bochqichlari (qadimgi davrlardan IX asrgacha).	2
3.	Seminar	Buyuk ipak yo'li va hozirgi zamon.	2
4.	Seminar	IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti.	2
5.	Seminar	IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish (renessans) davri: fan va madaniyat ravnaqi.	2
6.	Seminar	Amir Temur va Temuriylar davrida o'zbek davlatchiligi.	2
7.	Seminar	O'zbekiston hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.	2
8.	Seminar	Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati. Milliy ozodlik kurashi. Jadidchilik	2
9.	Seminar	Sovet hokimiyatining o'rnatilishiga qarshi qurolli harakat.	2
10.	Seminar	Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatagonlik siyosati, uning mohiyati va oqibatlari	2
11.	Seminar	Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi.	2
12.	Seminar	Ma'muriy buyruqbozlikning kuchayishi va inqirozi davrida O'zbekiston.	2
13.	Seminar	Mustaqil O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni.	2
14.	Seminar	O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyoti.	2
Jami:			28

1-mavzu. Markaziy Osiyo - insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri

Reja:

1. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, dolzarb muammolari, nazariy metodologik tamoyillari.
2. O'zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi.
3. Antropogenez jarayoni. Qadimgi odamlarning ilk Paleolitdan to temir davrigacha turmush tarzida ro'y bergan o'zgarishlar.
4. «Avesto»ning inson ma'naviy hayotini shakllantirishdagi o'rni.

2-mavzu. O'zbekiston hududida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (qadimgi davrlardan IX asrgacha)

Reja:

1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharontlari va omillari. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Sugdiyona davlatlari.
3. Axmoniylar va yunon-makedonlarning O'rta Osiyoni bosib olishi.
4. Salavkiylar, Yunon Baqtriya, Dovon, Xorazm Qang' va Kushon davlatlari.
5. Xioniylar, Kidariylar, Eftaliylar va Turk xoqonligining vujudga kelishi.

3-mavzu. Buyuk ipak yo'li va hozirgi zamon

Reja:

1. Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Amir Temur va temuriylar davrida Buyuk ipak yo'li shuhratining yanada ortishi.
3. XVI asrdan boshlab Buyuk ipak yo'li ahamiyatining pasayishi, uning sabablari
4. Hozirgi davrda Buyuk ipak yo'li an'alarini tiklash va rivojlanish borasidagi xalqaro hamkorlik harakatida O'zbekistonning ishtiroki.

4-mavzu. IX-XII asrlarda O'zbek davlatchiligi. Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot

Reja:

1. Arab xalifaligining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari, xalifalikka qarshi ozodlik harakatlari (Abu Muslim, Gurak, Divashtich va Muqanna qo'zgonlari.)
2. Toxiriylar va Somoniylar davrida Movarounnahr va Xuroson.
3. Qoraxoniylar, G'aznaviylar Saljuqiylar hukmronligi davri.
4. Xorazmshoh-Anushteginiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi.
5. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.

5-mavzu. IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uygonish (renessans) davri: fan va madaniyat ravnaqi

Reja:

1. «Uygonish davri». IX-XII asrlar O'rta Osiyoda madaniy yuksalish.
2. Qomusiy olimlar va ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar (Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Axmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib).
3. IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik. Imom Buxoriy. «Jome' as-Sahih».
4. Hadislar tavsifi (Imom Termiziy, Yusuf Xamadoniy, Axmad Yassaviy, Abduholik Gijduvoniy, Najmiddin Kubro, Naqshbandiya tariqati).
5. IX-XII asrlarda me'morchilik va san'at.

6-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida O'zbek davlatchiligi

Reja:

1. XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. Amir Temur buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda.
3. «Temur tuzuklari» muxim tarixiy manba.
4. Temuriylarning o'zaro kurashlari va markazlashgan davlatining inqirozi.
5. Temur va temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat.

7-mavzu. O'zbekiston hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari

Reja:

1. Movarounnahrda Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davri.
2. O'rta Osiyoda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining tashkil topishi.
3. Xonliklarning hududi va aholisi. ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti.
4. O'rta Osiyo xonliklaridagi madaniy hayot.

8-mavzu. Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati. Milliy ozodlik kurashi. Jadidchilik

Reja:

1. XIX asr o'rtalarida O'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy axvoli.
2. O'zbek xonliklarining Rossiya tomonidan bosib olinishi.
3. Rossiya imperiyasini mustamlakachilik siyosati.
4. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari.
5. Jadidchilik harakati.
6. Birinchi jahon urushining o'lka hayotiga salbiy ta'siri. 1916 yilgi xalq qo'zg'olonlari.

9-mavzu. Sovet hokimiyatining o'rnatilishiga qarshi qurolli harakat.

Reja:

1. 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobi va uning Turkistonga ta'siri.
2. Turkiston Muxtoriyati. Qo'qon fojeasi.
3. Turkiston ASSR. Harbiy kommunizm siyosati.
4. Sovet hokimiyatiga qarshi istiqloqlilik harakatlari.

10-mavzu. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'onlik siyosati, uning mohiyati va oqibatlari

Reja:

1. Totalitar tuzumning kuchayishi. Ma'muriy-buyrukbozlik boshqaruvi.
2. Milliy kuchlar safining bo'lib tashlanishi.
3. Quloqlashtirish. «Madaniy inqilob».
4. Siyosiy qatag'onlar. Ziyolilarning quvg'in qilinishi.
5. Inson huquqlari va erkinliklarining poymol etilishi.

11-mavzu. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi

Reja:

1. II-jahon urushining boshlanishi, sabablari va xarakteri.
2. O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi. Harbiy va mehnat safarbarligi.
3. Urush yillarida O'zbekiston sanoati. Fan va madaniyat.
4. Frontda o'zbek jangchilarining jasorati.
5. O'zbek xalqining yuksak gumanizmi. O'zbeklarning mudofaa fondiga qo'shgan hissasi.

12-mavzu. Ma'muriy buyruqbozlikning kuchayishi va inqirozi davrida O'zbekiston

Reja:

1. 50-70 yillarda O'zbekistondagi iqtisodiy hayot. Paxta yakkahokimligi.
2. 50-80-yillarda respublikaning madaniy hayoti.
3. 80-yillarning o'rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotdagi inqiroz.
4. «Qayta qurish»ning barham topishi va tarixiy adolatning tiklanishi. Farg'ona fojeasi.

13-mavzu. Mustaqil O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni

Reja:

1. O'zbekistonning davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. I.A.Karimov - O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti.
2. Mustaqil O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasidagi islohotlar.
3. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomalarining mohiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi" va uning mohiyati.

14-mavzu. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyoti.

Reja:

1. Taraqqiyotning «O'zbek modeli». Iqtisodiy va agrar islohotlar.
2. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik.
3. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi. Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm kabi ma'naviy taxdidlarga qarshi kurashda O'zbekistonning tutgan o'rni.
4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2017 йил “24” 08 даги 603 -сонли буйруғи билан фан дастури рўйхати тасдиқланган.

Фан дастури Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими йўналишлари бўйича Ўқув-услубий бирлашмалар фаолиятини Мувофиқлаштирувчи кенгашнинг 2017 йил “18” 08 даги 4 -сонли баённомаси билан маъқулланган.

Фан дастури Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

- Р.Х.Муртазаева – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Ўзбекистон тарихи” кафедраси профессори, тарих фанлари доктори.
- Ҳ.Э.Юнусова – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Ўзбекистон тарихи” кафедраси мудир, тарих фанлари доктори.
- А.А.Одилов – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Ўзбекистон тарихи” кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди
- Т.И.Дорошенко – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Ўзбекистон тарихи” кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди
- А.А.Инсопов – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Ўзбекистон тарихи” кафедраси катта ўқитувчиси

Такризчилар:

- Р.Э.Ҳоликова – И.А.Каримов номидаги Тошкент давлат техника университети “Ўзбекистон тарихи” кафедраси мудир, тарих фанлари доктори.
- М.М.Хайдаров – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети тарих факультети декани, тарих фанлари номзоди, доцент.

Фан дастури Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Кенгашида кўриб чиқилган ва тасвир килинган (2017 йил “14” 07 даги 6 -сонли баённома).

I. Ўқув фанининг долзарблиги ва олий касбий таълимдаги ўрни

Мамлакатимизни модернизация килиш, фаол демократик янгиланишларни амалга ошириш борасида кенг кўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Ана шу буюк ўзгаришлар жараёнида халқимизнинг бой тарихи, бетакрор миллий кадриятлари, бебаҳо илмий, маданий мероси қайта тикланиб, бутун башариятнинг ноёб мулкига айланди. Айниқса, бугунги глобаллашув даврида маънавий соҳасида вужудга келаётган долзарб муаммолар, халқимиз маънавиятини асраш ва янада юксалтириш, ёш авлоднинг калби ва онгини турли зарарли гоё ва мафқуралар таъсиридан саклаш ва химоя килишда Ватанимиз тарихини бирламчи манбаларга таяниб, ҳар томонлама ва чуқур тадқиқ этиш ёш авлодга ҳақиқий тарихимизни ўқитиш орқали уларни юксак маънавийли шахслар этиб тарбиялаш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Ушбу фанининг барча олий ва ўрта махсус ўқув юртлари ҳамда мактабларда ўқитилиши ҳам ана шу юксак аҳамият билан белгиланади.

II. Ўқув фанининг максоди ва вазифаси

Фани ўқитишнинг максоди – миллий тарих, миллий гурур ва ифтихор манбаи ҳисобланишини ёш авлод онгига сингдириш, уларда тарихий хотира, тарихий тафаккур кўникмасини тарбиялаш миллий гоё ва юксак маънавий фазилатларни шакллантириш, маънавий дунёсини бойитиш уларни ўз халқи ва Ватанига садоқат, амалга оширилаётган улкан бунёдкорлик ишларининг онгли фаол иштирокчиси бўлиш руҳида фикрлаш ва яшашга ўргатишдан иборат.

Фани ўқитишнинг вазифалари – тарихий-маданий жараёнларни ҳолисона ҳамда манбаларга таянган ҳолда таҳлил килиш, уларнинг сабаблари ва моҳиятини очиқ бериш;

– ёшларимизда ўзини англаш, ватанпарварлик, тарихий кадриятларга ҳурмат, бой тарихимизни кадрлаш фазилатларини шакллантириш;

– мамлакатимизда ҳуқуқий демократик давлат ҳамда фуқаролик жамиятини барпо этиш, турли соҳалардаги ислохотлар, жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашув билан боғлиқ тарихий жараёнлар, воқеа ва ҳодисаларни ёшлар онгига тарихий ҳақиқат тамойиллари асосида етказиш.

Фан бўйича талабаларнинг билим, кўникма ва малакаларига кўйидаги талаблар:

– фанининг предмети, назарий-методологик асослари, манбалари;

– ўзбек давлатчилигининг шаклланиши ва ривожланиши, халқимизнинг дунё цивилизациясига кўшган ҳиссаси;

– Ўзбекистон тарихининг асосий давлари ва тараккиёти тадрижий босқичлари, уларнинг узвий боғлиқлиги ва давомийлиги, тарихий воқеалар ворисийлиги;

– мустамлакачилик ва совет мустабид даврида Ўзбекистоннинг турли соҳалари ривожланишига қарши сиёсат ва уларнинг аянчли оқибатлари;

- турли даврларда озодлик йўлида амалга оширилган курашлар ҳамда ватанпарварлик жасоратлари;
- Ўзбекистонда давлат мустақиллигининг қўлга киритилиши, ҳукукий демократик давлат ва фуқаролик жамияти асосларининг барпо этилиши, ривожланиши, янгиланиш ва модернизация жараёнлари хақида *билимга*;
- Ватанмиз тарихи бўйича ўз тарихий тафаккурини бойитиб бориш ва тарихий ҳақиқат тамойиллари асосида тарихий воқеалар ва жараёнларни таҳлил қила билиш;
- Ўзбекистоннинг жаҳон цивилизацияси ўчоқларидан бири эканлигини теран ҳис қила олиш;
- аждодларимиз ибратли ҳаёти ва фаолияти билан фахрланиш ва ватанпарварликни намоён эта олиш *қўникмаларига*;
- тарихий воқеа ва ҳодисалар натижаларини киёсий таккослаш орқали улардан ҳулосалар чиқариш;
- жамият таракқиётида ўзининг тутган ўрнини англай билиш, ҳис этиш ва фаол иштирок этиш;
- тарихий воқеалар ва ҳодисаларга нисбатан ўз нуқтаи назарига, мустақил фикрига ва муносабат билдира олиш *малакаларига эга бўлиши керак*.

III. Асосий назарий қисм (маъруза машғулотлари)

1-мавзу. “Ўзбекистон тарихи” фанининг предмети, уни ўрганишнинг назарий-методологик асослари, манбалари ва аҳамияти

Ўзбекистон тарихи фанининг предмети, тадқиқот объекти, назарий методологик тамойиллари. Ўзбекистон тарихи жаҳон халқлари тарихи билан узвий боғлиқлиги. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг асарларида бу масалаларнинг ёритилиши. Ўзбекистон тарихини ўрганишда моддий ва ёзма манбаларнинг ўрни ҳамда аҳамияти. Ҳар томонлама етук, маънавий баркамол, онгида миллий ғоя ва Ватан равнақи мафқураси устунлик қиладиган, юксак маънавиятли комил инсонларни тарбиялашда Ўзбекистон тарихи фанининг ўрни.

2-мавзу. Марказий Осиё - жаҳон цивилизациясининг ажралмас қисми

Ўзбекистон қадимги цивилизация ва маданият бешиги. Антропогенез жараёни. Қадимги одамларнинг турмуш тарзи, машғулотлари. Палеолит даври. Палеолит даври ибтидоий ҳўжалигидаги ўзгаришлар. Неандертал одами. Мезолит даври. Неолит даври. Тош қуролларининг такомиллашуви. Чорвачилик ва дехқончилик. Энеолит даври. Бронза давридаги ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар. Ўрта Осиёда илк шаҳар маданиятининг пайдо бўлиши. “Авесто” нинг инсоннинг маънавий ҳаётини шакллантиришдаги ўрни.

3-мавзу. Ўзбек давлатчилигининг шаклланиши ва дастлабки тараккиёт боскичлари

Давлат тузилмаларининг шаклланиш шарт-шароитлари ва омиллари. Илк шаҳарлар. Дастлабки бошқарув тизими. Илк давлатлар. Қадимги Хоразм давлати. Хоразм давлатида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт. Қадимги Бактрия давлати. Ижтимоий- иқтисодий ва маданий ҳаёт. Сугд (Сугдиёна). Ахмонийларнинг Ўрта Осиёни босиб олиши. Махаллий аҳолининг босқинчиларга қарши озодлик учун кураши. Ахмонийларнинг ҳукмронлиги даврида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт. Александр Македонский бошчилигидаги юнон-македон кўшинларининг Ўрта Осиёга юриши. Спитамен. Салавкийлар ҳукмронлиги даври. Юнон Бактрия давлати. Эллин маданияти. Довон давлати. Ижтимоий-иқтисодий ҳаёти. Қанг давлати. Иқтисодий ҳаёти. Афригийлар сулоласи даврида Хоразм. Кушон подшологи даврида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт. Маданий – маънавий ҳаёт. Қадимий ёзув маданияти. Буюк ипак йўлининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Ўзбек халқи этногенези. “Ўзбек” атамаси. Ўзбекистоннинг миллий мустақиллик давридаги этник ҳолати ва бу соҳадаги ўзгаришлар. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжихатлик.

4-мавзу. Илк ўрта асрларда ўзбек давлатчилиги: ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт

Ҳионийлар ва кидарийлар. Эфталлийлар ҳукмронлиги даврида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт. Турк ҳоконлигининг вужудга келиши. Турк ҳоконлиги томонидан Ўрта Осиё ва Уралолди ҳудудларининг забот этилиши. Ижтимоий –иқтисодий ва маданий ҳаёт. Ғарбий Турк ҳоконлиги. Араб халифалиги томонидан Ўрта Осиёга амалга оширилган истилочилик юришлари. Араб халифалигига қарши озодлик ҳаракатлари. Абу Муслим бошчилигидаги ҳаракат. Ғурак ва Деваштич. Халқ ғалаёнлари. Муканна кўзғолони. Ислом динининг ёйилиши. Қуръони-карим – муқаддас китоб. Ҳадислар ва уларнинг ижтимоий-сиёсий моҳияти. Ислом дини таълимотини ривожлантиришда Ўрта Осиёлик олимларнинг ҳиссаси. Маънавий камолотга эришув йўлида муҳаддислар меросининг аҳамияти.

5-мавзу. IX-XII асрларда ўзбек давлатчилиги. Ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ҳаёт. Аждодларимизнинг жаҳон цивилизацияси тараккиётига қўшган улкан ҳиссаси

IX аср бошларида Мовароуннаҳр. Тоҳирийлар давлати. Ижтимоий-иқтисодий ҳаёт. Сомонийлар сулоласи. Исмоил Сомоний. Ижтимоий-иқтисодий ҳаёт. Қорахонийлар ҳукмронлиги. Ижтимоий-иқтисодий ҳаёт. Ғазнавийлар давлати. Маҳмуд Ғазнавий даврида давлатнинг кучайиши. Ғазнавийлар билан салжукийлар ўртасидаги тўқнашув. Салжукийлар давлати.

Ижтимоий-иқтисодий аҳвол. Хоразмшоҳ-Ануштегинийлар сулоласининг ҳокимият тепасига келиши. Султон Отсиз. Султон Такаш фаолияти. Мухаммад Хоразмшоҳ. Ижтимоий-иқтисодий аҳвол ва маданий ҳаёт. “Уйғониш даври”. IX-XII асрлар Ўрта Осиёда маданий юксалиш. Байт ул-хикма. Хоразм “Маъмур академияси”. Қомусий олимлар. Ал-Хоразмий. Ал-Фарғоний. Абу Райҳон Беруний фаолияти. Абу Али ибн Сино. Олимнинг тиббиёт соҳасидаги ютуқлари. Ал-Форобий - буюк қомусий олим. Маҳмуд Қошғарий. Аҳмад Юғнакий. Юсуф Хос Ҳожиб. IX-XII асрларда ислом дини ва сўфийлик. Имом Бухорий. «Жомеъ ас-Саҳих». Ҳадислар тавсифи. Имом Термизий. Юсуф Ҳамадоний. Аҳмад Яссавий. Абдуҳолик Ғиждувоний. Нажмиддин Кубро. Кубровия оқими. Накшбандия тариқати. IX-XII асрларда меъморчилик ва санъат.

6-мавзу. Мўғуллар истилоси ва зулмига қарши кураш. Жалолоддин Мангуберди – мард ва жасур аждодимиз

Чингизхон (Темучин) давлати. Чингизхон ва Султон Мухаммад Хоразмшоҳ муносабатлари. Баҳовуддин Розий. Ўтрор воқеаси. Мўғулларнинг Ўрта Осиёга истилочилик юришлари. Мўғуллар ҳужуми арафасида Хоразмшоҳлар давлати. Ўтрор мудофааси. Хўжанд камали. Темур Малик жасорати. Бухоро ва Самарқанднинг босиб олиниши. Гурганж (Урганч) камали. Нажмиддин Кубро жасорати. Жалолоддин Мангуберди-юрт химоячиси. Парвон жанги. Синд жанги. Жалолоддин Мангубердининг Ўрта Шарқдаги фаолияти. Мўғул истилоси ва зулмига қарши курашнинг давом эттирилиши. Ўлкада мўғуллар ҳукмронлигининг ўрнатилиши ва унинг оқибатлари. Чигатой улусининг ташкил топиши. Маҳмуд Ялавоч. Маҳмуд Торобий кўзғолони. Кебекхоннинг маъмурий ва пул ислохотлари. Қозонхон даврида ҳокимият учун ички курашнинг кучайиши. Чигатой улусининг парокандаликка учраши. Маданий ҳаёт.

7-мавзу. Амир Темур ва Темурийлар даврида ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий ҳаёт

XIV аср ўрталарида Мовароуннаҳрдаги ижтимоий-сиёсий вазият. Амир Темурнинг сиёсий кураш майдонига кириб келиши. Амир Темур ва Амир Хусайн. Сарбадорлар ҳаракати. Амир Темур ҳокимиятининг ўрнатилиши. Амир Темурнинг ҳарбий юришлари. Амир Темур – буюк давлат арбоби, машҳур саркарда. “Куч – адолатда”. Амир Темурнинг Ўрта Осиё ва жаҳон тарихида тутган ўрни. Салтанатни бошқариш тизими. Қўшиннинг тузилиши ва ҳарбий интизом. “Темур тузуклари” – давлат бошқарув ишидаги муҳим манба сифатида. Хўжалик ва маданий ҳаёт. Марказлашган давлатнинг парчаланиши. Шохрух Мирзо ҳукмронлиги даврида темурийлар салтанати. Мовароуннаҳрда Мирзо Улугбек ҳукмронлиги. Мирзо Улугбек даврида маданият, илм-фан ва адабиёт равнақи. Ички низо ва курашларнинг авж олиши. Мовароуннаҳрда

Абусаид ва унинг ўғиллари, Хуросонда Хусайн Бойкаро хукмронлиги. XV асрнинг иккинчи ярмида фан, адабиёт ва маданият. Алишер Навоийнинг сиёсий ва адабий фаолияти.

8-мавзу. Ўрта Осиё худудларининг хонликларга бўлиниб кетиши, унинг сабаблари ва оқибатлари

Мухаммад Шайбонийхон. Бобур ва Шайбонийхон. Мовароуннахрда шайбонийлар хукмронлигининг ўрнатилиши. Ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт. Абдуллахон II. Бухоро хонлигида аштархонийлар (жонийлар) сулоласи хукмронлиги. Бухоро хонлигининг ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий аҳволи. Мамлакатда ички кураш, таркоқликнинг кучайиши ва унинг асосий сабаблари. Бухоро хонлигида ҳокимиятнинг манғит амирлари кўлига ўтиши. Бухоро амирлигида маданий ҳаёт. Бухоро – ислом ва маърифат маркази. Хива хонлигининг ташкил топиши. Шайбонийларнинг Хивадаги хукмронлиги. Қўнғирот сулоласининг ҳокимият тепасига келиши. Қорақалпоқлар. Ижтимоий-иқтисодий аҳвол. Маданий ҳаёт. XVIII асрда Фарғона водийсидаги сиёсий вазият. Қўкон хонлигига асос солиниши. Хонликнинг худуди ва аҳолиси, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ҳаёти. Қўкон хонлигидаги ички кураш. Халқ норозилигининг кучайиши. Қўкон хонлигида маданий ҳаёт. Хонликлардаги сиёсий-ҳуқуқий билим ва диний дунёкарашнинг жамият маънавий, моддий ҳаётидаги ўрни.

9-мавзу. Ўзбек хонликларининг Россия империяси томонидан босиб олинishi. Мустамлакачилик зулмига қарши миллий-озодлик ҳаракати. Жаҳидчилик

XIX аср ўрталарида ўзбек хонликларининг ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий аҳволи. Ўрта Осиё масаласида инглиз-рус рақобати. Қўкон хонлиги худудларига ҳужум. Тошкент муҳофааси. Жиззах, Ўратепа жанглари. Туркистон генерал-губернаторлиги. Бухоро амирлигининг Россия империяси вассалига айлантирилиши. Хива хонлигига босқинчилик юриши. Хива хонлигининг Россия империяси вассалига айлантирилиши. Қўкон хонлигида сиёсий танглик. Халқ кўзғолонлари. Россия империяси томонидан Қўкон хонлигининг тугатилиши. Фарғона вилоятининг ташкил этилиши. Россия империясининг мустамлакачилик сиёсати, бошқарув тизими. Ҳарбий бошқарув тартиби. Россия империясининг иқтисодий хукмронликни ўрнатиш тадбирлари. Аграр сиёсат. Аҳолини кўчириб келтириш сиёсати. Мустамлакачиликни кучайтиришга қаратилган маданий ва маърифий сиёсат. Мустамлакачилик зулмига қарши миллий озодлик ҳаракатлари. Фарғона водийсидаги халқ ҳаракатлари. Тошкент кўзғолони. Андижон кўзғолони. Жаҳидчилик ҳаракати ва унинг атоқли вакиллари. Биринчи жаҳон урушининг ўлка ҳаётига салбий таъсири. Аҳоли норозилигининг кучайиши. 1916 йилги халқ кўзғолони ва унинг характери.

10-мавзу. Туркистонда мустабид совет хокимиятининг ўрнатилиши. Совет хокимиятининг Ўзбекистонда амалга оширган ижтимоий-сиёсий, иктисодий тадбирларининг мустамлакачилик моҳияти (1917-1989 йй.)

1917 йил февраль буржуа-демократик инқилоби ва унинг Туркистонга таъсири. Советлар хокимиятининг ўрнатилиши. Туркистон мухторияти. Кўкон фожеаси. Туркистон АССР. Ҳарбий коммунизм сиёсати. Совет хокимиятига қарши қуролли ҳаракат. Хива хонлиги. “Ёш хивалиқлар”. Хива хонлигининг ағдарилиши. Хоразм Халқ Совет Республикаси. Бухоро амирлиги. “Ёш бухоролиқлар”. Амир хокимиятининг ағдарилиши. Бухоро Халқ Совет Республикаси. 20-йилларда ижтимоий-сиёсий ва иктисодий вазият. Ер-сув ислохотлари. Ўрта Осиёда миллий - давлат чегараланиши. Ўзбекистон ССР. Қорақалпоғистондаги ижтимоий-сиёсий ва иктисодий аҳвол. Саноатлаштириш ва аграр сиёсат. Жамоалаштириш сиёсати. Қулоқлаштириш. “Маданий инқилоб”. Маъмурий-бўйруқбозлик бошқаруви. Сиёсий катагонлар. Иккинчи жаҳон уруши. Хўжалик ва ижтимоий ҳаётнинг ҳарбий изга солиниши. Уруш йилларида Ўзбекистон саноати. Фан ва маданият. Ўзбекистонлиқларнинг фронтдаги жасоратлари. 50-70-йилларда Ўзбекистондаги иктисодий ҳаёт. Иктисодиётнинг хомашё етиштириш томон йўналтирилиши. Пахта яккахокимлиги. 50-80-йилларда республиканинг маданий ҳаёти. 80-йилларнинг ўрталаридаги ижтимоий-сиёсий, иктисодий, маънавий ҳаётдаги инқироз. “Қайта қуриш” ва унинг чекланганлиги. “Пахта иши”, “Ўзбеклар иши”. Оммавий катагонлар. Фарғона фожеаси.

11-мавзу. Ўзбекистон мустақилликка эришиш йўлида (1989-1991 йй.)

И.Каримовнинг Ўзбекистон Компартияси Марказий кўмитаси биринчи котиби этиб сайланиши. Республика ижтимоий-сиёсий ҳаётида ўзгаришлар. Кадрлар сиёсатида миллий манфаатлар устуворлигининг ўсиб бориши. “Пахта иши”нинг қайта кўрилиши ва тарихий адолатнинг тикланиши. “Давлат тили ҳақида”ги Қонун. Биринчи Президент И.Каримовнинг “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” китобида совет даврининг сўнгги йиллари инқирози масалаларининг ақс этиши. Ижтимоий-иктисодий ва маданий ҳаёт. И.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти этиб сайланиши. Мустақиллик Декларацияси ва унинг аҳамияти. 1991 йил август воқеалари. СССРнинг таназзулга юз тутиши.

12-мавзу. Ўзбекистонда давлат мустақиллигининг қўлга киритилиши. Ҳуқуқий демократик давлат қуриш ва фуқаролик жамият асосларини шакллантириш

Ўзбекистоннинг давлат мустақиллигининг эълон қилиниши ва унинг тарихий аҳамияти. 1991 йил 29 декабрдаги референдум ва умумхалқ томонидан

Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг маъқулланиши. И.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти этиб сайланиши. Сиёсий ислохотлар. Давлат ҳокимиятининг миллий, ҳуқуқий, демократик асосларининг барпо этилиши. Қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятлари. Кўппартиявийлик тизимига асос солиниши. Ўзбекистон парламенти. Икки палатали парламент. Вазирлар Маҳкамаси, унинг ижро этувчи ҳокимиятнинг муҳим бўғини сифатидаги ўрни. Халқ хўжалиги тизими бошқарувидаги ислохотлар. Суд ҳокимияти ислохотлари. Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари. Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқарув органлари. Миллатлараро тинчлик ва тотувлик. Ахборот тизимини эркинлаштириш.

13-мавзу. Мустақиллик йилларида Ўзбекистондаги ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маданий тараққиёт. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти

Тараққиётнинг “Ўзбек модели”. Иқтисодий ислохотлар. Хусусийлаштириш. Кўп укладли иқтисодиёт. Тадбиркорликнинг ривожланиши. Бозор инфратузилмасининг шаклланиши. Иқтисодиётдаги чуқур таркибий ўзгаришлар. Аграр ислохотлар. Иқтисодий барқарорликнинг таъминланиши. Кучли ижтимоий сиёсат. Маънавий қадриятларнинг тикланиши. Миллатлараро муносабатлардаги барқарорлик. “Таълим тўғрисида”ги қонун ва “Қадрлар тайёрлаш миллий дастури”. Илм-фаннинг ривожланиши. Маданият ва санъат. Жисмоний тарбия ва спорт. Қорақалпоғистоннинг ижтимоий-иқтисодий, маданий-маърифий тараққиёти. Тинчликсевар мустақил ташки сиёсат асосларининг ишлаб чиқилиши. БМТ, ЕХХТ билан ҳамкорликнинг йўлга қўйилиши. Шанхай ҳамкорлик ташкилоти ва Ўзбекистон. Ўзбекистон ва МДҲ. Халқаро терроризм, диний экстремизмга ва “оммавий маданият” никоби остидаги маънавий таҳдидларга қарши курашда Ўзбекистоннинг тутган ўрни. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан ижтимоий – иқтисодий ислохотларни янада жадаллаштирилиши. 2017-2021 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш Ҳаракатлар стратегияси.

IV. Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар

Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан кўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда дарслик ва услубий қўлланмалар асосида билимларни мустақамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билиминни ошириш, мавзулар бўйича кўргазмаларни ўқув воситаларни тайёрлаш тавсия қилинади.

Семинар машғулоти давомида нафақат талабалар, балки фан ўқитувчиларининг ҳам фаолиги, билимдонлиги, интеллектуал салоҳияти, янги педагогик технологиялардан самарали фойдалана олиш қобилияти талаб этилади.

“Ўзбекистон тарихи” фани бўйича семинар машғулотларининг тавсия этиладиган мавзулари:

1. Марказий Осиё - инсоният цивилизациясининг қадимги ўчоқларидан бири
2. Ўзбекистон ҳудудида дастлабки давлатларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш бочкичлари (қадимги даврлардан IX асргача)
3. Буюк ипак йўли ва ҳозирги замон
4. IX-XII асрларда ўзбек давлатчилиги. Сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий ҳаёти
5. IX-XII асрларда Ўрта Осиё халқлари ҳаётида юз берган уйғониш (ренессанс) даври: фан ва маданият равнақи
6. Амир Темури ва Темурийлар даврида ўзбек давлатчилиги
7. Ўзбекистон ҳудудларининг хонликларга бўлиниб кетиши, унинг сабаблари ва оқибатлари
8. Россия империясининг Туркистонда юритган мустамлакачилик сиёсати. Миллий озодлик кураши. Жаҳидчилик
9. Совет ҳокимиятининг ўрнатилишига қарши қуролли ҳаракат.
10. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда юритган катағонлик сиёсати, унинг моҳияти ва оқибатлари
11. Иккинчи жаҳон уруши йилларида ўзбек халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси
12. Маъмурий буйруқбозликнинг қучайиши ва инкирози даврида Ўзбекистон
13. Мустақил Ўзбекистонда демократик ҳуқуқий давлат, фуқаролик жамияти асосларини шакллантириш жараёни
14. Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларидаги иқтисодий, маънавий ва маданий тараққиёти.

V. Мустақил таълим ва мустақил ишлар

Талабага мустақил ишни тайёрлашда муайян фаннинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланиш тавсия этилади:

- дарслик ёки ўқув қўлланмалар бўйича фанлар боблари ва мавзуларини ўрганиш;
- таркатма материаллар бўйича маърузалар қисмини ўзлаштириш;
- мустақил ишлар, кейс-стадилар билан ишлаш;
- фанга оид маълумотларни ўрганиш, уларни таҳлил қилиш;
- талабанинг ўқув-илмий-тадқиқот ишларини бажариш билан боғлиқ бўлган фанлар бўлимлари ёки мавзуларни чуқур ўрганиш;
- фаол ва муаммоли ўқитиш услубидан фойдаланиладиган ўқув машғулотлари;

Мустақил таълим учун тавсия этиладиган мавзулар:

1. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримовнинг “Тарихий хотирасиз келажак йўк” асарида тарих фанини ривожлантириш борасида баён қилинган концептуал ғояларнинг аҳамияти.
2. “Авесто” - тарихий манба сифатида.
3. Ўзбекистонда давлатларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари.
4. Имом Ал-Бухорийнинг «Жомеъ ас-Саҳих» асари – Ислом динининг муҳим тарихий манбаси.
5. Наршахийнинг «Бухоро тарихи» асари – тарихий манба сифатида.
6. Ўрта Осиёлик алломаларнинг жаҳон цивилизациясига қўшган хиссаси.
7. Амир Темур тузуклари – давлат бошқаруви тўғрисидаги муҳим манба сифатида.
8. Амир Темур ва темурийлар даврида илм-фан ва маданият.
9. Жалолиддин Мангубердиннинг Ватан ҳимояси йўлидаги жасорати.
10. Алишер Навоий давлат арбоби ва шоир сифатида.
11. Бухоро, Хива ва Қўқон хонлиқларида ижтимоий-иқтисодий, маданий ҳаёт.
12. Туркистон жадидлари илгари сурган ғоялар, маърифий қарашлар ва уларнинг мазмун-моҳияти.
13. Иккинчи жаҳон уруши йилларида ўзбек халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган хиссаси.
14. Ўзбекистонда 50-70 йилларда пахта яққаҳоқимлигининг кучайиши ва экологик муаммоларнинг келиб чиқиши.
15. Ўзбекистон мустақил тараққиёт йўлида.

VI. Асосий ва қўшимча ўқув адабиётлар ҳамда ахборот манбалари

Асосий адабиётлар

1. Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. – Т.: Янги аср авлоди, 2005 (лотин алифбосида).
2. Муртазаева Р.Х. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Академия, 2010.
3. Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Дарслик, – Т.: Янги аср авлоди, 2012.
4. Эшов Б., Одиллов А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. Энг қадимги даврдан XIX аср ўрталаригача. Дарслик. – Т.: Янги аср авлоди, 2014.
5. Ўзбекистон тарихи. Дарслик II жилд. Муаллифлар жамоаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2015.

Қўшимча адабиётлар

1. Каримов. И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўк. Т.: Шарқ, 1998.
2. Каримов. И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.

3. Каримов. И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ. Т.: «Ўзбекистон» 2016.
5. Мирзиёев Ш.М. Танкидий тахлил, катъий-тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. Т.: «Ўзбекистон» 2017.
6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент.: Ўзбекистон, 2017.
8. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1 жилд. – Т.: Фан, 1968.
9. “Авесто”. “Яшт” китоби. Ўзбек тилига М.Исҳоқов илмий-изоҳли таржималари. – Т.: Шарқ, 2001.
10. Ата-Мирзаев О.Б., Гентшке В.Л., Муртазаева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
11. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000.
12. Буниётов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Т.: Гафур Гулом, 1998.
13. Бобобеков Х.Н. Қўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996.
14. Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. – Т.: Шарқ, 2001.
15. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Т.: Ўзбекистон, 2001.
16. Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. – Т.: Чўлпон, 1994.
17. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар даври. – Т.: Фан, 1996.
18. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2007.
19. Низомул мулк. Сиёсатнома. – Т.: Адолат, 1997.
20. Саъдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Университет, 2004.
21. Темур тузуклари. – Т.: Шарқ, 2012.
22. Темур ва Улугбек даври тарихи. – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1996.
23. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Фан, 2001.
24. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996.

25. Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва маънавий жараёнлар (XX аср 80-йиллари мисолида). – Т.: Abu matbuot-konsalt, 2009.
26. Шарофуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарк, 1997.
27. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарк, 2000.
28. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарк, 2000.
29. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т.: Шарк, 2000.

Интернет сайтлари

1. “Халқ сўзи” газетаси – www.infoXS.Uz.
2. “Туркистон” газетаси – www.turkiston.sarkor.uz.
3. “Маърифат” журнали – www.ma.rifat-inform.
4. “Жамият ва бошқарув” журнали – www.rzult.academy.freenet.uz.
5. “Мозийдан садо” журнали – www.moziy.dostlink.Net
6. www.ZiyoNet.uz.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabaga mustaqil ishni tayorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarkatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- mustaqil ishlar. keys-stadilar bilan ishlash;
- fanga oid ma'lumotlarni o'rganish, ularni taxlil qilish;
- talabaning o'quv - ilmiy - tatqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

Talaba fandan kafedrada tasdiqlangan mustaqil ta'lim mavzularidan 1tasini tanlaydi. Tanlangan mavzusi bo'yicha 5 ta vazifani bajaradi. Bu vazifalar – mavzusi bo'yicha **adabiyotlar ro'yxati** va shu adabiyotlar asosida **referat, maqola** yozish, **test** tuzishdan iborat.

Eslatma: Mustaqil ta'lim mavzulari va oraliq nazorat topshiriqlari darsiing 1 kunida talabalarga beriladi, bajarish muddati 2 oydan kam bo'lmagan holda o'tkazilish kuni aytiladi va guruh jurnaliga yoziladi. Mustaqil ta'lim mavzulari va oraliq nazorat topshiriqlari 1 ta daftarda jamlangan holda belgilagan kunda yozma va og'zaki shakllarda asditoriyada o'tkazilishi talabalarga e'lon qilinadi.

Mustaqil ishni baholash mezonlari: talabaning fan bo'yicha bajargan mustaqil ishidan olgan bahosi joriy nazorat bahosi tarkibiga singdiriladi.

1. Adabiyotlarni baholashda – talabaning tanlagan mavzusiga oid kerakli adabiyotlarni tanlay olishi (Prezident asarlari, qarorlar, dasturlar, nizomlar, monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar, internet saytlari) va foydalana olishi malakasiga asosiy e'tibor beriladi.

1. Adabiyotlar 10 tadan ko'p bo'lsa va keltirilgan adabiyotlar mavzuga oid bo'lsa va adabiyotlar ro'yxatida Prezident asarlari, qarorlar, dasturlar, nizomlar, monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar, internet saytlari berilgan bo'lsa hamda referat, maqola yozishida, test tuzishda, bitiruv malakaviy ishi rejasini to'g'ri tuzishida foydalana olsa - **«a'lo» (5 baho)**;

2. Adabiyotlar 10 tadan ko'p bo'lsa va keltirilgan adabiyotlar mavzuga oid bo'lsa va adabiyotlar ro'yxatida monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar, ommaviy nashrlar berilgan bo'lsa hamda referat, maqola yozishida, test tuzishda, bitiruv malakaviy ishi rejasini to'g'ri tuzishida foydalana olsa– **«yaxshi» (4 baho)**;

3. Adabiyotlar ro'yxati to'liq bo'lsayu, lekin bitta manbadan foydalangan bo'lsa va shu asosda referat, maqola yozgan, test va bitiruv malakaviy ishi rejasini tuzgan bo'lsa – **«qoniqarli» (3 baho)**;

4. Talabaning ishida yuqoridagi aspektlar yetarli bo'lmasa **qoniqarsiz (2 baho)**.

2. Referatni baholashda:

1. Referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan ijodiy fikrlari bo'lsa **5 baho**;

2. Referat mavzusi mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor **4 baho**;

3. Mavzu mohiyati yoritilgan, ammo iqtiboslar berilmagan, ayrim kamchiliklar bo'lsa, **3 baho**;

4. Talabaning ishida yuqoridagi aspektlar yetarli bo'lmasa **qoniqarsiz (2 baho)**.

3. Maqolani baholashda:

1. Mavzuda o'rganilayotgan obekt chuqur tahlil qilinib, asos, gepoteza ilgari surilgan, muammo echimlari ko'rsatilgan bo'lsa **5 baho**;

2. Mavzu tahlil qilingan, muammoni echishga oid taklif berilgan bo'lsa **4 baho**;

3. Mavzuda ilmiy faraz ilgari surilgan bo'lsa **3 baho**;

4. Talabaning ishida yuqoridagi aspektlar yetarli bo'lmasa **qoniqarsiz (2 baho)**.

4. Test savollarini baholashda:

• Tuzilgan savollar mavzu mohiyatini to'liq ochib bergan, muhim qoidalar, g'oyalar, qonuniyatlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa **5 baho**;

• Savollar to'g'ri tuzilgan, lekin ayrim kamchiliklar bo'lsa **4 baho**;

• Tuzilgan savollar umumiy va g'alizliklar bo'lsa **3 baho**;

• Talabaning ishida yuqoridagi aspektlar yetarli bo'lmasa **qoniqarsiz (2 baho)**.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida tarix fanini rivojlantirish borasida bayon qilingan konseptual g'oyalarning ahamiyati.
2. «Avesto» - tarixiy manba sifatida.
3. O'zbekistonda dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari.
4. Imom Al-Buxoriyning «Jome' as-Sahih» asari - islom dinining muxim tarixiy manbasi.
5. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari - tarixiy manba sifatida.
6. O'rta Osiyolik allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.
7. "Temur tuzuklari" - davlat boshqaruvi to'g'risidagi muxim manba sifatida.
8. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat.
9. Jaloliddin Manguberding Vatan himoyasi yo'lidagi jasorati.
10. Alisher Navoiy davlat arbobi va shoir sifatida.
11. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot.
12. Turkiston jadidlari ilgari surgan g'oyalar, ma'rifiy qarashlar va ularning mazmun-mohiyati.
13. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi.
14. O'zbekistonda 50-70 yillarda paxta yakkahokimligining kuchayishi va ekologik muammolarning kelib chiqishi.
15. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida.
16. Komil inson tarbiyasida tarixning o'rni.
17. O'zbekiston tarixini o'rganishda manbalarning o'rni.
18. Jahon taraqqiyoti tarixida O'rta Osiyo sivilizatsiyasining o'rni.
19. Ibtidoiy davr madaniyati va tasviriy san'at.
20. Avesto-Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manba
21. Ahamoniy istilochilarining O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari, Shiroq jasorati
22. Yunon-makedon istilochilarining O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari, Spitamen qo'zg'oloni
23. Antik davr davlatlari (Yunon-Baqriya, Qang', Dovon davlatlari, Kushon podsholigi)
24. Buyuk ipak yo'li va uning O'rta Osiyo xalqlari hayotida tutgan o'rni
25. Xioniylar va kidariylar, eftallar davrida O'rta Osiyo.
26. Turk hoqonligi
27. Mahalliy davlat uyushmalari (Farg'ona, Xorazm, Choch va Eloq, Sug'd, Tohariston)
28. Temuriylar davlati inqirozi va uning oqibatlari.
29. O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishini.
30. Arablarning Movarounnahrda mustamlakachilik siyosati va unga qarshi xalq harakatlari.
31. Islom dini va uning sharq xalqlari hayotidagi o'rni.
32. Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar davlatlarining vujudga kelishi
33. Sharq mutafakkirlari va allomalarning jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar.
34. Islom madaniyati. hadislar va tasavvuf ilmi.
35. Mo'g'ul davlatining tashkil topishi va istilochilik yurishlari.
36. Mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashda Jaloliddin Manguberdi jasorati
37. Chig'atoy ulusining tashkil topishi, ulusda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
38. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni va uning yakuni
39. Amir Temur markazlashgan davlat asoschisi.
40. «Temur tuzuklari» - va uning mazmun-mohiyati.
41. Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyat ravnaqi
42. Amir Temur va hozirgi zamon.
43. Mustaqillik yillarida Amir Temur siyomosining qayta tiklanishi
44. Mirzo Ulug'bek – davlat arbobi va olim
45. Zahiriddin Muhammad Bobur – mohir sarkarda va shoir
46. Dashti Qipchoqda shayboniylar davlatining tashkil topishi.
47. Shayboniylar tomonidan Movarounnahrning zabt etilishi.
48. Shayboniylar davrida Buxoro xonligi
49. Ashtarxoniylar davrida O'rta Osiyo.

50. Xiva xonligi va uning ijtimoiy siyosiy tuzumi.
51. Qo'qon xonligi va uning ijtimoiy siyosiy tuzumi.
52. Buxoro amirligi va uning ijtimoiy siyosiy tuzumi.
53. Toshkent hokimligi.
54. Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olishi
55. Rossiya imperiyasi mustamlakachilariga qarshi mahalliy xalqlarning qahramonona kurashi. Jasorat va xiyonat.
56. Rossiya imperiyasi Turkistonda boshqaruv siyosati.
57. Rossiya imperiyasi Turkistonda ruslashtirish siyosati.
58. Rossiya imperiyasining mustamlaka zulmiga qarshi mahalliy xalq noroziligining kuchayishi.
59. «Tosh otar» voqeasi yohud «Vabo» isyoni.
60. Andijonda Dukchi Eshon qo'zg'oloni va uning yakunlari.
61. Turkiston o'lkasida milliy ozodlik harakatlari: Samarqand qo'zg'oloni, Qurbonjon dodhoh, Yetimxon, Yoqubbek harakatlari.
62. Jadidchilik harakati va uning mohiyati.
63. Yosh buxoroliklar va Yosh xivaliklar partiyalari.
64. 1917 yil fevral va oktyabr oralig'ida Turkiston.
65. 20-30-yillardagi siyosiy qatag'onliklar.
66. Milliy ziyolilarning qatag'on qilinishi.
67. Sovet davrida O'zbekistonning iqtisodiyoti va uning markazga qaramligi.
68. Sovet davrida O'zbekiston madaniyati va uning ma'naviy qashshoqligi.
69. «Dashnoqsyuntchilar» va ularning Turkistondagi faoliyati.
70. Oktyabr (1917 y.) to'ntarishi, Turkistonda sovetlar hokimiyatining zo'rlik bilan o'rnatilishi.
71. Turkiston muxtoriyatining tashkil topishi va uning boshqaruv tizimi.
72. Turkiston muxtoriyatining faoliyati va unga bolsheviklar hokimiyatining munosabati , mahalliy holining qo'llab quvvatlashi.
73. Milliy Ozodlik kurashining etakchilari: Kichik va Katta Ergash faoliyati.
74. Madaminbek hayoti va faoliyati.
75. Shermuhammadbekning hayoti va faoliyati.
76. O'rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanishning o'tkazilishi sabab va oqibatlari.
77. O'zbekiston SSRni tashkil etish jarayoni.
78. O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati va uning mustamlaachilik mohiyati.
79. Turkistondagi 1921-1922 yillardagi er – suv islohati mazmun va mohiyati.
80. 1925-1929 yillardagi er- suv islohati mazmun mohiyati.
81. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish jarayoni.
82. Qishloq aholisiga nisbatan qatag'onlik siyosati (1929-1930 yillar).
83. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar (20-30 – yillarda).
84. 30-yillarda ta'lim, fan va madaniyat.
85. 20-30 yillarda O'zbekistonning halqaro aloqalari
86. O'zbekistonliklarning front ortidagi jasorati.
87. O'zbekistonliklarning urush jangohlaridagi jasorati.
88. Qoraqolpog'iston ASSR urush yillarida, qoraqolpog'larning safarbar etilishi.
89. XX 40-yillar 2-yarmida 50-yillar boshida siyosiy qatag'onlar va uning oqibatlari
90. Paxta yakka hokimligi va uning oqibatlari.
91. Orol muammosi va uning globallashuvi.
92. Orol bo'yida ekologik yaxshilash yuzasidan O'zbekistonning pozitsiyasi.
93. Qayta qurush yillarida O'zbekiston.
94. 80-yillarda O'zbekistonda fan va madaniyat.
95. 80- yillar oxirida O'zbekistonda millatlararo munosabatlar.
96. «Paxta ishi», «O'zbeklar» ishi va uning oqibatlari
97. Sho'ro tuzumi inqirozining muqarrarligi, mustaqillik sari yo'l.
98. O'zbek xalqining davlat mustaqilligini ko'lga kiritishi va uning tarixiy ahamiyati

99. O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari
100. Taraqqiyotning «O'zbek modeli» va uning o'ziga xos xususiyatlari
101. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda siyosiy islohotlar
102. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti
103. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti
104. «Yoshlarga oid davlat siyosati» va uning ahamiyati
105. Mamlakatimizda yillarga berilayotgan nomlar va ularning ahamiyati
106. O'zbekiston va jahon hamjamiyati
107. Diniy ekstremizm va xalqaro terrorism, unga qarshi kurashda O'zbekistonning o'rni.
108. I.A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asari O'zbekiston tarixining dolzarb muammolarni o'rganishda muhim qo'llanma.
109. I.A. Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asari.
110. I.A. Karimovning «Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir» asari mazmun mohiyati.
111. I.A. Karimovning «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asari mazmun mohiyati.
112. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., O'zbekiston, 2017 yil.
113. «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha «Harakatlar strategiyasi».
114. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi va uning mohiyati.
115. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi va uning ahamiyati.

GLOSSARIY

Arxeologiya (yunoncha “archaios”-qadimgi, “logos”-fan)-insoniyat o‘tmish tarixini moddiy madaniyat yodgorliklari (mehnat qurollari, asbob-anjomlari, qurol-yarog‘lari, turar joylari, qurilishlari, qabrlarini) qazishmalar orqali o‘rganuvchi fan.

Geneologiya (yunoncha “genealogia”-shajara, nasl-nasab)

1.Insonlar shajarasini, qarindosh-urug‘chilik aloqalarini o‘rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi.

2.SHajara, biron bir urug‘ yoki shaxsning tarixi; nasl-nasab shajarasi.

Gnoseologiya (yunoncha “gnosis” bilim, “logos” fan)-borliqni, dunyoni bilish va chin haqiqatga erishish haqidagi hamda bilishning manbalari va shakllari to‘g‘risidagi ta‘limot. Borliqni bilish nazariyasi.

Milodiy yil hisobi-jahon xalqlari o‘tmish tarixdagi voqea-hodisalarni ma‘lum tartib, ketma-ketlikda bayon etishga ehtiyoj sezib, o‘zlarining yil hisoblarini, - kalendarlarini yaratishgan. Qadimgi Misrda, Mesopotamiya xalqlarida, Hindlarda, Xitoyliklarda, YUnonlarda va qadimgi Rimliklarda o‘ziga xos yil hisobi (kalendar) amal qilgan. Jumladan, musulmon dunyosida bugunga qadar amal qilib kelinayotgan hijriy yil hisobi mavjud. O‘rta Osiyo xalqlari ham Movarounnahrda islom dini va islom madaniyati kirib kelishi bilan bir vaqtda asta-sekin hijriy yil hisobidan foydalana boshlaganlar. Vatanimiz tarixining arab istilosidan to XX asr boshlarigacha bo‘lgan tarixiy voqealari o‘rta asr qo‘lyozmalari va boshqa yozma manbalarda hijriy yil hisobi bilan yoritib kelingan.

Numizmatika-tangashunoslik fani. Qadimiy tangalardagi belgi-rasmlar, tasvirlar, tamg‘alar va yozuvlar orqali ijtimoiy-siyosiy tarixning ayrim jihatlarini o‘rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi.

Xronologiya (yunoncha “xronos”-vaqt, “logos”-fan.)-tarixiy taraqqiyot bosqichlari, voqealarning davriy ketma-ketligini o‘rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi.

Etimologiya (yunoncha “etymon”-haqiqat, chin “logos”-fan)-biron bir so‘z yoki atamaning kelib chiqishi, uning boshqa so‘zlar bilan o‘zaro yaqinlik aloqalarini o‘rganuvchi fan sohasi.

Etnografiya (yunoncha “ethnos” xalq, “grapho” yozaman) -tarixning yordamchi fan sohasi bo‘lib, xalqlarning urf-odatlari, xo‘jaligi va madaniyatini; xalqlar, etnik birlikning turli tiplari, ularning kelib chiqishi (etnogenezi), turmushi, tarixiy va madaniy munosabatlarini o‘rganadigan ijtimoiy fan. Etnografiya fani asosiy e‘tiborni hozirgi xalqlarga qaratgan holda o‘tmishda mavjud bo‘lgan barcha etnik birliklarni ilmiy o‘rganishni ham qamrab oladi.

Epigrafika-qadimgi bitik, yozuvlarni o‘rganuvchi fan

Avstralopitek (lotincha “australis” janub, “pithekos” maymun) bundan 3-2 million yil oldin yashagan odamning ilk ajdodlaridan biri bo‘lib, uning qoldiqlari 1924 yilda Janubiy Afrikada topilgan. Olimlarning xulosasiga ko‘ra avstralopitek odamzodning hayvonlar (maymunlar) olamidanda odamlar dunyosiga o‘tishdagi birinchi vakilidir.

Animizm (lotincha “anima”-ruh, jon)-insonni o‘rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga ishonish, go‘yo ular kishilar, hayvonlarning hayotiga, tevarak atrofdagi olam, buyumlar va hodisalarga, ularning o‘zgarishlariga ta‘sir etib, ularni boshqaradi deb hisoblash. Animistik tasavvurlar ibtidoiy davr odamlarida bundan taxminan 40-35 ming yil avval paydo bo‘la boshlagan. Ibtidoiy kishilar narsalar, o‘simliklarning joni bor deb tushunishgan. YA’ni jon odamlardan boshqa mavjudotlarda ham bordir. Rux esa egalaridan ajralgan holda ham mavjud bo‘lib, u har qanday narsalarga ta‘sir ko‘rsatadi.

Turkiston-tom ma‘noda turkiy xalqlarning tarixan tarkib topgan va keng yoyilgan tarixiy - geografik xudud. Ba‘zilar Turkistonni Turonning islomiy vorisi deb hisoblaydilar. 639 yilda Turfonda tuzilgan sug‘d hujjatida O‘rta Osiyo mintaqasining nomi sifatida ilk bor ishlatilgan. “Turkiston” atamasi “O‘rta Osiyo” va “Movarounnahr” nomlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, balki etno-geografik tushunchani anglatib, shuningdek, siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega. VIII asrdagi arablar istilosidan so‘ng Turkiston atamasi o‘zining siyosiy-huquqiy ma‘nosini yo‘qotmagan. Uning sarhadlari tarixiy-an‘anaviy jihatdan keng ma‘noda quyidagi qismlardan iborat: a) Markaziy Turkiston (hozirgi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, qisman Tojikiston); b) SHarqiy Turkiston (Ichki Mo‘g‘uliston, Xitoyning Sinszyan-Uyg‘ur Muxtor viloyati, Qoraqurum); v) Janubiy Turkiston (Tog‘li Badahshon, Ko‘ksuv, SHimoliy Hindiston-Jammu-Kashmir viloyatlari, SHimoliy-sharqiy Afg‘oniston);

g) G'arbiy Turkiston (Eronning shimoli, qisman Kavkaz, Xazar-Kaspiy havzasi); SHimoliy Turkiston (SHimoliy Qozog'iston, Ural-Volgabo'yi, Ob, Enisey, Lena daryolari va Sibir).

Tor ma'noda Turkiston deb asosan, Markaziy Turkiston tushuniladi.

Turon (forscha "turon"-turkiylar degan ma'noni anglatadi)-turkiy xalqlar yashaydigan hududlarni bildiruvchi ijtimoiy, tarixiy-etnik atama.

"Turon" atamasi bundan 3000-2500 yillar muqaddam qo'llanila boshlangan. "Avesto"da chorvachilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar turlar deb, turlar yurti esa Turon deb atalgan. "Turon" atamasi yonida, u bilan birga, uning ma'nodoshlari sifatida "Turk yurt", "Turk eli", VII asrdan boshlab esa "Turkiston" atamaları yozma bitiklarda uchraydi. Turon turkiy xalqlarning jahoniy hamda ijtimoiy-etnik birligini ifodalovchi asosiy tushuncha va nom sifatida XX asrgacha etib kelgan.

Turonni geografik-tarixiy ta'riflaganda, uning hududlari Tinch okeanidan O'rta er dengizidagi Egey-Adriatikagacha, SHimoliy Muz okeanidan Tibet, Ximolay tog'larigacha, SHimoliy Hindistondan Anadoli (hozirgi Turkiya)gacha bo'lgan hududlarni, mazkur hududda yashovchi turkiy xalqlar Vatanini bildiradi.

Xunlar-SHimoliy Xitoy xududlaridan to Volgabo'yi dashtlariga qadar cho'zilgan hududlarda ko'chmanchilik bilan hayot kechiruvchi turkiy qabilalardan biri.

Urug'-bir ajdoddan tarqalgan qon-qarindoshlarning jamoa bo'lib uyushuvi natijasida shakllangan kishilar uyushmasi. Tirikchilik tashvishida tashqi dushmanlardan saqlanish istagi kishilarning qon-qarindoshlikka asoslangan birlashuvini taqozo etgan. SHu yo'l bilan kishilarning teng huquqliligi, asosiy ishlab chiqarish qurollarining umumiy mulkligi, jamoa mehnati va iste'mol qilishning umumiyliigi ta'minlangan, nikoh va dini marosimlar tartibga solib turilgan. Kishilarning urug'-urug' bo'lib yashash tarziga o'tishlari bundan 40-35 ming yil ilgari sodir bo'la boshlagan.

El-bu atama eng qadimgi turkiy so'zlardan hisoblanadi. El avvalo bir joyning odamlari ma'nosini bildiradi; Xorazm eli, Qoshqar eli. Bir qabilaga mansub kishilarga qo'llaniladi; qipchoq eli, mang'it eli. El so'zi ba'zan xalq, millat ma'nolarida ham ishlatiladi. XX asr boshlarida "El bayrog'i" gazetasi ham chiqqan. YUrt, mamlakat ma'nolarida ham qo'llaniladi. Masalan qozoq eli deganda qozoq xalqini ham, Qozog'iston Respublikasini ham tushunishimiz mumkin. YOki bo'lmasa, chet ellar deganda, xorijiy xalqlarni ham, xorijiy mamlaktlarni ham anglash mumkin.

El iborasida, shuningdek, ittifoq, totuvlik, ahillik ma'nolari ham bor. El yovning ziddidir. "El bo'ldi", deganda do'stlashdi, birlashdi ma'nosi anglashiladi. Elning ana shu ma'nosidan elat atamasi kelib chiqqan. **Elat**-kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi. Elatning kelib chiqishiga bir-biriga yaqin bir necha qabilalarning uyushuvi asos bo'lgan. Uni xalqning millat bo'lib shakllanishidan oldingi bosqichi deb ham ataydilar.

Til jihatdan bir yoki o'zaro yaqin qabilalarning uyushuvi elat bo'lishning asosiy shaklidir. Bir qabilaning boshqasi tomonidan istilo qilinishi natijasida, bir necha qabila aralashib, elat paydo bo'lgan. Masalan, fransuz elati gall, german qabilalarining rimliklar bilan o'zaro aralashuvidan shakllangan.

Elat o'z qiyofasini saqlab qolishi uchun hamda ravnaq eta borib, xalq va millat darajasiga etishi uchun ham o'z davlatiga ega bo'lishi shart. O'z davlatisiz elat yo'q. Bo'lsa-da, elat shaklida uzoq yashay olmaydi, hukmron elat uni o'ziga "yutib" yuboradi.

Eron-Amudaryodan janub tomon yoyilgan hududlar. "Avesto"da Eron haqida gap ketganda ko'chmanchi chorvador turlarga qarshi o'laroq, dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi urug' va qabilalar yurti tushunilgan.

CHorvador oriylarning shimoliy mintaqalardan kelib Eron adirlariga o'rnashib qolgan joylar "Avesto"da "Ariana" deb nomlangan. Eron-Ariana so'zining yangi shakli.

Etnik jarayon-kelib chiqishi bir-biriga yaqin bo'lgan turli qabila va elatlarning asrlar davomida qo'shib, aralashib borish jarayoni.

Etnogenez (yunoncha "etnos" xalq, "genesis" tug'ilish)-biron bir xalqning kelib chiqish jarayoni.

Etnonim-biron bir xalq nomi.

O'zbek. "O'zbek" atamasining kelib chiqishi xususida fanda ikki xil yondoshuv mavjud: birinchi guruh tadqiqotchilar "O'zbek" atamasining kelib chiqishini Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1312-1342) bilan bog'lasalar, ikkinchi guruh olimlar "o'zbek" atamasi o'rta asrlarda Dashti Qipchoqda yashovchi

ko'chmanchi xalqlarning boshqalarga tobe bo'lmagan, "o'ziga bek", "o'z-o'ziga bek", talqinidan kelib chiqqan deb hisoblashadi.

YUqoridagi taxminlardan ikkinchisi tarixiy haqiqatga yaqinroq. CHunki "O'zbek" atamasi qabilalar uyushmasi va shu qabilalarga qarashli erlarning nomi sifatida O'zbekxonga qadar ham qo'llanilgan. Jumladan Mirzo Ulug'bek o'zining "Tarixi arba' ulus" asarida "o'zbek ulusi O'zbekxonga berildi" deb qayd qiladi. Bundan tashqari O'zbekxondan oldin ham shu nomda bir necha tarixiy shaxslar o'tgan. Jumladan, XIII- asr boshlaridagi Ozarbayjon hukmdorining ismi ham O'zbek Otabek bo'lgan.

O'zbek xalqining etnik shakllanish bosqichlari-O'zbek xalqi ikki xil til (turkiy va forsiy)da so'zlashuvchi qabila va elatlarning aralashishi va qorishuvidan tarkib topgan bo'lib, bu ikki tilda so'zlashuvchi jamoalarning etnik jihatdan dastlabki aralashuvi so'ngi bronza davri (mil. avv. II - ming yillikning oxiri)da yuz berdi. Bu davrni o'zbek xalqi etnogenezining boshlanishi ya'ni **birinchi bosqichi** deb hisoblashimiz mumkin.

"Avesto"- o'rta fors tilidan "Apastak" yoki "Asos" deb tarjima qilinadi. O'rta Osiyoning ajralmas qismi hisoblangan Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din-zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg'on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy ahloqiy tasavvurlari, koinot va erdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-ahloqiy qarashlar o'z ifodasini topgan.

Antik davr-lotinchadan antik-"qadimgi" demakdir. O'rta Osiyo tarixida miloddan avvalgi IV asrdan (yunon-makedon istilosidan) boshlab milodiy V asrga qadar bo'lgan davr antik davr deb yuritiladi.

Baqtriya-geografik hudud. Qadimgi Baqtriyaga hozirgi Janubiy O'zbekiston (Surxondaryo), Janubiy-G'arbiy Tojikiston va SHimoliy Afg'oniston erlari kirgan. Ilk o'rta asrlar davriga kelib qadimgi Baqtriya erlarida ko'chmanchi turkiy qabila-toxarlar keng yoyilishi munosabati bilan Tohariston deb yuritilgan.

Baqtriya yozuvi-Miloddan avvalgi IV asr oxirigacha qadimgi Baqtriya hududlarida oromiy yozuvi ishlatib kelingan. Keyin Baqtriyada mahkama tili va yozuvi yunoncha bo'lgan. Keyin miloddan avvalgi III-II asrlar chegarasida oromiy va qadimgi yunon alifbosiga asoslanib Baqtriya yozuvi ishlab chiqiladi. Bizgacha yuzdan ortiq baqtriya yozuvi na'munalari va so'zlari etib kelgan. Baqtriya yozuvi topilmalari asoson miloddan avvalgi I-asr va milodiy I asrlarga taalluqli bo'lib, baqtriya tili va yozuvi uncha yaxshi o'rganilmagan.

Behistun bitiklari-SHimoliy Eron, Kirmonshoh shahri yaqinida, tog' oralig'idan o'tgan qadimgi savdo yo'li yoqasidagi qoyaga ahmoniylar hukmdori Doro I (522-486) ning toshga qadimgi fors, elam va akkad tillarida yozdirgan zafarnomasi. Unda qadimgi SHarq va O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari (xorazmliklar, baqtriyaliklar, marg'iyonaliklar, saklar) haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Buddaviylik-paydo bo'lishi tarixiy davriga ko'ra, birinchi jahon dini hisoblanib u bundan 2600 yil avval shimoliy-sharqiy Hindistonda vujudga kelgan. Uning asoschisi shahzoda Siddxartxa Gautamadir. Siddxartxa vafotidan so'ng Buddha ("Nurlangan", "Oliy haqiqatga erishgan", "Haqiqat najotkori") deb atalgan. Buddaviylik dinining nomi ana shundan olingan.

Buddaviylik dinining muqaddas kitobi "Tripitaka" ("Uch savat donolik") deb ataladi. Buddaviylik ta'limotining asosini "to'rt oliy haqiqat" tashkil etadi:

1. Azob-uqubatlarning mavjudligi haqidagi ta'limot;
2. Azob-uqubatlarning sabablari mavjudligi haqidagi ta'limot;
3. Azob-uqubatlarning bartaraf bo'lishi haqidagi ta'limot;
4. Azob-uqubatlardan qutilishning najot yo'li borligi haqidagi ta'limot.

Bu din eramiz boshlarida O'rta Osiyoga ham keng yoyila boshladi. Kushonlar saltanati (I-IV asrlar) va Eftaliylar davrida budda dini davlat dini darajasiga ko'tarilgan va O'rta Osiyo hududlariga keng tarqalgan. Buddha dini O'rta Osiyo orqali SHarqiy Turkiston, Mo'g'iliston va Xitoyga yoyilgan.

Budun-Turk xoqonligi davrida ko'chmanchi chorvador aholi.

Buxorxudot-Ilk o'rta asrlarda Buxoro mahalliy hukmdorlari. 707-708 yillarda Buxoroni arablar bosib olganidan keyin buxorxudot hukmdorlarligi o'z mavqeini yo'qotdi. VII asr oxiri-VIII asr boshlarida Buxoroda Bidun, Tug'shoda, Buniyot va Sikun ismli buxorxudotlar hukmronlik qilganlar.

Bug'rolar-X-XI asrlarda qoraxoniylar xoqonligining g'arbiy qismi (Ettisuv, Qoshg'ar va Janubiy Qozog'iston)ni hoqon nomidan idora qilgan sulola xonlarining laqabi. Uning yirik vakillari Abdulkarim

Sotuq Bug‘roxon va uning nabirasi Xorun ibn Muso davrida Ettisuv va Qoshg‘ardagi ko‘pchilik turkiy xalqlar islom dinini qabul qiladilar. Xorun ibn Muso Somoniylar davlatida kuchayib ketgan feodal kurashdan foydalanib, 992 yil may oyida Movarounnahrni egalladi. “Bug‘ro” ikki o‘rkachli tuyadir. Bug‘ro qoraxoniylar davlatining tashkil topishida muhim rol o‘ynagan yag‘mo qabilalarining totemi-ajdodi ibtidosi hisoblangan.

Buyuk ipak yo‘li-G‘arb bilan SHarqni bir necha asr mobaynida bir biriga bog‘lab kelgan yo‘llardan biri bo‘lib, bu yo‘l fanga 1877 yilda nemis olimi K.Rixtgoften tomonidan shunday nom bilan kiritildi. Unga qadar bu yo‘l “G‘arbiy meridional yo‘l” deb atalib kelinardi. Buyuk Ipak yo‘li 12 ming km. uzunlikda bo‘lib, u Sariq dengiz sohillaridan boshlanib, SHarqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Eron, Mesopotamiya, Suriya orqali O‘rta er dengizi sohillarigacha davom etgan.

Kushon davlati-milodimizning I-IV asrlarda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, shimoliy-g‘arbiy Hindiston va shimoliy-sharqiy Eron hududlarida hukmronlik qilgan sulola. O‘zbek davlatchiligi tarixida Kushonlar davlati saltanat (imperiya) darajasiga ko‘tarilgan dastlabki davlat birlashmasidir.

Muqanna (niqobdor)-Arab istilochilariga qarshi qo‘zg‘olon (769-783 yillar) rahbari Xoshim ibn Hakimning laqabi. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra Xoshim ibn Hakim hokimiyat uchun kurash jarayonida zindonga tashlanadi. Zindonda u kasallikka chalinib, yuziga chechek toshib, badbashara bo‘lib qoladi. YUzini xalqdan yashirish maqsadida oq niqob taqib olgan va shuning uchun muqanna laqabini olgan. Uni Xoshim ul a‘var-bir ko‘zli Hoshim deb ham atashgan.

Mushrif- (arab) yuqoridan turib ko‘ruvchi, o‘rta asrlarda o‘ziga xos davlat nazoratchisi, mushrifi kalon-bosh davlat nazoratchisi.

Naxshab-Qashqadaryo vohasi etagining qadimgi nomlanishi (hozirgi Qarshi vohasi). Naxshab haqidagi dastlabki ma‘lumotlar V asr Xitoy yilnomasida qayd etilgan.

Naf-Ilk o‘rta asrlarda sug‘d shahar va qishloq aholisi

Nautaka-Qashqadaryo vohasining sharqida joylashgan qadimgi viloyat.

Nishopur-Mashhaddan g‘arbda, shimoliy-sharqiy Eronning yirik shaharlaridan biri. Tohiriylar davlatining (821-873) poytaxti, shuningdek IX-XIII asrning birinchi choragida Xurosonning markaziy shahri. Uch marta 1153 yili ko‘chmanchi o‘g‘uzlar, 1221 yili mo‘g‘ullar talofati va 1250 yilgi qattiq zilzila oqibatida tamoman vayron bo‘lgan. YAngi Nishopur eski Nishopurning g‘arbiy tarafida barpo qilingan

Ozod-Ilk o‘ra asrlarda sug‘d mulkdor zodagonlari tabaqasi

Ozodkor-Ilk o‘ra asr sug‘d hunurmandlari tabaqasi

Parak-CHirchiq daryosining ilk o‘rta asrlardagi nomi

Parfiya-geografik hudud. Turkmanistonning janubi va SHimoliy-SHarqiy Eron erlariga to‘g‘ri keladi.

Parfiya davlati-qarang: Arshakiylar sulolasi

Politimet-Zarafshon daryosining qadimgi nomi. Tilshunos olimlar fikriga ko‘ra Zarafshon so‘zining o‘zi Avesto tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “raoshana” (yorug‘, ravshan, oydin) so‘zi Zarafshonga aylangan.

Sadrlar-Movarounnahrda qoraxoniylar hukmronligi zaiflashgach Buxoroda XII asrning ikkinchi yarmidan diniy va dunyoviy hokimiyatni o‘z qo‘liga olgan ruxoniylar vakillari.

Sarrof-o‘rta asr shahar ko‘chalari va rastalarida o‘tirib, kishilarning yirik pullarini maydalab, qimmatbaho buyumlarini pulga almashtirib beruvchi shaxs. Sarroflar chet eldan kelgan savdogarlarning pullarini mahalliy pullarga almashtirib berish, qimmatbaho toshlarning bahosini anqlash, ayrim kishilarning omonat pullarini, buyukmlarini ma‘lum muddatgacha saqlab berish kabi ishlar bilan ham shug‘ullanganlar.

Satraplik-Ahmoniylar, Salavkiylar, Parfiya va Sosoniylar davlatlarida satrap boshchiligidagi harbiy-ma‘muriy okrug, viloyat. Satrapliklarga satrap (hokim)lardan tashqari harbiy boshliqlar ham tayinlangan. Hozirgi O‘rta Osiyo hududlarida ham o‘sha davrda alohida satrapliklar tashkil etilgan. Har bir satraplik belgilangan miqdorda soliq to‘lashga majbur bo‘lgan.

Safforiylar-Safforiylar davlatida (873-900) hukmronlik qilgan sulola. Sulola vakillari aka-uka YOqub ibn Lays (873-879) va Amir ibn Layslar (879-900) asli misgarlik (safforiy) bo‘lganliklari uchun

shunday nomlangan. Ular Xurosonda Tohiriylar davlatini ag‘darib hokimiyatni egalaganlar. 900 yilda Somoniylar amiri Ismoil Somoniy bilan jangda Amir ibn Lays engilgach bu sulolaga barham beriladi.

Sahobalar (arab.- hamroh, do‘st)-Muhammad Payg‘ambarning yaqin yordamchilari, safdoshlari. Ilk islom davrida Madinadagi musulmonlar jamoasida muxojirlar va ansorlardan bir guruhi Muhammad payg‘ambarga yaqin turgan, uning maslahatchilari sifatida xizmat qilgan. Ular sahoba (ko‘plikda ashob) deb nom olgan va islom tarixida obro‘li shaxslar sifatida tanilgan.

Skunxa-Ahmoniylar podshosi Doro I ga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan saklar sardori. Bu haqdagi ilk ma‘lumot podsho Doro I ning Behistun qoyasiga yozdirgan bitiklarida berilgan.

SHi-Toshkentning qadimgi xitoy manbalaridagi nomi.

SHod (SHad)-Turk xoqonligi davrida o‘n ming kishilik qo‘shin qo‘mondoni. Tumanboshi.

SHoh yo‘li-Eron Ahmoniylari sulolasi davri (mil.avv. VI-IV asrlar) da mavjud bo‘lgan muhim savdo yo‘llaridan biri bo‘lib, u Eron poytaxti Suza shahrini Mesopotamiya, YAqin SHarq va Kichik Osiyo mamlakatlari bilan bog‘lagan. Podsho Doro I buyrug‘i bilan yo‘llarda bekatlar, karvonsaroylar, quduqlar qurilib, savdogarlarni otliq soqchilar tomonidan qo‘riqlab borish xizmati joriy qilingan.

SHurat-Somoniylar davlatida davlat boshlig‘i amir tomonidan o‘zini himoya qilish uchun turk g‘ulomlaridan tashkil etilgan maxsus saroy gvardiyasi. Gvardiya boshlig‘i esa Sohibi shurat deyilgan. Sohibi shurat harbiy ishlar vaziri ham hisoblangan.

Ellinlashtirish-qadimgi yunonlar o‘zlarini ellinlar, yurtini esa ellada deb atashgan. Ellinlashtirish deganda YUnon-Makedon istilosidan so‘ng SHarqqa yunon madaniyatining yoyilishi va aralash madaniyatning –yunon va mahaliy sharq madaniyatining tashkil topishi jarayoni tushuniladi.

Eloqxonlar-Movarounnahr va Ettisuvda 999-1212 yillarda hukmronlik qilgan qoraxoniylar hukmdorlarining unvoni. Eloqxonlar aslida Ettisuv va Qoshg‘arda yashagan yag‘mo turk qabilasiga mansub bo‘lgan. Qoraxoniylardan Nasr ibn Ali 999 yilda Buxoroni egallaydi va eloqxonlar hukmronligiga asos soladi.

Ershi-Miloddan avvalgi III-milodiy II asrlarda mavjud bo‘lgan Dovon (Farg‘ona) davlati poytaxtining xitoy manbalaridagi nomi.

Qoraxoniylar-O‘rta Osiyoda, asosan Movarounnahr va SHarqiy Turkiston xududlarida Somoniylardan keyin 999-1212 yillarda hukmronlik qilgan musulmon turkiy sulola. Uni barpo etishda qator turkiy qabilalar ishtirok etgan, bulardan qarluq, chigil va yag‘mo qabilalari etakchi bo‘lgan. Asoschisi yag‘mo qabilasidan chiqqan Abdulkarim Sotuq Bug‘roxon (Qoraxon). YAg‘molar X asr o‘rtalarida islom dinini qabul qilganlar. 992 yilda Xorun ibn Muso Sotuq Buxoroni, 996-999 yillarda uning vorisi Nasr I Movarounnahrni butunlay bosib oldi. Qoraxoniylar davlati poytaxti dastlab Qoshg‘ar, keyin Bolasog‘un, O‘zgan shaharlari bo‘lib, kayinchalik yana Qoshg‘arga ko‘chirilgan. XI asrning 60-70 yillarda qoraxoniylar ichki siyosiy kurash va saljuqiylar tazyiqi ostida davlati zaiflashib, kuchsiz davlatga aylanib qoladi. 1212 yili qoraxoniylarning so‘nggi vakili Qilich Arslon Muhammad Xorazmshoh tomonidan o‘ldirilgan.

Qoraxitoylar-XII asrning 30-40 yillarida movarounnahrni o‘troq dehqonchilik vohalariga bir necha marotaba bosqinchilik yurishlari uyushtirgan ko‘chmanchi turkiy qabilalar. Qoraxitoylarning kelib chiqishi haqida fanda yagona fikr mavjud emas. Ba‘zi tadqiqotchilar ularni Sibirning tungus aholisiga, boshqalar esa mo‘g‘ullarga mansub deb hisoblaydilar. XII asr boshlarida ular Ettisuv violyatini ishg‘ol etib to Enisey daryosigacha bo‘lgan erlarni o‘z ichiga olgan kattagina davlatni barpo etadilar. Bolasog‘un bu davlatning poyxtiga aylantirilgan. Podshohlari “go‘rxon” deb yuritilgan.

G‘aznaviylar-977-1187 yillarda O‘rta SHarq (SHimoliy sharqiy Eron, Afg‘oniston va G‘arbiy Hindiston) da mavjud bo‘lgan davlatning va uni boshqargan sulolaning nomi. G‘aznaviylar davlatida turkiy sulola hukmronlik qilgan. Asoschisi somoniylarning lashkarboshisi Alptakin. U 962 yil qo‘l ostidagi g‘ulomlariga tayanib, G‘azna viloyatida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. O‘ning vorisi Sabuqtegin (977-997) va Mahmud G‘aznaviylar davrida (998-1030) O‘rta SHarqning eng qudratli davlatiga aylangan.

G‘oziy-Islom dini uchun g‘ayri dinlarga qarshi muqaddas urush-g‘azovot ishtirokchisi. SHariatga ko‘ra, bunday urushda oti va qurol-yarog‘i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo‘lgan. Kambag‘allar, qullar, nogiron va keksalar bundan ozod etilgan.

G‘ulomlar-1.O‘rta asrlarda musulmon mamlakatlaridagi qullar.

2. Abbosiylar halifaligi davrida Ma'mun hukmronligi davrida (813-833) chet ellardan sotib olingan yosh qullardan tuzilgan otliq askarlar gvardiyasi.

3. O'rta asrlarda boshqa musulmon davlatlarida ham saroy gvardiyasi askarlari g'ulomlar deb atalgan.

Hayilboshi-otliq askar bo'linmasining boshlig'i. Somoniylar va Saljuqiylar davrida saroy g'ulomlaridan tuzilgan otliq gvardiya boshlig'i.

Harkon (Jurjon)-Kaspiy dengizining o'rta asrlardagi nomi. Dengizning janubiy sohilbo'yi hududlari Gurgon yoki Jurjoniya deb yuritilgan.

Hijriy yil xisobi-arabcha "hijrat"-ko'chmoq so'zidan. Musulmonlar yil hisobi. Muhammad Payg'ambarning Makkadan Madinaga 622 yil 16 iyulda ko'chishi bilan bog'liq. SHu sanadan musulmon kalendarining birinchi yili boshlanadi.

Hijriy yilni milodiy yilga o'tkazish uchun uni 0,97 ga ko'paytirib yaxlitlash va 622 ni qo'shish kerak. Masalan, Abu Rayxon Beruniy hijriy 362 yilda tug'ilgan. $362 \times 0,97 = 351,14$; $351 + 622 = 973$. Demak, Beruniy tavalludi milodiy 973 yil.

Milodiy yilni hijriy yilga o'tkazish uchun undan 621 ni ayirish va chiqqan sonni 1,03 ga ko'paytirish va yaxlitlash lozim. Masalan Alisher Navoiy tavallud topgan 1441 yilni hijriyga o'tkazish uchun quyidagi amal bajariladi:

$$1441 - 621 = 820. 820 \times 1,03 = 844,6.$$

Barcha natijalar taqribiy, bir yilga farq qilish mumkin.

Hoqon-turk, xitoy, mo'g'ul hukmdorlari unvon. Hoqon atamasi birinchi marotaba 312 yilga oid bo'lgan Xitoy yilnomalarida uchraydi. Dastlab jujan qabilalari boshliqlari hoqon deb atalgan. VI asr o'rtalaridan Turk hoqonligi hukmdorlari ham xoqon nomini olgan, keyinchalik boshqa turk qabilalari hukmdorlari ham o'zlarini xoqon deb atay boshlaganlar.

"Bayt ul-hikma"-Donishmandlar uyi. Arab xalifasi Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bog'dodda tashkil etilgan islom SHarqining o'sha davrdagi fanlar akademiyasi. Buyuk vatandoshlarimizdan al-Xorazmiy (786-850) va Ahmad al-Farg'oniylar (797-865) Ma'mun akademiyasida faoliyat yuritganlar.

Baytulloh-Makka islom dinining yagona markaziga aylanganidan keyin Ollohning uyi-Ka'bage berilgan nom.

Jome' masjidi-juma namozi o'qiladigan masjid.

"Zij"-astronomik jadval.

"Ikkinchi muallim"-bilimli, ma'rifatli, fikr mulohazalari va mantiq'ining teranligi tufayli SHarqda Abu Nasr Forobiy (873-950)ga Aristotel (Arastu)dan keyingi "Muallim us-soniy", "Ikkinchi muallim" nomi berilgan.

Kalom (arab.-so'z, nutq)-ilohiyotning ilk shakli. Arab xalifaligida VIII asrda paydo bo'lgan. IX asrga kelib O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan. Kalom tarafdorlari mutakallimlar deyilgan. Kalom asoschisi Abdulhasan al-Ash'ariy (873-935) mu'taziliylarga qarshi qattiq kurash olib borgan va o'z ta'limoti bilan sunniylik mazhabini mustahkamlagan. Mantiq va falsafadan foydalanib kalom ilmi bo'yicha o'z mazhabini yaratgan.

Kalom ilmi-e'tiqod to'g'risidagi bilimlar, ya'ni aqliy dalillar va mantiqiy uslubdan foydalanib, iymon va e'tiqodga bog'liq bo'lgan muommolarni izohlovchi fan. Islom dinining g'oyaviy asoslari bo'lmish, yaratish, qaytadan tiriltirish, Ollohning borligi va iymon chegaralari, jabru ixtiyor, xayru sha'r (yaxshilik va yomonlik), tangrining zoti va sifatlari va uning kalomi (Qur'on) kabi masalalar, kalom ilmining asosiy mazmunini tashkil etadi. Turkistonda Abulhasan Ash'ariy mazhabi bo'yicha samarqandlik Abumansur Motirudiy va qashqadaryolik an-Nasafiylar kalom ilmining nomoyondalari bo'lganlar.

Madrasa-arabcha "darasa" (o'rganmak) so'zidan bo'lib, joy nomi, ya'ni dars oladigan, o'qiladigan joy demakdir. Madrasalar musulmonlarning o'rta va oliy o'quv yurti. YAqin va O'rta SHarq mamlakatlarida hozirgi vaqtda madrasalarda davlat muassasalari xodimlari ham tayyorlanadigan bo'lib ketdi.

Madrasalar dastlab VII-VIII asrlarda Islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida paydo bo'ldi. IX-XIII asrlarda madrasalar Islom dini tarqalgan

mamlakatlarda, jumladan O'rti Osiyoda ham paydo bo'lib, madrasa uchun maxsus binolar qurila boshlandi. Madrasalarni hukmdorlar, yirik er egalari va davlatmand kishilar o'z mablag'lari hisobidan qurdirganlar.

Madrasalarga diniy maktabni bitirgan bolalar qabul qilingan. Madrasalarda ta'lim uch bosqichda; boshlang'ich (adno), o'rti (avsat) va yuqori (a'lo) bilimlarda olib borilgan.

Madrasalarda diniy bilimlardan tashqari tibbiyot, aruz ilmi, falsafa, jug'rofiya va boshqa fanlar ham o'rgatilgan. Talabalar darsni o'zlashtirishlariga qarab madrasalarda 15-20 yillab o'qiganlar.

Masjid-arabcha "sajada" (egilish, itoat etish, sajda qilib yuzini erga tegizish) so'zidan olingan bo'lib, "sajda qilinadigan, ibodat qilinadigan joy" ma'nosini bildiradi. Mahallalardagi masjidlar shu er aholisi kundalik namoz o'qish uchun, ja'moa masjidlari esa kundalik namoz bilan birga juma va hayit namozlari uchun mo'ljallangan va ularga shaharning markazidan eng yaxshi joylar ajratib berilgan. Ba'zi masjidlar qoshida boshlang'ich maktab bo'lib, bolalar o'qitilgan. Masjidlar diniy targ'ibot vazifasini o'tagan bo'lsa ham, ularda boshqa turli masalalar ham hal etilgan; oilaviy mojarolarni hal etish, urushganlarni yarashtirib qo'yish, nojo'ya ish qilganlarni to'g'ri yo'lga solish kabi.

Masjidlar yonida baland minoralar bittadan to'rttagacha qurilgan. Bular ko'proq masjidni bezagi uchun bunyod etilgan.

Renessans (fr. renaissance-uyg'onish)-aynan qadimiy mumtoz yunon madaniyati, fani, falsafasining tiklanishi. Antik (qadimgi) davrga xos hayotni his etishga yaqin, lekin o'rti asrlardagi kabi moddiylikni gunoh deb hisoblab undan voz kechishni ham inkor etilishi. YAngicha hissiyotlarning, hayot nashidasini sezishning paydo bo'lishi demakdir.

SHarq renessansi va G'arb renessansi mavjud. SHarq renessansi IX-XII va XIV-XV asrlarni o'z ichiga olsa, G'arb renessansi XIII asrdan boshlanadi. G'arb renessansi ko'pincha uyg'onish davri deb ham yuritilib, uning ilk kurtaklari Italiyada paydo bo'lgan. Tomazzo Kompanelli, Franchesko Petrarka, Jovanni Bokacholar uyg'onish davri madaniyatining asoschilari edilar.

Sunna-Muhammad Payg'ambarning ko'rsatmalari va oyatlari haqidagi hadislar, rivoyatlar. Islomda faqat Muhammad ibrati, an'anasi deb e'tirof etilib, Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Sunna VII asr o'rtalaridan yig'ila boshlangan.

Sunniylik- islom dinidagi ikkita asosiy yo'nalish (ikkinchisi shialik) dan biri va eng keng tarqalgani. Mutaxassislarining hisoblari bo'yicha, jahondagi barcha musulmonlarning qariyb 90 % sunniylikka (qolgan 10 % i shialikka) mansub. Bu yo'nalish VII asrning ikkinchi yarmida Arabistonda vujudga kelgan. VIII-XII asrlarda arab xalifaligidagi diniy-siyosiy kurashlar jarayonida islomdagi eng yirik yo'nalish sifatida shakllangan. Sunniylar Qur'on bilan birga sunnaga e'tiqod qiladilar. Sunniylikda 4 ta huquq mazhabi mavjud (hanafiya, molikiya, shofi'iya va hanbaliya). VIII asr oxiri va IX asr boshlarida sunniylik doirasida tasavvuf, XVIII-XIX asrlarda ilk davrdagi sof islomga qaytish tarafdorlari bo'lgan diniy-siyosiy oqim-vahobiylik oqimi vujudga kelgan. Sunniylik bilan shialik o'rtasida hokimiyat masalasida, ayrim diniy marosim va an'analarda birmuncha tafovutlar bor.

Tariqat-tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya'ni, komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi to'g'ri yo'l.

Tafsir-umumiy ma'noda biron narsani sharhlash, talqin qilish. Islom an'anasida Qur'oni Karim, hadisi sharif va boshqa diniy manbalarni talqin qilish, sharhlash.

Farz-shariatda hamma musulmonlar bajarishi shart bo'lib, qat'iy dalillar, ya'ni oyat va hadislar bilan isbotlangan diniy hukmlar. Masalan, namoz, ro'za, haj, zakot.

Fiqh-islom huquqshunosligi, shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi islom ilohiyotining bir sohasi. SHu fan sohasi bilan shug'ullanuvchilar faqihlar deb atalgan.

Xatib-odatda masjidda juma va diniy bayram kunlari, ya'ni hayit namozlari paytida xutba o'qiydigan dindor.

Xutba-juma va ulug' ayyom kunlari masjidda imom-xatib tomonidan aytiladigan oyatu hadislar, pandu nasihatlar. SHuningdek, o'rti asrlarda xalifa va mahalliy hukmdor nomini tilga olib imom tomonidan o'qiladigan duo ham xutba deb atalgan.

Xonaqoh-shayh va darveshlar zikru samo qiladigan xona, masjid. Islom dini tarqalishi bilan yuzaga kelgan. Darveshlar, ziyoratchilar uchun tunash joyi sifatida masjid, maqbaralarning bir qismi tarzida

qurilgan. Keyinchalik mahalla, qishloq masjidlarining namoz o'qiladigan xonasi ham xonaqoh deb atalgan.

Xo'ja-ijtimoiy tabaqa. Xo'jalarning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi ma'lumotlarda xo'jalar dastlabki to'r xalifa –Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilardan tarqalgan deyilsa, boshqa manbalarda arablarning istilochilik yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning nasli deb hisoblanadi. Xo'jalar islom oqsuyak tabaqasi sifatida ma'lum imtiyozlarga ega bo'lganlar. Ular ko'p holarda o'lim, tan jazosi, urushlarda qatnashish hamda soliq to'lashdan ozod etilganlar. Xo'jalar qizini fuqaroga berish man etilgan.

SHariat-lug'aviy ma'nosi arabchadan "yo'l" demakdir. Ilk islomda jamiyatni

SHayx (arab.-kekxa, oqsoqol)-Arablarida islomdan ilgari urug', qabila boshliqlari, katta oila oqsoqollari shayx deb atalgan. Keyinchalik esa islom dini tarqalgan mamlakatlarda avval bilimdon kishilar, olimlar, so'ngra ruxoniylar, ulamolalar, faqihlar, keyinchalik tasavvuf tariqatidagi pirlar, eshonlar, muqaddas joylarning mutasaddilari ham shayx deb yuritilgan.

"SHayx ur-raisi"-Abu Ali ibn Sinoga SHarqda berilgan unvon.

Qoraqurum-O'rxun daryosi (Mo'g'uliston) bo'yidagi shahar. 1230-1260 yillarda mo'g'ullar imperiyasining poytaxti. XV asrdan o'z mavqeini yo'qotgan.

Qulzum dengizi-Kaspiy dengizining o'rta asrlardagi nomi.

Avangard-Amir Temur qo'shinining manglay (oldingi) qismi.

Ayl-Amir Temur qo'shinida o'n kishilik harbiy bo'linma.

Amir-Islom dinini qabul qilgunga qadar arablarda amir so'zi qabila boshlig'i, harbiy boshliq degan ma'nolarni bildirgan. Arablar ko'p joylarni bosib olib o'z dinlarini o'tkazganlaridan so'ng Arab xalifaligiga qaram bo'lgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimni, qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilarni amir deb atashgan. Mo'g'ul istilosidan so'ng Oltin O'rdada, keyin O'rta Osiyo va Eronda mo'g'ul va turk qabilalari birlashmasi-ulus boshlig'ining unvoni ham amir deb yuritilgan. Sohibqiron Amir Temurning unvoni ham amir deb atalgan. Hozirda Amir unvoni arab podsholarining o'g'illariga beriladi (masalan Saudiya Arabistonida). Makkaga ziyorat uchun boruvchi katta guruh yo'l boshchilari ham Amir deb ataladi.

Astrabod-Jurjon (Gurgon)ning kattaligi jihatidan ikkinchi shahri. Kaspiy dengizining janubiy-sharqiy tarafida, Mozandaron chegarasida joylashgan.

"Aflotuni zamon"-Ulug'bek Rasadxonasida faoliyat yurgizgan mashhur astronom va matematik Qozizoda Rumiyni zamondoshlari shunday nom bilan ulug'lashgan.

Balx-Afg'onistonning shimolidagi o'rta asr shahri. (Qadimgi Baqtra)

Banno-o'rta asrlarda imorat quruvchi usta.

Barid-1.CHopar, xat eltuvchi, pochta. Somoniylar davlat boshqaruvi tizimida barid devoni majud bo'lib, u maktubot va axborot, ya'ni pochta vazirligi hisoblangan.

2.XIV-XVI asrlarda O'rta Osiyo xalqlarida keng qo'llanilgan masofa o'lchov birligi bo'lib, ikki farsah, ya'ni taxminan 12 km. ga teng yo'l bo'lgan.

Barot-1.Podshoh, xon tomonidan biror soliq yoki jarimadan ozod etish;

2.Ma'lum shart bilan biror mulk yoki mansabni egallash, xalqdan soliq to'lash yoki pul, g'alla, em-xashak olish uchun berilgan maxsus yorliq yoki guvohnoma. Bunday guvohnoma olgan kishi barotdor deb atalgan.

Begor-O'rta Osiyoda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan majburiy ishlab berish majburiyati bo'lib, mehnatkash xalq xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan davlat va feodallarining turli qurilishlarida tekinga 12 kunlik ishlab berish majburiyati (hashar).

Boru-qal'a devori; qal'a devorining o'q otishga mo'ljallangan maxsus mustahkam qismi.

Burong'or-Amir Temur qo'shinida asosiy jangovor qismning o'ng qanoti

Gaz-uzunlik o'lchov birligi, 71-72 sentimetr ga teng.

Dorug'a-harbiy ma'mur. Biron bir viloyat yoki shaharning hokimi.

YOsol-qo'shin safi. YOsol tuzish-qo'shinni yurish, ko'rik yoki jang oldidan safga tizish.

Jarib-o'rta asrlarda amalda bo'lgan er o'lchov birligi. Bir jarib 968 kv. metr ga teng bo'lgan. Bir jarib taxminan bir tanobga teng.

Juvong'or-Amir Temur qo'shinida asosiy jangovor qismning so'l (chap) qanoti

Izofa-Amir Temur qo‘shinining zahira (rezerv) qismi

Yildirim-Usmoniy Turklar sultoni Boyazid (1389-1402) ga berilgan laqab.

Kadxudo-qishloq va shahar oqsoqoli

Kanbul-Amir Temur qo‘shinida qo‘riqchi askariy qo‘shilma.

Ko‘ragon-Xon kuyovi. CHingizxon avlodiga uylangan shaxs.

Lavvoh-kitob lavhalarini tayyorlovchi usta

Langarxona-musofirxona. O‘rta asrlarda yo‘ovchi musofir, sayyoh va ziyoratchilar tunab, dam olib o‘tadigan joy, g‘aribxona.

Moniyi soniy (Ikkinchi Moniy)-mashhur musavvir Kamoliddin Behzod (1455-1535)ga zamondoshlari tomonidan berilgan unvon.

Mochin (CHinmochin)-o‘rta asrlarda Xitoyning nomi.

Muzaffariylar-1313-1393 yillarda janubiy Eronni idora qilgan mahalliy sulola. Amir Temur tomonidan tugatilgan.

Muzoriy-ekin maydonlarga ishlov beruvchi yollanma ziroatchi.

Mutrib-musiqashunos, sozanda

Muhassil-soliq undiruvchi amaldor

Nasta‘liq xati-arab mumtoz xati uslublaridan biri bo‘lib, unda yozilgan yozuvlarning 5|6 qismi egri, 1|6 qismi esa to‘g‘ri chiziqlar asosida yoziladi.

Raiyat-soliq to‘lovchi xalq, qora xalq

Rasadxona-osmon jismlari tadqiqoti uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa va shu muassasa joylashgan bino. U aholi orasida “Naqshi jahon” deb ham yuritilgan.

Rum-Rim imperiyasining o‘tmishda SHarq va O‘rta Osiyoda keng tarqalgan nomi. Milodiy IV-asrda Rim imperiyasi parchalangach, “Rum” atamasi Vizantiya imperiyasiga (395-1453) nisbatan ishlatiladigan bo‘ldi. XIII-XV asrlarda musulmon tarixchilari Vizantiyani Rum deb ataganlar.

Sadri a‘zam-vaqf mulklarini boshqaruvchi.

Sanad-Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasida kamida 15-16 yil tahsil olib, uning dasturi bo‘yicha fanlarni to‘la o‘zlashtirgan va imtihonli saboqlarda o‘z bilimini namoyish eta olgan tolibi ilmlarga beriladigan shahodatnoma.

Sahhof-kitob muqovalarini tayyorlovchi usta

Seiston-Eronning Afg‘oniston bilan chegaradosh sharqiy viloyati. Miloddan avvalgi II asrda ko‘chmanchi sak qabilalari shimoldan Xerirud va Gilmand daryolari oralig‘idagi viloyatlarga kelib joylashishgan va shundan boshlab bu hududlar Sakiston (Seiston) deb yuritiladigan bo‘lgan.

Sekstant-osmon yoritqichlarining balandligini belgilash uchun mo‘ljallangan ko‘zgu-qaytargichli asbob.

Sohibqiron-1.Quyosh tizimidagi katta sayyoralardan ikkitasining bir-birini to‘shishi (qiron) paytida tug‘ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduz-Zahro va Mushtariy sayyoralari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug‘ilgan ekan. Munajjimlarning fikriga ko‘ra, bunday odam baxtli, ulug‘ martabali bo‘lishi muqarrar sanalgan. Amir Temurning Sohibqiron deb atalishi ham shundan. Sohibqiron so‘zining asl ma‘nosi “baxtiyor podshoh”, “qudratli podshoh” demakdir.

2.SHarq mamlakatlarida obro‘li, g‘olib podsholarga berilgan unvon. CHingizxon, Amir Temur va SHayboniy Abdullaxonlarga shunday unvon berilgan.

“Sulton ul-hattotin”-hattotlar sultoni. Mashhur hattot Sultonali Mashhadiy (1432-1520) zamondoshlari tomonidan shunday nom bilan ulug‘langan.

Suyurg‘ol-biror hukmdor tomonidan alohida xizmat ko‘rsatgan shaxslarga berilgan in‘om. Uning egasi davlat soliqlaridan ozod etilib, olgan daromadlaridan o‘z ixtiyoricha foydalanish huquqiga ega bo‘lgan.

Ilgari (XIV asr oxiri-XV asr boshlarida) va ayniqsa XVI asrning boshlari va ikkinchi yarmida erni suyurg‘ol tarzida in‘om etish vaqtincha tusda bo‘lib, er meros bo‘lib o‘tmas edi. XVII-XVIII asrlarda esa vaqtincha berilgan erlar doimiy mulkka o‘ta boshladi va bu mulkka egalik huquqi vorislarga ham o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Tavochi-XII-XVII asrlarda O'rta Osiyo va Eronda xon va podshohlar saroyida xizmat qilgan oliy harbiy mansabdor. Tavochi zimmasiga harbiy yurish ko'zda tutilganda tobe viloyatlardan oziq-ovqat, ot-ulov, belgilangan miqdorda lashkar to'plab kelish va yurish bilan bog'liq boshqa vazifalar yuklatilgan.

Tamg'a-savdo boji. Savdogarlardan olinadigan soliq.

Tarxon-Mo'g'ullar va Temuriylar davrida toju-taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlari uchun alohida imtiyozga ega bo'lgan amir. Tarxon yorlig'i egasi xon huzuriga bemalol kira olgan, soliqlardan ozod etilgan va to'qqiz martagacha jinoyati kechirilgan, o'zi va avlodi ham soliqlardan ozod etilgan.

Tim (toq)-o'rta asrlarda usti yopiq bozor.

Tuzuk-qonun; Turk-mo'g'ul xalqlari orasida amalda bo'lgan qonun-qoidalar.

Usturlob-yulduz va sayyoralarning o'rni va balandligini o'lchaydigan astronomik asbob.

Fulus-mayda mis chaqa.

Xazora-Amir Temur qo'shinida ming kishilik harbiy birlashma.

Xarvor-bir eshak ko'tara oladigan yuk. Taxminan 105-150 kg. atrofida bo'lgan og'irlik o'lchov birligi.

CHaqirim-o'rta asrlardagi masofa o'lchov birligi. 1.06 kilometr ga teng

SHikor-ov.

SHom-Suriya mamlakatining o'rta asrlardagi nomi.

YAsovul-dastlab CHingizxon tomonidan joriy qilingan qonun-qoidalar to'plami-yasoga fuqarolar qanday amal qilayotganini nazorat qilib turuvchi kichik mansabdor shunday atalgan. Keyinchalik hukmdorning shaxsiy topshirig'ini bajaruvchi shaxs ham yasovul deb yuritila boshlangan.

Ax'ya-Xiva xonligida sug'oriladigan erlar.

A'lam-diniy va qozixona unvoni. SHariat ilmida etuk bo'lgan olimlarga berilgan. A'lam madrasalarda dars berishi shart bo'lgan.

Badahshon-Amudaryoning yuqori oqimida, uning har ikki sohilida joylashgan tog'lik mamlakat. Fayzobod uning poytaxti bo'lgan.

Bakovul-Buxoro amirligida saroy oshxonasini boshqaradigan amaldor.

Biy (Bek)-ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan o'zbeklarning urug' oqsoqallariga berilgan unvon. Biylar XVIII-XIX asrlarda yirik o'zbek qabilalariga boshchilik qilib, faqat markaziy hokimiyatga itoat etgan. Xonlar ular bilan murosada bo'lishga harakat qilib ularga turli unvonlar berib, mansablarga taynlashgan. Biy unvoni avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan.

2.O'rta Osiyo xonliklarida muayyan tuman yoki shahar hokimi.

Gaz-SHarq mamlakatlarida taxminan 62 sm dan-91 sm ga teng bo'lgan uzunlik o'lchov birligi.

Darbon-Buxoro amiri qarorgohi eshigida turuvchi soqchi.

Daftardor-Qo'qon xonligida xonning shaxsiy daromadi hisob-kitobini olib boruvchi amaldor. Daftardor hazinachiga axborot berib turgan.

Dashti Qipchoq-Sirdaryoning quyi oqimi hamda Tyanshanning g'arbiy yonbag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarning XI-XVI asrlardagi nomi. Bu erlarda ko'chmanchi qipchoq qabilalari yashagani uchun shunday nom olgan.

Devonbegi-devon boshlig'i. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i bo'lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan.

Buxoro xonligida devonbegi bosh vazir bo'lib, xondan keyingi ikkinchi shaxs hisoblangan. Xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirilishi ustidan nazoratni ham devonbegilar olib borgan.

Devorzan-paxsakash, loy va g'ishtdan devor uruvchi.

Degrez-cho'yandan qozon quyuvchi

Dodhoh-O'rta Osiyo xonliklarida yuqori martabalardan biri bo'lgan. Buxoro amirligida amir saroyining yuqori lavozimlaridan biri bo'lib, u Buxorodagi yuqori xizmat doirasidagi 10 toifa (daraja) dagi mansab hisoblangan. Uning vazifasiga amir nomiga yozilgan ariza-shikoyatlarni qabul qilib olish va ularning egalariga yozma yoki og'zaki javob qaytarish bo'lgan. SHuningdek u elchilarni qabul qilish, elchilik yumushlarini tashkil etish va xatto shaxsan elchi sifatida boshqa mamlakatlarga borib kelish kabi tadbirlarni ham amalga oshirgani ma'lum.

Dorug'a-1.Hokim. Mo'g'ullar, temuriylar va shayboniylar hukmronligi davrida dorug'alar viloyat, shahar hokimi bo'lishgan. Ularning zimmasiga viloyat va shaharni idora qilish, mudofaa qilish, aholini ro'yxatga olish, ulardan soliq undirish vazifalari yuklatilgan.

2.Mirshablar boshlig'i. So'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida mirshablar boshlig'i dorug'a deb yuritilgan.

Dorgoh-SHayboniylar hukmronligi davrida oliy davlat idorasi. Dorgoh tepasida xon turgan.

Jirov-qoraqalpoqlarda o'lan, doston aytuvchi baxshi.

Joniylar sulolasi-qarang: *Ashtarxoniylar sulolasi.*

Jul-Buxoro amirligida urush uchun olinadigan soliq turi.

Juftigov-qo'sh ho'kiz yordamida bir kunda haydaladigan er (8-9 gektarga yaqin)

Moli omon(omon puli)-o'rta asrlarda mag'lub shahar talon-taroj qilingan yoki aholidan uning evaziga moli omon (tovon) olingan.

Mulki hurri holis-Buxoro xonligida mavjud bo'lgan mulk er egaligining ikkinchi bir turi. U davlat xizmati bilan bog'liq bo'lib, bunday erlar urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda na'muna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan. Erlarga ega bo'lgan kishilarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilganlar.

Munshi-O'rta Osiyo xonliklari davrida xonlar va ayrim hokimlarning shaxsiy kotibi. Munshi lavozimiga odatda, ma'lumotli va chiroyli yozadigan kishilargina oingan.

Mutavalli-vaqf muassasalarining boshliqlari. Mutavallilar sadrlarga bo'ysunganlar.

Muxtasib-musulmon mamlakatlaridagi amaldor. Ko'pincha sayidlardan tayinlangan. U aholining urf-odatlariga amal qilishi hamda bozorlardagi narx-navo va o'lchov asboblarning to'g'riligi ustidan nozorat olib borgan. Ayni paytda muxtasib amaldorlar va xatto din peshvolari orasida ahloqiy qoidalarga qanchalik munosabatda bo'linayotganligi masalasi bilan ham shug'ullangan. Buxoro amirligida muxtasib rais deb ham yuritilgan.

Mushrif-Buxoro amirligida xonga in'om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan, soliq tushumlarini yozib borgan amaldor.

Mushrifona-O'rta Osiyo xonliklarida hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldorga to'lanadigan haq.

"Najmi soniy"-ikkinchi yulduz. Eron shohi Ismoil Safaviyning Boburga ko'chmanchi o'zbeklarga qarshi kurashda yordam berish uchun 1513 yilda yuborgan sarkardasi amir Ahmadning laqabi.

Tanob-O'rta Osiyo xonliklarida ekin maydonlarini o'lchash uchun ishlatiladigan yuza birligi. 1 tanob-3600 metr kub. Tanob turli erda turlicha bo'lgan: bir gektarning oltidan biridan to yarim gektargacha bo'lgan er maydoni.

Tanobchi-O'rta Osiyo xonliklarida hosildan olinadigan soliqlar hajmini belgilovchi amaldor.

Tanobona-Buxoro amirligida tokzor, yo'ng'ichqa (beda) va mevali daraxtzorlardan yilda bir marta to'lanadigan soliq turi. XIX asr boshlarida har tanob erdan bir tillodan, yoki 40 tanga tanobona undirilgan.

Tanho-XVI asrdan boshlab xonliklarda davlat erlarini asosan harbiy xizmatda bo'lgan kishilarga in'om etish usuli. Bunday in'omga sazovor bo'lgan kishi erning o'ziga emas, shu erdan olinadigan daromadning egasi bo'lgan. XIX asrning birinchi choragiga kelganda Buxoro amirligida tanhodorlarning soni 36 ming nafarga etgan. Eng kichik tanho eri 3-5 gektarni tashkil etgan.

Tarxon-1.O'rta asrlarda turkiy xalqlardagi er egasi - feodal.

2.O'rta Osiyo xonliklarida feodallarning davlat soliqlaridan ozod qilingan er-suv, mol-mulkleri.

Tashtxona-O'rta asrlarda podsholar saroyida idish-tavoq va boshqa mehmondorchilik anjomlari saqlanadigan xona.

Tosh-o'rta asrlardagi masofa o'lchov birligi. 8 chaqirimga yaqin, 8,5 kilometr atrofidagi masofa.

Tog'or solig'i-qo'shinning ta'minoti uchun to'lanadigan oziq-ovqat solig'i.

"Tutun haqi"-Qo'qon xonligida ko'chmanchi qabilalardan olinadigan soliq-zakat turi. Bu bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq.

To'lg'ama-dushman qo'shinlarining qanotini aylanib o'tib, orqadan hujum qilish jang uslubi. SHayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar temuriylar bilan bo'lgan janglarda shu harbiy taktikani qo'llab, qator janglarda temuriylarni sarosimaga tushirganlar.

To'pchiboshi-harbiy lavozim. O'rta Osiyo xonliklarida harbiy ishlarni boshqargan shaxs. Buxoro amirligida ikkita to'pchiboshi unvoni bo'lgan; biri "to'pchiboshiyi lashkar" nomi bilan atalib, Buxoro garnizonining boshlig'i bo'lgan. Uni "vaziri harb"-harbiy vazir ham deyishgan. Ikkinchi to'pchiboshi poytaxt qal'asining komendanti bo'lgan. Uni to'pchiboshiyi arki-oli, ya'ni qal'a artileriyasining boshlig'i deb atashgan.

To'qsobo-harbiy unvon. XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo xonliklarida xon bayrog'ini qo'riqlagan maxsus harbiy qism boshlig'i. XIX asrda 500 kishilik harbiy qism boshlig'i.

Udaychi-asli "hidoyatchi" bo'lib, Xiva va Qo'qon xonliklari, hamda Buxoro amirligida saroyda tantanali marosimlarni tashkil etuvchi va uni o'tkazishga javobgar shaxsning lavozimi bo'lib, u Buxoro amirligida doimo amir huzurida bo'lib, davlat ishlari haqida amirga doimiy axborot berib turgan. SHuningdek, uning xizmatiga boshqa davlatlardan kelgan elchilar va davlat vakillarini xon oldiga birga hamrohlik qilib olib kerish yuklatilgan. Boshqa amaldorlardan farq qilish uchun hassa tutgan.

SHayxulislom-musulmon mamlakatlaridagi islom tashkilotlari boshlig'i-oliy din vakili unvoni. Musulmon jamoasi boshlig'i.

Buxoro xonligida SHayxulislom eng oliy diniy lavozim hisoblangan. SHayxulislom davlat lavozimi bo'lib, uni egallagan shaxs musulmon qonunlari bilan shug'ullanadi, qozilik ishlari, turmush va davlatni boshqarish me'yorlarini ishlab chiqadi, davlat qarorlarining to'g'riligini Qur'on va Sunna bilan qiyoslaydi zarur bo'lsa ularni to'ldiradi va tuzatadi. Bu lavozim avlodan-avlodga meros bo'lib o'tgan.

SHayxulislom xo'jalar avlodidan bo'lishi lozim bo'lgan (Qo'qon xonligida)

SHig'ovul-chet el elchilarini qabul qilish bo'yicha maxsus xizmat boshlig'i.

Eshikog'aboshi-Xon dorgohidagi xavfsizlik, tartib-intizom, keldi-ketdi nazorati mutasaddisi hisoblangan. CHap eshikog'asi, o'ng eshikog'asi kabi ichki taqsimoti ham bo'lgan. Bu lavozim vakillari urush paytlarida hukmdorning eng muhim topshiriqlarini ham bajarib borganlar.

YAksara-xonliklar davrida ishchi hayvonlardan olinadigan yig'im. U har bir juft ot yoki ho'kizlardan bir botmon g'alla miqdorida undirilgan. Kimning ish hayvoni bitti bo'lsa shu miqdorning yarmisini (nimsara) to'lardi.

YArimchi-Xiva xonligida xon va boshqa xususiy mulk erlarida hosilning yarmini olish sharti bilan erlarga ishlov beruvchi dehqonlar.

Qizilboshlar-Eron safaviylar davlati lashkarlarining nomi. Ismoil Safaviy askarlari o'n ikkita qizil yo'lli salla o'rab yurishar edi. 12 ta qizil yo'l shia imomlarining sharafiga chizilgan edi. SHu sabali bu lashkar shunday nom olgan.

Qozikalon-xonliklarda sud ishlariga etakchilik qiluvchi amaldor.

Buxoro amirligida poytaxt qozisi, hamda davlatning oliy qozisi. Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozikalon "shariatpanoh" deb ham atalgan. Qozikalon huzurida a'lam va 12 muftiydan iborat devon tuzilgan. Uning vazifasi jinoiy ishlarni sinchiklab ko'rishdan iborat bo'lgan.

"Qubbatul islom"-ya'ni "islom dinining gumbazi". Buxoro shahriga butun jahonda va SHarqda musulmon dunyosining mo'tabar markazi sifatida tan olinib berilgan nom.

Qushbegi-1.Qush ovi yoki davlat boshlig'ining ov safari va u bilan bog'liq masalalar mutasaddisi;

BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) (ingl. United Nations Organization, UNO, UN)-davlatlar va xalqlar orasida hamkorlikni rivojlantirish hamda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlatlarning xalqaro uyushmasi 1945 yilda tuzilgan. BMT Nizomi tinch hayot kechirish xartiyasi (yorlig'i), xalqaro huquqning umum etirof etilgan kodeksi sifatida tan olingan. BMT Nizomining 1-moddasida quyidagi ustivor yo'nalishlar ilgari surilgan: xalqaro tinchlik va havfsizlikni ta'minlash, tinchlikka xavf va bosqinchilikka qarshi samarali jamoaviy chora-tadbirlarni amalga oshirish, tinchlikning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xalqaro bahslarni tinch yo'l bilan, adolat tamoyillariga amal qilgan holda hal etilishiga harakat qilish.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TASDIQLAYMAN

O`quv ishlari prorektori

_____ dots.F. Jo`raqulov

_____ 2019 y.

**O`ZBEKISTON TARIXI
fanining ishchi o`quv dasturi**

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110 000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: Bakalavriat 1-kurs nomutaxassis yo'nalishlari uchun

Umumiy o`quv soat - 78 soat
Ma`ruza - 26 soat (1 semestr –26 soat)
Seminar mashg`ulotlar - 28 soat (1 semestr – 28 soat)
Mustaqil ta'lim soati - 24 soat (1 semestr – 24 soat)

Jizzax-2019 y

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 24.08.2017 yildagi 603-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston tarixi fani namunaviy dasturi asosida tayyorlangan.

Fan dasturi Jizzax davlat pedagogika instituti Kengashining __.08.2019 yildagi 1- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

U.S.To'pchiyev – Tarix o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi,

B.N. Mirzayev – Tarix o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar:

R.R. Nurqulova Tarix o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, tarix f.n.

F.E. Toshboyev Tarix o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri, tarix f.b. Ph.D, dots.

Tarix fakulteti dekani:

_____ 2019 yil

_____ A.Pardayev
(imzo)

Tarix o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri:

_____ 2019 yil

_____ dots. F.Toshboyev
(imzo)

Kirish

Ushbu o'quv dasturi bakalavriat nomutaxassislik yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, O'zbekiston tarixining eng qadimgi davri, qadimgi davr, o'rta asrlar, yangi davr, sovet mustamlakasi davri va mustaqillik davrlari tarixi yoritilgan. Unda O'zbekiston tarixining davrlashtirish masalalari, moddiy, yozma manbalar va arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga asoslangan holda ta'limni tashkil qilish ilgari surilgan. Shuningdek, jamiyat va insoniyat rivoji, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil etishga, o'zbek xalqining etnik shakllanishi jarayonlari, davlatchilik tarixi va uning rivojlanishi hamda taraqqiyot bosqichlari, O'zbekistonning tarixiy taraqqiyoti bosqichlarining xususiyatlarini yoritib beruvchi masalalarni qamrab olgan.

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limlari o'rnini

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, faol demokratik yangilanishlarni amalga oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ana shu buyuk o'zgarishlar jarayonida xalqimizning boy tarixi, betakror milliy qadriyatlari, bebaxo ilmiy, madaniy merosi qayta tiklanib, butun bashariyatning noyob mulkiga aylandi. Ayniqsa, bugungi globaldushuv davrida ma'naviyat soxasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va ximoya qilishda Vatanimiz tarixini birlamchi manbalarga tayanib, har tomonlama va chuqur tadqiq etish yosh avlodga haqiqiy tariximizni o'qitish orqali ularni yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu fanning barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari hamda maktablarda o'qitilishi ham ana shu yuksak ahamiyat bilan belgilanadi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishning maqsadi - milliy tarix, milliy g'urur va iftixor manbai xisoblanishini yosh avlod ongiga singdirish, ularda tarixiy xotira, tarixiy tafakkur ko'nikmasini tarbiyalash milliy g'oya va yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitish ularni o'z xalqi va Vatanga sadoqat, amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining ongli faol ishtirokchisi bo'lish ruxida fikrlash va yashashga o'rgatishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifalari - tarixiy-madaniy jarayonlarni holisona hamda manbalarga tayangan holda taxlil qilish, ularning sabablari va mohiyatini ochib berish;

- yoshlarimizda o'zini anglash, vatanparvarlik, tarixiy qadriyatlarga xurmat, boy tariximizni qadrlash fazilatlarini shakllantirish;

- mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish, turli soxalardagi islohotlar, jahon hamjamiyatiga integraniyalashuv bilan bog'liq tarixiy jarayonlar, voqea va xodisalarni yoshlar ongiga tarixiy haqiqat tamoyillari asosida etkazish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar:

- fanning predmet, nazariy-metodologik asoslari, manbalari:

- o'zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi, xalqimizning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan xissasi;

- O'zbekiston tarixining asosiy davrlari va taraqqiyoti tadrijiy bosqichlari ularning uzviy bog'liqligi va davomiyligi, tarixiy voqealar vorisiyligi:

- mustamlakachilik va sovet mustabid davrida O'zbekistonning turli soxalari rivojlanishiga qarshi siyosat va ularning ayanchli oqibatlarini;

- turli davrlarda ozodlik yo'lida amalga oshirilgan kurashlar hamda vatanparvarlik jasoratlari;

- O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi, rivojlanishi, yangilanish va modernizatsiya jarayonlari haqida bilimga:

- Vatanimiz tarixi bo'yicha o'z tarixiy tafakkurini boyitib borish va tarixiy haqiqat tamoyillari asosida tarixiy voqealar va jarayonlarni taxlil qila bilish;

- O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi o'choqdarndan biri ekanligini teran xis qila olish;

- ajodlarimiz ibratli hayoti va faoliyati bilan faxrlanish va vatanparvarlikni namoyon eta olish

ko'nikmalariga,

- tarixiy voqea va xodisalar natijalarini qiyosiy taqqoslash orqali ulardan xulosalar chiqarish;
- jamiyat taraqqiyotida o'zining tutgan o'rnini anglay bilish, xis etish va faol ishtirok etish;
- tarixiy voqealar va xodisalarga nisbatan o'z nuqtai nazariga, mustaqil fikriga va munosabat bildirish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Ma'ruza mavzulari

T/r	Mashg'ulot turi	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1.	Ma'ruza	Kirish. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati	2
2.	Ma'ruza	Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi	2
3.	Ma'ruza	O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari.	2
4.	Ma'ruza	Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot.	2
5.	Ma'ruza	IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi.	2
6.	Ma'ruza	Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi - mard va jasur ajdodimiz.	2
7.	Ma'ruza	Amir Temur va Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot.	2
8.	Ma'ruza	O'rta Osiyo hudullarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.	2
9.	Ma'ruza	O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari. Jadidchilik.	2
10.	Ma'ruza	Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati (1917-1989 yy.)	2
11.	Ma'ruza	O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida (1989-1991 yy.)	2
12.	Ma'ruza	O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish	2
13.	Ma'ruza	Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.	2
Jami:			26

MA'RUZA MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISH UCHUN MAVZULAR BO'YICHA QUYIDAGI
REJALAR TAVSIYA ETILADI

1-mavzu. Kirish. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.

Reja:

1. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, tadqiqot obyekti, nazariy metodologik tamoyillari.
2. O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni.
3. O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari.
4. Har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda O'zbekiston tarixi fanining o'rni.

2-mavzu. Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi.

Reja:

1. O'rta Osiyo dunyoning ilk sivilizatsiya markazlaridan biri sifatida.
2. O'zbekiston hududida tosh davri moddiy madaniyati.
3. O'zbekiston hududida eneolit, bronza va ilk temir davri.
4. Antropogenez jarayonlari.

3-mavzu. O'zbekiston hududida davlatchilikning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.

Reja:

2. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari va omillari. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Sug'diyona.
2. O'rta Osiyo Axmoniyalar va yunon-makedon hukmronligi davrida.
3. Salavkiylar, Yunon Baqtriya, Qang', Xorazm va Dovon davlatlari.
4. Kushon davlati davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

4-mavzu. Ilk o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot.

Reja:

1. Xioniyalar, Kidariylar, Eftaliylar va Turk xoqonligi hukmronligi davrida ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy hayot.
2. Arab xalifaligining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari.
3. Xalifalikka qarshi xalq qo'zgonlari.
4. Islom dinining yoyilishi (Qur'oni-karim, hadislar va ularning mohiyati).

5-mavzu. IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot.

Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi.

Reja:

3. IX-XII asrlarda Movarounnahrda Toxiriylar, Somoniylar hukmronligi
4. Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
2. O'rta Osiyoda «Uyg'onish davri» va bu davrda yashab ijod qilgan qomusiy olimlar.
4. IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik.

6-mavzu. Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi - mard va jasur ajdodimiz.

Reja:

1. Mog'ullar davlatining tashkil topishi va O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari.
2. Jaloliddin Manguberding mo'g'ullarga qarshi olib brogan vatanparvarlik jasoratlari.
3. O'lkada mo'g'ullar hukmronligining o'rnatilishi va uning oqibatlari.
4. Chig'otoy ulusi.

7-mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Reja:

1. XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatga asos solinishi.
3. Amir Temurning harbiy yurishlari.
4. Temuriylar davlati.
5. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat.

8-mavzu. O'rta Osiyo hudullarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.

Reja:

4. Buxoro xonligi (Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri).
5. O'rta Osiyoda Buxoro amirligi.
6. Xiva va Qo'qon xonliklarining tashkil topishi.
4. Xonliklarning hududi, aholisi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti.

9-mavzu. O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari. Jadidchilik.

Reja:

2. XVI-XIX asrlarda O'zbek xonliklarining Rossiya imperiyasi bilan savdo-elchilik aloqalari.
2. O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi.
3. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati va unga qarshi milliy ozodlik harakatlari.
5. Turkiston o'lkasida jadidchilik harakati.

10-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tadbirlarining mustamlakachilik mohiyati (1917-1989 yy.)

Reja:

1. Rossiya imperiyasidagi 1917 yilgi inqiloblar va Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi.
2. Turkiston Muxtoriyatining qulatilishi va sovet hokimiyatiga qarshi istiqloqlilik harakatlari.
3. O'rta Osiyodagi milliy-hududiy chegaralash va O'zSSR ning tashkil topishi.
4. Sovet hukumatining qatag'onlik siyosati va uning oqibatlari.
5. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston.
6. 50-80-yillarda O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy hayot.

11-mavzu. O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida (1989-1991 yy.)

Reja:

1. I.A.Karimovning O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo'mitasi birinchi kotibi etib saylanishi.
2. «Qayta qurish»ning barham topishi va tarixiy adolatning tiklanishi. «Davlat tili haqida»gi Qonun.
3. Birinchi Prezident I.A.Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asarida sovet davrining so'ngi yillari inqirozi masalalarining aks ettirilishi.
4. Mustaqillik Deklaratsiyasi va uning ahamiyati.
5. 1991 yil avgust voqealari. SSSRning tanazzulga yuz tutishi.

12-mavzu. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllantirish

Reja:

1. O'zbekistonning davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. I.A.Karimov - O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti.
2. Mustaqil O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasidagi islohotlar.

3. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomalarining mohiyati.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi" va uning mohiyati.

13-mavzu. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyot. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

Reja:

1. Taraqqiyotning «O'zbek modeli». Iqtisodiy va agrar islohotlar.
2. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik.
3. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi. Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm kabi ma'naviy taxdidlarga qarshi kurashda O'zbekistonning tutgan o'rni.
4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

SEMINAR MAVZULARI

T/r	Mashg'ulot Turi	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1.	Seminar	Markaziy Osiyo - insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri.	2
2.	Seminar	O'zbekiston hududida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bohqichlari (qadimgi davrlardan IX asrgacha).	2
3.	Seminar	Buyuk ipak yo'li va hozirgi zamon.	2
4.	Seminar	IX-XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti.	2
5.	Seminar	IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uyg'onish (renessans) davri: fan va madaniyat ravnaqi.	2
6.	Seminar	Amir Temur va Temuriylar davrida o'zbek davlatchiligi.	2
7.	Seminar	O'zbekiston hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.	2
8.	Seminar	Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati. Milliy ozodlik kurashi. Jadidchilik	2
9.	Seminar	Sovet hokimiyatining o'rnatilishiga qarshi qurolli harakat.	2
10.	Seminar	Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatagonlik siyosati, uning mohiyati va oqibatlari	2
11.	Seminar	Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi.	2
12.	Seminar	Ma'muriy buyruqbozlikning kuchayishi va inqirozi davrida O'zbekiston.	2
13.	Seminar	Mustaqil O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni.	2

14.	Seminar	O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyoti.	2
Jami:			28

1-mavzu. Markaziy Osiyo - insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri

Reja:

1. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, dolzarb muammolari, nazariy metodologik tamoyillari.
2. O'zbekiston qadimgi sivilizatsiya va madaniyat beshigi.
3. Antropogenez jarayoni. Qadimgi odamlarning ilk Paleolitdan to temir davrigacha turmush tarzida ro'y bergan o'zgarishlar.
4. «Avesto»ning inson ma'naviy hayotini shakllantirishdagi o'rni.

2-mavzu. O'zbekiston hududida dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari (qadimgi davrlardan IX asrgacha)

Reja:

1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharontlari va omillari. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va Sugdiyona davlatlari.
3. Axmoniyalar va yunon-makedonlarning O'rta Osiyoni bosib olishi.
4. Salavkiylar, Yunon Baqtriya, Dovon, Xorazm Qang' va Kushon davlatlari.
5. Xioniyalar, Kidariylar, Eftaliylar va Turk xoqonligining vujudga kelishi.

3-mavzu. Buyuk ipak yo'li va hozirgi zamon

Reja:

1. Buyuk ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Amir Temur va temuriylar davrida Buyuk ipak yo'li shuhratining yanada ortishi.
3. XVI asrdan boshlab Buyuk ipak yo'li ahamiyatining pasayishi, uning sabablari
4. Hozirgi davrda Buyuk ipak yo'li an'alarini tiklash va rivojlanish borasidagi xalqaro hamkorlik harakatida O'zbekistonning ishtiroki.

4-mavzu. IX-XII asrlarda O'zbek davlatchiligi. Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot

Reja:

1. Arab xalifaligining O'rta Osiyoga istilochilik yurishlari, xalifalikka qarshi ozodlik harakatlari (Abu Muslim, Gurak, Divashtich va Muqanna qo'zgonlari.)
2. Toxiriylar va Somoniylar davrida Movarounnahr va Xuroson.
3. Qoraxoniylar, G'aznaviylar Saljuqiylar hukmronligi davri.
4. Xorazmshoh-Anushteginiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi.
5. IX-XII asrlarda Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.

5-mavzu. IX-XII asrlarda O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan uygonish (renessans) davri: fan va madaniyat ravnaqi

Reja:

1. «Uygonish davri». IX-XII asrlar O'rta Osiyoda madaniy yuksalish.
2. Qomusiy olimlar va ularning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar (Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al-Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Axmad Yugnakiy, Yusuf Xos Xojib).
3. IX-XII asrlarda islom dini va so'fiylik. Imom Buxoriy. «Jome' as-Sahih».
4. Hadislar tavsifi (Imom Termiziy, Yusuf Xamadoniy, Axmad Yassaviy, Abduholik Gijduvoni, Najmiddin Kubro, Naqshbandiya tariqati).
5. IX-XII asrlarda me'morchilik va san'at.

6-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davrida O'zbek davlatchiligi

Reja:

1. XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. Amir Temur buyuk davlat arbobi, mashxur sarkarda.

3. «Temur tuzuklari» muxim tarixiy manba.
4. Temuriylarning o'zaro kurashlari va markazlashgan davlatining inqirozi.
5. Temur va temuriylar hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat.

7-mavzu .O'zbekiston hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari

Reja:

1. Movarounnahrda Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davri.
2. O'rta Osiyoda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining tashkil topishi.
3. Xonliklarning hududi va aholisi. ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti.
4. O'rta Osiyo xonliklaridagi madaniy hayot.

8-mavzu. Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati. Milliy ozodlik kurashi. Jadidchilik

Reja:

1. XIX asr o'rtalarida O'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy axvoli.
2. O'zbek xonliklarining Rossiya tomonidan bosib olinishi.
3. Rossiya imperiyasini mustamlakachilik siyosati.
4. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatlari.
5. Jadidchilik harakati.
6. Birinchi jahon urushining o'lka hayotiga salbiy ta'siri. 1916 yilgi xalq qo'zg'olonlari.

9-mavzu. Sovet hokimiyatining o'rnatilishiga qarshi qurolli harakat.

Reja:

1. 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobi va uning Turkistonga ta'siri.
2. Turkiston Muxtoriyati. Qo'qon fojeasi.
3. Turkiston ASSR. Harbiy kommunizm siyosati.
4. Sovet hokimiyatiga qarshi istiqloqlilik harakatlari.

10-mavzu. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'onlik siyosati, uning mohiyati va oqibatlari

Reja:

1. Totalitar tuzumning kuchayishi. Ma'muriy-buyrukbozlik boshqaruvi.
2. Milliy kuchlar safining bo'lib tashlanishi.
3. Quloqlashtirish. «Madaniy inqilob».
4. Siyosiy qatog'onlar. Ziyolilarning quvg'in qilinishi.
5. Inson huquqlari va erkinliklarining poymol etilishi.

11-mavzu. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi

Reja:

1. II-jahon urushining boshlanishi, sabablari va xarakteri.
2. O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi. Harbiy va mehnat safarbarligi.
3. Urush yillarida O'zbekiston sanoati. Fan va madaniyat.
4. Frontda o'zbek jangchilarining jasorati.
5. O'zbek xalqining yuksak gumanizmi. O'zbeklarning mudofaa fondiga qo'shgan hissasi.

12-mavzu. Ma'muriy buyruqbozlikning kuchayishi va inqirozi davrida O'zbekiston

Reja:

1. 50-70 yillarda O'zbekistondagi iqtisodiy hayot. Paxta yakkahokimligi.
2. 50-80-yillarda respublikaning madaniy hayoti.
3. 80-yillarning o'rtalaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotdagi inqiroz.
4. «Qayta qurish»ning barham topishi va tarixiy adolatning tiklanishi. Farg'ona fojeasi.

13-mavzu. Mustaqil O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni

Reja:

1. O'zbekistonning davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. I.A.Karimov - O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti.
2. Mustaqil O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasidagi islohotlar.
3. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomalarining mohiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi" va uning mohiyati.

14-mavzu. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyoti.

Reja:

1. Taraqqiyotning «O'zbek modeli». Iqtisodiy va agrar islohotlar.
2. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik.
3. Tinchliksevar mustaqil tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi. Xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm kabi ma'naviy taxdidlarga qarshi kurashda O'zbekistonning tutgan o'rni.
4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabaga mustaqil ishni tayorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarkatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- mustaqil ishlar. keys-stadilar bilan ishlash;
- fanga oid ma'lumotlarni o'rganish, ularni taxlil qilish;
- talabaning o'quv - ilmiy - tatqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

Talaba fandan kafedrada tasdiqlangan mustaqil ta'lim mavzularidan 1tasini tanlaydi. Tanlangan mavzusi bo'yicha 5 ta vazifani bajaradi. Bu vazifalar – mavzusi bo'yicha **adabiyotlar ro'yxati** va shu adabiyotlar asosida **referat, maqola** yozish, **test** tuzishdan iborat.

Eslatma: Mustaqil ta'lim mavzulari va oraliq nazorat topshiriqlari darsiing 1 kunida talabalarga beriladi, bajarish muddati 2 oydan kam bo'lmagan holda o'tkazilish kuni aytiladi va guruh jurnaliga yoziladi. Mustaqil ta'lim mavzulari va oraliq nazorat topshiriqlari 1 ta daftarda jamlangan holda belgilagan kunda yozma va og'zaki shakllarda asditoriyada o'tkazilishi talabalarga e'lon qilinadi.

Mustaqil ishni baholash mezonlari: talabaning fan bo'yicha bajargan mustaqil ishidan olgan bahosi joriy nazorat bahosi tarkibiga singdiriladi.

1. Adabiyotlarni baholashda – talabaning tanlagan mavzusiga oid kerakli adabiyotlarni tanlay olishi (Prezident asarlari, qarorlar, dasturlar, nizomlar, monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar, internet saytlari) va foydalana olishi malakasiga asosiy e'tibor beriladi.

5. Adabiyotlar 10 tadan ko'p bo'lsa va keltirilgan adabiyotlar mavzuga oid bo'lsa va adabiyotlar ro'yxatida Prezident asarlari, qarorlar, dasturlar, nizomlar, monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv

qo'llanmalar, jurnallar, internet saytlari berilgan bo'lsa hamda referat, maqola yozishida, test tuzishda, bitiruv malakaviy ishi rejasini to'g'ri tuzishida foydalana olsa - «a'lo» (5 baho);

6. Adabiyotlar 10 tadan ko'p bo'lsa va keltirilgan adabiyotlar mavzuga oid bo'lsa va adabiyotlar ro'yxatida monografiyalar, risolalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, jurnallar, ommaviy nashrlar berilgan bo'lsa hamda referat, maqola yozishida, test tuzishda, bitiruv malakaviy ishi rejasini to'g'ri tuzishida foydalana olsa– «yaxshi» (4 baho);

7. Adabiyotlar ro'yxati to'liq bo'lsayu, lekin bitta manbadan foydalangan bo'lsa va shu asosda referat, maqola yozgan, test va bitiruv malakaviy ishi rejasini tuzgan bo'lsa – «qoniqarli» (3 baho);

8. Talabaning ishida yuqoridagi aspektlar yetarli bo'lmasa **qoniqarsiz (2 baho)**.

2. Referatni baholashda:

1. Referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan ijodiy fikrlari bo'lsa **5 baho**;

2. Referat mavzusi mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor **4 baho**;

3. Mavzu mohiyati yoritilgan, ammo iqtiboslar berilmagan, ayrim kamchiliklar bo'lsa, **3 baho**;

4. Talabaning ishida yuqoridagi aspektlar yetarli bo'lmasa **qoniqarsiz (2 baho)**.

3. Maqolani baholashda:

1. Mavzuda o'rganilayotgan obekt chuqur tahlil qilinib, asos, gepoteza ilgari surilgan, muammo echimlari ko'rsatilgan bo'lsa **5 baho**;

2. Mavzu tahlil qilingan, muammoni echishga oid taklif berilgan bo'lsa **4 baho**;

3. Mavzuda ilmiy faraz ilgari surilgan bo'lsa **3 baho**;

4. Talabaning ishida yuqoridagi aspektlar yetarli bo'lmasa **qoniqarsiz (2 baho)**.

4. Test savollarini baholashda:

• Tuzilgan savollar mavzu mohiyatini to'liq ochib bergan, muhim qoidalar, g'oyalar, qonuniyatlar to'g'ri bayon qilingan bo'lsa **5 baho**;

• Savollar to'g'ri tuzilgan, lekin ayrim kamchiliklar bo'lsa **4 baho**;

• Tuzilgan savollar umumiy va g'alizliklar bo'lsa **3 baho**;

• Talabaning ishida yuqoridagi aspektlar yetarli bo'lmasa **qoniqarsiz (2 baho)**.

V a z i f a l a r				
1	2	3	4	5
Adabiyo tlar ro'yxati	Referat yozish (8 bet)	Maqola yozish (3 bet)	Test tuzush (20 ta)	Mavzu bo'yicha yangi ma'lumotlar to'plash

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

116. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida tarix fanini rivojlantirish borasida bayon qilingan konseptual g'oyalarning ahamiyati.
117. «Avesto» - tarixiy manba sifatida.
118. O'zbekistonda dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari.
119. Imom Al-Buxoriyning «Jome' as-Sahih» asari - islom dinining muxim tarixiy manbasi.
120. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari - tarixiy manba sifatida.
121. O'rta Osiyolik allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.
122. "Temur tuzuklari" - davlat boshqaruvi to'g'risidagi muxim manba sifatida.
123. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat.
124. Jaloliddin Manguberding Vatan himoyasi yo'lidagi jasorati.
125. Alisher Navoiy davlat arbobi va shoir sifatida.
126. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot.
127. Turkiston jadidlari ilgari surgan g'oyalar, ma'rifiy qarashlar va ularning mazmun-mohiyati.
128. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi.
129. O'zbekistonda 50-70 yillarda paxta yakkahokimligining kuchayishi va ekologik muammolarning kelib chiqishi.
130. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida.
131. Komil inson tarbiyasida tarixning o'rni.
132. O'zbekiston tarixini o'rganishda manbalarning o'rni.
133. Jahon taraqqiyoti tarixida O'rta Osiyo sivilizatsiyasining o'rni.
134. Ibtidoiy davr madaniyati va tasviriy san'at.
135. Avesto-Vatanimiz tarixini o'rganishda muhim manba
136. Ahamoniy istilochilarining O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari, Shiroq jasorati
137. Yunon-makedon istilochilarining O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari, Spitamen qo'zg'oloni
138. Antik davr davlatlari (Yunon-Baqtriya, Qang', Dovon davlatlari, Kushon podsholigi)
139. Buyuk ipak yo'li va uning O'rta Osiyo xalqlari hayotida tutgan o'rni
140. Xioniylar va kidariylar, eftallar davrida O'rta Osiyo.
141. Turk hoqonligi
142. Mahalliy davlat uyushmalari (Farg'ona, Xorazm, Choch va Eloq, Sug'd, Tohariston)
143. Temuriylar davlati inqirozi va uning oqibatlari.
144. O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishini.
145. Arablarning Movarounnahrda mustamlakachilik siyosati va unga qarshi xalq harakatlari.
146. Islom dini va uning sharq xalqlari hayotidagi o'rni.
147. Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar davlatlarining vujudga kelishi
148. Sharq mutafakkirlari va allomalarning jahon ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar.
149. Islom madaniyati. hadislar va tasavvuf ilmi.
150. Mo'g'ul davlatining tashkil topishi va istilochilik yurishlari.
151. Mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashda Jaloliddin Manguberdi jasorati
152. Chig'atoy ulusining tashkil topishi, ulusda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.
153. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni va uning yakuni
154. Amir Temur markazlashgan davlat asoschisi.
155. «Temur tuzuklari» - va uning mazmun-mohiyati.
156. Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyat ravnaqi
157. Amir Temur va hozirgi zamon.
158. Mustaqillik yillarida Amir Temur siymosining qayta tiklanishi
159. Mirzo Ulug'bek – davlat arbobi va olim
160. Zahiriddin Muhammad Bobur – mohir sarkarda va shoir
161. Dashti Qipchoqda shayboniylar davlatining tashkil topishi.
162. Shayboniylar tomonidan Movarounnahrning zabt etilishi.
163. Shayboniylar davrida Buxoro xonligi
164. Ashtarxoniylar davrida O'rta Osiyo.

165. Xiva xonligi va uning ijtimoiy siyosiy tuzumi.
166. Qo'qon xonligi va uning ijtimoiy siyosiy tuzumi.
167. Buxoro amirligi va uning ijtimoiy siyosiy tuzumi.
168. Toshkent hokimligi.
169. Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olishi
170. Rossiya imperiyasi mustamlakachilariga qarshi mahalliy xalqlarning qahramonona kurashi. Jasorat va xiyonat.
171. Rossiya imperiyasi Turkistonda boshqaruv siyosati.
172. Rossiya imperiyasi Turkistonda ruslashtirish siyosati.
173. Rossiya imperiyasining mustamlaka zulmiga qarshi mahalliy xalq noroziligining kuchayishi.
174. «Tosh otar» voqeasi yohud «Vabo» isyoni.
175. Andijonda Dukchi Eshon qo'zg'oloni va uning yakunlari.
176. Turkiston o'lkasida milliy ozodlik harakatlari: Samarqand qo'zg'oloni, Qurbonjon dodhoh, Yetimxon, Yoqubbek harakatlari.
177. Jadidchilik harakati va uning mohiyati.
178. Yosh buxoroliklar va Yosh xivaliklar partiyalari.
179. 1917 yil fevral va oktyabr oralig'ida Turkiston.
180. 20-30-yillardagi siyosiy qatag'onliklar.
181. Milliy ziyolilarning qatag'on qilinishi.
182. Sovet davrida O'zbekistonning iqtisodiyoti va uning markazga qaramligi.
183. Sovet davrida O'zbekiston madaniyati va uning ma'naviy qashshoqligi.
184. «Dashnoqsyuntchilar» va ularning Turkistondagi faoliyati.
185. Oktyabr (1917 y.) to'ntarishi, Turkistonda sovetlar hokimiyatining zo'rlik bilan o'rnatilishi.
186. Turkiston muxtoriyatining tashkil topishi va uning boshqaruv tizimi.
187. Turkiston muxtoriyatining faoliyati va unga bolsheviklar hokimiyatining munosabati , mahalliy holining qo'llab quvvatlashi.
188. Milliy Ozodlik kurashining etakchilari: Kichik va Katta Ergash faoliyati.
189. Madaminbek hayoti va faoliyati.
190. Shermuhammadbekning hayoti va faoliyati.
191. O'rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanishning o'tkazilishi sabab va oqibatlari.
192. O'zbekiston SSRni tashkil etish jarayoni.
193. O'zbekistonda sanoatlashtirish siyosati va uning mustamlachilik mohiyati.
194. Turkistondagi 1921-1922 yillardagi er – suv islohati mazmun va mohiyati.
195. 1925-1929 yillardagi er- suv islohati mazmun mohiyati.
196. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish jarayoni.
197. Qishloq aholisiga nisbatan qatag'onlik siyosati (1929-1930 yillar).
198. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar (20-30 – yillarda).
199. 30-yillarda ta'lim, fan va madaniyat.
200. 20-30 yillarda O'zbekistonning halqaro aloqalari
201. O'zbekistonliklarning front ortidagi jasorati.
202. O'zbekistonliklarning urush jangohlaridagi jasorati.
203. Qoraqolpog'iston ASSR urush yillarida, qoraqolpog'larning safarbar etilishi.
204. XX 40-yillar 2-yarmida 50-yillar boshida siyosiy qatag'onlar va uning oqibatlari
205. Paxta yakka hokimligi va uning oqibatlari.
206. Orol muammosi va uning globallasuvi.
207. Orol bo'yida ekologik yaxshilash yuzasidan O'zbekistonning pozitsiyasi.
208. Qayta qurush yillarida O'zbekiston.
209. 80-yillarda O'zbekistonda fan va madaniyat.
210. 80- yillar oxirida O'zbekistonda millatlararo munosabatlar.
211. «Paxta ishi», «O'zbeklar» ishi va uning oqibatlari
212. Sho'ro tuzumi inqirozining muqarrarligi, mustaqillik sari yo'l.
213. O'zbek xalqining davlat mustaqilligini ko'lga kiritishi va uning tarixiy ahamiyati

214. O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari
215. Taraqqiyotning «O'zbek modeli» va uning o'ziga xos xususiyatlari
216. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda siyosiy islohotlar
217. Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti
218. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti
219. «Yoshlarga oid davlat siyosati» va uning ahamiyati
220. Mamlakatimizda yillarga berilayotgan nomlar va ularning ahamiyati
221. O'zbekiston va jahon hamjamiyati
222. Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm, unga qarshi kurashda O'zbekistonning o'rni.
223. I.A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asari O'zbekiston tarixining dolzarb muammolarni o'rganishda muhim qo'llanma.
224. I.A. Karimovning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» asari.
225. I.A. Karimovning «Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir» asari mazmun mohiyati.
226. I.A. Karimovning «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asari mazmun mohiyati.
227. Sh.M. Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., O'zbekiston, 2017 yil.
228. «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha «Harakatlar strategiyasi».
229. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi va uning mohiyati.
230. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi va uning ahamiyati.

O'QUV YUKLAMA HAJMI

Mutaxassislik	Kurs	Semestr	Umumiy yuklama hajmi	Ma'ruza	Seminar	Mustaqil ta'lim
Bakalavr yo'nalishlari uchun	1	1	78	26	28	24

BAHOLASH TIZIMI

Joriy nazorat 5	Oraliq nazorat 5	Yakuniy nazorat 5
-----------------	------------------	-------------------

ORALIQ NAZORAT MAVZUSI VA MUSTAQIL TA'LIM

O.N (2 marta)	Vaqti	Shakli	Mustaqil ta'lim. 24 soat
1. O'zbekistonning ilk o'rta asrlar davri tarixi, IX-XII asrlar. Mo'g'ullar tomonidan O'rta Osiyo hududlarining bosib olinishi, Amir Temur va temuriylar davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.	__.__.2019	Yozma	1. Adabiyotlar 2. Test tuzish (10 ta) 3. Referat yozish (5 bet) 4. Maqola yozish (2 bet) 5. Mavzu bo'yicha yangi ma'lumotlar to'plash
1. O'tilgan mavzular bo'yicha umumiy savol javob	__.__.2020	Og'zaki	

Joriy nazorat ishini baholash mezonlari

«Qoniqarli» (**3 baho**) - an'anaviy bilim, konsepsiya fikr va muammolarni bilishi va ularni bayon qilish malakasiga ega bo'lishi;

«Yaxshi» (**4 baho**) - turli ziddiyatli qarash va fikrlari qiyosiy tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash mahorati uchun;

«A'lo» (**5 baho**) - asosiy g'oya va konsepsiyalarni tanqidiy tahlil qilish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatini bildirish mahorati uchun.

«O'zbekiston tarixi» fanini o'zlashtirgan talaba O'zbekiston tarixi fanining umumnazariy masalalarini o'zlashtirishi va ular bo'yicha mustaqil fikrlash mahoratga ega bo'lishi mumkin.

Eslatma: tahlil etilishi mo'ljallangan adabiyotlarga individual yondashuv belgilanib u qo'yilgan maqsadning keng qamrovligi va aniqligi bilan belgilanadi.

Oraliq nazorat ishini baholash mezonlari

«Qoniqarli» (**3 baho**) - an'anaviy bilim, konsepsiya fikr va muammolarni bilishi va ularni bayon qilish malakasiga ega bo'lishi;

«Yaxshi» (**4 baho**) - turli ziddiyatli qarash va fikrlari qiyosiy tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash mahorati uchun;

«A'lo» (**5 baho**) - asosiy g'oya va konsepsiyalarni tanqidiy tahlil qilish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatini bildirish mahorati uchun.

Eslatma:

1. Tahlil etilishi mo'ljallangan adabiyotlarga individual yondoshilib, u qo'yilgan maqsadning keng qamrovligi va aniqligi bilan belgilanadi.

2. Oraliq nazorat ishlari kafedra va o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan kelishilgan xolda tuzilgan jadval asosida yozma, og'zaki yoki test usulida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat ishlarini baholash mezonlari

5 baho bilan baholanadi:

- Talaba O'zbekiston tarixi fani bo'yicha mustaqil mushohada yuritsa;
- fanning qonuniyatlari, kategoriyalari va metodologiyasining mohiyati va mazmunini tushunsa;

- O'zbekiston tarixi faniga doir aniq tasavvurga ega bo'lsa, ularni jamiyat va inson faoliyatiga oid misollar orqali ifodalab bersa, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olsa;
- o'tilgan mavzular bo'yicha xulosa va qarorlar qabul qilsa;
- ijodiy fikrlasa, tanqidiy munosabatlar bildirsa, o'z fikrini erkin bayon etsa;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil topshiriqlarni o'z vaqtida bajarsa va to'plagan ma'lumotlarida birinchi manbalarga murojaat etgan bo'lsa

4-baho bilan baholanadi:

- talaba O'zbekiston tarixi fani bo'yicha mustaqil fikrlay olsa, bildirilgan fikrlarini anglay olsa;
- fanning muhim mezoniy tushunchalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lsa, uni bilsa va tushuntirib bera olsa;
- ma'ruza, seminar va mustaqil ish uchun berilgan topshiriqlarni bajarsa.

3-baho bilan baholanadi:

- fanning asosiy mezoniy tushunchalari va tamoyillarini tushunsa va aytib bersa;
- ma'ruza, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ishlarni yozgan va bajargan bo'lsa;
- mashg'ulotlarda o'z mulohazasi bilan ishtirok etib tursa.

2-baho bilan baholanadi:

- fan va qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lmasa, ularning mohiyatini tushunmasa;
- JN va ON larni topshira olmagan bo'lsa;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil topshiriqlarni yozmagan va bajarmagan bo'lsa;
- darslarni sababsiz qoldirgan bo'lsa;
- darsda faol bo'lmasdan va intizomsizlik qilsa.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov. I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: Sparq, 1998.
2. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008.
3. Karimov. I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston, 2011.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutk. T.: «O'zbekiston» 2016.
5. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, kat'iy-tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yunalishlariga bag'ishlangan Vazirlar maxkamasning kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. G.: «O'zbekiston» 2017.
6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
7. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
8. 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi va uning mohiyati. Xalq so'zi. 2018 yil 29 dekabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusi va uning ahamiyati.

Asosiy adabiyotlar

1. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Darslik. - T.: Yangi asr avlodi, 2005 (lotin alifbosida).
2. Murtazaeva R.X. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. - T.; Akademiya, 2010.
3. Sodiqov H, Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi (Turkiston chorizm mustamlakachiligi davrida). 1-kitob. Sharq. T., 2011.
4. Jo'rayev N. O'zbekiston tarixi. 1-2-3 kitob. Sharq. T., 2011.
5. Oblomurodov N, Hazratqulov A, Tolipov F, Tursunov N. O'zbekiston tarixi. O'quv qo'llanma. Fan va texnologiya. T., 2011.
6. Eshov B.J. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Darslik, T.: Yangi asravlodi, 2012.
7. Eshov B., Odilov A. O'zbekiston tarixi. I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha. Darslik. - T.: Yangi asr avlodi, 2014.
8. O'zbekiston tarixi. Darslik II jild. Mualliflar jamoasi. - T.: Yangi asr avlodi, 2015.
9. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., Sharq. 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T., O'zbekiston, 2015.
2. «Avesto». «Yasht» kitobi. O'zbek tiliga M.Isxokov ilmiy-izoxli tarjimalari. G.: Sharq, 2001.
3. A'zamxujayev S. Turkiston muxtoriyati. - T.: Ma'naviyat, 2000.
4. Buniyotov 3. Anushtegin Xorazmshoxlar davlati (1097-1231). T.: G'afur G'ulom, 1998.
5. Bobobekov X.I. Qo'qon tarixi. - T.: Fan. 1996.
6. Ziyov X- O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlar tarixi. T.: Sharq. 2001.
7. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. T.: O'zbekiston, 2001.
8. Mirzo Ulugbek. To'rt ulus tarixi. - T.: Cho'lpon. 1994.
9. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. T.: Fan, 1996.
10. Murtazaeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. o'quv qo'llanma. T.: Universitet. 2007.
11. Nizomul mulk. Siyosatnoma. - T.: Adolat, 1997.
12. Sa'dullaev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. O'quv qo'llanma. T.: Universitet, 2004.
13. Temur tuzuklari. T.: Sharq, 2012.

14. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. T.: qomus.tar bosh taxririya. 1996.
15. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. 1.: Fan. 2001.
16. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. G.: O‘zbekistan. 1996.
17. Yunusova X.E. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va ma’naviy jarayonlar (XX asr 80-yillari misolida). - T.: Abu matbuoi-konsalt, 2009.
18. Sharofuddin Ali YAzdiy. Zafarnoma. - T.: Sharq. 1997.
19. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent islom universiteti. T., 2013.

Internet saytlari

1. “Xalq so‘zi» gazetasi - [www info XS. Uz](http://www.infoXS.Uz).
2. “Turkiston” gazetasi [www turkiston sarkor. uz](http://www.turkiston.sarkor.uz).
3. “Ma’rifat» jurnali [www ma'rifat - inform](http://www.ma'rifat - inform).
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali [www rzult academy freenet uz](http://www.rzult.academy.freenet.uz).
5. “Moziydan sado” jurnali [www moziy dostlik](http://www.moziy.dostlik).
6. [www. ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz).

TESTLAR

№1 Fan bobini - 18; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi-2 ;

XV asrda Samarqandda bunyod etilgan madrasani ko'rsating.
Ulug'bek
Tillakori
Shayboniyxon
Muhammad Amin

№2 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;

Eng qadimgi odam vakillarining izlari O'zbekistonning qaysi hududlaridan topilgan?
Farg'ona, Toshkent
Farg'ona, Qashqadaryo
Surxondaryo, Xorazm
Toshkent, Surxondaryo

№3 Fan bobini - 9; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;

Kushon davlati mavjud bo'lgan davrni ko'rsating.
I-IV asrlar
m. av.III-II asrlar
I-III asrlar
II-V asrlar

№4 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 3;

Ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy belgilarini ko'rsating.
Urug'chilik tuzumi, xo'jalik va ehtiqoddagi umumiylik
Natural xo'jalik, shaharlar, savdo-sotiq
Urug'-qabila tuzumi, hunarmandchilik, dastlabki davlatlar
Umumiy diniy ehtiqodlar, hunarmandchilik va yozuv

№5 Fan bobini - 16; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 2;

Temuriylar davrida viloyatlardan qo'shin to'plash bilan kim shug'ullangan?
O'taliq
Xon yasovuli
Ko'kaldosh
Tavochi

№6 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 2;

Buxoroda ko'tarilgan Abruy boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirish uchun yuborilgan sarkardani aniqlang.
SHeri Kishvar
Tunyabg'u Bahodir
Qorachurin Turk
Bug'roxon

№7 Fan bobini - 5; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;

Baqtriya hududida Dargit, Artamis, Zariasp kabi daryolar oqib o'tishi to'g'risida ma'lumot bergan shaxsni aniqlang.
Klavdiy Ptolemey
Plutarx
Kvint Kurtsiy Ruf
Arrian

№8 Fan bobini - 1; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 1;

Ilk o'rta asrlarda axolining mutlaqo yersiz qatlamini aniqlang.
Kadivarlar
CHorikorlar
Kashovarlar
G'uvokorlar

№9 Fan bobini - 6; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 2;

O'rta Osiyoda pishiq g'ishtdan maqbaralar bunyod etish qaysi davrda boshlangan edi?
Rivojlangan o'rta asrlarda
Ilk temir davrida
Antik davrda
Bronza davrida

№10 Fan bobini - 7; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 3;

Somoniylarning xalifalik oldidagi qaysi xizmatlari inobatga olinib, Movarounnahr kelajak taqdiri mahalliy mulkdorlar vakillari qo'liga o'tishiga yo'l ochildi?
Somonxudot nabiralari Nuh, Ahmad va Yahyolarning Xuroson noibi Mahmuniytilmosiga ko'ra Rofeh ibn Lays qo'zgonini bostirishda unga yordam berganliklari
Somoniylarning Tohiriy Abul Abbas Abdulloh noibli davrida unga ko'rsatgan xizmatlari
Somoniylarning sayyid avlodlari bilan qon-qarindoshlik iplarini bog'laganliklari sababli
Somoniylarning arab lashkarboshisi Said Xaroshiyga Muqanna qo'zgonini bostirishda ko'rsatgan beminnat xizmatlari tufayli

№11 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 2;

Ilk o'rta asrlarda qaysi shaharda eng kam budda ibodatxonalari bo'lganligini aniqlang.
Qabodiyon
Quva
Termiz
Balx

№12 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 1;

Tarixiy atama sanaluvchi «atrabon»ning mohiyatini aniqlang.
Olovxona xizmatchisi
Maxsus xilxona
Ibodatxona koxini
Maxsus olovxona

№13 Fan bobini - 1; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 1;

Xorazmning poytaxtini Kat shahriga ko'chirgan hukmdorni aniqlang.
Afrig'
SHopur II
Farasman
Grumbat

№14 Fan bobini - 6; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 1;

Gerodot mahlumotiga ko'ra, massagetlar o'z tangrilariga nimani qurbonlik qilishgan?
Otlarini
Tuyalarini
Tung'ich farzandlarini
Qiz farzandlarini

№15 Fan bobini - 6; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 1;

«Xshatra» atamasi qaysi so'zdan kelib chiqqan?
«viloyat»
«boshqaruv»
«mamlakat»
«tuman»

№16 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;

O'rta Osiyoda ko'p xonali uy-joylar qachon paydo bo'lganligini aniqlang.
Eneolit davrida
Mezolit davrida
Neolit davrida
Bronza davrida

№17 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 2;

Tunyabg'u G'arbiy Turk hoqonligida nechanchi yillarda hukmronlik qilganligini aniqlang.
618-630 yillar
619-662 yillar
618-629 yillar
617-629 yillar

№18 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 3;

Mil.avv. II ming yillikda Bobil podsholigi paydo bo'lgan vaqtda O'rta Osiyoda qanday tarixiy jarayonlar yuz berdi?
Sopollitepa, Jarqo'ton kabi yirik manzilgohlar paydo bo'ldi
Burg'uluq madaniyati paydo buldi
Ona urug'i vujudga keldi
Dehqonchilik va chorvachilik vujudga keldi

№19 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;

Quyidagi yodgorliklardan mil. avv. X-VIII asrlarga oidini aniqlang.
Tagisken
Dalvarzintepa
CHilduxtaron
Sopollitepa

№20 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 2;

Nima sababdan o'z hukmronligining dastlabki davrida eftaliylar ichki va tashqi savdoda sosoniy hukmdorlarning kumush tangalaridan keng foydalanganlar?
CHunki bu davrda sosoniylar to'lagan o'lponlar va yillik bojlar hisobidan eftaliylar davlat xazinasida Eronning juda katta miqdordagi kumush dirhamlari to'planib qolgan edi
Xitoy,Hindiston,Vizantiya singari davlatlar faqat sosoniy tangalarini tan olardilar
CHunki dastlabki davrda eftaliylar sosoniylarga tobeh edilar
Buyuk Ipak yuli savdosida muomalada faqat sosoniy tangalari yurardi

№21 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 1;

Ilk o'rta asrlarda Toshkent vohasi va Janubiy Qozog'iston yerlarining bir qismini suv bilan tahminlagan sug'orish tarmoqlarini aniqlang.
Zog'ariq va Buzsuv
Darg'om va Sultonband
CHirchiq va Norin
Xonbandi va SHohrud

№22 Fan bobini -18 ; Fan bo'limi-2; Qiyinlik darajasi- 3;

Adabiyot, ilm-fan va madaniyatga homiylik qilgan hukmdorlarni aniqlang.
1) SHayboniyxon
2) Abdulmo'min
3) Abulg'ozixon
4) Subhonqulixon 5)Abusaid
6)Tugluq Temur
7) Abdullaxon II
8) Ubaydullaxon
1,3,4,7,8
1,5,6,7
2,3,6,7,8
3,5,6,7,8

№23 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;

Quyidagi bronza davri yodgorliklaridan Surxondaryo viloyati hududida joylashganini aniqlang.

Bo'yrachi
Arpa
Burg'uluq
Ashqoltepa
№24 Fan bobini - 5; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
O'zbekistondagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lgan Afrosiyob qachon bunyod etilgan?
Mil. avv. VIII-VII asrlarda
Mil. avv. IX-VIII asrlarda
Mil. avv. IV-II asrlarda
Mil. avv. VI-V asrlarda
№25 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Quyidagilardan so'nggi paleolit davriga oid madaniyatni aniqlang.
Solyutre
SHellg'
Olduvay
Mustg'e
№26 Fan bobini - 1; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 3;
Ilk o'rta asrlar davriga xos tarixiy jarayon qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
"Kadivarlar" katta yerga ega bo'lgan dexqonlarning ekinzorlarida ishlagan
"Barzikor" va "korandalar" aristokratik qatlam bo'lgan va ularning katta ekinzorlari bo'lgan
"Kadivarlar" boy qatlam bo'lib, ularning yerlarida chorikor va korandalar ishlagan
"Dehqonlar" bilan "kadivarlar"ning mavqei bir xil bo'lib, ular qullar va batraklarga ega edilar
№27 Fan bobini - 4; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 2;
Arablar majusiylardan qanday soliq olishgan?
Jon solig'i- "Jizg'ya
To'rtidan bir hissaga qadar xiroj
Qirqdan bir hissa zakot
Yo'l va savdo-sotiq solig'i
№28 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 2; Qiyinlik darajasi- 2;
Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyodan Xitoyga keltirilib, imperatorlar saroyini bezashda keng qo'llanilgan ashyoni aniqlang.
Rangli shisha
Olmos
Marmar
Ganch
№29 Fan bobini - 4; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Zardushtiylik tahlilotiga ko'ra, Axuramazda va Axriman nimadan yaralgan?
Ular nurdan yaralgan
Ular chaqmoqdan yaralgan
Ular azaldan mavjud bo'lgan
Axuramazda yorug'likdan, Axriman zulmatdan yaralgan
№30 Fan bobini - 4; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Quyidagi mahbudlardan qaysi biri jangchi yigit qiyofasida tasvirlangan?
Mitra
Axuramazda
Axriman
Anaxita
№31 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Quyidagi olimlardan qaysi biri qazilmalardan topilgan suyaklar orqali odam qiyofasini

tiklash uslubini ishlab chiqdi?
M.M.Gerasimov
A.P.Okladnikov
M.E.Masson
Ya.G'.G'ulomov
№32 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
O'rta paleolit-mustg'e davri madaniyatiga oid manzilgohni aniqlang.
Teshiktosh makoni
Selungur makoni
Zamonbobo makoni
Qo'yqirilganqalha makoni
№33 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy belgilarini ko'rsating.
Urug'chilik tuzumi, xo'jalik va ehtiқoddagi umumiylik
Urug'-qabila tuzumi, hunarmandchilik, dastlabki davlatlar
Natural xo'jalik, shaharlar, savdo-sotiq
Umumiy diniy ehtiқodlar, hunarmandchilik va yozuv
№34 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
O'rta Osiyoda o'rta tosh davri-mezolitning xronologik chegarasini aniqlang.
Mil.avv. XII-VII ming yilliklar
Mil.avv. IX-VIII ming yilliklar
Mil.avv. XII-X ming yilliklar
Mil.avv. IX-VII ming yilliklar
№35 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Tarixning qaysi davrida to'qimachilik paydo bo'lgan?
Yangi tosh asrida
O'rta tosh asrida
Mis- tosh asrida
Kadimgi tosh asrida
№36 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
O'rta Osiyo hududida chorvachilik...
dehqonchilik bilan bir vaqtda paydo bo'lgan
dehqonchilikdan oldin paydo bo'lgan
baliqchilikdan sal oldinroq paydo bo'lgan
o'q-yoy ishlatiladigan ovchilik bilan bir vaqtda paydo bo'lgan
№37 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2 ;
Qadimgi Xorazm, Amudaryoning quyi havzasidan topib o'rganilgan neolit davri madaniyatini aniqlang.
Kaltaminor
Sarazm
Ko'lbuloq
Zamonbobo
№38 Fan bobini - 3; Fan bo'limi-1; Qiyinlik darajasi- 3;
O'rta Osiyoda eng qadimgi temir buyumlar dastlab qaysi manzilgohlardan topib o'rganilgan?
Dalvarzin, Yakka Parson, Anov
Anov, Qiziltepa, Daratepa
Sopollitepa, Daratepa, Anov
Dalvarzin, Qiziltepa, Tagisken
№39 Fan bobini - 2 ; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;

O'rta Osiyoda qadimgi sunhiy sug'orish Yevropadagi sunhiy sug'orishdan qanday farqlanadi?
Yevropada dehkonzilik sunhiy sug'orishga asoslanmagan edi
Yevropada aholi ko'p bo'lib sunhiy sug'orish inshootlari qisqa muddatda barpo etilardi
Sug'orishning bunday usuli O'rta Osiyoda ko'proq mehnattalab bo'lgan
O'rta Osiyoda sunhiy sug'orish inshootlari faqat dehkonzlar tomonidan barpo etilgan
№40 Fan bobini -6; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
"Ularning xudosi quyosh bo'lib, unga ot so'yib qurbon kiladilar". Ushbu so'zlar qaysi yunon tarixchisiga tegishli?
Gerodot
Strabon
Arrian
Ptolemey
№41 Fan bobini - 3; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Quyidagi turarjoylarning qaysi biri shahar ko'rinishiga ega bo'lgan?
Jarqo'ton
Zamonbobo
Sopollitepa
Sarazm
№42 Fan bobini - 5; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
O'zbekistonning mil. avv. VII –VI asrlarda tashkil topgan eng qadimgi davlat birlashmalarini ko'rsating.
Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya
Sug'd va Parkana
Qadimgi Xorazm va Sug'd
Qadimgi SHosh va Parkana
№43 Fan bobini - 5; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Mahlumki, mil. avv. VII –IV asrlarda O'zbekiston hududida turli xalqlar yashagan edilar. Javoblarning qaysi birida shu hududda yashamagan xalq ko'rsatilgan?
Parfiyaliklar
Baqtriyaliklar
Sug'diylar
Xorazmiylar
№44 Fan bobini - 2; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Sopol buyumlar yasash qachon paydo bo'lgan?
Neolit
Paleolit
Bronza
Temir
№45 Fan bobini - 6; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
O'rta Osiyoda ahamoniylar sulolasi hukmronlik qila boshlagan davrni belgilang.
Mil.avv. 530 yildan
Mil.avv. 522 yildan
Mil.avv. 518 yildan
Mil.avv. 524 yildan
№46 Fan bobini - 6; Fan bo'limi- 1; Qiyinlik darajasi- 2;
Mil.av. 519 yilda Doro I...
Sakatigraxauda
lar ustiga qo'shin tortadi

BAHOLASH MEZONI

Joriy nazorat ishini baholash mezonlari

«Qoniqarli» (3 b.) - an'anaviy bilim, konsepsiya fikr va muammolarni bilishi va ularni bayon qilish malakasiga ega bo'lishi;

«Yaxshi» (4 b.) - turli ziddiyatli qarash va fikrlari qiyosiy tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash mahorati uchun;

«A'lo» (5 b.) - asosiy g'oya va konsepsiyalarni tanqidiy tahlil qilish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatini bildirish mahorati uchun.

«Tarixshunoslik» fanini o'zlashtirgan talaba O'zbekiston tarixi fanining umumnazariy masalalarini o'zlashtirishi va ular bo'yicha mustaqil fikrlash mahoratga ega bo'lishi mumkin.

Eslatma: tahlil etilishi mo'ljallangan adabiyotlarga individual yondashuv belgilanib u qo'yilgan maqsadning keng qamrovligi va aniqligi bilan belgilanadi.

Oraliq nazorat ishini baholash mezonlari

«Qoniqarli» (3 b.) - an'anaviy bilim konsepsiyalari va u larni bayon qilish mahorati uchun;

«Yaxshi» (4 b.) - turli ziddiyatli qarash va fikrlari qiyosiy tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash mahorati uchun;

«A'lo» (5 b.) - asosiy g'oya va konsepsiyalarni tanqidiy tahlil qilish va ularga nisbatan shaxsiy munosabatini bildirish mahorati uchun.

Eslatma:

3. Tahlil etilishi mo'ljallangan adabiyotlarga individual yondoshilib, u qo'yilgan maqsadning keng qamrovligi va aniqligi bilan belgilanadi.

4. Oraliq nazorat ishlari o'qituvchi va talabalarning xohishi asosida yozma, og'zaki yoki test nazorati usulida o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy nazorat ishlarini baholash mezonlari

5 baho bilan baholanadi:

- Talaba O'zbekiston tarixi fani bo'yicha mustaqil mushohada yuritsa;
- fanning qonuniyatlari, kategoriyalari va metodologiyasining mohiyati va mazmunini tushunsa;
- O'zbekiston tarixi faniga doir aniq tasavvurga ega bo'lsa, ularni jamiyat va inson faoliyatiga oid misollar orqali ifodalab bersa, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olsa;
- o'tilgan mavzular bo'yicha xulosa va qarorlar kabul qilsa;
- ijodiy fikrlasa, tanqidiy munosabatlar bildirsa, o'z fikrini erkin bayon etsa;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil topshiriqlarni o'z vaqtida bajarsa va to'plagan ma'lumotlarida birinchi manbalarga murojaat etgan bo'lsa

4 baho bilan baholanadi:

- talaba O'zbekiston tarixi fani bo'yicha mustaqil fikrlay olsa, bildirilgan fikrlarini anglay olsa;
- fanning muhim mezoniy tushunchalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lsa, uni bilsa va tushuntirib bera olsa;
- ma'ruza, seminar va mustaqil ish uchun berilgan topshiriqlarni bajarsa.

3 baho bilan baholanadi:

- fanning asosiy mezoniy tushunchalari va tamoyillarini tushunsa va aytib bersa;
- ma'ruza, seminar mashg'ulotlari va mustaqil ishlarni yozgan va bajargan bo'lsa;
- mashg'ulotlarda o'z mulohazasi bilan ishtirok etib tursa.

0- 2 baho bilan baholanadi:

- fan va qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo'lmasa, ularning mohiyatini tushunmasa;
- JN va ON larni topshira olmagan bo'lsa;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil topshiriqlarni yozmagan va bajarmagan bo'lsa;
- darslarni sababsiz qoldirgan bo'lsa;
- darsda faol bo'lmasdan va intizomsizlik qilsa.

